

**U.NORKULOV, SH.AXMURZAYEV,  
A.SAYIMBETOV**

**DEHQONCHILIK VA MELIORATSIYA  
FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI  
VA AMALIY MASHG'ULOTLAR**



**TOSHKENT**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

U.NORKULOV, SH.AXMURZAYEV, A.SAYIMBETOV

**DEHQONCHILIK VA  
MELIORATSIYA FANIDAN  
LABORATORIYA ISHLARI VA  
AMALIY MASHG'ULOTLAR**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT-2019**

**UO'K: 631.3(076.5)**

**KBK 40.6ya73**

**N 79**

**N 79            U.Nerkulov, Sh.Axmurzayev, A.Sayimbetov. Dehqonchilik va melioratsiya fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. –T.: «Fan va texnologiya», 2019, 272 bet.**

**ISBN 978-9943-6154-3-4**

Ushbu o'quv qo'llanma qishloq xo'jaligi oliv o'quv yurtlarining talabalariga o'tiladigan «Dehqonchilik va melioratsiya fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar» fan dasturlarida keltirilgan mavzular asosida yozilgan. Unda tuproqning strukturasi, suv-fizik xossalari, texnologik xossalarni aniqlash, begona e'rlar va ularga qarshi kurash choralar, qisqa rotatsiyali almashlab ekish sxemalarini ishlab chiqish usullari bayon etilgan. Shuningdek, melioratsiya qismida qishloq xo'jalik ekinlarni sug'orish rejimi, usullari va texnikasi, yerlarning meliorativ holatiga ta'sir qiluvchi omillar, tuzlar va ularning o'simliklarga ta'siri, tuproqlarning shorlanishi va botqoqlanishiiga qarshi meliorativ, suv xo'jalik va agromeliortiv tadbirlar, sho'rلانган yerlarni yuvish, sug'oriladigan yerlarda zovurlar oqimini aniqlash bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar keltirilgan. Bulardan tashqari, talabalar mustaqil bajarishi uchun mavzuga oid topshiriqlar va masalalar to'plami berilgan.

O'quv qo'llanma 5410500 – Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi, 5411000 – Kasb ta'llimi (5410500 – Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi), 5411100 – Doriver o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi, 5410900 – Ipa'kchilik yo'nalishi talabalar, shuningdek, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar uchun mo'ljalangan.

**UO'K: 631.3(076.5)**

**KBK 40.6ya73**

**Taqribzilar:**

**Namozov F. – q.x.f.d., PSUEAYTI;**

**Azizov B. – q.x.f.d., O'simlikshunoslik kafedrasи propessori.**

**ISBN 978-9943-6154-3-4**

**© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.**


## SO'Z BOSHI

Yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, undan foydalanishni to'g'ri tashkil etish aynan tuproq muhofazasini iqtisodiy huquqiy, tashkiliy jihatdan ta'minlashni anglatadi. Aymiqsa yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga, tuproq unumidorligini oshirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgani, o'z iqtisodiyoti rivojlanishini agro-industrial yo'nalishda tashkil etilayotgan hozirgi O'zbekiston sharoitida tuproq unumidorligini muhofaza qilishning huquqiy muammolarini o'rjanish, ularning yechimini topishda amaliyat materiallari asosda chuqur ilmiy-nazariy mushohadaga asoslangan takliflar ishlab chiqish, xulosalar berish zaruratini vujudga keltiradi.

So'nggi yillarda respublika hukumati sug'oriladigan yerlarning holatini nazarat qilish va tuproqlar melioratsiyasini yaxshilash borasida juda ko'p qaror va qonunlar chqarmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 30-oktyabrdagi "Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu sohada navbatdagi ishlarning bir ko'rinishidir. Ushbu Farmondan kelib chiqib, soha mutaxassislari oldiga muhim vazifalar qo'yilmoqdaki, uning yechimi bevosita sohani mukammal biladigan kadrlar tayyorlash bilan bog'liqdir.

«Dehqonchilik va melioratsiya fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar» o'quv qo'llanmasi yuqorida vazifalarni ko'zda tutgan holda tayyorlandi. Ushbu o'quv qo'llanma yangi davlat standartlariga binoan qabel qilingan namunaviy dastur asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada dehqonchilik va melioratsiya fani bo'icha o'qitiladigan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari kiritilgan.

Har bir amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishida uning maqsadi, vazifasi, nazariy va amaliy ahamiyati, ishni bajarish tartiblari, hisob-kitob ishlari, shuningdek, mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.



## I-Modal. DEHQONCHILIK

### I-MASHG'ULOT

#### TUPROQ AGREGATLARINING SUVGA CHIDAMLILIGINI N.I.SAVVINOV USULIDA ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproqning struktura holati, uni dehqonchilikda abamiyati, tuproq strukturasingiz buzilish sabablari bilan tanishadilar. Agregatlarning suvgaga chidamliligini lobaratoriya sharoitida tajriba o'tkazadilar va natijalar asosida tuproq strukturasinga baho beradilar.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** tuproq namunalarini, taglik va qopqog'i bo'lgan, teshiklari 10, 7, 5, 3, 2, 1, 0,5 va 0,25 mm diametrili elaklar, diametri 7 sm, bo'yisi 45 sm li 1 li slindr, 8 dona katta va 9 dona kichik chinni kosachalar, tarozilar, suv hammomi, diametri 30-40 sm, bo'yisi 30-35 sm li idish yoki slindrsimon vannacha.

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproq o'simliklarning hayoti uchun zarur bo'lgan oziq moddalar va suv manbai hisoblanadi. Uning strukturaviy holati unumdonorligiga ta'sir etadigan muhim omillardan biridir.

Tuproq-mustaqil tabiy jism. U yer po'stlog'ining ustki umumiyoq qatlami bo'lib unda mineral moddalar organik birikmalarga organik birikmalar esa qayta parchalanib yana turli mineral moddalarga aylanadi.

Tuproqning tuzilishi, morfologiyasini aniq va puxta o'rGANISH natijasida, tuproq paydo qiladigan jarayonlarning yo'nalishi va darajasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Tuproq qatlamlarining eng muhim morsologik belgilariiga tuproqning genetik gorizontlari, tuproq va qatlam qalinligi, tusi me'manik tarkibi, strukturasi, qovushmasi yangi yaralmasi va qo'shilmasi kiradi.


Tuproq o'simlik ildizi uchun yetarli darajada yumshoq bo'lsa, uning suv-fizik xususiyatlari va mikroorganizmlarning faoliyati yaxshi bo'ladi.

Tuproqni madaniylashtirishda yet qatlaming 15-18 sm qatlami ag'dariladi, aralashdiradi va yumshatiladi. Biroq har bir tuproq o'z xossalasiga egaligi sababli undan to'g'ri va samarali foydalana bilishi kerak.

### *Tuproq xususiyatlari*

- ❖ O'simliklarning o'sib-rivojlanishi uchun yaxshi mehit
- ❖ Suv va havo orasidagi mutanosiblikni belgilaydi
- ❖ Iste'mol uchun yaroqli suv zahirasidan foydalanish manbayi
- ❖ Foydalii mikroorganizmlar rivojlanishida mikrobiologik muhit vujudga keltiradi

Tuproqning tarkibi va xossalari bilmasdan turib undan oqilona va samarali foydalanib, uning unumdorligini saqlab qolib va oshirib bo'lmaydi.<sup>1</sup>



*I-rasm. Tuproq kesakchalarining tuzilishi.*

Tuproqning mexanikaviy elementlari bir-biri bilan yopishib, har xil kattalikdagi bo'laklar hosil qilishi struktura deyiladi. Strukturali tuproqlar donador bo'lib, g'ovakkliklardan iborat bo'ladi. Tuproqdagi organik va noorganik birikmalarni o'zida saqlaydi. Bular quyidagilar: temir, alyuminiiy gidrooksidi, organik birikmalar.

Tuproq kesakchalarining tuzilishiga ko'ra quyidagilarga ajratiladi:

Plati, palaxsali, ustunsimon, blokli, uvoqli, donador, ushoqli, bir donli, birlashimli (massivli)

<sup>1</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010.239 Ser.

Tuproq agregatlarining fizik tafsifi, razmeri va shakl asosida klassifikatsiyalanadi. Agregatlar klassifitsiyalanishi agregatlar yoki fragmentlar asosiy shakli bo'yicha 4 guruhga bo'linadi:

1. Plastinkasimon;
2. Prizmasimon;
3. Plitasimon;
4. Sharsimon.

Plastinkasimon - gorizontal o'lchash ishllov berishdan yuqori vertikal odga nisbatan paydo bo'lishini qisqa to'g'rilash yoki linza singari yuzaga keltiriladi. Yo'g'oni o'matilsa, uning nomi platy, Ingichkasi o'matilsa, uning nomi laminar deb ataladi.

Prizmasimon - bunda struktura bo'lakchalarida vertikal o'q gorizontal o'qlar yo'nalishiga qaraganda ancha kattadir.

Plitasimon tipda struktura bo'lakchalaridagi vertikal o'q keskin qisqargan bo'lib, gorizontal yo'nalishdagi o'q ancha taraqqiy etgandir.

Sharsimon - mexanik ta'sirlarga chidamli emas, emirliganda unsimon massa hosil bo'ladi.

Tuproqning mexanikaviy elementlari bir-biri bilan yopishib, har xil kattalikdagi va shakldagi kesakchalar (agregatlar) hosil qiladi. Uning mexanikaviy elementlardan agregatlar hosil qilish xossasi struktura hosil qilish xususiyati deb ataladi. Tuproqshunoslikda *tuproqning strukturasi* deyilganda, uning har xil shakl va kattalikdagi tuproq agregatlariga (kesakchalariga) ajralib ketish xususiyati tushuniladi. Agronomiya nuqtai nazaridan qaraganda esa suvda yuvilib ketmaydigan, ya'ni mustahkam bo'lgan kesakchalargina eng yaxshi hisoblanadi. Bunday kesakchalar suvgaga chidamli, ulardan tashkil topgan tuproq esa *mustahkam strukturali tuproq* deyiladi. Strukturasisiz tuproqlar suv ta'sirida oson uvalanib ketadigan kesakchaldan tuzilgan bo'ladi.

Tuproqlar kesakchalarining yirik-maydaligiga qarab, quyidagi turlarga:

- diametri 10 mm dan katta kesakchalar – megastrukturali;
- diametri 0,25 dan 10 mm gacha bo'lgan kesakchalar makrostrukturali;
- diametri 0,25 mm dan kichik kesakchalar – mikrostrukturali tuproqqa bo'linadi.

O'lchami 1 dan 3 mm gacha bo'lgan kesakchalar agronomiya jihatdan suvgaga chidamli eng yaxshi kesakcha deb qabul qilingan.

Mustahkam strukturali tuproqda nokapillyar g'ovaklar hajmi katta bo'lganligidan yog'in-sochin va sug'orish suvlarining hanumasi singib ketadi hamda yaxshi saqlanadi, mayda zarrachalil tuproqqa qaraganda unda havo almashinuvni ancha yaxshi boradi. Shuning uchun strukturali tuproqda suv va havo yetarli bo'lishi tufayli mikroorganizmlarning yashashi uchun qulay sharoit vujudga keladi, natijada tuproqda o'simliklar hayoti uchun zarur bo'lgan oziq moddalar to'planadi.

Tuproqda mustahkam doimiy struktura bo'lmaydi. U quyidagi omillar ta'sirida: a) *mexanikaviy omillar* - dalalarda traktorlar, odamlar, va hayvonlar yurishi, ishlash qurollarining ish organlari ta'sirida; b) *fizik-kimyoiy omillar* - yog'in-sochin suvlarini va ular tarkibidagi ammoniy va vodorod ionlari ta'sirida chirindi singdirib olgan kaltsiy va magniyning siqib chiqarilishi va tuproq strukturasining mustahkamligi pasayishi; suvni oqizib quyish va ayniqsa, bostirib sug'orishda suv siqib chiqargan havo ta'sirida tuproq kesakchalarining uvalanishi tufayli; d) *biologik omillar* - aerob bakteriyalar ta'sirida tuproq kesakchalarini yopishtirib turuvchi chirindilarning parchalanishi natijasida tuproq mayda zarrachalarga ajralishi ta'sirida buzilishi mumkin.

Tuproq strukturasini tiklashda inson faoliyatining ta'siri agrotexnika va melioratsiya tadbirlarini amalgalashish katta ahamiyatga ega. Ekinlarni navbatlab ekishda ularni to'g'ri tanlash tuproq tuzilishiga qaratilgan yerni ishlash tizimi, yerga organik va mineral o'g'itlar solish, mulchalash, sug'orish tizimini to'g'ri tashkil etish eng muhim tadbirlardan hisoblanadi.<sup>2</sup>



2-rasm. Tuproq struktura holatini aniqlashga doir laboratoriya jihozdari

<sup>2</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaran E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 245. Zarif bekkar.

Tuproq strukturasini tiklash uchun almaslab ekishda bir yillik va ko'p yillik o'tlar ekiladi, shuningdek, yerga organik o'g'itlar solinadi. Strukturali kesakchalar hosil qilish va ularni mustahkamlash uchun chirindi zapasi yangilanadi.

Bir yillik o'simliklar ekib, yerni kuzda chimqirqarli plug bilan shudgorlashda dalalar ustki qatlamining mayda zarrachalari strukturasi qisman tiklanadi. Haydash vaqtida chimqirqarli plug tuproqning mayda zarrachali yuqori qatlamini o'simliklar qoldig'i bilan birga egat tubiga tashlaydi, asosiy korpus organik moddalarining anaerob parchalanish hisobiga chirindiga boyigan pastiki qatlamning yumshoq mustahkam kesakchali tuprog'ini yuzaga ag'darib tashlaydi.

Tuproqning struktura holatini o'rganishning bir necha usullari mavjud. Bular:

- 1) N.I. Savvinov usuli – tuproqni clash bilan o'tkaziladigan makroagregat tahliliga asoslangan usul;
- 2) V.R. Vilyams va P.A. Andrianovlarning tuproq makrostrukturali larining suvga chidamliliginani aniqlash usuli;
- 3) K.K. Gedroytsning tuproq mikrostrukturali elementlarining chidamliliginani aniqlash usuli;
- 4) D.T. Vilenskiyning aggregatlarning suvga chidamliliginani aniqlashning tomchi usuli.

**4. N.I.SAVVINOV USULI BO'YICHA ISHNI BAJARISH TARTIBI:** Bu usul K.A.Timiryazev nomidagi Moskva Qishloq xo'jalik akademiyasining dehqonchilik kafedrasida ishlab chiqilgan bo'lib, u tuproqni clash bilan o'tkaziladigan makroagregat tahliliga asoslangan.

Tuproq struktura holatini o'rganishning bu usulida:

a) tekshiriladigan maydondan tuproq namunasi olinib, havoda quritiladi. So'ngra undan  $2,5\text{ kg}$  tarozida tortib olinib, har xil ko'zli elaklardan o'tkaziladi va quyidagi 9 ta:  $10\text{ mm}$  dan yirikroq;  $10-7$ ;  $7-5$ ;  $5-3$ ;  $3-2$ ;  $2-1$ ;  $1-0,5$ ;  $0,5-0,25$  va  $0,25\text{ mm}$  dan maydarroq fraktsiyaga ajratiladi. Elaklarning past tomoniga changsimon zarrachalar to'planadigan taglik qo'yiladi, elanayotgan vaqtida tuproq zarrachalari to'zg'ib kctmasligi uchun ustki tomoni qopqoq bilan berkitiladi;

b) elab bo'lgandan so'ng har bir fraktsiya tarozida alohida tortiladi va foiz miqdorida hisoblab chiqiladi, bunda  $2,5\text{ kg}$  tuproq  $100\%$  deb qabul qilinadi;

d) og'irligi 50 g bo'lgan agregatlarning chidamlilik foizini aniqlash uchun o'rtacha namuna olinadi. Buning uchun har bir elakdan grammarda ifodalangan fraktsiya foizining yarmiga teng miqdorda tuproq tortib olinadi. Pastki elakning teshiklari to'lib qolmasligi uchun o'rtacha namunani diametri 0,25 mm dan kichik bo'lgan fraktsiyadan olmaslik mumkin (garchi o'rtacha namuna hisoblanayotganda, u hisobga olinsada). O'rtacha namuna ikki marta olinadi;

e) olingan o'rtacha namuna suv to'ldirilgan 1 l slindrغا solinadi va 10 minut tinch qoldiriladi. Bu ish keyingi operatsiyalarda kesakchalarni mexanikaviy buzadigan havo chiqib ketishi uchun qilinadi.


1-2 minutdan keyin garchi tuproqdan havoning ko'p qismi chiqib ketgan bo'lsa ham, oz qismi yirik bo'shliqlarda pufakcha shaklida saqlanib qoladi, qolgan havo chiqarib yuboriladi. Buning uchun slindrning yuqori qismigacha suv quyiladi va ustini oyna bilan berkitib tezda gorizontal holatga keltiriladi, so'ngra yana vertikal holatga qaytariladi. Shundan keyin havo tuproq ichidan mayda pufakchalar holida ajralib chiqqa boshlaydi;

f) tuproq namunasi slindrغا solingandan keyin 10 minut o'tgach, slindr ustini oyna bilan yopib tezda to'nnkariladi va tuproqning yirik zarrachalari pastga tushib ketmaguncha shu holatda bir necha sekund ushib turiladi. So'ngra slindr o'z holiga keltirilib, tuproqni uning tubiga cho'kishi kutiladi. Bu ish 10 marta takrorlanadi.

Slindr to'nnkarilganda mustahkam bo'lmagan agregatlar va diametri 10 mm dan kattaroq bo'lgan kesakchalar tarkibiy qismlarga ajraladi;

g) diametri 20 sm, balandligi 3 sm va teshiklari 0,25; 1; 2; 3; 5 mm diametrlı 5 ta elak ustma-ust qo'yilgan holda suv to'ldirilgan slindrsimon vannaga tushiriladi. Suv sathi yuqorigi elak chetidan 5-6 sm yuqorida bo'lishi kerak.

h) slindr o'n marta to'nnkarilgandan keyin claklar ustiga olib kelinadi. Slindr to'ntariladi va suv ostida oyna ochiladi. Slindrdagi tuproq



3-rasm. Tuproqni silindrda  
N.LSavvinov elagiga o'tkazish

massasi yuqorigi elakka tushadi. Tuproq tekis taqsimlanishi uchun slindmi suvdan chiqarmasdan turib, elak ustida aylantiriladi. Asosiy massa ( $0,25\text{ mm}$  dan yirikroq) elak yuzasiga tushgandan keyin  $40-50$  sekund o'lgach slindr og'zi sav ostida yana oyna bilan berkitiladi va suvdan chiqarib olinadi;

i) elakka tushirilgan tuproq massasi elanadi: buning uchun elaklarni suvdan chiqarmasdan turib, elaklarning hammasi  $5-6\text{ sm}$  yuqoriga ko'tariladi va tezda yana suvga botiriladi. Kesakchalar qaytadan elakka tushmaguncha ular ana shu holatda  $2-3$  sekund tutib turiladi. So'ngra elaklar to'plami sekin-asta ko'tariladi va tezda yana botiriladi. Yuqorigi ( $5, 3$  va  $2\text{ mm}$  li) elaklar o'n marta silkitilgandan keyin olinadi, pastkisi esa qo'shimcha ravishda yana besh marta silkitiladi va suvdan chiqarib olinadi;

j) elaklardagi kesakchalar yuvuvchi qurilmaning suv oqimi bilan katta chinni kosachaga yuvib olinadi, ortiqcha suv chiqarib yuborilgandan keyin ular avval tortib qo'yilgan va raqamlangan kichik chinni kosachalarga solinadi;

k) Keyin kosachalar termostatga qo'yiladi va tuproq  $105^{\circ}\text{C}$  issiqda 4 soat quritiladi, so'ng 2 soat eksikatorda sovitiladi.

l) quritilgan kesakchalarning massasi alohida-alohida aniqlanadi. Bunda suvga chidamli kesakchalarning massasi  $2$  ga ko'paytiriladi. Massasi ma'lum bo'lgan har qaysi agregatning foizi quyidagich aniqlanadi va jadvalga yoziladi (1-jadval)

$$x = \frac{a \times 100}{H}$$

Bunda:

$x$  – agregatning suvga chidamliligi, foiz hisobida

$a$  – suvga chidamli agregatning massasi, g hisobida.

$H$  – analizga olingan tuproqning umumiy massasi, g hisobida.  
100 %

Masalan  $50\text{ g}$  tuproq (N) da diametri  $5-3\text{ mm}$  li agregat ( $a$ )  $5\text{ g}$  bo'lsa, foizi quyidagicha bo'ladi:

$$x = \frac{5 \times 100}{50} = 10\%$$

*1-jadval*

**Tuproq agregat holatini aniqlash bo'yich ma'lumotlarni qayd etish jadvali**

Tuproqning nomi Na'muna chimean joy va vazni		Ouruq tuproqni elash Chinni kosa-chalar		Xo'1 tuproqni elash Chinni kosacha-lar	
Fraksiyallarning o'chami, mm		Raqami	Vazni, g	Raqami	Vazni, g
>10					
10-7					
7-5					
5-3					
3-2					
2-1					
1-0,5					
0,5-					
0,25					
<0,25					
jami					

*2-jadval*

**Tuproqning struktura holatini baholash**

Agregatlarning miqdori, %		Struktura holatining bahosi
Quruq holda chash	Suvda elash	
>80	>70	A'lo
80-60	70-55	Yaxshi
60-40	55-40	Qoniqarli
40-20	40-20	Yomon
<20	<20	Juda yomon

## Nazorat uchun savollar:

1. Tuproq strukturasi deb nimaga aytildi?
2. Tuproq strukturasi o'chami bo'yicha qanday bo'linadi?
3. Eng yaxshi strukturali kechakechalarning o'chamini aytинг.
4. Tuproq strukturasi qaysi omillar ta'sirida buziladi?


## 2-MASHG'ULOT

### EGAT OLIB (INFILTRATSIYA USULI) VA BOSTIRIB SUG'ORISHDA STRUKTURA ELEMENTLARINING CHIDAMLILIGIGA TUPROQ HAVOSINING TA'SIRINI ANIQLASH (ZAUROV USULI)

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproqning strukturna elementlariga sug'orish usullarining ta'siri va uning ahamiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. Shuningdek, talabalar egat olib (infiltratsiya usuli) va bostirib sug'orishda struktura elementlariga salbiy ta'siri o'r ganadilar hamda tajriba natijalari o'zaro taqqoslanib, olingan ma'lumotlar tablil qilinadi.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** *shisha naylar, tuproq, kolbalar, doka, filtr qog'oz, shtativlar, soat, suv, chizg'ich, o'chov slindri.*

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:** Dalalarni infiltratsiya usulida sug'orishda egatlarga kichik oqim bilan bir tekis oqiziladigan



suv tuproq zarrachalarini asta-sekin pastdan yuqoriga tomon namlab boradi. Ular namlangan sari kesakchalar orasidagi havoni siqib chiqara boshlaydi. Bunda strukturali kesakcha uvalanib ketmaydi. Infiltratsiya usulida sug'orish chopiq qilinadigan barcha ekinlar: g'o'za, makkajo'xori, sabzavot, poliz ekinlari va hokazolarga ishlov berishda qo'llaniladi.

Bostirib sug'orishda tuproq kesakchalarini suvli muhitga cho'kkandek bo'ladi va bu kesakchalar ichidagi havo suv bosimi ta'sirida ulami yorib yuboradi hamda suv yuziga pufakchalar holida ajralib chiqqa

**4-rasm. Mavzuga doir  
laboratoriya jihozlari.**

boshlaydi. Quruq va kapillyar ho'l kesakcharing buzilish darajasini quyidagi tajribada kuzatish mumkin.

Sug'orish usullari, o'z navbatida katta normada va uzoq vaqt sug'orish davomiyligi natijasida namlanuvchi qatlam orqali suvni infiltratsiyasiga olib keladi. Pushta usulida sug'orishda tuproq (maydon) yuzasi kamroq nainlanishi (yuvilish) va kam normada suv miqdori va qisqa intervalda sug'orish natijasida infiltratsiya kamayadi.<sup>3</sup>

### 3-jadval

#### Tajriba uchun olingan tuproq namunalari

Namuna olingan tuproqlar	Tuproqning holati	Tuproq fraktsiyalari
1. Bedadan keyingi bo'z tuproq	Quruq	2-1 mm
	Namlangan	2-1 mm
2. O'tloqi-botqoq tuproq	Quruq	0,5-0,25 mm
	Namlangan	0,5-0,25 mm

Suvli shisha slindring biriga quruq tuproq kesakchasi solinadi, ikkimchisiga tuproqning kapillyar ho'l, ya'ni teshikchalarida havo bo'lmanan kesakchalari olinadi. Quruq kesakcha suvga solinganda havo ajratib, tezda buziladi va avvalgi shaklini yo'qotadi. Kapillyar ho'l kesakchadan havo ajralmaydi va ular buzilmaydi, ya'ni o'zining avvalgi holatini saqlaydi.

Yuqorida aytilgan tajribadan tashqari, laboratoriyada kapillyar ho'l va ho'llanmagan tuproqlar bilan tajriba o'tkaziladi. Bunday tuproqlar shisha naylarga solinadi, keyin ular orqali suv o'tkaziladi. So'ngra tuproq hajmining o'zgarishi aniqlanadi.

#### 4. ISHNI BAJARISH TARTIBI:

a) balandligi 20 sm, diametri 2,5-3 sm bo'lgan ikkita bir xil shisha nay (bo'z tuproq va o'tloqi-botqoq tuproq uchun) olinadi. Ularning pastki uchi doira shakldagi filtr qog'oz va doka bilan bog'langan bo'ladi;

<sup>3</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 376 bret.

b) ularga bir xil tuproq solinadi, sekingerina bir xilda zichlantiriladi. Tuproqli birinchi nay tajriba boshlanguncha (tuproq havosini to'la chiqarib yuborish uchun) kapillyar namlanadi;

d) tajriba boshlanguncha naydag'i tuproqning balandligi (h) va nayning ichki diametri (d) o'chanadi;

e) ikkala (bittasi quruq, ikkinchisi ho'l tuproqli) nay shtativga mahkamlangan voronkaga o'matiladi;

f) quyidagi formula bilan nay ko'ndalang kesimining kattaligi hisoblab chiqiladi:

$$S = \frac{\pi \cdot d^2}{4}$$

Bunda:  $S$  – nay ko'ndalang kesimining kattaligi,  $sm^2$ ;

$\pi$  – ayylanining diametriga nisbati, 3,14 ga teng;

$d$  – nayning ichki diametri,  $sm$ ;

h) quyidagi formulaga muvofiq naydag'i tuproqning tajribagacha bo'lgan hajmi hisoblab chiqariladi:

$$V = S \cdot h$$

Bunda:  $V$  – naydag'i tuproqning hajmi,  $sm^3$ ;

$S$  – nay ko'ndalang kesimining kattaligi,  $sm^2$ ;

$h$  – naydag'i tuproqning tajribagacha bo'lgan balandligi,  $sm$ ;

h) kolbaga suv quyib, usti qog'oz bilan bekitiladi va u tuproqli nay ustida to'ntariladi. To'ntarilayotgan kolba uchidan naydag'i tuproq yuzasigacha bo'lgan oraliq 2-3  $sm$  ni tashkil qiladi. Tajriba boshlangan vaqt belgilab qo'yiladi;

i) voronkaning pastki uchida birinchi tomchi paydo bo'lgan vaqt belgilab qo'yiladi;

j) 15 minut ichida filtrlangan suv  $Q$  miqdori o'chanadi;

k) quyidagi formula bilan filtratsiya tezligi hisoblab chiqiladi:

$$W = \frac{Q}{S \cdot T}$$

l) naydag'i tuproqning tajribadan keyingi balandligi ( $h_1$ ) o'chanadi,  $sm$ ;

m) quyidagi formula bilan tuproqning tajribadan keyingi hajmi ( $V_1$ ) hisoblab chiqariladi;

$$V_1 = S \cdot h_1$$

1) quyidagi proportsiyadan foydalanib, tuproqning tajribadan keyingi hajmi tajribadan oldingi hajmidan hisoblab, foizlarda aniqlanadi:

$V = 100$

$V_1 - x$  bundan

$$x = \frac{V_1 * 100}{V}$$

Tuproqning zichlangan hajm foizini aniqlash ( $100\% - x$ )

m) olingan ma'lumotlarni taqqoslash uchun yig'ma jadval tuziladi (4-jadval).

4-jadval

**Har xil sug'orish usullarining tuproqning spv-fizikaviy xossalariiga ta'siri**

Tuproqning nomi	Tuproqning holati	Fraktsiyasining yirik maydaligi, mm	Tuproqning qaliligi		Filtrlangan suv miqdori (Q), sm <sup>3</sup>	Nay ko'ndialang kesimining yuzasi (S), sm <sup>2</sup>	Tuproqning hajmi		Zichligi, %
			Tajribagacha (V), sm <sup>3</sup>	Tajribadan keyin (V), sm <sup>3</sup>			Tajribagacha (V), sm <sup>3</sup>	Tajribadan keyin (V), sm <sup>3</sup>	
quruq	2-1								
nam	2-1								
quruq	0,5-0,25								
nam	0,5-0,25								

Ish oxirida ishlab chiqarish amaliyoti uchun xulosa va natija chiqariladi.

**Nazorat uchun savollar:**

- Egat olib sug'orishda tuproq strukturasiga qanday ta'sir qiladi?
- Nima uchun bostiririb sug'orishda struktura elementlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi?
- Tuproq havosi struktura elementlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- Qanday ekinlar bostirib sug'oriladi?

## 3-MASHG'ULOT

### HAYDALMA QATLAM TUZILISHINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Haydalma qatlamning nazariy ahamiyati, tuproq unumdorligiga ta'siri, haydalma qatlam tuzilishi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ladi. Haydalma qatlamning tuzilishini tajribada o'r ganadi va xulosa qiladilar.

**2. ZARUR NARSALAR:** *tarozilar, shisha naylar, doka, filtr qoq'oz, oyma, tuproqni suv bilan to'yintirish uchun vannacha, chizg'ich.*

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproq qattiq qismi hajmining, kapillyar va nokapillyar g'ovaklikning buzilmagan holatda olingan tuproq namunasining hajm birligiga nisbati *haydalma qatlamning tuzilishi* deyiladi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishi va rivojlanishi uchun bir qator sharoit, jumladan, haydalma qatlamning tuzilishiga bog'liq bo'lgan unumdorlik darajasi muhim ahamiyatga ega. *Unumdorlik deganda*, tuproqda bir vaqtning o'zida o'simliklar uchun maksimal miqdorda zarur bo'lgan suv, havo va oziq moddalar bo'lishi tushuniladi. Agar tabiiy tuzilishi buzilmagan holatdagi tuproqdan namuna olinsa, hajmning bir qismi tuproq, qolgan qismi suv bilan, tuproq va suvdan bo'sh qismi esa havo bilan to'lgan bo'ladi.

Shunday qilib, tuproq 3 qismiga: qattiq, suyuq va gazsimon qismiga bo'linadi. Tuproqning gazsimon, suyuq va qattiq qismilari hajmining nisbati doimo o'zgarib turadi. Bu nisbat kesakchalarining yirik-maydaligiga qarab o'zgarib turadi. Bu nisbat kesakchalarining yirik-maydaligi va shakliga, ularning o'zaro joylashishi va tuproqda chang zarrachalarining bo'lishiga, bundan tashqari, unga namlik va harorat ta'sir etishiga bog'liq.

Tuproq zarrachalarining bir-biriga zinch taqalib turmasligi natijasida bo'laklar, ya'ni g'ovakliklar deb ataladigan turli kattalikdag'i oraliqlar yoki teshiklar hosil bo'ladi. Kesakchalar orasidagi va ichidagi barcha eng mayda (qilsimon) oraliqlar *kapillyar g'ovakliklar* deyiladi. Kesakchalar orasidagi barcha yirik oraliqlar *nokapillyar g'ovakliklar* deyiladi.

Kapillyar va nokapillyar g'ovakliklarning jami hajmi *umumiyl g'ovaklik* deyiladi. Kapillyar oraliqlar va qisman nokapillyar oraliqlar suv bilan, nokapillyar oraliqlar esa ko'pincha havo bilan to'lgan bo'ladi.

Fizikaviy birikkan tuproq-tosh, usimlik qoldiqlari, ildizlar, barg, chirindilarni birlashtirgan holda organik moddalarni hosil qiladi. Tuproqdagagi organik moddalar to'planishi jarayonida tirik organik moddalarga va o'slik organik moddalarga ajratiladi. Organik moddalarning tirik qismiga o'simlik ildizlari, bakteriyalar, yomg'ir chuvalchanglari, suv o'lari, zamburug'lar, aktinomitsitlar va tuban hayvonlar bir qancha tirik organizimlga ajratiladi.

Tuproq 50% ga yaqini qatiq jisimlarni saqlasa, 50% g'ovak qisimlardan iboratdir. Mineral va organik modda tuproqning qatiq qismini egallaydi. Tuproqning g'ovak qismlarida esa suv va havo nisbati iqlimga va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi.

1. Mineral modda - yoki tuproqning meniral qismi tog' jinsi (ona jins) ning sekin asta nurashi va tuproq bo'la boshlashi bilan boshlanadi. Nurash natijasida qoldiq jinslaridan hamda organik qoldiqlardan hosil bo'lgan turli kattalikdagi zarralar to'planishidan iborat.


Birlamchi minerallar - turli hil shakl va ko'rinishdagi asosiy mineralar - kvarss, biotit, muskovit.

Ikkilamchi minerallar - silikat tuproqlar, temirli, alyuminli, mayda fraksiyalarni o'z navbatida uchratish mumkin.

2. Tuproqdagagi organik modda - o'simlik va hayvonlar qoldig'ining to'plana borishi natijasida hosil bo'ladi. Organik qoldiqlar har-xil tuproqlarda turli miqdorda to'planadi. Odatda organik qoldiqlar tuproqning ustki qatlamlarida 3-5% gacha uchraydi. Organik moddalar tuproqning oziq rejimini belgilab beradi. Shu bilan birga tuproqning suv - havo rejimini yaxshilaydi.

*Suyuq fazasi*. Tuproqning suyuq qismi mineral va organik moddalar eritmasini tashkil etgan suvdan iboratdir. U odatda tuproqning mayda bo'shliqlarini to'ldirib turadi. Bunday suyuq suv tuproq bilan birga o'simliklar hayotiy ehtiyojini ta'minlaydigan asosiy manbadir. Bu holat tuproqning suv fizik xossalariiga kiradi. O'simlik tuproq g'ovakdiklariagi yoki bo'shliqlarida yig'ilgan namlik hisobiga to'yinadi. Namlik esa yog'in-sochin hamda sug'orish navtijasida yuzaga keladi. Bunday holatda tuproqning strukturasiga ko'ra o'zida namlik saqlab turadi.

*Gazlik fazasi (gaz holati)*. Tuproqning muhim qismi hisoblangan havo tuproqlarda ma'lum miqdorda bo'ladi. Tuproqning suvsiz g'ovaklariga havo kirib turadi. Tuproq havosining tarkibi esa



atmosfera havosinikiga nisbatan boshqacha va o'zgaruvchan bo'ladi. Tuproq havosi tarkibidagi CO<sub>2</sub> miqdorining ortishi bilan O<sub>2</sub> miqdori kamayadi. Tuproqdagagi kislород va karbonat angidridni asosan o'simliklar va mikroorganizmlar o'zlashtiradi. Tuproqdagagi gazsimon havo o'simliklar hayoti uchun zarur faktorlardan bo'lib, o'simliklar ildizi nafas olishida va tuproqdan har xil mikroorganizmlarni kislород bilan ta'minlaydigan manba hisoblanadi. O'simliklar normal o'sishi uchun tuproqda yetarli miqdorda suv, havo bo'lishi shart. Biroq, birisini miqdori ortishi ikkinchisini kamayishiga sabab bo'ladi.<sup>4</sup>

Tuproqning g'ovakligi ko'proq uning suv xossalariini belgilaydi. Masalan, suv singdirish, nam sig'imi, suvning kapillyar ko'tarilishi, bug'lanish va boshqalar tuproqda boradigan fizik – mexanikaviy, shuningdek, biokimiyoviy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Chunki tuproq qatlarning aeratsiya darajasi unga bog'liq bo'ladi. Aeratsiya darajasi mikrobiologik jarayonlarning jadal borishiga, eruvchanlikka, mineral va organik moddalarning oksidlanishiga sabab bo'ladi.

Haydalma qatlarning tuzilishi tuproqning suv, havo va oziq rejimini belgilaydi. Yerni ishlash yo'li bilan bu qatlarning tuzilishini o'zgartirish mumkin. Agar haydalma qatlam mustahkam kesakechali strukturaga ega bo'lmasa, tuproqning tuzilishini yaxshilash choralar qo'llanganda ham u yog'ingarchilik yoki sug'orish vaqtida tez buziladi. Ikkinchidan, uzoq vaqtдан beri ishlov berilmagan strukturali tuproqlar juda zichlashib qoladi va binobarin tuzilishi yomonlashadi. Strukturali tuproqlarda ishlov berish tufayli hosil qilingan yaxshi tuzilish uzoq vaqtgacha saqlanadi. Shuning uchun tuproqning strukturasi va tuzilishi bir-birini to'ldiradi. Ko'p yillik va bir yillik ekinlar ekib tuproqning struktura holati yaxshilanadi. Yerga ishlov berish bilan esa uning tuzilishi yaxshilanadi.

Kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadiki g'ovakliklar orasida bir muncha farq bo'lib, ular kapillyar g'ovaklik va nokapillyar g'ovaklikka ajratiladi. Tuproqqa tushgan suvning harakatlanishiga ko'ra ularni ajratish mumkin.

1) Kapillyar g'ovaklik odatda sug'orishdan so'ng yoki yog'insochin (gravitatsion) suvlarini to'xtagandan so'ng ma'lum miqdorda ushlab, saqlab qoladi. Bunday kapillyar bo'shliqlarda saqlanib qolgan

<sup>4</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 241 bet

suv kapillyar suv deb yuritiladi. Kapillyar o'simliklar hayotida muhim o'rinn tutadi.

2) Nokapillyar g'ovaklik – havo bilan to'lgan bo'shliqlar sanaladi. Nokapillyar g'ovakliklar kapillyar g'ovaklikni aksi bo'lib, u yirik bo'shliqlarni o'zida ushlaganligi sababli, tuproqda barakatlanayotgan suvni o'zida saqlab tura olmaydi. Juda tezlik bilan pastki qatlamlarga suv osongina tushib ketadi. Demak, kapillyar va nokapillyar bo'shliqlar hamda qattiq moddalarning nisbati bir-biriga teng nisbatda bo'lishi namunali tuproq ko'rsatkichiga olib keladi.<sup>5</sup>

Haydalma qatlamning tuzilishi quyidagi usullar bilan aniqlanadi:

1. Patronlardagi tuproq namunasi suv bilan to'yintirish usuli. Bu usul asosiy hisoblanadi.

2. Eng tez, lekin kamroq aniqlikda bo'lgan piknometr usuli.

3. Dala sharoitida umumiy g'ovak faqat tuproqning hajmiy va solishtirma massasiga qarab belgilanadi. Umumiy g'ovaklik quyidagi formulaga muvofiq foiz hisobida aniqlanadi:

$$P = \left( 1 - \frac{V_1}{D} \right) \cdot 100$$

Bunda:  $P$  - umumiy g'ovaklik, %

$V_1$  - tuproqning hajm massasi, g/sm<sup>3</sup>

$D$  - tuproqning solishtirma massasi, g/sm<sup>3</sup>.

#### 4. ISHNI BAJARISH TARTIBI:

### TUPROQNING TABIIY HOLATI BUZILGAN HAYDALMA QATLAMNING TUZILISHINI ANIQLASH (ZAUROV USULI)

Haydalma qatlamning tuzilishi laboratoriyada birinchi usul bilan aniqlanadi, lekin bunda patronlar ishlatilmaydi, balki tuzilishi buzilgan tuproq naychalarda aniqlanadi.

G'ovaklikka doir olingan ma'lumotlar tuzilishi buzilмаган tuproqnikiga nisbatan ko'p bo'lsada, lekin strukturali tuproqdan strukturasiz tuproqqacha bu xususiyatlarning o'zgarishini tekshirish uchun ular to'la qomuniydir.,

<sup>5</sup> Chandrasekaran B., Azadurai K., Samasundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 248-250 hellar.

<b>Tuproq turlari</b>	<b>Fraksiya o'chhami</b>
Bedadan bo'shagan yerlar	5 – 3 va 0,5 – 0,25 mm
tuproq'i	
Eski haydalgan yer	5 – 3 va 0,5 – 0,25 mm
Qum	1 – 0 va 0,75 m

Haydalma qatlamning tuzilishini aniqlash uchun har xil tuproqlar – bo'z tuproq yoki o'tloqi-botqoq tuproq olinadi. Barcha o'chhash va hisoblashlar ikkinchi belgigacha aniqlikda olib boriladi.

## G'OVAKLIKNI ANIQLASH

*Kapillyar g'ovaklikni aniqlash.* Kapillyar g'ovaklikni aniqlash uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak:

- 1) balandligi 10-15 sm, diametri 4-5 sm bo'lgan shisha naylar olinadi va xo'llangan doka filtr qog'oz xalqachasi bilan birgalikda nayning tagiga bog'lanadi;
- 2) tayyorlangan idishlar (a) tarozida tortiladi;
- 3) nayning 2/3 hajmiga qadar tuproq yoki qum solinib, yumshoq kaftda asta-sekin zichlanadi;
- 4) quruq tuproq yoki qum solingan nay (b) tarozida tortiladi;
- 5) quyidagi formulaga muvofiq quruq tuproq yoki qumning sof og'irligi (c) hisoblab topiladi:

$$c = b - a, g$$

- 6) quyidagi formula yordamida mutloq quruq tuproq yoki qumning og'irligi hisoblab chiqiladi:

$$C_1 = c - B$$

Buning uchun avval quyidagi proportsiya bilan olingan tuproq namunasidagi gigroskopik namlik (**B**) miqdori aniqlanadi:

$$c - 100$$

$$B - K$$

$$B = \frac{c \times K}{100}$$

Bunda *B-gidroskopik suvning og'irligi, g:*

*K-quruq tuproq tarkibidagi gigroskopik suv miqdori, %.*

*c-quruq tuproqning og'irligi, g:*

Quruq tuproqning foizlarda ifodalangan taxminiy namligi (**K**) har xil tuproq va fraktsiyalar og'irligiga nisbatan quyidagi jadvalda beriladi:

## Quruq tuproqning foizlarda ifodalangan taxminiy namli

Tuproq nomi	Fraktsiya o'chamlari, mm		
	1 - 0,75	5-3	0,5 - 0,25
Bo'z		0,98	1,05
O'tloqi-botqoq		0,65	0,97
Qum	0,16	-	-

7) shisha naydagi tuproqning balandligi ( $h$ ) va nayning ichki diametri ( $d$ ) o'chanadi;

8) quyidagi formulaga muvofiq, tuproq yoki qum egallagan umumiy hajmi hisoblanadi:

$$V = \frac{\pi * d^2}{4} * h, \text{sm}^3$$

Bunda  $V$  – tuproqning umumiy hajmi,  $\text{sm}^3$ ;

$\pi$  – aylana uzunligining diametriga nisbati;

$3,14$  ga teng (o'zgarmas son);

$d$  – nayning ichki diametri, sm;

$h$  – naydagi tuproq balandligi, sm;

$4$  – o'zgarmas son;

9) quyidagi formula yordamida tuproqning hajm massasi hisoblanadi:

$$V_1 = \frac{C_1}{V}$$

Bunda  $V_1$  – tuproqning hajm massasi,  $\text{g/sm}^3$ ;

$V$  – tuproqning umumiy hajmi,  $\text{sm}^3$ ;

$C_1$  – mutloq quruq tuproqning sofovirligi; g;

Zichlash bilan tuproq tuzilishini tabiiy holatigacha yaqinlashtirish mumkin. Buning hajmiy og'irlik kattaligi fraktsiyali tuproq chegarasida bo'lishi mumkin.

$1,0 - 1,1 \text{ g/sm}^3$  5 – 3 mm;

$1,2 - 1,4 \text{ g/sm}^3$  0,5 – 0,25 mm;

$1,6 - 1,7 \text{ g/sm}^3$  1,0 – 1,75 mm (qum);

10) tuproq solingan shisha naylar suv vannasi ustida turgan filtr qog'ozli cynaga qo'yiladi. Bunda filtr qog'ozning uchlari suvli vannaga tushirilgan bo'ladi;

11) tuproqning hamma kapillyar g'ovakliklari ho'llanib bo'lgandan keyin shisha nay tarozida tortiladi (W);

12) quyidagi formulaga muvofiq kapillyar suvning og'irligi hisoblanadi:

$$e = W - b$$

Bunda  $e$  – kapillyar suvning og'irligi, g;

$W$  – kapillyar suv bilan xullangan tuproq yoki qumli nayning og'irligi, g;

$b$  – quruq tuproq yoki qumli nayning og'irligi, g;

13) tuproqning kapillyar g'ovakligi tuproq og'irligiga nisbatan foiz hisobida aniqlanadi:

$$P_1 = \frac{e + 100}{C_1}, \%$$

va hajmiga nisbatan:

$$P_1 = \frac{e + 100}{V}, \%$$


Bunda  $P_1$  – kapillyar g'ovaklik, %;

$e$  – kapillyar suvning og'irligi, g;


$C_1$  – muiloq quruq tuproq yoki qumning soz og'irligi, g;

$V$  – tuproq yoki qumning umumiy hajmi, sm<sup>3</sup>;

100 – o'zgarmas son.



5-rasm. Kapillyar g'ovaklikni aniqlash.



6-rasm. Umumiy g'ovaklikni aniqlash.

*Umumiy g'ovaklikni aniqlash.* Umumiy g'ovaldikni aniqlashda tajribalar quyidagi ketma-ketlikda o'tkaziladi.

1) kapillyar g'ovaldikni aniqlashda foydalilanigan tajriba nayi suvli vannaga tushiriladi. Bunda vannaga suvning sathi naydagi tuproqning sathi bilan bir xil bo'lishi kerak.

2) tutash idishlar qonuniga ko'ra, suv kapillyar bo'lmagan barcha oraliqlarini to'ldirgandan keyin (tuproq yuzasi yaltiraydi) nay suvdan chiqarib olinadi.

3) kapillyar bo'lmagan suv tarozi pallasidan oqib ketmasdan turib tuproqli nay ( $f$ ) tortiladi:

4) suvning umumiy og'irligi quyidagi formulaga muvofiq hisoblab topiladi:

$$q = f - b$$

Bunda  $q$  – suv (kapillyar va nokapillyar suv) ning umumiy og'irligi,  $g$ :

$f$  – suv bilan to'la to'yingandan keyin tuproqli nayning og'irligi,  $g$ :

$b$  – quruq tuproqli nayning og'irligi,  $g$ ;

5) tuproqning umumiy g'ovakligini tuproq og'irligiga nisbatan % hisobida:

$$P_2 = \frac{q + 100}{C_1}$$

va tuproq hajmiga nisbatan % hisobida hisoblanadi:

$$P_2 = \frac{q + 100}{V}$$

*Nokapillyar g'ovaklikni aniqlash.* Nokapillyar g'ovaklik umumiy g'ovaklik bilan kapillyar g'ovaklik orasidagi farqqa ko'ra tuproq og'irligiga nisbatan % bilan:

$$P_3 = P_2 - P_1$$

va tuproq hajmiga nisbatan % hisobida hisoblanadi:

$$P_3 = P_2 - P_1$$

## TUPROQNING AERATSIYA DARAJASINI VA SUV BILAN TO'YINISHINI ANIQLASH

1) quyidagi proportsiya bilan dastavval tuproqdan namuna olinayotgan vaqtidagi suvning og'irligi ( $B$ ) hisoblanadi:

$$C_1 = 100$$

$$B - K$$

$$B = \frac{C_1 \cdot K}{100}$$

bu yerda:  $B$  – tuproqdagি suvning noma'lum miqdori, g yoki  $sm^3$ ;

$C_1$  – mutloq quruq tuproqning sof og irligi, g

$K$  – tuproq og irligiga nisbatan suvning % miqdori.

2) suv faqat bir qism bo'shlqlarni eg'allaganligi sababli qolgan g'ovaklik havo bilan to'lgan bo'ladi. Havoning kub santimetrlaridagi umumiylajmi (**A**) tuproqning to'la to'yingan namligi (**q**) dan namuna olingan vaqttagi suv miqdori (**B**) ni ayirib tashlagandagi suv hajmiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$A = q - B$$

3) agar tuproqning umumiylajmi (**V**) 100% deb qabul qilinsa, umumiylajmi hajmiga nisbatan % bilan ifodalangan suv va havo miqdori namuna olingan vaqttagi to'yinish va aerasiya darajasiga mos keladi.

a) quyidagi proporsiyadan to'yinish darajasi (suv bilan to'yinshi) aniqlanadi:

$$V = 100$$

$$B - x$$

$$x = \frac{B \cdot 100}{V}$$

b) quyidagi proporsiyadan aerasiya darajasi (havo bilan to'yinshi) aniqlanadi:

$$V = 100$$

$$A - x$$

$$x = \frac{A \cdot 100}{V}$$

4) qattiq jismning hajmi  $V_{qj}$  tuproqning umumiylajmi (**V**) bilan umumiylajmi g'ovaklik (**q**) orasidagi farqdan topiladi:

$$V_{qj} = V - q$$

5) qattiq jismning hajmi quyidagi proporsiyadan tuproqning umumiylajmi hajmiga nisbatan % hisobida topiladi:

$$V = 100$$

$$V_{qj} - x$$

$$x = \frac{V_{qj} \cdot 100}{V}$$

Tuproqning qattiq qismi, to'yinish va aerasiya darajasining % hisobidagi hajmi uning umumiylajmi hajmiga nisbatan 100% ni tashkil etishi kerak.

6) olingan ko'rsatkichlarni taqqaqlash uchun quyidagi yig'ma jadval tuziladi.

6-jadval

### Haydalma qatlam tuzilishini aniqlash bo'yicha yig'ma jadval

Tuproq nomi	Fraktsiya o'chami	Hajmiy og'irligi (V <sub>1</sub> ) g/sm <sup>3</sup>	G'ovaklik, %						Darajasi		
			Kapillyar (P <sub>1</sub> )		Nokapillyar (P <sub>3</sub> )		Umumiy (P <sub>2</sub> )		Suv bilan to'yi-nish %	Aerastiya (%)	Qat-tiq qis-mi,
			C <sub>1</sub>	V	C <sub>1</sub>	V	C <sub>1</sub>	V	-	-	-
-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

7. Barcha ishlarga xulosa yasaladi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Haydalma qatlam tuzilishi deb nimaga aytildi?
2. Tuproq qaysi fazalardan iborat?
3. Kapillyar g'ovaklik nima?
4. Nokapillyar g'ovaklik nima?
5. Tuproqning aerastiya darajasi deganda nimani tushunasiz?
6. Umumiy g'ovaklikni aniqlash tartibini aytинг.

### 4-MASHG'ULOT TUPROQNING MAKSIMAL DALA NAM SIG'IMINI ANIQLASH

1. **ISHNING MAQSADI:** Tuproqning dala nam sig'imi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ladijar. Laboratoriya sharoitda tajribalar o'tkazadilar va xulosalar qiladilar.

2. **ZARUR NARSALAR:** tarozi, naylar, doka, filir qog'oz, tuproqni suv bilan to'yintirish uchun kichkina suv vannasi, chizg'ich

3. **ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproqning ma'lum miqdorda o'ziga suvni singdirishi va ushlab turish qobiliyati uning nam sig'imi deyiladi.

Tuproqning dala nam sig'imi eng muhim suv xossalaridan biri bo'lib, ushlanib turgan suvning miqdoriga ko'ra: to'liq, kapillyar va maksimal nam sig'implariga bo'linadi.

1. To'liq nam sig'imi - yer sug'orib bo'lingandan keyin tuproqning hamma bo'shliqlari, ya'ni kapillyar va nokapillyar g'ovakkliklari suv bilan to'lgan bo'ladi.

2. Kapillyar nam sig'imi - bunda kapillyar g'ovakkliklar suv bilan to'lgan bo'ladi.

3. Tuproq zarrachalari molekulalarining tortish kuchi natijasida ushlanib qolgan suv miqdori, uning maksimal dala nam sig'imi deyiladi.

Nam sig'imi tuproqning mexanikaviy tarkibiga, strukturasiga bog'liq holda o'zgarib turadi. Loyqa va organik modda ko'p miqdorda bo'lgan og'ir tuproqlarning nam sig'imi katta va aksincha, organik moddalari kam bo'lgan tuproqlarning nam sig'imi kichik bo'ladi. Bundan tashqari, sizot suvlarning joylashishi chuqurligi ham tuproqning nam sig'imga ta'sir etadi. Qaysiki, mexanikaviy tarkibi og'ir tuproqlar 1 m gacha chuqurlikda 1 ga yerga 3000-3500 m<sup>3</sup> gacha, engil tuproqlar 1500-1800 m<sup>3</sup> gacha suv saqlay oladi.

O'zbekiston tuproqlari nam sig'imga ko'ra uch guruhga bo'linadi.


1. Nam sig'imi katta bo'lgan og'ir tuproqlar.

2. Nam sig'imi o'ttacha bo'lgan o'ttacha og'ir mexanik tarkibili tuproqlar.

3. Nam sig'imi kichik bo'lgan engil mexanik tarkibili tuproqlar.

Strukturali tuproqlar strukturasisiz tuproqlarga qaraganda suvni yaxshi o'tkazadi va nam sig'imi katta bo'ladi.

Tuproqlarning tarkibi va sizot suvlarning joylashishi chuqurligiga bog'liq holda nam sig'imi bir-biridan sezilarli darajada farq qilishini yuqoridagi jadvaldan ham ko'riniib turibdi. Og'ir tuproqlarning nam sig'imi engil tuproqlarnikiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Sizot suvlar yuza joylashganda tuproqlarning nam sig'imi yuqori bo'ladi.



7-rasm. Ishni bajarish ushun zarur anjomlar.

Laboratoriya mashg'ulotlari yaqtida tuzilishi buzilgan tuproqlar namunasi bilan ishlashga to'g'ri keladi. Bu esa olingen natijalarga ta'sir etadi. Garchi bunday sharoitda tuzilishi buzilmagan tuproqqa qaraganda ancha yaxshi natijalar olinsada, har xil tuproqlarning farqi va struktura holatlarini taqqoslashda ular to'la qonumiy bo'ladi.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida dala nam sig'imini bilish katta ahamiyatga ega, chunki ekinlarni sug'orishda sug'orish me'yorlarini, surʼ bo'ladi. Suv miqdorini ana shu nam sig'imiga qarab belgilanadi.

7-jadval

**O'zbekistondagi asosiy tuproqlarning nam sig'imi, %  
(S.N.Rijov ma'lumotlari)**

Mexanikaviy tarkibi har xil bo'lgan tuproqlar	Sizot suvlari 1,5 m dan pastda joylashgan o'tloqi- bo'z tuproqlar		Sizot suvlari 1,5 m dan yuqorida joylashgan o'tloqi botqoq tuproqlar	
	og'irli- giga nisbatan	hajmiga nisbatan	og'irdigiga nisbatan	hajmiga nisbatan
Soz tuproq	25	36,3	28	40,6
Og'ir qumoq tuproq	22	31,9	25	36,3
O'rtacha qumoq tuproq	19	27,6	22	31,9
Engil qumoq tuproq	16	23,2	19	27,6
Qumloq tuproq	13	18,9	16	23,2
Qumli tuproq	10	14,5	-	-

**4. ISHNI BAJARISH TARTIBI:** Laboratoriya sharoitida tuproqning nam sig'imiini quyidagicha aniqlanadi:

O'rganiladigan tuproqlar	Fraksivlar
Bedadan bo'shagan yer tuprog'i	3-2, 2-1, 0,5-0,25 mm
Eskidan haydalgan yer tuprog'i	3-2, 2-1, 0,5-0,25 mm
Qum	1-0, 0,75 mm

Tuproqning nam sig'imiini aniqlash uchun bo'z yoki o'tloqi-botqoq tuproqlar olinadi:

- Aniqlanishi lozim bo'lgan tuproq fraksiyalarning soniga qarab ostiga filtrli doka bog'langan shisha naylar olinadi.
- Tayyorlangan shisha nay tubidagi doka biroz ho'llanib, so'ngra tarozida tortiladi (a), g;
- Nayning 9/10 qismiga qadar tuproq yoki qum solib, kaftda yoki yumshoq narsa bilan asta-sekin zichlanadi.
- Tuproq yoki qum solingan nay tarozida tortiladi (b), g; hisobida.
- Quruq tuproq yoki qumning sof og'irligi hisoblab chiqiladi, (c) gr hisobida:

$$C = b - a$$

- Nay ichidagi tuproqning balandligi o'lchanadi (h), sm va nayning ichki diametri o'lchanadi, (d) sm hisobida.
- Tuproq yoki qum eg'allagan umumiylajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$V = \frac{\pi * d^2}{4} * h, \text{sm}^3$$

bu yerda  $V$  – tuproqning umumiylajmi,  $\text{sm}^3$  hisobida.

$\pi$  – cylana uzunligining diametriga bo'lgan nisbati  
(3,14 ga teng)

$d$  – nayning ichki diametri, sm hisobida.

$h$  – nay ichidagi tuproqning balandligi.

- Tuproqning hajm massasi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$V_1 = \frac{C}{g}; \text{g/sm}^3$$

bunda  $V_1$  – tuproqning hajm massasi,  $\text{g/sm}^3$  hisobida.

$V$  – tuproqning umumiylajmi,  $\text{sm}^3$  hisobida

$C$  – quruq tuproqning sof og'irligi, g hisobida.

- Tuproqli shisha nay suvli vannaga tushuriladi, unda vannadagi suvning satihi, naydagagi tuproqning balandligi bilan bir xil bo'lsin. Tuproq suvga to'yingandan keyin (tuproq yuzasi yaltiraydi) nayni suvdan olib gravitatsion suv to'liq oqib ketguncha alohida maxsus shisha idish ustiga qo'yiladi.

- Gravitasion suv oqib bo'lgandan keyin, tuproqli nayni vaqtiga bilan, har 10 minutda, doimiy og'irlikka kelguncha tarozida tortib turish kerak:

$$f_1, f_2, f_3, \dots, f_n$$

11. Tuproqda ushlariib qolgan suvning og'irligini hisoblab chiqariladi:

$$q = f_n - b, g$$

12. Tuproqning quruq og'irligiga nisbatan muayyan (dala) nam sig'imini ( $\beta$ ) ni hisoblab chiqariladi.

**C - 100**

$$q = \beta$$

$$\beta = \frac{q \cdot 100}{c}$$

13. Tuproq band qilgan hajmdan muayyan (dala) nam sig'imini hisoblash.

**V - 100**

$$q = \beta$$

$$\beta = \frac{q \cdot 100}{v}$$

Oliqan asosiy ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun quyidagicha yig'ma jadval to'ldiriladi.

*8-jadval*

### Tuproqning dala nam sig'imini aniqlashga oid yig'ma jadval

Tuproq nomi	Fraktsiyalar o'lchanisi, mm	Tuproq hajmiy og'irligi, g/sm <sup>3</sup>	Dala nam sig'imi, % hisobida	
			Tuproq og'irligiga nisbatan	Tuproq hajmiga nisbatan

Ishlab chiqarish amaliyoti uchun xulosa qilinadi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Tuproqning nam sig'imi va uning turlarini ayting.
2. Tuproqning nam sig'imi qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.
3. Tuproqning nam sig'imi mimalarga bog'liq bo'ladi?
4. Tuproqning maksimal dala nam sig'imi aniqlash usulini ayting.
5. Tuproqning nam sig'imi aniqlashda qaysi formulalardan foydalilanildi?

## 5-MASHG'ULOT

### HAR XIL TUPROQLARNING SUV O'TKAZUVCHANLIGINI ANIQLASH (Zurov usuli)

**1. ISHNING MAQSADI:** Tuproqning suv o'tkazuvchanlik xususiyatlari to'g'risida nazari va amaliy bilimlarga ega bo'ladilar, Tuproqning suv ko'tarish hususiyatlarini tajribada o'rGANADI va xulosa qiladilar. Mashg'ulotlar 4 kishidan iborat guruqlar uchun 2 yoki 4 soatga mo'ljallanadi.

**2. ZARUR NARSALAR:** *Shisha naylar, kolba, doka, filtr qog'izi, shtatvlar, qumli saat, sekundamer, suv o'chagich.*


#### **3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:**

Tuproqning suv tortish kuchi va kapillyar kuchlar ta'sirida suvni yuqori qatlamlardan pastki qatlamlarga o'tkazish xususiyati *suv o'tkazuvchanlik* deb ataladi.

Tuproqning bu muhim fizikaviy xususiyati o'simlik va mikroorganizmlar hayotida muhim rol o'yynaydi. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi tuproq unumdarligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Suv o'tkazuvchanlik vaqt birligi ichida o'tadigan suyuqlik miqdori bilan o'chanadi va *sm/sec, sm/min, sm/soat* bilan ifodalanadi.

Suv o'tkazuvchanlik darajasi har xil sharoitlarga: tuproqning mexanikaviy tarkibiga, strukturasiga, uning mustahkamligiga, tuzilishiga va shimalgan asoslarga bog'liqidir. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi almashlab ekish yo'li bilan tuproq strukturasini tiklash, yerga mahalliy va mineral o'g'itlar solish, yerni kuzgi shudgorlash va boshqa usullar yordamida yaxshilanadi.

Qumli va qumoq tuproqlar suvni yaxshi o'tkazishi bilan ajralib turadi, soz tuproqlar esa juda kam o'tkazadi. Suv o'tkazuvchanligi yaxshi va nam sig'imi kichik bo'lgan qumli va qumoq tuproqlar kichik miqdorda, lekin tez-tez sug'orishni talab etadi. Suv o'tkazuvchanligi kam, lekin nam sig'imi katta bo'lgan soz tuproqlar katta miqdorda, lekin kamroq



8-rasm. Ishni bajarish uchun  
zarur anjomlar.

sug'orishni talab etadi. Bir necha tuzlar birikmalari tuproq qatlaming suv o'tkazuvchanlik xususiyatini kamaytiradi.<sup>6</sup>

**4. ISHNI BAJARISH TARTIBI:** Suv o'tkazuvchanlik ikkita ko'sratkich bilan: mazkur qatlardan sizib o'tgan suv miqdori va muayyan qatlardan suvning sizib o'tish vaqtini bilan aniqlanadi.

O'r ganiladigan tuproqlar	Fraksiyalar
Beda ekilgandan keyingi tuproq	2-3, 1-2, 0,5-0,25 mm;
Eskidan haydalgan yer tuprog'i	2-3, 1-2, 0,5-0,25 mm;
Qum	0,75 – 1 mm.

Tuproqning suv o'tkazuvchanlik xususiyatini aniqlash uchun mexanik tarkibi har xil bo'lgan bo'z, o'tloqi, o'tloqi-botqoq va boshqa tuproqlar olinishi mumkin. Hisoblashlar ikkinchi belgigacha olib boriladi.

1. Tuproq fraktsiyasi miqdoriga qarab bo'y 20 sm, diametri 2,5-3 sm bo'lgan shisha naylar olinadi.

2. Har qaysi nayning pastki tomoniga filtr qog'ozni va doka bog'lab qo'yiladi.

3. Naylar 10 sm gacha tuproq: birinchi nay – yirik donador (2-3 mm), ikkinchisi – o'rtacha donador (1-2 mm), uchinchisi – changsimon (0,5-0,25 mm) agregatlar va to'rninchisi qum (0,75-1 mm) bilan to'ldiriladi.

Naydag'i tuproqni teng taqsimlash lozim, buning uchun uni yengil narsa bilan sekin-asta urib zichlanadi.

4. Tuproqning yuvilib ketishdan saqlash uchun ustiga yumaloq filtr qog'oz qo'yiladi.

5. Nay shtativning pastki halqasi ostiga – voronkaga o'matiladi. Voronka ostiga o'lchov stakanchasi qo'yiladi.

6. Nayning ichki diametri (d) o'lchanadi va quyidagi formulaga muvofiq, naylarning kesishish maydoni aniqlanadi:

$$W = \frac{\pi \cdot d^2}{4}$$

Bunda  $W$  – nayning ko'ndalang kesimini yuzasi,  $sm^2$ .

$\pi$  – aylananing diametriga nisbati; 3,14 ga teng.

d – nayning ichki diametri, sm.

3,14 va 4 – o'zgarmas sonlar.

<sup>6</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Samisundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 405 s.

7. Tuproqli nay ustidan suvli kolba (kolba shtativning yuqorigi balqasi ustiga o'rnatiladi) to'nikariladi va vaqt belgilab qo'yiladi.

8. Tuproq yuzidagi suv sathi 3-4 sm bo'ladi va nay dokasi orqali birinchi tomchi paydo bo'lishi kuzatiladi. Quruq tuproqning 10 sm qatlidan suv qancha vaqtida o'tgani belgilab qo'yiladi.

9. Natijalar suv tuproqning 10 sm li qatlidan sizib o'tishi uchun ketgan vaqt bilan belgilanadi va quyidagi formulaga muvofiq hisoblanadi:

$$V = \frac{h}{t}$$

bu yerda:  $V$  - suv o'tkazuvchanlik, sm/sek; sm/min.

$h$  - tuproq qatlami, sm.

$t$  - suv filtrlanish vaqt, min yoki sek.

Talabalar suv o'tkazuvchanlikni quyida ko'rsatilgan usul bilan ham aniqlashi mumkin. Ishni bu usulda o'tkazish uchun 4 soat vaqt ajratiladi.

10. Tuproq qatlami orqali 15 minutda o'tgan suv, ya'ni filtrlangan suv 3 marta hisoblanadi ( $Q_1$ ;  $Q_2$ ;  $Q_3$ ).

11. Sarflangan suv miqdorini 3 marta kuzatish natijasida olingan ma'lumotlar to'planadi va kuzatishlar soniga bo'linadi:

$$Q = \frac{Q_1 + Q_2 + Q_3}{3}$$


bunda  $Q$  - suvning 15 minut ichidagi o'rtacha sarfi,  $sm^3$ .

$Q_1$ ,  $Q_2$ ,  $Q_3$  - tegishli kuzatishlordingi suv sarfi,  $sm^3$ .

12. Quyidagi formula yordamida suv o'tkazuvchanlik aniqlanadi:



9-rasm. Tuproqning suv o'tkazuvchanligini aniqlash.



10-rasm. Tuproqning suv ko'tarilish xususiyatini aniqlash.

$$Q_4 = \frac{Q * 60'}{W * 15'}$$

bu yerda  $Q_4$  - suv o'tkazuvchanlikka sarflangan suv miqdori, sm/soat.

$Q$  - suvning 15 minut ichidagi o'rtacha sarfi, sm<sup>3</sup>.

$W$  - nayning kesishish maydoni, sm<sup>2</sup>.

60' va 15' - o'zgarmas sonlar.

13. Asosiy ko'rsatkichlarni taqposlash oson bo'lishi uchun yig'ma jadval tuziladi.

14. Qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish uchun xulosalar qilinadi.

9-jadval

Yig'ma jadval, (tuproq qatlami orqali suv o'tgan vaqt)

Tuproq nomi	Fraktsiyasi-ning o'lchami, mm	Naylarning kesishish sathi, sm <sup>2</sup>	Suvni o'tish tezligi sm/mi n	15 minutdagi o'rtacha suv sarfi (Q), sm <sup>3</sup>	Suv o'tkazuvchanlik (Q <sub>4</sub> ), sm/soat

Nazorat uchun savollar:

1. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi deb nimaga aytildi?
2. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi nimalarga bog'liq?
3. Tuproqning suv o'tkazuvchanligining ahamiyati.
4. Tuproqning suv o'tkazuvchanligini aniqlash tartibini aytинг.

## 6-MASHG'ULOT

### TUPROQNING SUV KO'TARISH XUSUSIYATINI ANIQLASH (Suvning ko'tarilish balandligi va tezligi, Zaurov usuli)

1. ISHNING MAQSADI: Tuproqning suv ko'tarish xususiyatlari, qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va suv ko'tarish xususiyatiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini tajribada o'rGANADI va xulosa qiladilar.

**2. ZARUR NARSALAR:** *shisha naychalar, doka, filtr qogoz, shativ, tuproq yoki qum, suv varnachasi, soat, suv, mm.li qogoz va mum qalam.*

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproqning suvni kapillyar oraliqlar orqali pastki qavatlaridan yuqoriga ko'tarish xususiyatiga suv ko'tarish xususiyati deb ataladi. Suv ko'tarish xususiyati kapillyar namlikning ko'tarilish balandligi va uning harakat tezligi bilan ifodalanadi va sm/sek yoki sm/min bilan belgilanadi.

Tuproqning suv ko'tarish xususiyati qishloq xo'jaligida ikki tomonlama ahamiyatga ega, chunki o'simliklar ildizi sarf qiladigan suvning to'ldirilib turishiga va tuproqning bug'latish xususiyatiga bog'liq.

Tuproq zarrachalari qancha kam va tuproq qancha kukunlangan bo'lsa, uning suv ko'tarish kuchi shuncha sezitadi - kapillyar namlik yuqoriga ko'tariladi. Yirik g'ovakli va donador tuproqlarda suv tez, lekin kichik balandlikka ko'tariladi. Strukturali tuproqlarda strukturasiz tuproqlarga qaraganda suv sekin ko'tariladi. Zich tuproqlarning suv ko'tarish xususiyati g'ovak tuproqjarnikiga qaraganda kuchli bo'ladi.

Tuproqning harorati ko'tarilishi bilan suvning kapillyarlardagi harakati kuchayadi, ko'tarilish balandligi esa pasayadi. Suvning kapillyarlarga ko'tarilishi nam tuproqda quruq tuproqdagidan yuqori bo'ladi.

Tuproq mayda zarrachalari ning quyqalashib qolishiga sabab bo'ladigan Ca, Mg tuzlari uning suv ko'tarish xususiyatini pasaytiradi.

Na, K, NH<sub>4</sub> tuzlari tuproq strukturasini buzib uni mayda zarrachalarga aylantiradi.

Namlikning har xil shakllari orasida kapillyar namlik ekinlar uchun katta ahamiyatga ega. Chunki u tuproq yuzasidan nam bug'lanib ketishi va o'simliklar transpiratsiyasiga qarab tuproqning pastki qatlamlaridan yuqoriga ko'tarila boradi.



11-rasm. Talabalarning ishni bajarish jarayoni.

Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini o'rganishga oid tajribalar o'tkazish uchun olingen tuproq xillari va fraksiyalarning soniga qarab talabalar kichik guruhlarga bo'linadi.

#### 4. ISHNI BAJARISH TARTIBI:

a) balandligi 20 sm, diametri 1 sm bo'lgan shisha naylar (tuproq fraktsiyasiga qarab) olinadi va uchiga doira shaklli filtr qog'oz bilan doka bog'lab qo'yiladi;

b) mm. li qog'oz va mum qalam yordamida nay 2 sm, dan qilib bo'laklarga bo'linadi;

d) har bir naychaga tuproq yoki qum solinadi, yumshoq narsaga bir necha marta urib bir tekis joylashtiriladi. So'ngra ular shtativga o'rnatiladi va vannachalardagi suv yuzasiga tushiriladi;

e) tajriba boshlangan vaqt belgilab qo'yiladi; suv tuproqni kapillyar ho'llab, belgilangan bo'lakka yetgan vaqt aniqlanadi va natijalar 10-jadvalga yozib qo'yiladi.

Tuproq bir tekis ho'llanmaganda kapillyar ko'tarilishning o'rtacha kattaligi topiladi; f) kuzatish 30 min. davomida olib boriladi va quyidagi formulaga muvofiq har bir 2 sm bo'lak uchun shu jumladan: 1) boshlang'ich (birinchi bo'lak uchun); 2) oxirgi (oxirgi bo'lak uchun) va 3) o'rtacha (barcha bo'laklarning yig'indisidan) ko'tarilish tezligi hisoblab chiqiladi:

$$V = \frac{S}{t}$$

bu yerda  $V$  – suv ko'tarilish tezligi, sm/min yoki sm/sek;

$S$  – o'tilgan yo'l, sm;

$t$  – vaqt, min yoki sek.

Har bir guruhning kuzatish ma'lumotlari 10-jadvalga alohida, barcha gurublarning oxirgi natijasi esa 11-yig' majadvalga yoziladi.

10-jadval

Suv ko'tarish xususiyatini aniqlash jadvali

Tup-roq-ning nomi	Frak-siyalar o'lcha-mi mm	Ku-zar-tish vaqt-i	Ko'tari-lishning umumiyligining bo'laligini, ( $\Sigma S$ ), sm	Ko'tarilish davri (t), min yoki (S), sm	Ko'tarilish davri (t), min yoki sek.	Ko'tarilish tezligi (V), sm/min, sm/sek

Suv ko'tarilishining o'rtacha tezligi quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$V_2 = \frac{\Sigma S}{\Sigma t}$$

bu yerda  $V_2$ - suv ko'tarilishining o'rtacha tezligi sm/min yoki sm/sek;

$\Sigma S$  - yo'ning boshlanishidan oxiriga bo'lgan oraliqlar yig'indisi, sm

$\Sigma t$  - tajriba boshlangandan to oxirigacha suv o'tgan vaqt yig'inisi min yoki sek.

g) har xil fraktsiya va tuproqlarga qarab turli balandlikda suv ko'tarilishi tezligi o'zgarishining grafigi tuziladi.

h) ishlab chiqarish amaliyoti uchun xulosalar chiqariladi.

### II-jadval Suv ko'tarish xususiyatini aniqlashga doir yig'ma jadvali

Tuproq nomi	Frak-siyalar o'chhami, mm	Ko'tarilishning unumiy balandligi, ( $\Sigma S$ ), sm	Ko'tarilish davri ( $\Sigma t$ ), min yoki sek.	Ko'tarilish tezligi (V), sm/min, sm/sek		
				Boshlang'ich V <sub>0</sub>	Oxirgi, V <sub>1</sub>	O'rtacha, V <sub>2</sub>

#### Nazorat uchun savollar:

1. Tuproqning suv ko'tarish xususiyati deb nimaga aytildi?
2. Suv ko'tarish xususiyatining ahamiyatni.
3. Tuproqning suv ko'tarish xususiyati nimalarga bog'liq?
4. Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini aniqlashda tajribani o'tkazish tartibini aytинг va formulalarini yozing.

## 7-MASHG'ULOT TUPROQNING TEKNOLOGIK XOSSALARINI ANIQLASH

**1.ISHNING MAQSADI:** Tuproqning texnologik xossalari va uni aniqlash bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo'ladir.

Tuproqning texnologik xossalari tajribada o'rganadi va xulosa qiladilar.

**2. ZARUR NARSALAR:** *tuproq, qovushqoqlikni aniqlash uchun Atterberg asbobi, 3 mm li teshikchali elak, torozi, termostat, pichaq, chizg'ich, tuproq, 30 sekamli qum sozat, sekudamer, 2 dona chinni kosacha, 100 sm<sup>3</sup> li o'lchov slindri, nikel shpatel, shisha tayogcha.*

### **3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:**

*Tuproqni qovushqoqligi.* Tuproqning shaklini o'zgarishiga ta'sir etadigan tashqi kuchlarga qarshi tura olish xususiyati uning qovushqoqligi deyiladi. Yerni ishlash jarayonida qovushqoqlik muhim ahamiyatga ega. Tuproqning qovushqoqligi qancha yuqori bo'lsa, unga ishlov berish shuncha qiyinlashadi.

Tuproqning qovushqoqligi ko'pgina omillarga bog'liq. Strukturali tuproqlar strukturasiz tuproqlardan kam qovushqoqligi bilan farq qiladi. Bu jihatdan tuproqning mexanikaviy tarkibi muhim ahamiyatga ega. Yengil (qumli va qumoq) tuproqlar og'ir soz va qumoq tuproqlarga qaraganda kam qovushqoq bo'ladi. Tuproqning qovushqoqligi uning namlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Og'ir tuproq qancha quruq bo'lsa, qovushqoqligi shuncha yuqori bo'ladi.

Yengil tuproqlarning qovushqoqligi namlik ortiqcha yoki kam bo'lganda kamayadi. Bundan tashqari, qovushqoqlik singdirilgan asoslarga ham bog'liq.

Tuproqda ikki valentli kationlar (Ca, Mg, Fe) bir valentli kationlar (Na, K) qaraganda ko'p bo'lsa qovushqoqlik kam bo'ladi. Buni ikki valentli kationlar tuproq mayda zarrachalarining kaogullanishiga bir valentli kationlar esa aksincha, uning maydalananishiga (disperslanishiga) imkon beradi, deb tushuntirish mumkin.

Tuproq qovushqoqligini aniqlashning turli usullari bor. Misol tariqasida Atterberg usulini keltiramiz. Qovushqoqlik laboratoriya sharoitida aniqlanadi.

### **4. ISHNI BAJARISH TARTIBI:**

a) tuproq 3 mm li teshikli elakda elanadi, so'ngra suvgaga aralashtiladi va olingan massadan bir xil massada tomonlari 2x2x2 sm bo'lgan kubiklar yasaladi. Ko'rsatilgan o'lchamdagisi kubiklarning tuzilishiga halal bermay, ular tuproqdan kesib tayyorlanishi ham mumkin.

b) tuproqdan olingan kubik 100°C- haroratda quritish uchun termostatga qo'yiladi va doimiy o'zgarmas og'irlikkacha quritiladi;

d) quritilgan tuproq maydonchalar oralig'ida taxtacha tagiga ko'chiriladi;

e) kubiklar ezilib ketmaguncha, Atterberg asbobining yuqori taxtachasiga har xil og'irlilikdagi toshlar qo'yila beradi (12-rasm).

Tuproqning qovushqoqligi qo'yilgan yukning og'irligi bilan aniqlanadi.

Atterberg usuliga ko'ra, qovushqoqligiga qarab tuproqlar quyidagi guruhlarga bo'lindadi:

1. Ezilishi uchua 31-60 kg yuk talab qiladigan soz tuproq;
2. Ezilish uchun 16-30 kg yuk talab qiladigan qumoq tuproq;
3. Ezilishi uchun 8-15 kg yuk talab qiladigan engil qumoq tuproq;
4. Ezilishi uchun 7 kg gacha yuk talab qiladigan qum tuproq.

*Tuproqning plastikligi.* Atterberg kuzatish lariga ko'ra, har xil miqdorda suv saqlagan tuproqlar turlicha xususiyatga ega, ba'zan ular oquvchan, yarim oquvchan, yopishqoq, yaxshi shakllanadigan va cho'ziladigan bo'ladi. Bu farqlarni raqamlarda ko'rsatish uchun tuproq xossalari o'zgaradigan chegarani topish kerak. Tuproq xossalari o'rganish uchun Atterberg quyidagi chegaraiarni belgilagan:

1) *oqishning yuqori chegarasi* – bunda tuproq tarkibida suv juda ko'p bo'lganidan u suv kabi oqadi;


2) *oqishning quyi chegarasi* – bunda tuproqda qilingan ikki bo'lak va kosachaga solinib, kuchli bosilganda tezda bir-biriga qo'shilib ketmaydi;

3) *yopishqoqlik chegarasi* – bunda tuproq metalldan yasalgan narsalarga yopishmaydi;

4) *buralish chegarasi* – bunda tuproqdan tayyorlangan loy ip holigacha buralmaydi;

5) *plastiklik chegarasi* – bunda tuproqdan tayyorlangan loy oqish chegarasidan yoki undan pastroqda ip holiga keladi.

Chegara holati 100 og'irlik qism tuproqda qancha og'irlik qism suv bo'lishiga qarab aniqlanadi. Plastiklikning kattaligi va uning



12-rasm. Tuproq qovushqoqligi aniqlanadigan Atterberg asbobi

chegarasi yerni ishlash sifatiga ta'sir ko'rsatadigan fizik-mexanikaviy va kimyoviy kossalarining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Soz tuproqlar qumoq tuproqlarga, qumoq tuproqlar qumli tuproqlarga qaraganda yuqori plastiklikka ega bo'ladi.

Tuproq xossalari o'zgarishining chegarasi (E.I.Zaurov modifikasiyasini bilan) har bir chegara belgilanganidan so'ng Atterberg tavsya etganidek, nam tuproqni quritish bilan emas, balki oquvchanlikning yuqori chegarasini aniqlash uchun tuproq namunasi olish (40 g) va uni aniqlash uchun sarflangan suv sarfini o'chash bilan aniqlanadi. Keyingi aniqlashlar uchun oquvchanlikning yuqori chegarasi aniqlangandan keyin suv hajmi doimiy bo'lib qoladi, faqat navbatdagi chegarani aniqlash uchun avvalgi 40 g namunaga qo'shilgan tuproqning og'irligi o'zgaradi.

*Oqishning yuqorgi chegarasini aniqlash uchun:*

- a) mutloq quruq tuproq 1 mm li teshikli elakdan o'tkaziladi;
- b) 40 g tuproq (A) tortiladi;
- c) tuproqdagi yumaloq 1-chinni kosachaga solinadi;
- d) o'chov slindriga 100 sm<sup>3</sup> suv quyiladi;
- e) uzluksiz aralashtirib turgan holda tuproq oqadigan suyuq holga kelguncha asta-sekin suv quyib turiladi;
- f) kosachadan shisha tayoqcha yordamida egatcha olinadi. Agar bu egatcha 30 sek davomida qo'shib ketcta bu oqishning yuqori chegarasi bo'ladi;
- g) oqishning yuqori chegarasini hosil qilish uchun sarflangan suv hajmi (V) o'chishadi;
- i) tuproqning 100 og'irlilik qismiga to'g'ri kladigan oqishning yuqori chegarasi (kub santimetri yoki foizlarda) hisoblanadi:

A - V

100 -- x

$$x = \frac{V * 100}{A}$$

*Oqishning quyi chegarasini aniqlash uchun:*

- a) 2-kosachada 1 mm li teshikli elangda elangan 60 g quruq tuproq tortib olinadi;
- b) oqishning yuqorgi chegarasi aniqlangan avvalgi tajribadagi birinchi kosachaga (tuproq va suvli) 2-kosachadan quruq tuproq qo'shiladi va metall shpatel bilan yaxshilab aralashtiriladi. Qorilgan

massa kosachada shpatel bilan bir xil qalnlikda taqsimlanadi; so'ngra bir-biridan 0,5 sm oraliqda bo'lgan ikkita teng qisimga ajratiladi;

d) kosachaga bir necha marta qattiq uriladi. Agar ajratib qo'yilgan qismlar past tomonidan bir oz qo'shilib ketsa ham, chegara aniqlangan bo'ladi;

e) 2-kosachadagi quruq tuproq qoldig'i (a) tortiladi;

f) oqishning quyi chegarasini aniqlash uchun sarflangan tuproqning og'irligi (T) hisoblanadi:

$$T = (60 - a + A)$$

g) oqishning tuproqning 100 og'irlilik qismiga to'g'ri keladigan quyi chegarasi (kub santimetr yoki foizlarda) hisoblanadi:

$$\frac{T - V}{100 - x} = \frac{V * 100}{T}$$

*Yopishqoqlik chegarasini aniqlash uchun:*

a) 1-kosachaga avvalgi tajribadagi qorishmani tashlab yubormay turib (oqishning quyi chegarasini aniqlagandan so'ng) 2-kosachadan quruq tuproq qo'shiladi va nikelli shpatel massaning yuqori qismidtan o'tkazilayotganda mazkur tuproqdan ajralmaguncha, ya'ni yopishqoqlik chegarasi topilmaguncha aralashtiriladi;

b) 2-kosachadagi quruq tuproq qoldig'i (b) tortiladi;

d) yopishqoqlik chegarasini aniqlash uchun sarflanadigan tuproqning og'irligi hisoblanadi:

$$C = T + a - b$$

c) tuproqning 100 og'irlilik qismiga to'g'ri keladigan yopishqoqlik chegarasini (kub santimetr yoki foizlarda) hisoblab topiladi:

$$\frac{C - V}{100 - x} = \frac{V * 100}{C}$$

*Yumaloqlanish chegarasini aniqlash uchun:*

a) yopishqoqlik chegarasi aniqlangandan keyin 1- kosachaga 2-kosachadan quruq tuproq solinadi va yaxshilab aralashtiriladi;

b) tuproq qorishmasining bir bo'lagi qog'oz ustida unga nylanguncha barmoqlar bilan yoyiladi. Bundan ipni shunday yoyish kerakki, u bo'yiga cho'zilib ketsin. Ipchalar bo'lakchalarga ajrala bochlaganda yumaloqlanish chegarasi aniqlangan bo'ladi;

c) 2-kosachadagi quruq tuproq qoldig'i (D) tortiladi;

d) yumaloqlanish chegarasini aniqlash uchun sarflangan tuproqning og'irligi topiladi:

$$K = C + b - D$$

f) tuproqning 100 og'irlilik qismiga to'g'ri keladigan yumaloqlanish chegarasi (kub santimetr yoki foizlarda) hisoblanadi:

$$K = V$$

$$100 \text{ g} - x$$

$$x = \frac{V * 100}{K}$$

*Plastiklik chegarasini aniqlash.* Tuproqning plastikligi oqishning yuqori chegarasi bilan yumaloqlanish chegarasi o'rtasidagi farqqa qarab aniqlanadi. Tuproqning plastikligi, qovushqoqligi kabi, yerga ishlov berish sifatiga ta'sir qiladigan fizik-mekanikaviy va kimyoviy xossalarga bog'liq. Haydalgan yerning strukturaliligi, yirik kesakchaliligi va boshqalar tuproq plastikligining kattaligiga bog'liq.

Yig'ma jadval tuzish va xulosa chiqarishda tuproqning 100 og'irlilik qismiga to'g'ri keladigan suvning og'irlilik qismidagi tuproqning texnologik xossalariiga asoslaniladi.

12-jadval

### Tuproqning texnologik xossalariini aniqlashga doir yig'ma jadval

Tuproq turi	Oqishning yuqorigi chegarasi	Oqishning pastki chegarasi	Yopish-qoqlik chegarasi	Yumaloqlanish chegarasi	Plastiklik chegarasi

### Nazorat uchun savollar:

1. Tuproqning texnologik xossalariiga nimalar kiradi?
2. Tuproqning qovushqoqligi nima?
3. Tuproqning plastikligi deb nimaga aytildi?
4. Tuproqning plastligini aniqlash tartibini aytинг.

## 8-MASHG'ULOT TUPROQNING NAMLIGINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Tuproqning namligi va uni aniqlash bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo'ladilar. Tuproqning namligini qatlamlar bo'yicha tajribada o'rganadi va xulosa qiladilar.

**2. ZARUR NARSALAR:** *Burg'u, raqamlangan alyumin yoki shisha stakanchalar, texnik tarozi, qoshiq, pichoq, termostat, eksikator. Burg'u bo'lmaganda belkurak.*

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:** Suv tirik organizmlarning, jumladan o'simliklarning hayot omili: o'simlik urug'ining unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tuproqdagi oziq moddalarning o'zlashtirilishi o'simlik tanasida boradigan barcha fizioligik jarayonlar suvli muhitda kechadi. Tuproqning suv rejimini boshqarish ekinlardan yuqori hosil olishda eng muhim tadbirlardan hisoblanadi.


Tuproq va o'simlik uchun namlik juda muhimdir. O'simlik suv bilan yetarli ta'minlangandagina unda o'sish, rivojlanish jarayonlari yaxshi o'tadi. Tuproq zarralari atrofida hosil bo'lgan yupqa suv pardasi kapillyar g'ovakliklar orqali adgeziya, kogeziya va yuqori bosim chegaralariga ajratiladi.<sup>7</sup>

O'simlik tanasining 90% ni suv tashkil etadi. O'simlikning turli qismlaridagi suv miqdori quyidagicha farq qiladi:

- ❖ Ildizning asosiy va so'ravchi qismida > 90%.
- ❖ Poyasi, barglari va mevasida 70-90%
- ❖ Yod'och qismida 50-60%
- ❖ Etilgan qismida 15-20%
- ❖ Yangi yig'ishtirilgan donda 15-20%

Suv barcha metabolik jarayonlarda asosiy mineral sifatida ishtirot etadi. O'simlik tizimidagi barcha metabolik va biokimyoiy reaksiyalar uchun suv kerak bo'ladi.

- ❖ U gaz almashinuvi (nafas olish) va transpiratsiya jarayonida muhim rol o'ynaydi.
- ❖ U fotosintezda muhim rol o'ynaydi.
- ❖ O'simlikning jadal o'sishi va vegetativ va generativ organlarning o'sishi jaryonida faol ishtirot etadi.



**13-rasm. Tuproq namunasasi olinadigan burg'u.**

1 – raqamlangan shtanga;  
2 – ushbagich; 3 – silindr

<sup>7</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 253 bet.

- ❖ Tuproqdan oziq moddalarning o'simlik tizimiga o'tishida muhim rol o'ynadi.
- ❖ U transpiratsiya hisobiga temperaturani saqlab turadi.
- ❖ O'simlik tanasini tik tutib turish uchun yordam beradi.
- ❖ U oziq moddalarni o'simlik tanasda tashishiga (transportirovkasiga) yordam beradi.<sup>8</sup>

*Tuproq namligi* mutloq quruq tuproqning og'irligiga yoki hajmiga nisbatan foizda ifodalangan suv miqdoridir. Tuproq namligi undagi suv zahirasini bilish, sug'orish va yerni ishlash muddatlarini belgilash uchun aniqlanadi. Ba'zi tekshirishlarda tuproq namligi ekish oldidan, shuningdek, har bir sug'orishdan oldin va keyin aniqlanadi.



14-rasm. Tuproqdan namuna olish jarayoni.

O'zbekistonning sug'oriladigan tumanlarida 1-2 m gacha chuqurlikda har 10 sm qatlardan keyin 0-10, 10-20, 20-30 va b.o. namunalar olinadi. Namuna olinayotgan vaqtida haydalma qatlari bilan haydalmaydigan qatlari tagini aralashtirib yuborilmaslik juda muhimdir. Shuning uchun yer 25 yoki 35 sm chuqurlikda haydalganda quyidagi: 0-5, 5-15, 15-25, 25-35 sm va hokazo qatlamlardan namuna olish tavsiya etiladi.

Tuproq namligi aniqlashning bir necha usuli bor: 1) termostatda quritish; 2) spirit yoqib quritish; 3) B.E.Kabayev usuli; 4) parafin; 5) pilnometr; 6) gammaskopik quritish; 7) K.N.Chijova asbobida tez quritish; 8) karbidli quritish va boshqalar.

#### *Namlikni aniqlash uchun tuproq namunasi olish*

Tuproq namunasi qatlamlar bo'yicha burg'u yordamida yoki maxsus chuqurdan pichoq bilan kesib olinadi (14-rasm).

Birinchi holda burg'u tuproqqa ma'lum chuqurlikkacha kiritiladi, patrondag'i tuproqni pastki qatlardan ajratish uchun u aylantiriladi va ehtiyyotlik bilan chiqarib olinadi. Aniqlanadigan qatlari tuprog'inining namunasi kosachaga solinadi va aralashtiriladi. Kosachaning turli

<sup>8</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 343 6er.

qismlaridan qoshiq bilan o'rtacha namuna olinadi va oldindan tortib qo'yilgan alyumin stakanchaga solinib, usti qopqoq bilan yaxshilab berkitib qo'yiladi. Tuproq miqdori (30-40 g) stakanchaning 3/4 hajmidan oshmasligi kerak. Namuna har bir belgilangan qatlardan 2-3 qayta olinadi. Olingen namuna tekshiriladigan barcha qatlarni uchun o'rtacha namlikni aniqlashga imkon beradi.

Namuna tuproq chuquri (razrezi)dan qatlamlar bo'yicha pichoq bilan kesib olinadi. Keyingi ishlar burg'u bilan namuna olingandagi kabi bajariladi. Suv kam bug'lanishi uchun namuna ertalab yoki kechqurun olinadi. Tuproqli stakanchalar quyoshtan himoyalab soya joyga qo'yiladi, keyin xonada quritiladi.


*Termostatda quritib tuproq namligini aniqlash.*

Buning uchun:

- a) qopqoqli raqamlangan alyuminiy stakanchalarning og'irligi (a) aniqlanadi;
- b) tuproq namunasi (b) stakanchalar bilan tarozida tortiladi;
- c) nam tuproqning sof og'irligi (c) aniqlanadi;

$$c = b - a$$

c) tuproq namunasi termostatda 105°C haroratda o'zgarmas og'irlikkacha taxminan 5-6 soat davomida quritiladi va keyin eksikatorda sovitiladi (15-rasm).



**15-rasm. Olingen tuproq na'munalarini termostatda (quritish shkafi) quritish.**

- f) mutloq quruq tuproqli stakancha og'irligi (g) aniqlanadi.
- g) mutloq quruq tuproqning sof og'irligi (d) topiladi.

$$d = g - a$$

h) nam tuproq (*c*) va mutloq quruq namunauing og'irligi (*d*) o'rtaсидаги farqqa qarab, bug'langan suv miqdori aniqlanadi;

$$e = c - d$$

i) quyidagi proportsiyadan tuproq namligining miqdori foiz hisobida aniqlanadi:

$$d - 100 \%$$

$$e - x \%$$

Olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalga yoziladi.

13-jadval

### Tuproq namligini aniqlash bo'yicha ma'lumotlarni qayd etish jadvali

Namuna olingan joy	Namuna olingan vaqt	Stakanchanting raqami	Qatlam, sm,	Bo'sh ( <i>a</i> )	Nam tuproqli ( <i>b</i> )	Mutloq quruq tuproqli, ( <i>c</i> )	Nam, ( <i>y</i> )	Mutloq quruq ( <i>d</i> )	Bug'-langan suvning og'irligi, g ( <i>e</i> )	Namlik %

#### Nazorat uchun savollar:

1. Tuproqning namligi deb nimaga aytildi?
2. Tuproq namligini aniqlashning qaysi usullari bor?
3. Tuproqning namligini aniqlash formulalarini yozing.
4. Tuproq namligini termostatda aniqlash tartibini aytинг.
5. Spirtni yondirib tuproq namligini aniqlash qanday bajariladi?

### 9-MASHG'ULOT TUPROQNING NAMLIGINI KABAYEV USULIDA ANIQLASH

1. **ISHNING MAQSADI:** Tuproqning namligini Kabayev usulida aniqlash bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo'ladilar. Tuproqning namligini qatlamlar bo'yicha tajribada o'rjanadi va xulosa qiladilar.

**2. ZARUR NARSALAR:** *Burg'u, raqamlangan alyumin yoki shisha stakanchalar, tarozi, qoshiq, pichoq, suv o'lchagich, chinni kosacha, chizg'ich. Burg'u bo'lmaganda belkurak.*

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI.** Tuproq namligi dala sharoitida V.E.Kabayevning tezlashtirilgan uslubi bo'yicha taxminan aniqlanishi mumkin. Buning uchun turli chuqurliklardan olingan tuproq namunasi 3 ml suv solingan chinni idishchaga solinadi va aralashtiriladi. Hosil bo'lgan loydan sharcha yasalganda uning sirtida mayda qilsimon darzchalar paydo bo'lguncha tuproq qo'shib boriladi. So'ngra sharcha diametri o'lchanib, maxsus shkala yordanida unga mos kcluvchi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan aniqlanadi (14-jadval).

*14-jadval*

**V.E.Kabayev uslubi bo'yicha tuproq namligini aniqlash sxemasi**

Sharcha diametri, mm	Namligi, foiz	Sharcha diametri, mm	Namligi, foiz
30	48,80	37	72,71
31	53,39	38	74,80
32	57,81	39	76,69
33	61,53	40	78,40
34	64,83	41	79,94
35	67,75	42	81,31
36	70,37		

**Nazorat uchun savollar:**

1. Tuproqning namligi Kabayev usulida qanday aniqlanadi?
2. Tuproq namligini aniqlashda qancha tuproq olinadi?
3. Tuproqning namligini aniqlash shkalasi qanday?
4. Tuproq namligini sharcha orqali qanday aniqlaymiz?

**10-MASHG'ULOT  
TEKINXO'R VA KAM YILLIK BEGONA O'TLARNING  
TA'RIFI**

**• 1. ISHNING MAQSADI:** Bu qismda talabalar begona o'tlarning zarari, klassifikatsiyasi, biologik guruh va guruhchalarga bo'linishi, dalalarda uchraydigan tekinxo'r, bir yillik va ikki yillik begona o'tlar va ulaming tasnifi bilan tanishadilar.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, gerbariyalar, adabiyotlar.

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI.** Begona o'tlar haqida tushuncha va ularning dehqonchilikka keltiradigan zarari. Insonlar tomonidan ekilmaydigan, lekin madaniy o'simliklar orasida o'sadigan va ularga zarar keltiradigan o'simliklarga begona o'tlar deyiladi.

Begona o'tlar sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida juda keng tarqalgan bo'lib, qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Begona o'tlar keltiradigan zararlarga quyidagilar kiradi:

- 1) tuproqdan juda ko'p miqdorda suvni o'zlashtiradi;
- 2) tuproqda oziq moddalarni kamaytiradi;
- 3) tuproqqa ishlov berishlar soni ortadi;
- 4) qishloq xo'jalik ishlarini mexanizatsiyalashtirishni qiyinlashtiradi (qishloq xo'jalik mashina va aggregatlarining ish organlarini sindiradi, tuproqqa ishlov berish sifatini pasaytiradi);
- 5) madaniy o'simliklarni soyalab qo'yadi;
- 6) ekinlarning yotib qolishiga olib keladi (masalan, qo'ypechak va toron);
- 7) kasallik va zararkunandalarning tarqalishiga sabab bo'ladi (qo'ypechak, bo'ztikan, yantoq kabi begona o'tlar o'rgimchakkana, shira, karadrina va g'o'za tunlamini tarqatuvchi, yovvoyi turp, rango't va boshqalar karam kili, un shudring zamburug'larini tarqatuvchi, bug'doyiq esa g'alla zangi va boshqa zamburug' kasalliklarining rivojlanish manbai hisoblanadi);
- 8) olingen hosil sifatini pasaytiradi;
- 9) odam va hayvonlarning zaharlanishiga olib keladi (akonit, bangidevona, mingdevona, tuyaqorin, g'umay, yosh vaqtida urug'ida hamda vegetativ organlarida zaharli moddalar saqlovchi boshqa o'simliklar).
- 10) sug'orish tarmoqlaridan suvning isrof bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Ekinlar hosildorligini oshirish va hosil sifatini yaxshilash uchun begona o'tlarni puxta o'rGANISH va ularga qarshi kurashni to'g'ri yo'lg'a qo'yish lozim.

Begona o'tlar turlicha biologik xususiyatga ega bo'lganligi sababli ularni o'rGANISHGA kirishishdan avval ularni ba'zi xususiyatlariga ko'ra biologik guruhlarga bo'lib olish lozim.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston tuproqlarida begona o'tlarning 72 oilaga mansub 850 taga yaqin turlari uchraydi. Bunday ko'p sonli begona o'tlarni o'rghanish va ularga qarshi samarali kurashish uchun ularni tasniflash zaruriyati tug'iladi (15-jadval).

### *Begona o'tlar biologik guruhlarining tavsifi:*

*Parazit begona o'tlar.* Barcha begona o'tlar oziqlanish usuli, yashash davritning uzun-qisqaligi va ko'payish usullariga qarab guruhiarga bo'linadi.

Ular oziqlanish usuliga ko'ra parazit va noperazit begona o'tlarga ajratiladi.

Parazit begona o'tlarning ildizi ham, chin bargi ham bo'lmaydi, shuning uchun ular boshqa o'simliklarning poyasi va ildiziga chirmashib olib, ular hisobiga oziqlanadi. Ular, asosan urug'dan ko'payadi.

Parazit begona o'tlar o'z navbatida haqiqiy va yanim parazitlarga bo'linadi.

15-jadval

### **Begona o'tlar tasnifi**

Parazit begona o'tlar		Noperazit begona o'tlar	
Haqiqiy parazitlar	Yanim parazitlar	Kam yilliklar	Ko'p yilliklar
<p><i>1. Poya parazitlari:</i> beda zarpechagi, zigar zarpechagi, amerika zarpechagi, sebarga chirnovig'i va boshqalar.</p> <p><i>2. Ildiz parazitlari:</i> beda shumg'iyasi, misr shumg'iyasi, mutel shumg'iyasi va</p>	<p><i>1. Poya parazitlari:</i> oq oliga, Yevropa ryemnit-svetnigi va boshqalar.</p> <p><i>2. Ildiz parazitlari:</i> katta porgeomok, zubchatka, katta ochanka va boshqalar</p>	<p><i>1. Efemerlar:</i> lolaqizg'aldoq, yulduz o't va boshqalar.</p> <p><i>2. Bahorgi begona o'tlar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) ertagi bahorgi: yovvoyi suli, olabo'ta, oqsho'ra va boshqalar.</li> <li>b) kechgi bahorgi: yovvoyi gultojiho'roz, semizo't, shamak, ko'k itqo'noq, kurniak, tuyaqorin, ituzum, g'o'zatikan va boshqalar.</li> </ul> <p><i>3. Qishlovchi begona o'tlar:</i> jag'-jag'</p>	<p><i>1) o'qildizlilar:</i> otquloq, oqquray, qoqio't, sachratqi, kampirchopon.</p> <p><i>2) popuk ildizlilar:</i> bargizub, zubtanum</p> <p><i>3) ildizbachkilar:</i> qo'yechak, yantoq, kakra, qizlimiya;</p> <p><i>4) ildizpoyalilar:</i> g'umay, ajriq, qamish, qirqbo'g'im.</p> <p><i>5) tuganaklilar:</i> qirqbo'g'im, salomalaykum;</p> <p><i>6) piyozlilar:</i></p>

boshqalar		yarutka. 4. <i>Kuzgi begona o'tlar</i> : ro'vak, yal-tirbosh, qoramiq. 5. <i>Ikki yillik begona o'tlar</i> : qashqarbeda, sariq yovvoyi beda, paxtatikan, lattatikan, oqqartak, kurtena.	yovvoyi piyozi, dasht piyozi, tog'-piyozi. 7) <i>sudralib o'sur-chilar</i> : ayiqtovon, tugmabosh, olmos o't va boshqalar.
-----------	--	--	---

*Haqiqiy parazit begona o'tlar*. MDH davlatlari hududida haqiqiy parazit begona o'tlarning 38 ta turi uchraydi. Ularning barchasi bir yillik o'simliklar bo'lib, ular hamma o't o'simliklar, chala butalar, butalar, daraxtsimon o'simliklar poyasi va ildizida parazitlik qiladi. Parazit begona o'tlarning bargi va ildizi bo'lmaydi. Zarpechakda yaxshi rivojlanmagan tangacha shaklidagi barglar uchraydi. Bu guruhga kiradigan parazitlar deyarli hamma vaqt boshqa o'simliklarning shirasi hisobiga yashaydi. Tanasida xlorofill bo'lmanligi uchun barcha parazit o'simliklarda yashil rang bo'lmaydi. O'simliklarga yopishib yasbashiga qarab, ular poya va ildiz parazitlarga bo'linadi.

*Poya parazitlari*. Parazitlarning bu kichik guruhga pechak-guldoshlar (Cuscutaceae) oilasiga kiradigan zarpechaklarning barcha turi kiradi. O'zbekistonda madaniy ekinlar orasida zarpechakning 7 xil turi uchraydi. Ular karantin begona o'tlar hisoblanib, o'z navbatida ingichka poyali va yo'g'on poyali zarpechaklarga bo'linadi.

*Ildiz parazitlari*. Ularga shumg'yalaming barcha turi kiradi. Shumg'yaning 140 ga yaqin turi subtropik va mo'tadil iqlimiň mintaqalarda tarqalgan bo'lib, ulardan eng zararlişı quyidagilardir: shoxlagan nasha va tamaki shumg'iysi (*Orobanche ramosa* L.); kungaboqar shumg'iysi (*O. Cumana* Wacc); misr shumg'iysi (*O. acyptica*); mutel shumg'iysi (*O. muteli*); beda shumg'iysi, ya'ni



16-rasm. a) zarpechak,  
b) kungaboqar shumg'iysi

sariq shumg'iya (O. lutea). O'zbekistonda kungabooqar va misr shumg'iysi ko'proq uchraydi.

*Yarim parazit begona o'tlar.* Bu begona o'tlar Markaziy Osiyo davlatlarida tarqalmagan bo'lib, asosan Yevropada, Rossiyada uchraydi. Yarim parazit begona o'tlarning yashil barglari bo'lib, ular fotosintez qilish qobiliyatiga ega. Ularga katta rinantus (*Rhinanthus major*), katta pogryemok (*Alectorolophus major*), zubchatka (*Odontites rubra*), ochanka (*Euphra sia montana*) kabi o'simliklar kiradi.

*Noparazit begona o'tlar.* Begona o'tlarning bu guruhiga yashil bargi va ildiz tizimi bo'lgan, mustaqil hayot kechiradigan o'simliklar kiradi. Noparazit begona o'tlar o'suv davrining uzun yoki qisqaligiga qarab ikki katta guruhga: kam yillik va ko'p yillik o'tlarga bo'linadi.

*Kam yillik begona o'tlar* – butun hayotida bir marta hosil tugadi va hayotining uzun-qisqaligiga qarab, bir yillik va ikki yillik begona o'tlarga bo'linadi.

*Bir yillik begona o'tlar.* Bir yillik begona o'tlar eng ko'p tarqalgan biologik guruh hisoblanadi. Ularning ildiz tizimi ko'p yilliklarnikiga qaraganda ancha kuchsiz rivojlanganligi sababli ularni tuproqdan sug'urish oson bo'ladi. Ularning ildizi ingichka o'qildiz yoki popukildiz. Yer ustki qismi hamma vaqt o'tsimon. Yil davomida – bahor, yoz yoki kuzda – bir yillik begona o'tlar urug'dan unib chiqadi, gullaydi va hosil tugadi. Urug'i pishgandan keyin ular tezda nobud bo'ladi. Hozirgi vaqtida sug'oriladigan yerlarda bir yillik begona o'tlarning 520 dan ortiq turi uchraydi. Markaziy Osiyo sharoitida g'o'za va sug'oriladigan boshqa ekinlar dalasida ko'pincha shamak, ko'k yoki oq itqo'noq, olabo'ta, yovvoyi gultojixo'roz, qo'ytikan, qora ituzum, qurtena, tyemirtikan, qorako'za va boshqalar uchraydi.

Bir yillik begona o'tlar o'z navbatida urug'inimg unib chiqish muddatlariga qarab: 1) Efemerlar; 2) bahorgilar; 3) qishlovchilar va 4) kuzgilarga bo'linadi.

*Efemerlar.* Bu guruhga qor erib ketgandan keyin tez unib chiqadigan, urug'i unishidan to yangi hosili pishguncha 45-60 kun vaqt o'tadigan, o'suv davri issiq kunlar boshlanguncha tugaydigan (yulduzo't, lolaqizg'aldoq singari) begona o'tlar kiradi. Yulduzo'tga o'xshash ba'zi Efemer begona o'tlar yoz davomida bir necha bo'g'in beradi.

Lolaqizg'aldoq - ko'knoridoshlar oиласига mansub bo'lib, bo'yи о'ртacha 15-40 sm, poyasida sussimon shira bo'lgan, gullari yirik, yakka-yakka joylashган Efemer o'simlikdir. Poyasi tik o'suvchi, oddiy, qalim tukchalar bilan qoplangan. Lolaqizg'aldoq fevralning oxiri – mart oyining boshlarida unib chiqadi va aprel-may oyining boshlarida gullaydi. Mevasi may-iyun oyrida pishadi. Bir top o'simligida 25 mingtagacha urug' bo'ladi va urug'i unuvchanligini 15-25 yilgacha sanlaydi. Urug'lari faqat 1,5 – 2 sm chuqurlikdan unib chiqadi.

Yulduzo't – *Stellaria media* L. chinniguldoshlar (Saryophyllaceae) oиласига kiradi. Poyasi to'g'ri, ko'tarilgan yoki yotiq, sershox bo'lib, 60 sm gacha yetadi. Yulduzo't yer yuzasining hamma joyida uchraydi. U faqat Arktika va Alp tog'larida bo'lmaydi. Tomorqa va bog'larda, shuningdek, turar joylar yaqinida, yo'llar yoqasida, daryolar bo'yida juda ko'p uchraydi. U har xil tuproq sharoitlariga tezda moslashadi va nam joylarda ayniqsa, yaxshi rivojlanadi. Yulduzo't nam yerda sudralib o'sadigan poya bo'g'imlaridan ildiz otish xususiyatiga ega. Bahordan kuzgacha gullaydi va hosil tugadi. Urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 25 mingtagacha urug' tugadi. Urug'i tuproqda 1 sm chuqurlikda va harorat 5-70 bo'lganda juda yaxshi unib yaiqadi. Urug'i 25 yilgacha unuvchanligini yo'qotmaydi. Yoz bo'yи yulduzo't ilkki – uch bo'g'in beradi.

*Bahorgi begona o'tlar*. Ular ning maysasi bahor yoki kuzda paydo bo'ladi. Tik o'sadi va to'p-barg hosil qilmaydi. Ular, asosan, bahori ekinlar orasida o'sadi. Bahori begona o'tlar erta bahorgi va kechki bahorgi guruhlarga bo'linadi.

Erta bahorgi bir yillik begona o'tlarning urug'i erta bahorda, hali tuproq yaxshi qizimasdan unib chiqadi. Ular ekinlar yig'ishtirib olinguncha yoki ular bilan bir vaqtда etiladi. Bularga olabo'ta, qiziltasma, yovvoyi suli kabi begona o'tlar kiradi.



17-rasm. a) yovvoyi suli,  
b) olabuta

Oq sho'ra, olabo'ta – *Chenopodium album* L. sho'radoshlar (*Chenopodiaceae*) oilasiga kiruvchi eng ko'p tarqalgan begona o't. Uning har xil yashash shareoitiga moslashgan 60 ga yaqin turi uchraydi. U qutb tumanlardan tashqari, hamma joyda tarqalgan (17-rasm). Barcha ekinlar orasida, yo'llar va turar joylar atrofida ko'p o'sadi. O'zbekiston sharoitida o'rta sho'rangan yerlar (1 m chuqurlikda quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,04 – 0,1 % xlorli tuzlar bo'lgan) da uehrashi mumkin. Barglarining ko'p qisimi oq unsimon g'ubor bilan qoplangan. Poyasi, odatda, shoxlangan, 40-100 sm va undan uzun bo'ladi. O'zbekiston sharoitida iyul-avgustda gullaydi va avgust – sentyabrda hosil tugadi. Sho'ra juda serutug' bo'lib, bir tup o'simligi 150 ming tagacha urug' tugadi. Urug'i uch kategoriyada bo'linadi va turli muddatlarda unib chiqadi. Tuproq yuzasida qishlagan urug'lardan bahorda 0,5 sm chuqurlikdagi urug'larga qaraganda maysalar ikki marta ko'p chiqadi, 3 sin dan ortiq chuqurlikdagi urug'lar esa unib chiqmaydi. Bunday urug'lar ham unuvchanligini tuproqda o'n yillab saqlaydi. Yetilmagan urug'lar ham unib chiqadi.

Olabo'ta tuproqdan kaliyni ko'p oladi. Bu begona o't bosgan dalalarda ildizmevalar bosili kamayib ketadi. Olabo'ta har xil zararli hashoratlar (lavlagi pashshasi, o'simlik qandalasi, dukkak bitlari va boshqalar) ni tarqatadi.

Qiziltasma – *Polygonum aviculare* L. toronguldoshlar (*Polygonaceae*) oilasiga kiradi. Mayda o't, hamma joyda: yo'llarda, o'tloqlarda, ba'zan paxta dalalarida uchraydi. May – avgustda gullaydi. Lyundan oktyabrgacha hosil tugadi.

Yovvoyi suli – *Avena fatua* L. g'alladoshlar (*Gramineae*) oilasiga kiradi. MDH da shimoliy, oddiy uzun mevah, seret mevali qorako'za uchraydi. Uning ko'p turi bo'lib, sulining madaniy navlari shulardan kelib chiqqan (17-rasm). Morfologik jihatdan yovvoyi va madaniy formalari bir-biriga o'xshaydi. O'rta Osiyoda oddiy, uzun mevali, tog'mintaqasida shimol sulisi uchraydi.

Yovvoyi suli turlari boshog'ida urug'larning to'kilishiga yordam beradigan urug' bo'g'imining bo'lmasligi va doni buralgan, qiltiqli bo'lishi bilan sulidan farq qiladi.

♂ Bu o't bahori bug'doy, arpa va suli orasida ko'p o'sadi, shuningdek, boshqa bahori ekinlar orasida va shudgorda ham uchraydi. Poyasi to'g'ri, bo'yи 80-120 sm gacha bo'ladi.

Maysalarining ko'p qismi ko'k-yashil, domi-meva. Yoz boshida gullaydi. Yovvoyi sulining urug'i ekinlar bilan bir vaqtida yoki biroz oldinroq pishadi. Pishib ulgurmagan urug'i ham yoppasiga va tez unib chiqishi mumkin. Pishgan urug'i uchun esa 5 oyga yaqin tinim davri talab etiladi. Seret mevali sulining tinim davri bo'lmaydi. Shuning uchun uning domi madaniy suli doniga o'xshab tez va yoppasiga unib chiqadi. Suli urug'i yuqori harorat (200) da unib chiqadi.

Yovvoyi suli urug'i hatto 25-30 sm chuqurlikdan, lekin 10 sm chmqrlikdan yaxshiroq unib chiqa boshlaydi. Urug'i enuvchanligini tuproqda 5-8 yilgacha saqlaydi. Uning tukli domi bug'doy domi bilan tortilganda unga qora rang, nordon ta'm beradi. Tortilgan don molga berilsa, ularning nafas yo'li shamilshiq pardasini yallig'lantiradi. Yovvoyi suli zang, qorakuya va bir qator zaharli hashoratlarni tarqatuvchi manbaa hisoblanadi.

Kech bahorgi begona o'tlarning urug'i unib chiqishi uchun tuproqning harorati 20 °C dan yuqori bo'lishi kerak. Bu begona o'tlarga shamak, kurmak, yovvoyi gultojixo'roz, qo'ytkan, qora ituzum, ko'k itqo'nog, semizo't, bangidevona va boshqa begona o'tlar kiradi. Bulardan O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida eng ko'p uchraydigan ba'zilari bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Shamak – *Panicum crus galli* L. g'alladoshlar (Gramineae) oilasiga kirib, uning maysalari qoraroq bo'lishi va suv ichidan yuqoriga chiqib turishi bilan Sholi maysalaridan farq qiladi. Shamak barglari suvdan yoyilib o'sadi. Sholi barglarining tilchasi va ikkita qulochchasi bo'ladi, shamakda esa bo'lmaydi. Nam yerlarda – Sholipoyalarda, ariqlar bo'yida, ba'zan g'o'za orasida o'sadi. Poyasi ko'pincha sershoh bo'lib, bo'yi 100 sm gacha etadi, barglari lenta simon, mevasi don meva. O'zbekistonda iyun-avgustda gullaydi. Bir tup o'simligi 5-13 mingtagacha urug' tugadi. Bu urug'lar faqat kelgusi yili 30-35 °C da juda sekin unib chiqadi. Urug'i 1 sm dan chuqurroqda bo'lsa, unib chiqishi juda sekinlashadi. Urug'lari tuproqda 4-5 yilgacha



18-rasm. a) yovvoyi gultojixo'roz, b) kurmak


unuvchanligini saqlaydi. Shamak qurg' oqchilikka chidamli ekinlar orasida o'sa oladi. U issiqsevar va namsevar o'simlik bo'lganligi uchun Sholidan tashqari bedapoyalarda, ekinlar orasida va ariq bo'yalarida ham ko'p uchraydi.

Kurmak - *Echinochloa macrocarpa* Vasing g'alladoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. Sholining karantin begona o'ti bo'lib, boshqa ekinlar orasida uchramaydi. Biologik xususiyatlari Sholi bilan deyarli bir xil. Ularning urug'i bir vaqtida unib chiqadi va yosh vaqtida bir-biriga juda o'xshaydi. Shu sababli unga qarshi kurashish qiyinlashadi. Kurmak Sholi donini juda ifloslantirganligidan donni kurmakdan tozalash juda qiyin jarayon hisoblanadi.

Kurmak faqat urug'idan ko'payadi. Bitta o'simligi 1000 tagacha urug' hosil qiladi. Avgust-sentyabrda gullaydi. Urug' i unuvchanligini tuproqda 6-7 yilgacha, suvda esa 3-4 yilgacha saqlaydi. Sholi orasida kurmakdan tashqari, karantin begona o'tlarning boshqa turi - govkurmak (*E. Cryzicola* Vasing) ham tarqalgan. U biologiyasi jihatidan kurmakdan deyarli farq qilmaydi. Juda qisqa 8-15 sm (kurmakda 20 sm gacha) ro'vagi bilan ajralib taradi. Barg novi uzun tukchalar bilan qalin qoplangan. Govkurmakning urug' i kurmakning urug'idan mayda bo'ladi. Kurmak va govkurmak shaniakka qaraganda dalaning o'ta nam bo'lishiga chidaydi, lekin suv butunlay bo'lmasligiga bardosh bera olmaydi. Kurmakka va Sholining boshqa begona o'tlariga qarshi, asosan suv rejimini boshqarish yo'li bilan kurashiladi. Sholipoyaga qisqa vaqt suv bostirilsa, ular suv ostida nobud bo'ladi.

#### Qo'yitan (g'o'zatikan)

*Xanthium strumarium* L. murakkab-guldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Poyasi yakka o'sadi, to'g'ri, g'adir-budur, bo'yi 40-120 sm gacha bo'ladi. O'zbekistonda iyundan sentyabrgacha gullaydi. Paxta dalalarida ko'p uchraydi. Tashlandiq va bo'sh yerlarda keng tarqalgan bo'lib, u yerdan ekin ekilgan dalalatriga o'tadi. Qo'yitan tez o'sadi va g'o'zani siqib qo'yadi. Ba'zi turlari achchiq va zaharli.



19-rasm. a) mastak, b) itqo'noq

bo'ladi. Ular asosan chorva mollari juniga, odamlar kiyimiga ilashib yoki sharmol yordamida tarqaladi.

Yovvoyi gultojixo'roz, qizilcha - *Amaranthus blitum L.* gultojixo'rozdoshlar (Amarantaceae) oиласига мансуб о'sимлиkdir. Yovvoyi gultojixo'roz yumshatilgan va o'g'itlangan yerlarni yoqtiradi. U asosan chopiq qilinadigan ekinlar: g'o'za, kartoshka, lavlagi, poliz va sabzavot ekinlari orasida o'sadi. Poyasi tik o'suvchi, ko'p qismi shoxlangan, bo'y 100 sm gacha etadi. Yovvoyi gultojixo'roz O'zbekiston sharoitida iyun-avgustda gullaydi va iyuldan sentyabrgacha hosil tugadi. Faqat urug'dan ko'payadi. Ko'p hosil berishi bilan boshqalardan farq qiladi. Yaxshi rivojlangan bitta o'simligi 500 ming va undan ortiq urug' tugadi. Urug'i 22-26 °C da unib chiqadi. Yetilmagan urug'i ham deyarli etilgan urug'lari singari unib chiqadi. Zararlangan urug'lari tezroq unib chiqadi. U lavlagi maysalariga o'xshash qizil bo'lgani uchun lavlagi orasidan o'tab tashlash qiyin (uning qizilcha nomi ham shundan kelib chiqqan).

Ko'k itqo'noq - *Setaria viridus L.* g'alladoshlar (Gramineae) oиласига kiradi. Itqo'noqning ikki turi uchraydi: ko'k itqo'nok va oq itqo'noq. Ko'k itqo'noq g'o'za, beda, g'alla ekinlari orasida juda ko'p uchraydi va katta zarar keltiradi. U yer tanlamaydi, shuning uchun kuchsiz va zinchlangan tuproqli maydonlarda ham uchraydi. Bu xususiyati ekin dalalarida uning boshqa begona o'tlar bilan raqobatlanishini osonlashtiradi. Yaxshi parvarish qilinmagan va o'g'itlanmagan bedazorlarda itqo'noq nihoyatda ko'payib ketadi. U ko'kintir rangi bilan ajralib turadi. Poyasi to'g'ri va ingichka, yuqorisi g'adir-budur, bo'y 70 sm gacha etadi. Barglari ingichka, uzun, dag'al, siyrak takli bo'ladi. Poyasining ustida ingichka va tig'iz ro'veagi bor. Ro'veagi yirik, boshog'inining qiltig'i yashil bo'lishi bilan ajralib turadi. Urug'i mayda, oq rangda. Itqo'noq maydan iyulgacha gullaydi, iyun-sentyabr oylarida hosil tugadi.



20-rasm. a) yulduzo't, b) ituzum

Semizo't – Portulaca oleracea L. semizo'tdoshlar (Portulacaceae) oиласига киради. Begona о't сифатыда hamma joyda, ayniqsa, yengil va qumloq tuproqli yerlarda, chopiq qilinadigan ekinlar орасыда, paxta dalalarida ko'p uchraydi. Poyasi etli, silliq qizg'ish rangda, yarim yotib o'sadi. Ildiz tizimi baquvvat rivojlangan. Poyasining uzunligi 35 sm gacha yetadi. Barglari qisqa bandli, ovalsimon-cho'zinchoq bo'ladi. Guli sariq va mayda, shox ayrlarida yakka-yakka joylashadi. Mayda tishchali urug'i qora rangda va yaltiroq bo'lib, tuproqda unuvchanligini 30 yilgacha saqlaydi. Maydan iyulgacha gullaydi, iyuldan sentyabrgacha hosil tugadi. Bir tup semizo't 50-70 mingtagacha urug' tugadi. Bir yil davomida 2-3 marta avlod beradi. Semizo'tning urug'i butun yoz davomida sekin unadi, lekin yer sug'orilgandan keyin juda tez unib chiqadi. Shuning uchun dalalarni bu begona о'tдан yaxshilab tozalash uchun har bir sug'orishdan so'ng qator oralari о'z vaqtida ishlash kerak.

Ituzum – Solanum nigrum L. ituzumdoshlar (Solanaceae) oиласига киради. Hamma joyda: bog'larda, paxtazorlarda va boshqa ckinlar орасыда uchraydi. O'simligi siyrak tukli, poyasi burchaksimon, bo'yи 70-100 sm gacha etadi. Ildiz bo'g'zidan shoxlaydi. Barglari oval. Guli mayda, oq, uzun bandchali. Mevasi mayda, rangi qora, sarg'ish qizil, sharsimon rezavor meva. Urug'i g'adir-budur, yassi qo'ng'ir rangli.

Ituzum ildiz tizimi yaxshi rivojlangan о'simlik bo'lib, tuproqni juda kuchsizlantiradi va bu bilan g'o'za va boshqa ekinlarga katta zarar etkazadi. Iyun – iyulda gullaydi, avgustda hosil tugadi. Bir tup о'simligi 20 mingtagacha urug' hosil qiladi.

Temirtikan – Tribulus terrestris L. tuyatovondoshlar oиласига (Zygophyllaceae) киради. Deyarli hamma joyda, ekinzorlarda va yo'llar bo'yida uchraydi. G'o'za орасыда eng ko'p uchraydi. Bo'yи 50 sm gacha yetadi. Tukchalari о'simlikka kul rang tus beradi. Ildiz bo'g'zidan ko'pgina shoxchalar chiqarib, yer yuzasiga yoyilib o'sadi. Barglari murakkab tuzilgan. Bargchali yumaloq, qisqa bandli, yakka gullari sariq rangda bo'ladi. Ikki juft tikani bo'lgan ayrim mevachalarga ajraladigan ko'p meva tugadi. Urug'i mayda va uzunchoq, kumushsimon po'stli. Maydan iyungacha gullaydi, iyuldan sentyabrgacha hosil tugadi.

Quray – Salsola Kali L. sho'radoshlar (Chenopodiaceae) oиласига киради. U yo'l yoqalarida, tashlandiq yerlarda, daryo vodiyları bo'ylab keng tarqalgan. G'o'za va boshqa ekinlar орасыда kam uchraydi. Bo'yи

1 m gacha etadi. U juda ko'p tikanli va egilgan shoxchalar hosil qiladi. Qurayning qurigan va singan tuplari shamolda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradi, bunda uning urug'lari yo'l-yo'lakay to'kilib qoladi. Barglari ingichka, seret, bigizzimon, uchida uchli tikan bo'ladi. Yakka barglari tupi asosida joylashgan. Mevasi kul rang qanotchali. Iyundan avgustgacha gullaydi. Avgust-oktyabrda hosil beradi. Qurayning bitta o'simligi 200 mingtagacha urug' tugishi mumkin. Urug'i 2 yilgacha unuvchanligini saqlaydi.

Dag'alkanop - Abutilon Avicennae L. gubkayridoshlar (Malvaceae) oilasiga kirib, paxta dalalarida, sabzavot va boshqa ekinlar orasida uchraydi. Poyasining bo'y 1,5 m gacha etadi, yo'g'on, yumaloq, to'g'ri uchidan shoxlaydi. O'simligi kul rang tuk bilan qalin qoplangan. Barglari yumaloq, yirik, yuqori tomoni uchli qisqa bandli. Guli yakka, sariq, yirik. Mevasi tishchali kosachaga yig'ilgan bir necha ayrim mevachalardan iborat. Urug'i biroz g'adir-budur, mayda qo'ng'ir rangli. Iyun-iyulda gullaydi, iyul-sentyabrda hosil tugadi.

Shuvoq - Artyemisia annua L. murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Asosan sug'orish tarmoqlari bo'ylarida, ba'zan esa paxta dalarida va boshqa ekinlar orasida ham uchraydi. Shuvuoqning bo'y 1 m gacha etadi. Poyasi shoxlaydigan bo'lib, egatchalari bor. Barglari ingichka mayda bo'lakchalarga bo'lingan. Urug'i silndrsimon, mayda. Iyul-sentyabrda gullaydi, sentyabr-noyabrda hosil tugadi.

Baingidevona - Datura stramonium ituzumdoshlari (Solanaceae) oilasiga kiradi. O'zbekiston sharoitida 15 ga yaqin turlari uchraydi. Ko'proq tashlandiq va bo'sh yotgan yerlarda, ba'zan kuzgi g'alla ekinlari, g'o'za va boshqa ekinlar orasida begona o't sifatida uchraydi. To'kilayotgan barglari paxtaga aralashib qolsa, tolaning sifatini pasaytiradi. Poyasi yakka, yo'g'on shoxlaydigan, bo'y 1 m gacha etadi. Barglari uzun bandli, yumaloq uchburchak, yirik, yuqori tomoni uchli bo'ladi. Guli yirik, voronka ko'inishida, oq, yakka joylashgan. Mevasi yashil, tikanli yirik. Urug'i qora bo'lib, o'yiqlari bor. Bir tup o'simligi 20 mingdan ortiq urug' tugadi. O'simligi badbo'y hidli. U zaharli bo'lib, tarkibida zaharlanishiga sabab bo'ladigan alqoloidlar (atropin va daturin) bor. Iyun-iyulda gullab, iyul-sentyabrda hosil tugadi.

Tuyaqorin - Heliotropium lasiocarpum F. et M. Govzabonguldoshlar (Boraginaceae) oilasiga kiradi. Ko'proq

o'zlashtirilmagan yerlarda, ba'zan g'alladoshlar va g'o'za ekinlari orasida ham uchraydi. Yer o'zlashtirilgandan bir necha yildan keyin yo'qolib ketadi. Poyasi shoxlaydigan, bo'yi 30 sm gacha etadi. O'simligi dag'al va qalin tuk bilan qoplangan. Barglari qisqa bandli, dag'al, oval shaklda, ikki tomondan kul rang tukchalar bilan qoplangan. Guli kam bo'lib, mayda, och sariq rangda bo'ladi. Mevasi yong'oq bo'lib, tukli va ovalsimon to'rtta yong'oqchadan iborat. Iyun avgust oylarida gullaydi, iyuldan sentyabrgacha hosil tugadi. Tuyaqorinning umg'ida zaharli moddalar- alqoloidlar bor. Ular oziq bilan birga odam va hayvonlar organizmiga tushsa, jigar va butun organizmida og'ir kasallik keltirib chiqaradi.

*Qishlovchi bir yillik begona o'tlar* haqiqiy bahorgi begona o'tlardan kuzgilarga o'tuvchi oraliq bo'g'in hisoblanadi. Bu biologik guruhga maysalari qishlay oladigan begona o'tlar kiradi. Bahorda maysalari tik o'sadi va ildiz bo'g'zi to'pbarglarini hosil qilmay, haqiqiy bahori begona o'tlar kabi shu yilning o'zida hosil beradi. Kuzda paydo bo'lgan maysalari to'pbarglar hosil qiladi va bular ham qishlay oladi. Bularga: qurtena, yarutka, achambiti, bo'tako'z, boychechak, randak va boshqalar kiradi.

Qurtana - *Sisymbrium sophia* L. krestguldoshlar (Cruciferae) oиласига kiradi. Tashlandiq va bo'sh yotgan yerlarda, yo'l bo'ylarida deyarli hamma joyda uchraydi, g'o'za ekinlari orasida kam bo'ladi. Poyasining bo'yi 80 sm gacha etadi, tik o'sadi, o'rtasidan shoxlaydigan bo'lib, siyrak tuk bilan qoplangan. Barglari mayda, cho'ziq. Guli och sariq, mayda. Mevasi qo'zoq meva, ingichka, to'lqinsimon, g'adirbudur va bir oz egik. Urug'i oval shaklda, mayda, jigar rang, tuproqda yaxshi saqlanadi. Bitta o'simligi 100 mingdan ortiq urug' tugadi. Apreldan iyulgacha gullaydi, maydan avgustgacha hosil tugadi. Urug'i unuvchanligini 10-12 yilgacha saqlaydi.

Yarutka - *Thlaspi arvense* L. krestguldoshlar (Cruciferac) oиласига kiruvchi o'simlik bo'lib, u hamma joyda uchraydi. Kuzgi va bahori



21-rasm. a) qoramiq, b) qurtana

g'alla ekinlari hamda boshqalar orasida ham o'sadi. Poyasi oddiy yoki shoxlangan. Aprel-may oylarida, ba'zan undan kechroq gullaydi. Asosan urug'idan ko'payadi. Bitta o'simligi 2000 tagacha urug' tugadi, ular tuproqda unuvchanligini kamida 10 yil saqlaydi. Ulardan ko'pchiligi ekinlar yig'ishtirib olunguncha pishadi va tuproq yuzasiga to'kiladi, bir qismi esa hosilga qo'shilib ketadi. Yarutkaning pişhib etilmagan urug'lari ham yaxshi ko'karadi. Tuproq yuziga to'kilgan urug'lari yoppasiga qiyg'os unib chiqadi. Go'ngda ham urug'i ko'p bo'ladi.

Jag~-jag~, achambiti - *Capsella bursea pastoris* Medue krestguldoshlar (Cruciferae) oilasiga kiradi. Hamma yerda tarqalgan bo'lib, har xil yashash sharoitga moslashgan shakllari ko'p uchraydi. Barcha ekinlar orasida o'sadi. Erta bahordan gullaydi. Faqat urug'dan ko'payadi. Bir tup o'simligida 2 mingdan 70 minggacha urug' hosil bo'ladi, ular tuproqda unuvchanligini 4-6 yilgacha saqlaydi. Maysalari 2-3 sm chuqurlikda paydo bo'ladi. Yetilmagan urug'lari ham unib chiqadi. Bir yil davomida 2-3 bo'g'in beradi.

*Kuzgi bir yillik begonu o'tlar* bir yillik va ikki yillik o'simliklar o'rtaсидаги оралиқ зөвнөн исобланади. Мaysalari kuzda paydo bo'lganda bu begona o'tlar o'z rivojlanishini oxirigacha, ya'ni gullaguncha va hosil berguncha etkazishi mumkin.

Ular kuzgi past haroratda to'planish fazasida qishlaydi, kelgusi yil yozda esa gullaydi va hosil tugadi. Tuplanish fazasini o'tmagan o'simliklar, bahorda o'qildiz hosil qilmaydi va gullamaydi. Bular tipik kuzgi o'simliklardir. Bularga yaltirbosh, yovvoyi supurgi va qoramiq kiradi.

Yaltirbosh - *Bromus secalinus* L. g'alladoshlar (Cramineae) oilasiga kiradi. MDH ning Yevropa qismida g'alla (javdar va bug'doy) ekinlari orasida uchraydi. O'zbekiston sharoitida ko'proq g'alla ekinlari orasida uchraydi. Yovvoyi holda o'sadigan turli noma'lum bo'lgan tipik begona



22-rasm. a) Jag~-jag'o't, b)  
yaltirbosh achambiti

o't, faqat urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 800-1500 ta urug' tugadi, bu urug'lar unuvchanligini 2-3 yil saqlaydi. Urug'lar pishgandan keyin 6-9 kun o'tgach unib chiqqa oladi. Chala pishgan urug'i ham unib chiqadi. Ular 2-3 sm chiqurlikdan yaxshi unib chiqadi. Yaltirbosh javdar orasida o'sadigan tipik begona o't. Ro'vak chiqarguncha uni kuzgi jardardan ajratish qiyin. Poyasining bo'yisi va urug'inining yirik-maydaligi javdarniki bilan bir xil. Agar javdar hosiliga yaltirbosh urug'i aralashib qolsa, uning sifati pasayadi, u qorayib, ta'mi bузiladi.

*Yovvoyi supurgi* - *Apera spica Venti* (L). R.V. g'alladoshlar (Cramineae) oilasiga kirib, u ham asosan MDH ning Yevropa qismida juda ko'p uchraydi. O'zbekistonda begona o't sifatida kam tarqalgan. Asosan kuzgi javdar ekinlari, ba'zan boshqa ekinlar orasida o'sadi. Poyasi tilk o'sadi, asosidan tuplaydi, bo'yisi 1 m gacha etadi. Iyul-avgustda gullaydi va hosil tugadi. Urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 13-16 ming ta urug' tugadi. Namlik yetarli bo'lqanda urug'i faqat tuproq yuzasidan unib chiqadi. Tuproqda urug'ning unuvchanligi 7 yilgacha saqlanadi. Yovvoyi supurgi juda zararli begona o't, amuno uni yo'qotish oson.

*Ikki yillik begona o'tlar*. Ikki yillik begona o'tlar rivojlanishi uchun ikki yil talab etadi. Agar ikki yillik begona o'tlarning urug'i kuzda unib chiqsa, ular ikki yil qishlaydi. Ba'zi bir ikki yillik begona o'tlar hosil bergandan keyin o'suv davrining ikkinchi yili oxirida nobud bo'lmaydi va uchinchi yili ham o'sadi. Bunday holda ikki yillik begona o'tlar ko'p yilliklarga yaqinlashadi. Begona o'tlarning bu biologik tipiga kamroq tur kiradi. Ikki yillik begona o'tlarga qashqarbeda, sariq va oq qashqarbeda, mingdevona, oq karrik, tuyaquyruq, sigirquyruq, qizilburun va boshqalar kiradi.

Sariq qashqarbeda - *Melilotus officinalis* adans dukkakdoshlari (Leguminosae) oilasiga kiradi. Yerroosiyo qit'asida tarqalgan.

Munkazly Osiyo davlatlarida bog-



23-rasm. a) sariq qashqarbeda,  
b) qoqio't

larda, ariqlar bo'yida o'sadi. Yevropa davlatlarida esa boshoqdoshlar orasida, shudgorlarda va tashlandiq yerlarda o'sadi. Qashqarbeda kuchsiz sho'rlangan (1 m tuproq qatlamidagi quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,01-0,4 % xlor bo'lgan) yerlarda uchraydi. Poyasi to'g'ni, bo'yini 40-110 sm va undan ortiq. Jyundan sentyabrgacha gullaydi. Urug'dan ko'payadi. Bitta o'simligi 15 mingtagacha urug' tugadi, ular tuproqda unuvchanligini 20 yildan ortiq saqlaydi. Urug'i yetarli darajada nam bo'lismiga talabchan, qiyinchilik bilan unadi. Qashqarbeda boshqa ikki yillik o'simliklardan farq qilib, birinchi yili to'pbarg yemas, balki gullamaydigan poya hosil qiladi. Qishda bu poyasi nobud bo'ladi, qishlash uchun faqat ildizi va ildiz bo'g'zidagi kurtaklari qoladi. Kelgusi yili bahorda ildiz bo'g'zi kurtaklari qoladi. Kelgusi yil bahorda ildiz bo'g'zi kurtaklari o'sa boshlaydi va poya chiqaradi, ular gullaydi va hosil tugadi. Hosil bergandan keyin kuzga borib, o'simligi butunlay nobud bo'ladi. Ikkinci yili qashqarbeda baquvvat rivojlangan poyalari bilan ekinlarri qattiq siqib qo'ya ; va hosilni yig'ishtirib olishga xalaqit bera... Yovvoyi qashqaroeda mollarga berishga yaramaydi, chunki tarkibida hayvonlar hayoti uchun xavfli bo'lgan kumarin moddasi bor. Qashqarbedaning tarkibida kumarin bo'limgan navlari chiqarilgan.

Tuyaquyuq - Carduus nutans L. murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyoda, asosan, Turkmanistonda, ayniqa, paxta dalalari va boshqa ekinlar dalasida ko'p uchraydi. O'zbekistonda aprel-mayda gullab, hosil tugadi. Tuyaquyuq - ikki yillik tipik begona o't. Asosan, urug'dan ko'payadi, urug'ida uchmalar bo'ladi, shuning uchun ular shamolda oson tarqaladi. Bitta o'simligi 4 mingtagacha urug' tugadi. Urug' kelgusi yil 4 sm gacha bo'lgan chuqurlikdan unib chiqadi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Begona o'tlar deb nimaga aytildi?
2. Begona o'tlarning keltiradigan zarari.
3. Begona o'tlar klassifikasiyasи.
4. Tekinxo'r begona o'tlar.
5. Poya parazitlari: zarpechaklar, devpochak.

## 11-MASHG'ULOT KO'P YILLIK BEGONA O'TLARNING TA'RIFI

**1. ISHNING MAQSADI:** Talabalar ko'p yillik begona o'tlar, ularning yashash sharoiti, ko'payishi va tarqalishi bilan tanishadilar.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** *Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, gerbariyalar, odabiyotlar.*

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYAT:**

*Ko'p yillik begona o'tlar.* Bu begona o'tlar biologik belgilariga qarab bir yillik va ikki yillik begona o'tlardan farq qiladi. Hayoti davomida ular bir necha marta hosil tugadi. Bu begona o'tlarning ko'pgina vakillari asosan vegetativ (ildizpoya va ildiz bo'laklaridan) va generativ yo'l bilan (urug'dan) ko'payadi. Qishga borib, ko'p yillik begona o'tlarning poyasi nobud bo'ladi. Kelgusi yili tuproqda qolgan ildiz va ildizpoyalardan yangi poya o'sib chiqadi va rivojlanadi. Ildiz tizimining tuzilishiga ko'rako'p yillik begona o'tlar quyidagi guruhlarga bo'lingan: o'qildizli, popuk ildizli, ildizpoyali, ildizbakchili, tunganak ildizli va piyozli begona o'tlar farq qilinadi. Bundan tashqari, yer usti organlarining tuzilishiga qarab sudralib o'suvchi ko'p yillik begona o'tlar ham mavjud.

*O'qildizli ko'p yillik begona o'tlar.* Bu biologik guruhchaga bitta asosiy o'qildizi bo'lgan juda ko'p mayda yon ildizlar chiqaradigan begona o'tlar kiradi. Ular asosan urug'dan ko'payadi, lekin vegetativ yo'l bilan ham ko'payishi mumkin. Bularga qoqio't, yerman, otqulog, izen, sho'ra va maydabarg kiradi.

Qoqio't - Taraxacum vulgare (Lam.) murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Bog'larda, polizlarda, tashlandiq yerlar atrofida juda ko'p o'sadi. Kauchukli o'simlik - ko'ksag'iz ekini orasida o'sadigan eng zararli begona o't hisoblanadi. Poyasining ichi bo'sh, bargsiz, bo'yisi 15-35 sm. Ildiz bo'g'zidan chiqqan barglari patsimon qirqilgan shaklda. To'pguli oltin rang-sariq gulli savatcha. Apreldan sentyabrgacha gullaydi. Urug'dan va qisman ildiz bakchilaridan ko'payadi. Urug'ida dumchalari bo'lib, shular yordamida shamol bilan tarqaladi. Bitta o'simligi 250 - 700 ta urug' tugadi. Urug'i pishishi bilan 0,5-1 sm ko'milsa ham tezda unib chiqadi. Pishib yetilmagan urug'lari ham unib chiqadi. Biriuchi yili o'simlik faqat to'pbarg va o'qildiz, ikkinchi yili esa gullovchi poya o'tlari.

Izen - Kochia prostrata L. sho'radoshlar (Chenopodiaceae) oilasiga kiradi. O'rtacha sho'rangan (1 m qatlamdagı quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,1-0,2 % xlor bo'lgan) yerlarda keng tarqagan. Qurg'oqchilikka chidamli. G'o'za ekinlari orasida kam uchraydi. Sho'raq qurdlari o'zlashtirishda agrotexnikaviy tadbirlarning sifatiga va o'z vaqtida o'tkazilishiga qarab, birinchi uch yil ichida yo'qolib ketadi. Izen kalta tukchalar bilan qoplangan, bandsiz, ingichka barglari to'p-to'p bo'lib joylashgan tipik yarim bo'ta. Mevasi yarim doira shaklda, parda qanotchali. Maydan iyulgacha gullaydi, iyundan oktyabrgacha hosil tugadi.

Sho'rak - Salsola verrucosa M. B. Sho'rakdoshlar (Chenopodiaceae) oilasiga kiradi. Kuchli va juda kuchli (sho'rak) sho'rangan (1 m qatlamda quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,3-0,4 % xlor bo'lgan) tuproqlarda ko'p uchraydi. U yerni chuqur haydash bilan tez yo'qotiladi. Sho'rak bo'yisi 50 sm gacha bo'lgan bo'ta, kul rang tukchalar bilan qoplangan, o'rtasidan shoxlangan bir necha poyasi bor. Bandsiz uchki barglari seret, ensiz, bir oz tukli va to'mtoq bo'ladi. Guli sarg'ish-yashil, mayda, g'uj bo'lib to'plangan. Mevasi sariq qanotchali, yarim doira shaklda. Iyun-sentyabrdagi gullaydi, iyul-oktyabrda hosil tunadi.

*Popuk ildizli begona o'tlarning*  
juda qisqargan asosiy o'qildizi  
bo'ladi, bulardan shingil shaklida  
qo'shimcha ildizlar chiqadi. Bu  
guruhga, asosan zupturum va  
bargizub kiradi.

Zupturum - Plantago major L. zupturumdoshlar (Plantaginaceae) oilasiga kiradi. Hamma joyda uchraydi. Dalalar, polizlarda, yo'llar, ariqlar bo'yida, bog'larda va boshqa yerlarda uchraydi. Barglari keng tuxumsimon bo'lib, ildiz bo'g'zidan chiqadi. Asosan urug'dan ko'payadi. Maydan noyabrgacha hosil tugadi. Bitta o'simligi 8-60 mingta umg' tugadi, bular tuproqda unuvchanligini kamida 7 yil saqlaydi. Urug'i ko'pi bilan 2-3 sm chuqurlikdan tuz unib chiqadi. Go'ngda ham unuvchan



24-rasm. Zupturum

urug'lar uchraydi. asosiy o'qildizi mutlaqo bo'lmaydi. Yer usti poyasi ko'paya borib, chim hosil qiladi. Bularga shuchka misol bo'ladi.

*Tuganak ildizli begona* o'tlarning asosiy ildizi o'rniда popuk ildizga o'xhash ildizlar bo'lib, ularda tiganaklar hosil bo'ladi va bu begona o'tlar asosan shu tiganaklari orqali ko'payadi. Bu guruhga salomalaykum va qirqbo'g'im kabi o'simliklar kiradi. Tiganak ildizli begona o'tlar ildizi ildizpoyaga o'xhash bo'lganligi sababli ularni ildizpoyali ko'p yillik begona o'tlar qatoriga ham kirtiladi.

Salomalaykum – Cyperus rotundus L. qiyoqdoshlar (Cyperaceae) oilasiga kiradi. Uning 400 ga yaqin turi bor. Asosan Markaziy Osiyoda, Kavkaz orti respublikalarida uchraydi. Nam yerlarda yaxshi o'sadi. Barcha ekinlar, ayniqsa, Sholi va g'o'za rivojlanishining dastlabki davrlarida, sabzavot-poliz va boshqa ekinlarning eng zararli begona o'ti hisoblanadi. Bu begona o'tdan qutilish uchun yerlarni quritish va agrotexnikaviy tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Poyasi to'g'ri, uch qirrali, ingichka, silliq, bo'yи 15-20 sm. O'zbekiston sharoitida iyun-avgustda gullaydi. Urug'dan qanday ko'paysa, poyasidan ham shunday ko'payadi. Ildizpoyasi yer yuzasiga qancha yaqin joylashsa, bachkilar shuncha ko'p chiqadi. Ko'milish chuqurligiga qarab, bitta tugunak turli sonda: 1-5 sm da 4 ta bachki, 10-15 sm da 2 ta bachki, 20-30 sm da 1 ta bachki hosil qiladi. Salomalaykum urug'i, odatda, bahorda juda sekin, bir necha yil davomida unib chiqadi. Salomalaykum karantin begona o't hisoblanadi.

*Ildizpoyalilar*. Bu guruhchaga kiradigan ko'p yillik begona o'tlar ildizpoyasidan, ya'ni shakli o'zgargan sudralib o'sadigan yer usti poyasidan ko'payadi, bular tuproqqa har xil yo'nalishda chuqur kirib bo'fadi. Bunday ko'payish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ular o'tlarning ildizpoyasi xilma-xil shaklda, uzun-qisqa va turli



25-rasm. a) salomalaykumi,  
b) qirqbo'g'im

yo'nalishda: slindrsimon, ingichka chizimchasimon va yirik tugunaksimon bo'ladi. Bularda zapas oziq moddalar bor. Ildizpoyalarning uchida va yonlarida ko'p kurtaklar bo'lib, ulardan novda rivojlanadi.

Ildizpoyaning bitta yoki bir nechta ko'rtagi bo'lgan biror bo'lagidan yangi o'simlik rivojlana oladi. Ildizpoyadan ko'payish vegetativ ko'payish deb ataladi. Ildizpoyali begona o'tlarning tez ko'payish va ularning urug'dan hamda ildizpoyadan o'sish xususiyati ularga qarshi kurashni ancha qiyinlashtiradi. Sug'oriladigan yerlarda, asosan, g'alladoshlar va xiloldoshlar oilalariga mansub ildizpoyali o'simliklar uchraydi.

O'zbekistonda ildizpoyali begona o'tlardan g'umay, ajriq, qamish, bug'doyiq, qizilqiyoq, achchiqmiya, oqmiya va ro'vak katta zarar keltiradi. G'umay, salomalaykun, ajriq, karantin begona o'tlar jumlasiga kiradi.

G'umay - *Sorghum halepense* (L. Brot.) boshoqdoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. O'rta Osiyoda, Kavkaz va Qrimda uchraydi. Hamma ekinlar orasida o'sadi.

Markaziy Osiyoda g'umay g'o'za orasida o'sadigan eng zararli begona o't hisoblanadi. May-iyunda gullaydi, iyul-oktyabrda hosil tugadi. Poyasining bo'yi 1,7 m gacha yetadi, past tomonidan shoxlaydi. G'umay urug'dan va ayniqsa ildizpoyasidan ko'payadi. Bitta o'simligi 2-3 mingta urug' tugadi, bular tuproqda uzoq vaqt saqlanadi. Urug'ning tinim davri 7 oygacha davom etadi. Urug'dan o'sib chiqqan g'umay, gullah sholdidan ildizpoya chiqaradi. Bu vaqtida uni kultivatsiya yoki o'toq qilish bilan yo'qotish kerak. Bir tup o'simligida 1-80 tagacha ildizpoya va 800 gacha bo'g'im hosil bo'lishi mumkin. Tuproqda ildizpoyalari ko'p bo'lishi unga ishlov berishni qiyinlashtiradi. G'o'za va boshqa ekinlarni juda siqib qo'yadi. 1,5 m dagi uzunlikdagi ildizpoya tuproqda 80 sm gacha chuqurlikda, asosiy qismi (90-95 %)



26-rasm. a) g'umay, b) ajriq

20 sm chuqurlikda joylashadi. G'umayning baland poyasi ekinlarni juda soyalab qo'yadi, bu esa hosilni anchagina kamaytirib yuboradi, g'o'zada esa tola sifatini yomonlashtiradi. Paxtaning pishishiui kechiktiradi, sovuq tushguncha teriladigan yuqori sifatlari paxta foizini kamaytirib yuboradi.

G'umay tashqi belgilari ko'ra, sudano'tga o'xshaydi va uning eng zararli begona o'ti hisoblanadi. Lekin baquvvat rivojlangan ildizpoyasi va yirik boshqchalari bilan undan farq qiladi. Yosh novdalari, ba'zan mollarni zaharlaydi, bu hol ko'pincha qurg'oqchilik yillari kuzatiladi. Chunki bu davrda poyalari o'sishdan to'xtab, so'lib qoladi va tarkibida zaharli sinil kislota to'planadi.

Ajriq - *Cynodon dactylon* (L.) Pers. g'alladoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyo davlatlarida, Kavkazda va MDH ning Yevropa qismining janubiy tumanlarida tarqalgan. O'zbekistonda barcha ekinlar orasida nihoyatda ko'p uchraydi. Kuchsiz sho'rangan (1 m qavatdagi quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,01-0,04 % xlor bo'lgan) tuproqlarda uchraydi. Ildizpoyasi sho'rланib o'sadigan ingichka ko'kish chiziqli - lentsimon bargli, panjasimon to'pgulli o'simlik. Poyasi bo'g'imli, ko'p bargli, shoxlangan, bo'yi 30-50 sm gacha bo'ladi. O'zbekistonda maydan-iyungacha gullaydi, iyunsentyabrdagi hosil tugadi. Urug'i kamdan-kam unib chiqadi. Ajriq, asosan, ildizpoyasidan ko'payadi, bular ishlov beriladigan erlarda 25 sm chuqurlikkacha tarqaladi va yerga ishlov berishni juda qiyinlashtirib yuboradi. Ajriqdan qumliklarni mustahkamashi uchun foydalaniлади.

Qamish - *Phragmites communis* Trin. g'alladoshlar (Gramineae) oilasiga kiradi. Qamish botqoq tuproqli va sizot suvlarini yuza joylashgan dalalarda ko'p tarqaladi. Sizot suvlar qancha yuza bo'lsa, qamish shuncha ko'p bo'ladi. Ildizpoyasining tarqalish chuqurligi sizot suvlarning chuqurligiga bog'liq. Asosan, g'o'za va bexta ekinlari orasida o'sadi. Yashil rangli, poyasi tik, ichi g'ovak bo'lib, bo'yi 4 m gacha yetadi. Barglari lentsimon, uzun, uchli. Poyasining uchilan egilgan ro'vak hosil bo'ladi. Urug'i mayda, uzun mayin tuk bilan qoplangan, uchli va cho'ziq. Bitta to'pgulida 100 mingtagacha urug' tugadi. May-iyulda gullaydi, iyul-sentyabrdagi hosil tugadi. Qamish, asosan, vegetativ va qisman generativ yo'l bilan ko'payadi. Qamish ildiz tizimining baquvvat rivojlanganligi, poyasining tez o'sib ketishi unga qarshi qattiq kurash olib borishni talab etadi.

*Ildiz bachkilar*. Bu biologik guruhga o'qildizdan tashqari tuproqqa 6 m gacha chuqur kirib bordigan, yer yuzasiga yaqin joylashgan ko'pgina yon ildizlari bo'lgan begona o'tlar kiradi. Yon shoxlarida va asosiy ildizida kurtaklar ko'p bo'ladi, bu kurtaklardan yangi o'simlik o'sib chiqadi.

Ildiz bachkili ko'p yillik begona o'tlarga qarshi kurashning qiyinchiligi shundaki, tuproqni har xil qurollar bilan ishlaganda kesish joyida turli chuqurlikda (ko'pincha 23 sm chuqurlikkacha) 5-10 tanacha va undan ortiq yangi novdalar hosil bo'ladi. Yer yuza haydalga novdalar ko'p va chuqur haydaganda oz hosil bo'ladi. 22-23 sm va undan chuqur haydalga o'sish kuzatilmaydi. Bunday begona o'tlarga qarshi kurashda ularning biologik xususiyatini hisobga olish kerak.

Kesilgan joyidan ko'p novdalar hosil qiluvchi begona o'tlarga: qo'yechak, qizilmiya, oqniya, yantoq kiradi. Begona o'tlarning bu guruhchasi tuproqni juda ifloslantiradi. O'zbekistonda g'o'za va boshqa ekinlar orasida bu guruhga kiradigan 30 turga yaqin begona o't o'sishi aniqlangan. Shulardan 16 tasi ko'p uchraydi. Asosiy ildiz bachkili ko'p yillik begona o'tlar: qo'yechak, yantoq, kakra, bo'ztikan, qizilmiya, achchiqmiya, oqboshi, takasoqol, kermak va boshqalardir.

Qo'yechak - *Convolvulus arvensis* L. pechakguldoshlar (Convolvulaceae) oilasiga kiradi. Hamma yerda uchraydi. Barcha ekinlar, aymiqsa, g'o'za, beda, g'alla ekinlari orasida o'sadi. Poyasi ingichka, chirnashib o'sadi, uzunligi 30-100 sm. Guli yirik, oq pushti rangda. O'zbekistonda may-avgustda gullaydi. Iyun-oktyabrda hosil tugadi. Urug'idan va vegetativ yo'l bilan ko'payadi. Bitta o'simligi 600 tagacha urug' tugishi mumkin. Urug'ining po'sti qattiq bo'lganidan bir tekis unib chiqmaydi. Ildiz tizimi baquvvat rivojlangan; ildizi tuproqqa chuqur kiradi va yon shoxlar chiqaradi. Katta yoshida o'qildizi 2 m va undan ham chuqurga kiradi. Horizontal



27-rasm. a) kakra b) qo'yechak.

ildizlari haydalmagan va haydalgan qatlamlarda joylashadi. Ildizining kesilgan qismidan yangi bachkilari o'sib chiqadi.

Qo'ypechak o'simliklarni chirmab olib, ularni yotqizib qo'yadi, paxtani mashinada terishni, g'allani kombayinda o'rib olishni qiyinlashtirib, ular ish organlarining sinishiga sabab bo'ladi. Qo'ypechak qishloq xo'jalik zararkunandalarini tarqatuvchi begona o'tdir.

Yantoq - Alhagi comelorum Fisch dukkanakdoshlar (Leguminosae) oilasiga kiradi. O'zlashtirilmagan yerlarda, uvatlarda, yo'llar yoqasida, ariqlar bo'yida o'sadi. Markaziy Osiyoning ko'pgina tumanlarida g'o'za va boshqa ekinlar orasida o'sadigan ashaddiy begona o't. O'simligi tuplanadi, tikani, poyasi shoxlangan bo'ladi, bo'yi 80 sm gacha etadi. Barglari mayda, yumaloq yoki ovalsimon, uchli. Guli mayda, pushti binafsha rangda. Mevasi to'q jigar rang. Urug'i qo'ng'ir rangda, yassi, buyraksimon shaklda. Iyun-avgustda gullaydi, iyul-avgustda hosil tugadi.

Yantoq qurg'oqchilikka juda chidamli o'simlik. U deyarli ildiz bakchisidan va urug'dan ko'payadi. Bachkilar yon ildizlarida joylashgan ko'mtaklardan hosil bo'ladi.

Achchiqmiya - Sophora pachycarpa C.A.M. dukkanakdoshlar (Leguminosae) oilasiga kiradi. O'zbekistonda hamma joyda uchraydi. Lalmi yerlardagi g'alla ekinlari orasida o'sadi. Tuproqning namlanishi va sho'rلانishiga chidamaydi. Poyasi shoxlangan, tik o'sadi, bo'yi 1 m gacha etadi. Uzun shingillardagi sariq-oq rangli gullar poyasining uchida joylashadi. Urug'i yirik, silliq, bir oz yaltiroq, to'q jigar rang va yon tomonidan siqilgan. Achchiqmiyaning ildizi tuproqqa chuqur kirib boradi. Aprel-iyunda gullaydi, urug'i bug'doy, arpaga aralashib ketsa, ajratish qiyin bo'ladi. Achchiqmiya urug'lari juda zaharli bo'ladi. 0,5 % danortiq urug' aralashgan un hayot uchun xavfli. Achchiqmiya karantin begona o't hisoblanadi.

Kakra - Acroptilon picris C.A.M. murakkabguldoshlar (Compositae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyoda, Qrimda, Kavkazda, MDH ning Yevropa qismining janubiy tumanlarida tarqalgan. Sug'oriladigan va lalmi dehqonchilik tumanlarida uchraydi, g'o'za, g'alla, bog', sabzavot ekinlari va boshqalar orasida o'sadi. Poyasi tik, shoxlangan, barglari bilan qalin qoplangan, bo'yi 70sm ga yetadi. O'zbekiston sharotida iyun-sentyabrda gullaydi, iyul-sentyabrda hosil tugadi. Urug'dan va ildiz bakchilaridan ko'payadi.

Kakraning asosiy o'qildizi tuproqqa 5-6 sm o'sib kirib, sizot suvlargacha etadi va yon ildizlar chiqaradi.

Kakra zichlashgan tuproqlarda ham o'saveradi. Qurg'oqchilikka chidamli va zaharli. Unga qarshi kurashdagi qiyinchilik shundaki, u haydalma qatlamdan pastda joylashgan ildizlardan ham, haydalma qatlamdag'i ildiz bakchilaridan ham o'sa beradi. u 5% pichanga aralashsa, hayvonlar hayoti uchun xavfli bo'ladi.

Bo'zikan - *Sonchus arvensis* L. murakkabguldoshlar (Cjimpositae) oilasiga kiradi. Hamma joyda uchraydi. G'o'za va boshqa ekinlar orasida o'sadi. Tuproqning yaxshi namlanishiga talabchan. Poyasining bo'yi 80-120 sm. O'qildizi, odatda, 50 sm dan ortiq chuqurlikka kirmaydi, ko'pincha 20-30 sm gacha etadi. Undan 1 m ga etib ortadigan uzun gorizontal ildizlar chiqadi, ular ko'pi bilan 10-12 sm chuqurlikda joylashadi. Asosiy va yon ildizlarining yangi bakchi chiqaradigan ko'rtagi bo'ladi. Ildizida sut shirasi bo'ladi. U juda mo'rt, bo'lakchalari osenlik bilan o'sib chiqadi. O'zbekistonda iyun-avgustda gullaydi, iyul-sentyabrda hosil tugadi. Bo'zikan urug'dan va ildiz bachkisidan ko'payadi. Bir tup o'simligi 6-19 mingta urug' tugadi. Urug'ida uchmalar bor. Shular tufayli urug'i shamolda uzoq joylarga tarqaladi. Urug'i 0,5-1 sm chuqurlikdan qiyg'os unib chiqadi.

Qizilmiya - *Glycyrrhiza gladuliferae* W.K. dukkakkodoshlar (Laguminosae) oilasiga kiradi. Sizot suvlar yuza joylashgan yerlarda ayniqsa, yaxshi rivojlanadi. Sug'oriladigan barcha ekinlar orasida o'sadi.

Qizilmiya g'o'za orasida ko'p bo'ladi, uning eng ashaddiy begona o'ti hisoblanadi. Taqirlarda, to'qaylarda, ariqlar, daryolar bo'yida uchraydi. Poyasi to'g'ni, shoxlangan, bo'yi 75 sm gacha etadi. Barglari qisqa bandli ko'pgina bargchalardan iborat bo'lgan murakkab barg, orqa tomoni qattiq tukchalar bilan qoplangan.



28-rasm. a) qizilmiya b)  
g'ovpechak

Guli binafsha rang bo'lib, shoxchalar uchida shingillarga to'plangan. Mevasi egilgan, katta g'uddali, qizilqo'ng'ir rangli dukkak. Urug'i kul rang yashil, deyarli sharsimon.

Qizilmiya, asosan ildiz bachkisidan va urug'dan <sup>b</sup>-o'payadi. O'qildizi tuproqqa 5 m gacha kirib o'radi. Undan <sup>b</sup>-0-30 sm chuqurlikda 3 m nacha uzunlikdagi gorizontal ildizlar tarqaladi. Yosh o'simliklarda gorizontal ildizlar yana ham yuza joylashgan. Bu yon ildizlardagi ko'rtaklardan yangi bachki novdalari o'sib aqiqadi. Bahorda qizilmiyaning yangi novdalari tuproq yuzasiga yaqin joylashgan qishki kurtaklardan rivojlanadi. May-iyulda gullaydi, iyul-sentyabrdra hosil tugadi.

Takasoqol- *Dodartia orientalis* L. sigirquyuqdoshlar (Schropulariaceae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyoda va MDH ning boshqa tumanlarida tarqalgan. Paxta dalalarida juda ko'p o'sadi. Begona o't sisatida bug'doy orasida ham uchraydi. Tashlandiq va bo'sh yotgan yerlarda o'sadi. O'simligi silliq, oqish-yashil rangda, bir nechta shoxlangan poyasi bor, bo'yи 45 sm gacha yetadi. Ildizi juda chuqur tarqaladi. Barglari bandsiz, cho'ziq, yo'g'onroq, yuqoriga tomon maydalashib boradi, uchida barg umuman bo'lmaydi. Guli binafsha rangda bo'lib, qisqa yo'g'on bandli. Mevasi - oval shakldagi ko'sakcha. Urug'i mayda, g'adir-budur, noto'g'ri shaklli qo'ng'ir rangda. May-iyulda gullaydi, iyun-öktabyabrda hosil tugadi.

Oqbosh - *Karelinia caspica*  
Lees. Murakkabguldoshlar  
(Compositae) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyoda 2 ball sho'rangan (1 m qatlamda quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,04-0,1 % xlor bo'lgan) yerlarda keng tarqalgan. Sho'rroxq yerlar o'zlashtirilgandan keyin g'o'za orasida ko'p o'sadi. Oqboshning baquvvat rivojlangan ildiz tizimi juda ko'p bachki paydo bo'lishiga imkon beradi. Tuproqning sho'ri yo'qotilgandan keyin begona o't rivojlanishda davom etadi, lekin sekin-asta kamayib borib, butunlay yo'qolib ketadi. Oqboshning ildizi imkonli boricha chuqur kesilsa, u batomom yo'qoladi. Bo'yи 1 m gacha



29-rasm. a) ayiqtovon  
b) bug'doyiq

bo'lgan o'simliklarning poyasi sershox bo'ladi. Barglari bandsiz, g'adir-budur, seret, yumaloq yoki o'tkir uchli shaklda. Guli binafsha rangda, mayda, savatchaga yig'ilgan; pishish davrida savatchalarda juda ko'p uzun tolalar hosil bo'ladi. Urug'i qo'ng'ir rangli, mayda va yaltiroq. May-avgustda gullaydi, iyul-sentyabrda hosil tugadi.


**Kurmak** – *Statice otolpis Schrenk*, kurmakdoshlar (*Plumbaginaceae*) oilasiga kiradi. 3 ball sho'rlangan (1 m qatlamdag'i quruq tuproq og'irligiga nisbatan 0,1-0,2 % xlor bo'lgan) tuproqli yerlarda ko'p miqdorda uchraydi. Agar dalaning melioratsiya holati yomon bo'lsa, g'o'za xlordan zararlanadi. Yaxshi yuvilgan tuproqlarda kermak uchramaydi. Bo'yи 50 sm gacha bo'ladi, kuchli rivojlangan yumaloq poyasining rangi ko'kish, g'adir-budur, o'rtasidan shoxlagan, juda mayda bargchali va chiroyli siren simon gullidir. To'pguli – ro'vak. Urug'i kul rang qo'ng'ir, mayda ovalsimon. May-avgustda gullaydi, iyun-sentyabrda hosil tugadi.

**Piyozlilar**. Bu begona o'tlarning yer osti poyasi piyozbosh bilan tingaydi. Vegetativ yo'l bilan yaxshi ko'payadi, buni, masalan, yovvoyi piyoz, sarimsoqda ko'trish mumkin.

Yovvoyi piyoz – *Allium rotundum L.* piyozguldoshlar (*Liliaceae*) oilasiga kiradi. Markaziy Osiyoda, Qrimda va MHDning Evropa qismida tarqalgan. O'zbekistonda asosan, bog'larda, tokzorlarda va qisman ekinlar orasida uchraydi. Begona o't sisatida alohida ahamiyatga ega yemas, oson yo'qoladi. Piyozbosh va urug'dan ko'payadi. Poyasi oddiy, yarmigacha barg bilan qoplangan, bo'yи 30-60 sm, O'zbekistonda may-iyunda gullaydi.

**Sudralib o'suvchilar**. Bularning poyasi yer ustiga yoyilib o'sadi, ildiz bo'g' imidan rivojlanadi, bunda palak va gajaklar hosil qiladi. Sudralib o'suvchi ko'p yillik begona o'tlarga ayiqtovon, tugmabosh, olmoso't kabi o'simliklar kiradi.

**Ayiqtovon** – (*Ranunculus repens L.* ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) oilasiga kiradi. Nam yerlarda yaxshi o'sadi. O'tloqlarda, dalalarda, tomorqalarda, pastqam joylarda, ariqlar



30-rasm. Begona o'tlar urug'larining kollektysi.

bo'yida, suv havzalari qing'oqlarida, Sholikorlikda uchraydi. Urug'dan va ildiz otadigan poyasidan ko'payadi. Ayiqtovon hayvonlar uchun zaharli.

### Nazorat uchun savollar:

1. Ko'p yillik begona o'tlarning ta'rifsi.
2. Ildizbachkili begona o'tlarga qaysi begona o'tlar kiradi?
3. Ildizpoyali begona o'tlarga qaysi begona o'tlar kiradi?
4. Ajriq begona o'tlarning qaysi biologic guruhiba kiradi?

## 12-MASHG'ULOT TUPROQNING BEGONA O'TLAR URUG'I BILAN IFLOSLANGANLIGINI HISOBGA OLİSH

**1. ISHNING MAQSADI:** Talabalar begona o'tlarning urug'lari bilan tanishib chiqadilar, tuproqlarning begona o'tlar urug'lari bilan ifloslanganlik darajalari hisobga olinadi, ko'p yillik begona o'tlarning ildizpoyasi va ildizi aniqlanadi.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** *Kalentev burg'usi yoki boshqa konstruksiyadagi burg'ular, belkurak, namuna solish uchun paketlar, etikettalar, 0,25 mm teshikli ikkita elak, 0,5 l hajmli stakan, shpatel, filtr qog'oz, og'ir eritma, urug'lar kolleksiysi yoki rasmlari, shisha tayogcha, lupa.*

### 3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:

Ekinlar orasidagi begona o'tlami hisobga olishdan tashqari, tuproqning ular urug'i bilan ifloslanganligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ana shu maqsadda tuproq namunalari tekshiriladi.

Tuprog'ni ifoslantiruvchi begona o'tlarning tur tarkibini va miqdorini bilish dalalarning tozaligi uchun kurash tadbirlarini tanlashni yengillashtiradi. Amaliy maqsadlar uchun ifloslanganlikni ekinni yig'ishtirib olish vaqtida hisobga olish ma'qui. Bu – begona o'tlarning to'kilgan urug'i sonini hisobga olish va shu kuzning o'zida tuproqni begona o'tlardan tozalashning zarur tadbirlarini belgilashga imkon beradi.

Shumg'iya va zarpechak urug'i topilgan uchastkalarga tekinxo'r begona o'tlardan zararlanmaydigan ekinlar ekish zarur.

Begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganlikni aniqlash uchun analiz qilinadigan tuproq namunasi Shevelev va Kalentyev burg'usi bilan

olinadi. Asosan Kalentyev burg'usi ishlataladi Bu burg'u 0-20 sm chuqurlikdan namuna olishga imkon beradi. Tekshiriladigan tuproq namunasi 4 sm oralatib olinadi (0-4, 4-8, 8-12, 12-16, 16-20 sm). lekin tekshirish ishlari qiyin bo'lgani uchun tuproqning 0-10, 10-20 sm qatlidan namuna olinadi.

Mazkur burg'udan ko'pincha haydalma qatlam chuqurligi 20-22 sm bo'lgan lalmikor dehqonchilik sharoitida foydalanish mumkin. Haydash chuqurligi 25-30 sm bo'lgan sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida bu maqsad uchun chuqurroq kovlайдиган, bo'laklarga bo'lingan oddiy tuproq burg'usidan foydalanish mumkin. Tuproq namunasi har bir maydonning diagonali bo'ylab 5 ta, yaxshisi 10 ta nuqtadan teng oraliqda olinadi.

Agar burg'u bo'lmasa, tuproq namunasi qatlamlar bo'ylab, haydalma qatlam chuqurligida tuproq qirqimidan olinadi. Bunda namuna olinayotgan maydon o'lchanadi. Daladan olingen namuna ochiq havoda quritiladi. So'ngra u 0,25 mm teshikli elaklarda yuviladi. Elakda ushlanib qolgan urug'lar va tuproqning yirik zarrachalari ruh xloridning 70 % li to'yingan og'ir eritmasiga, potashning 55 % li eritmasiga yoki osh tuzi eritmasiga solinadi. Bunda urug'lar yuqoriga ko'tarilib, tuproq agregatlan uning tagiga cho'kadi. Ajratib olingen urug'lar quritiladi, taxtacha ustiga yoyib, tur tarkibiga qarab ajratiladi; so'ngra turi bo'yicha soni hisoblab chiqiladi hamda begona o'tlar kolleksiyasi bilan solishtirib aniqlanadi.

Begona o'tlarning urug'i xilma-xil bo'lib, mazkur usulni 0,25 mm dan mayda urug'larga masalan, kungaboqar shumg'iyasi (*Orobanche cumana*) urug'ini aniqlashda qo'llab bo'lmaydi. Shuning uchun dalalar 0,25 mm dan mayda urug'lar bilan ifloslanganligini aniqlash uchun maxsus analiz qilinadi.

Begona o'tlarning urug'i xilma-xil bo'lib, mazkur usulni 0,25 mm dan mayda urug'larga masalan, kungaboqar shumg'iyasi (*Orobanche cumana*) urug'ini aniqlashda qo'llab bo'lmaydi. Shuning uchun dalalar 0,25 mm dan mayda urug'lar bilan ifloslanganligini aniqlash uchun maxsus analiz qilinadi.

Buning uchun tuproq namunasi bordaniga og'ir eritmaga solinadi va qolgan ishlar yuqoridagi singari bajariladi.

Tuproq namunalar chuqurligiga ko'ra analiz qilingandan, begona o'tlarning tur tarkibi aniqlangandan, har bir tur urug'ining soni

hisoblab chiqilgandan keyin namunadagi urug'ning umumiy soni va og'sirligi  $1 \text{ m}^2$  ga nisbatan hisoblab chiqiladi.

$1 \text{ m}^2$  dagi begona o'tlar urug'ining soni quyidagicha hisoblanadi. Quyidagi formula bilan burg'u ichki aylanasining maydoni aniqlanadi:

$$W = \frac{\pi * d^2}{4}$$

bu yerda  $W$  – burg'u ichki aylanasining maydoni,  $\text{sm}^2$ ;

$d$  – burg'uning ichki diametri,  $\text{sm}$ ;

$\pi$  – aylananing diametriga nisbati;

$4$  – doimiy son.

Yoki tuproq qirqimi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W = a * b$$

bu yerda  $W$  – qirqim maydoni,  $\text{sm}^2$ ;

$a$  – qirqim kengligi,  $\text{sm}$

$b$  – qirqim uzunligi,  $\text{sm}$ .

Agar burg'u  $30 \text{ sm}$  chuqurlikka kiritilgan bo'lsa, u holda  $0-30 \text{ sm}$  chuqurlikdagi va  $1 \text{ m}^2$  maydondagi urug'lar sonini hisoblash uchun o'tkazish koefitsiyenti  $K$  topiladi. U burg'u maydoni yoki undagi urug'lar zapasi aniqlanib bo'lgan tuproq qirqimi ( $W$ ) ga nisbatan olingan  $1 \text{ m}^2$  maydonga ( $S = 10000 \text{ sm}^2$ ) teng. Bunda o'tkazish koefitsiyenti:

$$K = \frac{C}{W} \quad \text{bo'ladi.}$$

O'tkazish koefitsiyentini tuproq namunasidagi begona o'tlarning umumiy soniga ko'paytirib haydalma qatlama  $1 \text{ m}^2$  maydonga to'g'ri keladigan urug'lar soni topiladi. Buni gektar hisobiga aylantirish uchun ko'rsatilgan kattalik 10000 ga ko'paytiriladi.

Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligi 16 – jadvalga muvofiq yoziladi.

**Ko'p yillik begona o'tlarning ildizpoyasi va ildizini aniqlash.**

Begona o'tlarning unib chiqqan urug'lar foizini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ana shu maqsadda urug'lar turiga qarab sanab chiqilgandan keyin, ularning bir qismi aralashtirib yubormasdan, unib chiqishi uchun qumga yoki filtr qog'ozga joylanadi. 10-15 kundan keyin qattiq, unmagan urug'lar qobig'ini buzish va unib chiqishini tezlashtirish uchun qizdiriladi. Uch xtaftadan keyin yakun yasaladi – ungan urug'lar soni aniqlanadi. Bular namunadagi begona o'tlar urug'ining umumiy soniga nisbatan foiz bilan ifodalanadi.

Ko'p yillik begona o'tlarning ildizpoyasi va ildizi borligi ham namuna maydonchalarida aniqlanadi. Kovlab olingan ildizpoya va ildizlar tuproqdan tozalanib, og'irligi va uzunligi aniqlanadi. Dalaning ifoslanganligi 1 m<sup>2</sup> dagi ko'zcha yoki kurtaklarning og'irligi, uzunligi va soni bilan ifodalanadi. Ko'p yillik begona o'tlarning urug'i, ildizpoyasi va ildizi bilan ifoslanganlik to'g'risidagi ma'lumotlar qektarga aylantirib hisoblanadi. Maydonning va turli dalalar tuprog'ining ifoslanganligiga doir ma'lumotlar solishtiriladi va shu asosda begona o'tlarga qarshi kurash choralarini tizimi ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari donning begona o'tlar urug'i bilan ifoslanganlik darajasi va tarkibi aniqlanadi. Buning uchun dondan o'rtacha namuna olinadi va ularda begona o'tlar urug'i bor-yo'qligi sinchiklab analiz qilinadi. So'ngra madaniy o'simliklar urug'iga nisbatan begona o'tlar foizi aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar urug'larni sinchiklab tozalash chora-tadbirlarini ko'rish uchun zarur.


16-jadval

**Tuproqning begona o'tlar urug'lari bilan ifoslanganligini aniqlash**

Namuna olingan vaqt	Namuna olingan joy	Tuproqning nomi	Burg'ularning yoki tuproq qirqimi maydoni W	O'tkazish koefitsienti, K	Tur tarkibi	Chuqurlikdagi (sin) begona o'tlar urug'larning soni (dona)	Na-muna-dagi barcha urug'-lar	Qayta hisoblangandagi barcha urug'lar (dona)
						0-5 5-10 10-15 15-20 20-25 25-30	dona	gr 1 m <sup>2</sup> qektarda

Asosan bir hil agrotexnikaviy kurash choralar qo'llaniladigan begona o'tlar to'rt guruhga bo'linadi: 1) ildizpoyalilar-ko'p yilliklar (g'umay, ajriq, solamalaykum va boshqalar); 2) ildizbachkililar (kakra, qizilmiya, qo'yechak, bo'ztikan va boshqalar); 3) kam

yilliklar, jumladan, ikki yilliklar (qashqarbeda, yerman); bir yilliklar-bahori begona o'tlar (gultojixo'roz, olabuta, qo'ytikan, qorako'zalar), kuzgi begona o'tlar (yaltirbosh), qishlovchi begona o'tlar (achambiti, yarukta va boshqalar); 4) tekinxo'r begona o'tlar (shumg'iya, zarpchak).



**31-rasm. Begona o'tlar urug'i va ularning moslamalari:**  
 1-paxtakian; 2-bo'ztikan; 3-qaldirmoq; 4-qoqio't; 5-sariqbosh;  
 6-takasoqol; 7-erigeron; 8-yovvoyi beda; 9-yopishqoqo't;  
 10-qumrio't; 11-itikan; 12-raspistrum; 13-qo'ytikan; 14-qariqiz.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganligi qanday aniqlanadi?
2. Begona o'tlar urug'lari sonini aniqlashda tuproqdan qanday namuna olinadi?
3. Ko'p yillik begona o'tlarning ildizpoyasi va ildizini aniqlash.

## 13-MASHG'ULOT

### DALALARNI BEGONA O'TLAR BILAN

### IFLOSLANGANLIGINI HISOBGA OLISH VA XARITALASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Talabalar dalalarni begona o'tlar bilan ifoslanganligini aniq va chamalash usullarida hisobga olishni o'rGANADILAR. Shuningdek, dalalarni begona o'tlar bilan ifoslanganlik xaritasini tuzadilar.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** *Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, yig'ma jadvallar, masalalar to'plami, adabiyotlar.*

#### **3. ISHNI NAZARIY AHAMIYAT:**

Begona o'tlar biologik xususiyati va zarar etkazish darajasiga qarab bir-biridan farq qiladi. Ularga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish uchun ularning ekinlar : orasida miqdorini hisobga olish zatur.

Begona o't bilan ifoslanganlik darajasi ikki bosqichda aniqlanadi. Avval mazkur maydondagi begona o'tlarning turi, so'ngra esa miqdoriy tarkibi aniqlanadi. Begona o'tlar mavjudligi ikki usulda: chamalab va aniq belgilanadi.

#### **Begona o't bilan ifoslanganlik darajasini ehamalash usuli bilan hisobga olish texnikasi**

Begona o'tlar sonini hisobga olish juda oson va qulay, buning uchun A.I.Malsevning to'rt balli shkalasidan foydalilanadi.

*I-ball* – biror turga kiradigan begona o'tlar yakka-yakka uchraydi (hamma o'tlarning 5 % gacha);

*II-ball* – begona o'tlar kam (hamma o'tlarning 5 dan 25 % gacha);

*III-ball* – begona o'tlar umumiy o't miqdorining 25 % dan ko'p, lekin madaniy o'simliklardan kam;

*IV-ball* – begona o'tlar madaniy o'simliklardan ko'p.

Kuzatish natijalari begona o'tlarni hisobga olish vedomostiga yozib olinadi va har bir maydonda o'tkazilgan agrotexnikaga doir mukammal tafsilot beriladi. Shundan keyin ajratilgan maydonda diagonal bo'ylab yuriladi va uchragan barcha begona o'tlar va endigina ungan maysasi qaydnomaga yozib olinadi, begona o'tning uchragan har bir turi esa tegishli ball bilan belgilab qo'yiladi. So'ngra yuqorida keltirilgan shkalaga muvosiq, butun maydonni begona o't bosganligiga balli baho qo'yiladi.

Begona o't bilan ifoslanganlik darajasi barcha almashlab ekish dalalarida aniqlanadi. Agar almashlab ekish dalasining agrotexnikasi

bir xil va u yerga ayni bir xil ekin ekilgan bo'lsa, begona o'tlami hisobga olish uchun bitta vedomost tuziladi. Agar mazkur dala bir qancha ckinlar bilan band bo'lsa yoki turii agrotexnika qo'llanilsa, unda tuziladigan vedomoselar soni ekinlar turining soniga muvofiq bojadi. Begona o'tlarning tur tarkibini aniqlash to'g'rilingim tekshirish uchun gulli o'simliklarning gerbariysi (har bir turdan 2-3 donadan) yig'iladi, bunda dalaning nomeri va begona o'tning nomi ko'rsatiladi.

### BEGONA O'TLARNI HISOBGA OLISH QAYDnomasi

Viloyat.....

Tuman.....

Fermer xo'jaligi .....

Almashlab ekish.....

Almashlab ekishni joriy qilish va o'zlashtirish vaqtı .....

Dala raqami.....

Ekin.....

Butun dalaning kattaligi.....

Ifloslanganligi hisobga olinadigan maydon (ga hisobida).....

Relef.....

Tuproq.....

Kuzatishdan oldin keyingi ikki yil ichida ekilgan ekinlar.....

Yemi kuzgi shudgorlash tizimi.....

Yerni ckin ekishdan oldin ishlash tizimi.....

So'nggi ikki yil ichida solinadigan o'g'itlar tarkibi, miqdori va solish muddatlari.....

Yerga o'g'it solish usuli va ko'mish chuqurligi.....

Ekin ekish (urug'larni ekish vaqtı, usuli va ko'mish chuqurligi) ..

Uruglik material (qayerdan olingan, unuvchilik foizi, tozalik foizi, begona o'tlar bilan ifloslanganligi, tur tarkibi ko'rsatiladi) .....

Madaniy o'simlikning kuzatish vaqtidagi rivojlanish fazasi va bo'yisi (sm) .....

Dalaning ifloslanganligi aniqlangan vaqt va dala nomeri .....

Kuzatish vaqtida dala sharoitida aniqlash qiyin bo'lgan begona o'tiar ham uchraydi. Bunday holda ular vedomostga va gerbariiga nomer qo'yib yoziladi, so'ngra aniqlab bo'lgandan keyin ko'rsatilgan nomer belgilangan nom bilan almashtiriladi. Dalalarning begona o't bosganlik darajasi haqida to'liq tushuncha hosil qilish uchun uning yarusligi aniqlanadi.

*Birinchi (quyi) yarus* past bo'yii begona o'tlar, ularning ekinlar bo'yining 1/4 qismidan oshmaydi.

*Ikkinci (o'rta) yarus* bo'yii ekinlar poyasi bo'yining yarmidan ko'prog'iga teng yoki ular bilan baravar boigan begona o'tlar.

*Uchinchi (yuqori) yarus* bo'yii ekinlar bo'yidan yuqori bo'lgan begona o'tlar.

17-jadval

### Begona o'tlarning kuzatish vaqtidagi tavsifnomasi

Begona o'tning nomi?	Biologik guruhi, sm	Bo'yil, sm	Yaruslilisi	Rivojlanish fazasi	Ball
NOMI					

Maydon (ekin) ifloslanganligining umumiy balli, yaruslilik ekin gullashi davrida yoki uni yig'ib terib olishdan oldin belgilanadi.

#### Begona o'tlarni aniq usul bilan hisobga olish texnikasi

Dalalarning begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasini aniq usul bilan hisobga olish muhim abamiyatga ega. Lekin aniqlashning bu usuli juda qiyin va ko'p vaqtini talab qiladi. Shuning uchun ishlab chiqarish sharoitida mazkur usul juda kam qo'laniлади. Shunga ko'ra, tajriba dalalarida begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasini hisobga olishda, asosan, miqdoriy og'irlilik usuli qo'laniлади.

Bu usulda ishlar quyidagi tartibda amalga osbiriladi:

1) 0,25, 0,5 va 1 m<sup>2</sup> kattalikdagi yog'och ramka olinadi va dalaning ikki diagonali bo'ylab 10-15 marta qo'yiladi.

2) ramka ichida bolgan hamma begona o'tlar yulib olimadi, turiga qarab ajratiladi va sanab chiqiladi.

3) hisobga olgan begona o'tlar biologik xususiyatlariga ko'ra kam yillik va ko'p yilliklarga bo'inadi va ochiq havoda alohida-alohida quritiladi, keyin tortiladi.

4) 10-15 nuqtadan olingan hisobga olishdagi ma'lumotlar qo'shiladi va kuzatishlar soniga taqsimlanadi. So'ngra 0,25 m<sup>2</sup> uchun o'rtachani topib, 1 gektarga aylantirib hisoblab chiqish mumkin. Yozish shakli quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Qator oralari ishlanadigan ekin dalalarida hisoblash maydoni  $1 \text{ m}^2$  bo'lib, maydon to'g'ri to'rtburchak shaklida ikkita egatni qamrashi lozim. Bunda to'g'riburchakning tomonlari: qator orasi 90 sm qilib ekilganda 90 va 111 sm; 70 sm da 70 va 143 sm; 60 sm da 60 va 166 sm hamda 45 sm da esa 90 va 111 sm bo'lishi kerak. Hisoblaygan begona o'tlar kam yillik va ko'p yilliklarga ajratilib. Yangiligidagi texnik tarozida tortiladi. So'ngra ular ochiq havoda quritilib, yana vazni aniqlanadi. Olingan barcha (10 yoki 15) ma'lumotlar qo'shilib, kuzatishlar soniga bo'linadi. Natijada yog'osh ramka yuzasi uchun begona o'tlarning o'rtacha miqdori topiladi. Keyin u gektariga aylantirib hisoblanadi va dalaning begona o'tlar va ularning turlari bo'yicha ifloslanish darajasi ball bilan aniqlanadi.

18-jadval

**Tekshiriladigan maydonning hisobga olinadigan qismidagi  
begona o'tlar ro'yxati**

Tartib raqami	Maydon	Ekin	0,25 m kattalikdagagi hisobga olish maydoniga to'g'ri keladigan	Hammasi	Kam yillik	Ko'p yillik
1 va hokoza		G'o'za	Begona o'tlar poyasining soni.			
2 va hokoza		Malka jo'xori	Begona o'tlar quruq massasining og'rili.  Begona o'tlar poyasining soni.  Begona o'tlar quruq massasining og'rili.			


19-jadval

**Dalalar va ekinlarning ifoslanganligini hisobga olish**

Tartib raqami	Maydoncha	Poyalar soni, ming/ga		Begona o'tlar quruq massasining og'rili. ga/s	Begona o'tlar quruq massasiga nisbatan % hisobida	
		Madaniy o'simliklar	Begona o'tlar		Kam yillik	Ko'p yillik

Tekshirish natijasida olingen ma'lumotlarga asoslanib, xo'jalik dalalarining begona o'tlar bilan ifloslanganlik xaritasi tuziladi. Ushbu xaritada dalalarining begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasi ball bilan, begona o'tlarning turlari rejali holda tegishli ranglarda bo'yash yoki shtrixlash va turli shartli belgilarda ifodalananadi. Xarita har yili tuziladi va uning ostida shartli belgilari beriladi. Xarita dalalarda begona o'tlarning tarkibi va miqdori o'zgarishiga qarab, ularga qarshi har xil kurash tadbirlarini tanlashda va qo'llashda yordam beradi hamda xo'jalikning u yoki bu xil gerbitsidga ehtiyoji oldidan aniqlanishiga imkon beradi.

Kuzatish vaqtida uchragan begona o'tlarning tur tarkibini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan shakldan tashqari, hududni oldindan aylanib chiqish vaqtida dalalarda va ekinlar orasida uchragan begona o'tlarning tur tarkibini chamlab hisoblash uchun vedomost hamda tekshiriladigan hududning hisobga olinadigan maydonlariga nuqtalar va nomerlar qo'yib chiqilgan sxematik rejasi tuziladi.



**32-rasm. Dalalarai begona o'tlar bilan ifloslanishini ifodalovchi xarita**

### Nazorat uchun savollar:

1. Dalalarni begona o'lar bilan iflostaniшини qanday usullarda aniqlanadi?
2. Dalalarni begona o'lar bilan ifloslanganligi qaydnomasining tuzilishi qanday?
3. Dalalarni begona o'lar bilan ifloslanganligi xaritasi qanday tuziladi?

## 14-MASHG'ULOT GERBITSIDLARNING SOLISH ME'YORINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Gerbitsidlar begona o'tlarga va madaniy o'simlikdarga ta'sir etishiga ko'ra guruhlarga bo'linishi. Gerbitsidlarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, klassifikatsiyasi o'r ganiladi. Gerbitsidlarning solish me'yori, ishchi critma konsentratsiyasi hisobini aniqlash va har xil ekinlarda gerbitsidlarni qo'llash bo'yicha masalalar echiladi.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** Targatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, yig'ma jadvallar, masalalar to'plami, gerbitsidlar, adabiyotlar.

### 3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:

Belgilangan hududga begona o'tning dizaynlashtirilishi, nazorat dasturi o'sha hududdagi begona o'tlar tabiatini va muhitini bilishni talab qiladi hamda ularga gerbitsidlar qanday ta'sir etishimi belgilaydi.

Begona o'tni nazoratini belgilashda begona o'tlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Begona o'tlara qarshi quyidagi tadibiliar amalgaga oshiriladi.

- ❖ Oldini olish
- ❖ Tag-tomiri bilan yo'qotish
- ❖ Nazorat qilish
- ❖ Boshqarish<sup>9</sup>

Begona o'tlarni kimyoviy moddalar yordamida yo'qotish eng muhim samarali usullardan biri hisoblanadi. Begona o'tlarga qarshi qo'llaniladigan moddalar gerbitsidlar (lotincha gerbo-o'simlik, tsid-o'ldiraman) deb ataladi. Gerbitsidlarni qo'llash qulay, unumli va ancta arzonga tushib, begona o'tlar sonini keskin kamaytirib, ekinlar

<sup>9</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Samasundaram E. A textbook of agronomy. New Delhi. 2010. 323 bet.

hosildorligini ortishini ta'minlaydi. Kimyoviy usul yordamida dalalardagi begona o'tlarni 75-90 foizni yo'qotish mumkin.

Qishloq xo'jaligida ishlashish uchna tavsiya qilingan gerbitsidlar asosan kam zaharli, o'rtacha zaharli moddalardan iborat bo'lib Sog'lijni saqlash hamda Qishloq xo'jaligi vazirliklarining tegishli ruxsati bilangina qo'llaniladi.

Gerbitsidlar bilan ishlashda belgilangan xavfsizlik qoidalariga qa'tiy rioya qilish kerak.


Gerbitsidlar kimyoviy tarkibiga ko'ra anorganik va organik gerbitsidlarga bo'linadi.

O'simliklarga ta'sir etishiga qarab ikki guruhaga: *tanlab ta'sir etuvchi* va *yoppasiga ta'sir etuvchi* gerbitsidlarga bo'linadi.

Tanlab ta'sir etuvchi gerbitsidlar begona o'tlami yo'qotib, madaniy o'simliklarga zarar yetkazmaydi. Yoppasiga ta'sir etuvchi gerbitsidlar hamma o'simliklarni yo'qotadi. Ular dala chetidagi, yo'l, ariq, zovur, kanal yoqalaridagi begona o'tlarga qarshi qo'llaniladi. Shuningdek, madaniy o'simliklarni yig'ishtirib olingandan keyin ham qo'llash mumkin.

Gerbitsidlar o'simlikka ta'sir etish xarakteriga qarab, *kontak* va *ichdan ta'sir etuvchilarga* bo'linadi.

Kontakt ta'sir etuvchi gerbitsidlar begona o'tlarning tekkan joyiga ta'sir etadi. O'simlik organlari bo'ylab harakatlanmaydi. Ichdan ta'sir etuvchi gerbitsidlar esa o'simlikning qaysi qismiga tegishidan qa'tiy nazar, uning tanasiga singib, hamma organlari bo'ylab harakat qiladi va moddalar almashinuvini izdan chiqarib o'simlikni nobud qiladi.



33-rasm. PGS-2,4 moslamasining texnologik sxemasi

1-rezervuar, 2-suv o'lchanayi, 3-nasos, 4 va 5 - so'ruchchi shlanglar, 6-filtr, 7-suyuqlik haydash magistrali, 8-blok regulyator, 9-berkituvchi klapani, 10-taqsimlagich, 11-shlanglar, 12-ueblik, 13-qayta o'tkazuvchi shlang, 14-bosim regulyatori.

Gerbisidlar OVX - 28 apparatida yoppasiga, PGS-2,4, PGS - 3,6 apparatida tasmasimon usulda sepiladi (33-rasm).

Gerbitsidlarni solish me'yori preparat bo'yicha yoki preparat tarkibidagi ta'sir etuvchi modda bo'yicha  $kg/ga$ ,  $l/ga$  da hisoblanadi.

Agar gerbitsidning solish me'yori ta'sir etuvchi modda bo'yicha berilgan bo'lsa, formula yordamida preparat bo'yicha qancha olinishi aniqlanadi:

$$C = \frac{D * 100}{B}$$

bu yerda  $C$  - Gerbitsid solish me'yori,  $kg/ga$  yoki  $l/ga$ ;

$D$  - ta'sir etuvchi moddarining me'yori,  $kg/ga$  yoki  $l/ga$ ;

$B$  - ta'sir etuvchi modda miqdori, foiz.

Misol uchun, kotofor ta'sir etuvchi modda bo'yicha gektariga ( $D$ ) 1  $kg$  sepilishi kerak, preparatning ta'sir etuvchi moddasi ( $B$ ) 80 foiz bo'lsa gerbitsid ( $C$ ) solish me'yori:

$$C = \frac{1 * 100}{80} = 1,25 \text{ kg/ga bo'ladi}$$

Purkash uchun tayyorlangan ishchi eritmaning konsentratsiyasi quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi :

$$K = \frac{C * 100}{P}, \text{ foiz}$$

bu yerda  $K$  - ishlataladigan eritmaning konsentratsiyasi, foiz.

$C$  - preparatning me'yori,  $kg/ga$  yoki  $l/ga$ .

$P$  - suyuqlik (suv) sarfi,  $l/ga$ .

Masalan, 1 gektar maydonga 1,25  $kg$  gerbitsid sepilishi kerak. Bunda gektariga 200  $l$  suv sarflansa ishchi eritma konsentratsiyasi:

$$K = \frac{1,25 * 100}{200} = 0,625 \% ga$$

teng bo'ladi, ya'ni har 100  $l$  suvgaga 625 g gerbitsid solish kerak bo'ladi.

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Makkajo'xoridan bo'shagan 100 gektarli maydon sentyabr oyining birinchi yarmida sug'orilib ajiriq, g'umay, qo'ypechak kabi ko'p yillik o'tlar 10-20 sin chamasini balandlikda yashil massa hosil qilgandan so'ng 80 % li kotoran gerbitsidi ta'sir etuvchi modda bo'yicha gektariga 3,5-5  $kg$  me'yorda sepiladi. Suv sarfi 600  $l/ga$ . Kotoranning preparat bo'yicha solish me'yorni, umumiy sarfini va ishlataladigan eritma konsentratsiyasini toping.

2. Bahorgi g'alladan bo'shagan 80 hektarli maydonga sentyabr oyining ikkinchi yarmida 50 % li fosulen gerbitsidi sepilish kerak. Ta'sir etuvchi modda bo'yicha solish me'yori 4,5 kg/ha, suv sarfi 800 l. gerbitsidning preparat bo'yicha solish me'yorini va ishlataladigan eritma konsentratsiyasini toping.


3. Xo'jalikdag'i chigit ekishga ajratilgan maydonning 650 hektariga 80 % li kotorau gerbitsidi sepilishi kerak. Ta'sir etuvchi modda bo'yicha solish me'yori gektariga 1 kg, suv sarfi 200 l. Preparat bo'yicha solish me'yorini, gerbitsidga bo'lgan umumiyl ehtiyojini va ishlataladigan eritma konsentratsiyasini toping.

4. Xo'jalikdag'i chigit ekishga ajratilgan maydonning 330 hektariga ekish oldidan 15 % li fyuzilad gerbitsidini yoppasiga sepilib tuproqqa borona yordamida aralashtirishi kerak. Gerbitsidning ta'sir etuvchi modda bo'yicha sarfi 1,5 kg/ha, suv sarfi 600 l/ha. Preparat bo'yicha solish me'yori, umumiyl ehtiyoj va ishlataladigan eritma konsentratsiyasini toping.


5. Paxta ekish uchun ajratilgan maydonning 560 hektariga 50 foiz li gezagard 50 gerbitsidi ekish bilan birga tasma usulida sepilishi kerak. Ta'sir etuvchi modda bo'yicha solish me'yori 1,0-1,5 kg/ha. Suv sarfi 200 l/ha. Preparat bo'yicha solish me'yorini, umumiyl ehtiyoj va ishlataladigan eritma konsentratsiyasini toping.



34- rasm OSHU-150  
changlatkichi



35-rasm OVX-600  
purkagichi



36-rasm. Shtangali  
purkagich OPSH-X-  
12/15

**G'ozza orasida o'sadigan begona o'tlarga qarshi kurashda  
foydalanish uchun ruxsat etilgan gerbitsidlar ro'yxati**

Gerbit-sidlar nomi	Gerbitsidlar surʼf meʼyori. ga/kg yoki ga/l	Ekin turi	Qarshi ishlataligida begona oʼtlar	Ishlatish muddati
<b>Galoksifop -R-metyl</b>				
Gerbion 104 g/l em.k.	1,0	G'ozza, piyoz, sabzi, kartoshka	Bir va koʻp yillik boshqoli va ikki pallalitarga	Bir yillik begana oʼtlar 2-6 barg davrida va koʻp yillik begana oʼtlar 10-15 sm boʻlganda purkaladi
Zeldek ekstra 10,4% em.k.	1,0	G'ozza, piyoz, kartoshka	Bir yillik va koʻp yillik boshqoli begona oʼtlar	Bir yillik begana oʼtlar 2-6 barg davrida va koʻp yillik begana oʼtlarning boʻyi 10-15 sm boʻlganda purkaladi
Zellek super 104 g/l em.k.	1,0	G'ozza, qand avlagi, xashak lavlagi, sabzi, kartoshka, piyozning barcha avlodni	Bir yillik boshqoli	Begona oʼtlar 2-6 bargli faol oʼsuv davrida purkaladi
	1,0	G'ozza, qand lavlagi, xashaki lavlagi, sabzi, kartoshka, piyozning barcha avlodni	Koʻp yillik boshqoli	Begona oʼtlar 10-15 bargli faol oʼsuv davrida purkaladi

Glifosat				
Glifogon 360 g/l s.e.(B)	4,0-6,0	Bug'doy va g'o'za ekinlaridan bo'shagan yerlarga	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallalilarga	Hosil yig'ib olingach o'sa- yotgan begona o'tlarga purkaladi
Glofos 360 g/l s.e. (B)	4,0-6,0	G'o'za	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallalilarga	Paxta hosi- lining ikkinchi terimidan so'ng o'sayot- gan begona o'tlarga
	4,0-6,0	Qishloq xo'- jaligidagi foy- dalanimay- digan yerlar	Bir va ko'p yillik boshoq- li va ikki pallalilarga	O'sayotgan begona o'tlarga
Dafosat 360 g/l s.e.(B)	4,0-6,0	G'alla va paxta uchun rejalashtirilg- an joylar	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallalilarga	Hosil yig'ib olingach, ekin- larni ekishdan kamida 30 kun avval
Uragan forte 500g/l s.e. (B)	3,0-4,0	Qishloq xo'- jalik ekinlari ekish reja- lashtirilgau dalalar	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallalilarga	Ekinlarni ekishdan kamida 30 kun avval
Kvizalofop-p-tcfuril				
Pantera 40g/l em.k.	1,0-1,5	G'o'za	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Begona o'tlар- ning bo'yи 10- 15 sm bo'lgan- da purkaladi
	1,5-2,0	G'o'za	Ko'p yillik boshoqli begona o'tlarga	Begona o'tlarning bo'yи 10-15 sm bo'lganda purkaladi
Enterra 40g/l em.k.	1,0-1,5	G'o'za	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Begona o'tlarning bo'yи 10-15 sm bo'lganda purkaladi

	1,5-2,0	G'o'za	Ko'p yillik boshqoli begona o'tlarga	Begona o'tlarning bo'yи 10-15 sm bo'lqanda purkaladi
Pendimetalin				
A-stop 330 g/l em.k (B)	1,0	Plyonka ostiga ekilgan g'o'za	Bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga	Ekish bilan birga tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
Zorro 33% em.k (B)	1,0-2,0	G'o'za	Bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karishi-gacha tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
Penmort 33% em.k (B)	1,0	Plyonka ostiga ekilgan g'o'za	Bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga	Ekish bilan birga tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
Samuray 33% em.k (B)	1,0-2,0	G'o'za, makka-jo'xori, kartoshka	Bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karichi-gacha tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
Stomp 33% em.k (B)	3,0-6,0	G'o'za, makka-jo'xori, kartoshka, sabzi	Bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karichi-gacha tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
	1,0-2,0	G'o'za, makka-	Bir yillik ikki pallali va	Ekinlarining ko'karichi-

		jo'xori, kartoshka, sabzi	boshoqli begona o'tlarga	gacha tasma- simon usulda tuproqqa purkaladi
	1,0	Plyonka ostiga ekilgan g'o'za	Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlarga	Ekish bilan birga tasma- simon usulda tuproqqa purkaladi
Prometrin				
Gezagard 50, 50% n.kuk.(B)	3,0-5,0	G'o'za	Bir yillik boshoqli va ikki pallali begona o'tlarga	Ekishdan oldin yoki ekish bilan birga yoki nihollarning ko'karib chiqishigacha tuproqqa purkaladi
Flumeturon				
Kotoran 30% n.kuk.	1,6-3,5	G'o'za	Bir yillik ikkipallali va boshoqli begona o'tlarga	Tuproqqa ekishdan oldin yoki ekish bilan birga yoki nihollar- ning ko'ka rib chiqishigacha purkaladi
Kotoran 80% n.kuk.	1,0	G'o'za	Bir yillik ikkipallali va boshoqli begona o'tlarga	Ekish bilan birga tuproqqa tasma usulida purkaladi
	0,8	Plyonka ostiga g'o'za	Bir yillik ikkipallali va boshoqli begona o'tlarga	Ekish bilan birga tuproqqa tasma usulida purkaladi

**Galla ekinlari orasida o'sadigan begona o'tlarga qarshi kurashda foydalanish uchun ruxsat etilgan gerbitsidlar to'yxati**

Gerbit-sidlar nomi	Gerbit-sidlar surʼ me'yori, ga/kg yoki ga/l	Ekin turi	Qarshi ishlati-ladigan begona o'tlar	Ishlatish muddati
<b>Bentazon</b>				
Bagran 48% s.e.	2,0-4,0	Bug'doy, javdar, arpa	Bir yillik ikki pallali	Ekinlarni tuiplash davrida purkaladi.
Bazagran 48% s.e.	2,0-4,0	Bug'doy, javdar, arpa	Bir yillik ikki pallali	Ekinlarni tuiplash davrida purkaladi.
<b>Glifosat</b>				
Glifogon 360 g/l s.e.(B)	4,0-6,0	Bug'doy va g'oz'a ekinlaridan bo'shagan yerlarga	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallalilarga	Hosil yig'ib olingandan so'ng o'sayotgan begona o'tlarga purkaladi
Raundap 360 l/g s.e. (B)	4,0-6,0	G'alla ekish uchun rejalashtirilgan yerlar	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallalilarga	Hosil yig'ib olingandan so'ng, ekishdan kamida 30 kun oldin o'sayotgan begona o'tlarga purkaldi
0	4,6-6,0	Qishloq xo'jaligidagi foydalaniylmaydigan yerlar	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallalilarga	O'sayotgan begona o'tlarga purkaladi

Imazapir				
Arsenal 25% s.e.k.(B)	2,0-2,5	Qishloq xo'jaligida foydalanim- maydigan yerlar	Bir va ko'p yillik bo- shoqli va ikki pallalilarga	O'sayotgan begona o'tlarga purkaladi
Klodinafop propargil+antidot klokvintotset ineksil				
Kovboy 80 g/l em.k.	0,3-0,4	Kuzgi bug'doy	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Bug'doy- ning tupla- nish davrida purkaladi
Topik 8% em.k.	0,3	Kuzgi bug'doy	Bir yillik boshoqli be- gona o'tlarga	Bug'doy- ning tupla- nish davrida purkaladi
Entopic 8% em.k.	0,3-0,4	Kuzgi bug'doy	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Bug'doy- ning tupla- nish davrida purkaladi
Mezosulfuron-metil natriv+yodosulfuron				
Atlantis 3,6% s.e.g.	0,25-0,3+ biopauer 1,0	Kuzgi bug'doy	Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar (shu jurn- ladan yovvo- yi suli, ray- gras va boshoqlilar)	Bug'doy- ning tuplanish davrida biologik aktiv modda qo'shib purkaladi
Tribenuron-metil				
Granstar Pro, s.d.g. 750 g/kg	15-20 ga/g	Kuzgi, bahorg'i bug'doy, arpa	Bir yillik ikki pallali begona o'tlar	Ekinning 3barg tup- lash davrida purkaladi
Dalstar 75% q.o.sus.	15-20 ga/g	Kuzgi bug'doy	Bir yillik ikki pallali begona o'tlar	Ekinning tuplash davrida purkaladi
Entostar 75% s.d.g.	15-20 ga/g	Kuzgi bug'doy	Bir yillik ikki pallali begona o'tlar	Ekinning tuplash davrida purkaladi

Fenoksapro-p-etyl-antidot				
Avena super 10% em.k.	0,6-0,8	Kuzgi bug'doy	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Bug'doyning tuplash davrida purkaladi
Avestar 10% em.k.	0,6-0,7	Kuzgi bug'doy	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Bug'doyning tuplash davrida purkaladi
Puma super 7,5 s.m.e.	0,8-1,2	Bahorgi bug'doy	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Bug'doyning tuplash davrida purkaladi
	0,6-0,8	Kuzgi bug'doy	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Bug'doyning tuplash davrida purkaladi
Ento super 7,5 s.m.e.	0,6-0,8	Kuzgi bug'doy	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Bug'doyning tuplash davrida purkaladi

22-jadval

Sholi va makkajo'xori ekinlari orasida o'sadigan begona o'tlarga qarshi kurashda foydalanish uchun ruxsat etilgan gerbitsidlar ro'yhati

Gerbit-sidlar nomi	Gerbitsidlar surʼat meʼyori, ga/kg yoki ga/l	Ekin turi	Qarshi ishlatalidigan begona oʼtlar	Ishlatish muddati
Azimsulfuron				
Boliver 50% s.d.g.	25,0-30,0+SFM 150-200 ga/ml	Sholi	Bir va koʻp yillik boshoqli	Begona oʼtlar 2-4 barg davrida nam tuproqqa yoki sholi poyada suv sathi 5-10 sin boʼlganda sirt faol modda qoʼshib

Gulliver 50% s.e.g.	25,0- 30,0+SFM(Trend 90) 200 ga/ml	Sholi	Bir va ko'p yillik boshoqli, ikki pallali	Begona o'tlar 2-4 barg davrida nam tuproqqa yoki sholi poyada suv sathi 5-10 sm bo'lganda sirt faol modda qo'shib purkaladi
<b>Bentiokarb</b>				
Saturn 50% em.k.	8-10	Sholi	Bir yillik boshoqli (tariqsi- mon) begona o'tlarga	Ekishgacha, sholining ko'karishiga- cha yoki 1-2 barg davrida turoqqa purkaladi
<b>Bentazon</b>				
Bazagran 48% s.e.	2,0-4,0	Sholi	Hilol	Sholining 2 barg-tuplash davrida purkaladi
	2,0-4,0	Makkajo'xori	Bir yillik ikki pallali begona o'tlarga	Makkajo'xori 3-5 barg davrida purkaladi
<b>Dikamba</b>				
Banvel 24% s.e	1,2-1,6	Makkajo'xori	Bir yillik ikki pallali begona o'tlarga	Makkajo'xori 3-5 barg davrida purkaladi
<b>Kvinklorak</b>				
Tornado 25% em.k	1,8	Sholi	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Sholi 2-3 barg chiqarganda, tuproq nam bo'lganda purkaladi
Faster	2,3-2,8	Sholi	Bir yillik	Sholi 2-3 barg

25% sus.k.			boshoqli (tariqsimon) begona o'tlarga	chiqarganda, tuproq nam bo'lganda purkaladi
Pendimetalin				
Samuray 33% em.k (B)	1,0-2,0	G'o'za, makkajo'-xori, kartoshka	Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karichiga-cha tasmasi- mon usulda tuproqqa purkaladi
Stomp 33% em.k (B)	3,0-6,0	G'o'za, makkajo'-xori, kartoshka, sabzi	Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karichiga-cha tasmasi- mon usulda tuproqqa purkaladi
Super Stomp 33% em.k. (B)	1,0-2,0	G'o'za, makkajo'-xori, kartoshka, sabzi	Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karichiga-cha tasmasi- mon usulda tuproqqa purkaladi
Reynbou 2,5% em.k.	3,0-6,0	Makkajo'-xori, kartoshka	Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar	Ekinlarining ko'karib chiqishigacha tuproqqa usulda purkaladi
Penoksulam				
Reynbou 2,5% em.k.	0,8-1,0	Sholi	Bir yillik (tariqsimon) va ko'p yillik boshoqli (shu jumla- dan hilol ham) begona o'tlar	Regona o'tlarning 2-3 barg-tuplash davrida nam tuproqqa yoki sholi-poyada suv satishi 5-10 sm bo'lganda purkaladi
Rimsulfuron				
Titus 25% q.o.sus	1 hektariga 40,0-50,0 g+SFM	Makkajo'xori	Bir va ko'p yillik	Makkajo'xori 3-5 barg

	(Trend 90) 200 ga/ml		boshqoli ba'zi bir yillik ikki pallalilarga	chiqarganda, bir yillik boshqoli-larni tuplanish davrida, ko'p yillik begona o'tlarning bo'yi 15-20 sm bo'l-ganda sirt faol modda qo'shib purkaladi
Entus 25% q.o.sns.	40,-50,0	Makkajo'xori	Bir va ko'p yillik boshqoli ba'zi bir yillik ikki pallalilarga	Makkajo'xori 3-5 barg chiqarganda, bir yillik boshqoli-larni tuplanish davrida, ko'p yillik begona o'tlarning bo'yi 15-20 sm bo'l-ganda sirt faol modda qo'shib purkaladi

### 23-jadval

Sabzavot, poliz va boshqa ekinzorlarda o'sadigan begona o'tlarga  
qarshi kurashda foydalanish uchun ruxsat etilgan gerbitsidlar  
ro'yxati

Gerbit-sidlar nomi	Gerbit-sidlar sarf me'yori. ga/kg yoki ga/l	Ekin turi	Qarshi ishlatali-digan begona o'tlar	Ishlatish muddati
Ammoniy glyufosinat				
Basta 14%	3,0-5,0	Mevali bog'lar,	Bir va	Madaniy ekin-

s.e.(B)		tokzorlar, sitrus ekinzorlari, rezavor meva dalalari	ko'p yillik boshoqli, ikki pallali begona o'tlar	lar muhofaza qilingan holda, o'sayotgan begona o'tlarga purkaladi
Best 20% s.e. (B)	3,0-5,0	Mevali bog'lar	Bir va ko'p yillik ikki pallali va boshoq- li begona o'tlar	Madaniy ekintlar muho- faza qilingan holda, o'sayot- gan begona o'tlarga purkaladi
<b>Galoksifop -R-metil</b>				
Zeldek ekstra 10,4% em.k.	1,0	G'o'za, piyoz, kartoshka	Bir yillik va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Bir yillik begona o'tlar 2- 6 barg davrida va ko'p yillik begona o'tlар- ning bo'yи 10- 15 sm bo'lgan- da purkaladi
Zellek super 104 g/l em.k.	1,0	G'o'za, qand lavlagi, xashaki lavlagi, sabzi, kartoshka, piyoz- ning barcha avlodи	Bir yillik boshoqli	Begona o'tlar 2-6 bargli faol o'suv davrida purkaladi
Zelleksnur 10,4% em.k.	1,0	G'o'za, qand lavlagi, xashaki lavlagi, sabzi, kartoshka, piyoz- ning barcha avlodи	Ko'p yillik boshoqli	Begona o'tlar 10-15 bargli faol o'suv dav- rida purkaladi
♂		Piyoz	Bir yillik va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Bir yillik begona o'tlar 2- 6 barg davrida va ko'p yillik begona o'tlarning bo'yи 10-15 sm bo'lganda purkaladi
<b>Glifosat</b>				
Glifos	3,2-6,4	Mevali bog'lar	Bir va	Bog'larini

premium 450 g/l s.e. (B)			ko'p yillik boshoqli va ikki pallali begona o'tlar	muhofaza qilgan holda, o'sayotgan begona o'tlar purkaladi
Uragan forte 500g/l s.e. (B)	3,0-4,0	Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallali larga	Ekinlarni ekishdan kamida 30 kun oldin o'sayotgan begona o'tlarga purkaladi
	3,0-4,0	Tokzorlar	Bir va ko'p yillik boshoqli va ikki pallalilar- ga	Toklarni muhofaza qilgan holda o'sayotgan begona o'tlarga purkaladi

#### Kvizalofop-p-tefuril

Pantera 40g/l em.k.	1,0-1,5	Qand lavlg'i	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Begona o'tlar 3-5 barg chiqarganda purkaladi
	2,0	Qand lavlag'i	Ko'p yillik boshoqli begona o'tlarga	Begona o'tlar 3-5 barg chiqarganda purkaladi

#### Kvizalofop-p-etil

Targa super 5% em.k. (B)	2,0-4,0	Kartoshka	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlarga	Bir yillik begona o'tlar 2- 4 barg chiqar- ganda, ko'p yillik begona o'tlar 10-15 sm bo'lganda purkaladi
	1,0-2,0	Pomidor	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Pomidor 1-2 chin barg chiqarganda purkaladi

	1,0-2,0	Bodring	Bir yillik boshqoli begona o'tlarga	Bodring l-2 chin barg chiqarganda purkaladi
	2,0-4,0	Bodring	Ko'p yillik boshqoli begona o'tlarga	Begona o'tlar bo'yisi 10-15 sm bo'lganda purkaladi
Pendimetalin				
A-stop 330 g/l cm.k (B)	2,3-4,5	Piyoz	Bir yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlar	Ekinlarining ko'karishigacha tuproqqa purkaladi
Zorro 33% em.k.	2,3-4,5	Piyoz	Bir yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlar	Ekinlarining ko'karishigacha tuproqqa purkaladi
	1,0-2,0	G'o'za, malkajo'xon, kartoshka	Bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karichigacha tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
Samuray 33% em.k (B)	2,3-4,5	Piyoz	Bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karichigacha tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
♂	2,0-4,0	Savzi	Bir yillik ikki pallali va boshqoli begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karichigacha tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
Stomp, 33% em.k.	2,3-4,5	Piyozning barcha avlodlari	Bir yillik boshqoli	Nihollarning ko'karib

(B)			va ikki pallali begona o'tlarga	chiqishigacha tuproqqa purkaladi
	1,0-2,0	G'o'za, makkajo'xori, kartoshka, sabzi	Bir yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karishigacha tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
	3,0-6,0	G'o'za, makkajo'xori, kartoshka, sabzi	Bir yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karishigacha tasmasimon usulda tuproqqa purkaladi
	3,0-6,0	Tamaki	Bir yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karishigacha tuproqqa purkaladi
Super Stemp, 30% em.k.(B)	3,6-6,0	Makkajo'xori, kartoslika	Bir yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karishigacha tuproqqa purkaladi
	2,3-4,5	Piyoz	Bir yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlarga	Ekinlarining ko'karishigacha tuproqqa purkaladi
Entostop 33% em.k.(B)	2,3-4,5	Piyoz	Bir yillik boshqoli va ikki pallali begona o'tlarga	Ekishdan oldin, ekish bilan birga yoki nihol-larning ko'karib chiqishigacha tuproqqa purkaladi
Estamp	2,3-4,5	Pivoz	Bir yillik	Ekinlarining

em.k. 330 g/l (B)			boshoqli va ikki pallali begona o'tlar	ko'karishigacha tuproqqa purkaladi
-------------------	--	--	--	------------------------------------

Prometrin

Gezagard 50% sus.k.(B)	1,2	Kartoshka	Bir yillik boshoqli va ikki pallali begona o'tlarga	O'simlikning unib chiqquncha tuproqqa purkaladi va kamida 3 oydan keyin tiganaklardan foydalanishga ruxsat etiladi
------------------------	-----	-----------	---	--

Setoksidim

	1,5	Piyoz	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Ekin va begona o'tlarning bo'y 10-15 sm bo'lgan davrida purkaladi
Nabu 20% em.k.	3,5	Piyoz	Ko'p yillik boshoqli begona o'tlarga	Ekin va begona o'tlarning bo'y 10-15 sm bo'lgan davrida purkaladi
	1,5	Sabzi	Bir yillik boshoqli begona o'tlarga	Begona o'tlarning bo'y 10-15 sm bo'lganda purkaladi

Trifluralin

Triflureks 48% em.k. (B)	1,5	Pomidor	Bir yillik ikki pallali va boshoqli begona o'tlar	Ko'chat o'tqazishgacha tuproqqa purkaladi va zudlik bilan ko'miladi
--------------------------	-----	---------	---	---

6

Fluazifop -p-butil

Fluazifop Forte 15% em.k. (B)	1,0-1,5	Olma	Bir va ko'p yillik boshoqli	Bir yillik begona o'tlar 2-6 barg davrida
-------------------------------	---------	------	-----------------------------	---

			begona o'tlar	va ko'p yillik begona o'tlarning bo'yি 15-20 sm bo'lganda purkaladi
	2,0-4,0	Soya	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Soya o'simligi 4-5 barg davrida purkaladi
Fyuzilad super 12,5% em.k. (B)	1,0-2,0	Qand lavlagi, xo'raki va xashaki lavlagi, kungaboqar, sabzi, pomidor, karam, bodring, piyozning barcha avlodlari	Bir yillik boshoqli begona o'tlar	Begona o'tlarning 2-4 barg davrida purkaladi
	2,4-4,0	Qand lavlagi, xo'raki va xashaki lavlagi, kungaboqar, sabzi, pomidor, karam, bodring, piyozning barcha avlodlari	Ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Begona o'tlarning bo'yи 15-20 sm bo'lganda purkaladi
	1,0	Qand lavlagi	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Bir yillik begona o'tlar 3-5 barg davrida va ko'p yillik begona o'tlarning bo'yи 15-20 sm bo'lganda purkaladi
Fyuzilad Forte 15% em.k. (B)	1,0-1,5	Olma	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Bir yillik begona o'tlar 2-4 barg davrida va ko'p yillik begona o'tlarning bo'yи 15-20 sm bo'lganda purkaladi
	1,5	Tokzorlar	Bir va	Bir yillik

			ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	begona o'tlar 2- 4 barg davrida va ko'p yillik begona o'tlar- ning bo'y 15- 20 sm bo'lgan- da purkaladi  Bir yillik begona o'tlar 2- 4 barg davrida va ko'p yillik begona o'tlar- ning bo'y 15- 20 sm bo'lgan- da purkaladi
	1,0	Pomidor	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar
Samorane premium 33% em.k.	0,4-0,6	Piyoz	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Ekinning 3-5 barg davrida purkaladi
Starane 200, 20% em.k.	0,75-1,0	Piyoz	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Ekin 3-5 barg chiqarganda purkaladi
Fluroksipir 36% em.k.	0,4-0,55	piyoz	Bir va ko'p yillik boshoqli begona o'tlar	Ekin 3-5 barg chiqarganda purkaladi

### Nazorat uchun savollar:

1. Begona o'tlarga qarshi qanday kurash choralar o'tkaziladi?
2. Gerbitsidlarning klassifikatsiyasi va xususiyatlari.
3. Gerbitstidlarni solish me'yorini aniqlash formulaşmini yozing.
4. Eritma konstentratsiyasi qanday aniqlanadi?
5. G'o'za dalalaridagi begona o'tlarga qarshi gerbitsidlarni ishlafish.
6. Bug'doy dalalaridagi begona o'tlarga qarshi gerbitsidlarni ishlatishtir.

7. Sholi va makkajo'xori dalalaridagi begona o'tlarga qarshi qanday kurash choralari o'tkaziladi?

8. Sabzavot, poliz va boshqa ekinzorlarda begona o'tlarga qarshi qanday kurash choralari o'tkaziladi?

## 15-MASHG'ULOT YERNI SHUDGORLASH SIFATINI ANIQLASH

1. **ISHNING MAQSADI:** Yerga ishlov berishning nazariy qismiga asoslanib, yerni shudgorlash va haydashning sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. Haydash sifati va o'simliklar qoldig'i (chim, ang'iz va begona o'tlar) ko'milishi hisobga olinadi.

2. **KERAKLI JIHOZLAR:** Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, yig'ma jadvallar, masalalar to'plami, adabiyotlar.

### 3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:

**Yerni haydash.** Haydash sifatiga quyidagi agrotexnikaviy talablar asosida baho beriladi: 1) haydashning optimal muddatiga riyoq qilish; 2) haydash chuqurligi va uning bir tekis bo'lishi; 3) qatlamning ag'darilish darajasi; 4) maydalanish darajasi; 5) palaxsaligi; 6) notejisligi; 7) o'simlik qoldiqlari va o'g'itlarni ko'mish; 8) xato joylar bo'lmasligi.

**Haydashning sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish usullari**

*Haydash vaqt* – mazkur rayon uchun mavjud bo'lgan agrotexnikaviy qoidalarga muvofiq belgilanadi.

*Haydash chuqurligi* plug yurishi bo'yicha maydonning 25-30 nuqtasida o'lchov chizg'ichi yoki egat o'lchagich (borozdomer, chizg'ich 37-rasm) bilan o'chanadi. Chuqurlik dalaning haydalmagan tomoni yuzasidan egat tubigacha o'chanadi. Olingan ma'lumotlar jamlanadi va o'lhashlar soniga taqsimlanadi. O'rtacha chuqurlikning farqi belgilangandan  $\pm 5\%$  dan oshib ketmasligi kerak.

Haydash chuqurligining bir tekis bo'lishi o'sha o'lhashlar asosida aniqlanadi.


O'rtacha chuqurlikka nisbatan ayrim o'lhashlardagi o'zgarishlar formulaga muvofiq variatsiya koefitsiyenti bilan aniqlanadi:

$$V = \frac{\omega}{M} \cdot 100$$

bunda *V*- variatsiya koefitsienti, % hisobida;

*ω* - o'rtacha kvadratik o'zgarish;

*M – haydashning o'rtacha arifmetik chuqurligi.*



**37-rasm. Haydash chuqurligini o'lchagishlar  
a-borozdomer, a-chizg'ich.**

Haydalgan maydonda haydash chuqurligini aniqlash uchun tuproq yuzasi tekislanadi, hamma yumshoq qatlam kovlab olingandan keyin chuqurlik o'lchanadi. Chunki haydalgandan keyin tuproq hajmi ortadi, olingan kattalik 20 % ga, qisman cho'kkanda esa 10-15% kamaytiriladi.

*Qatlarning ag'darilish darajasi* chimzor yerlar (qo'riq, bo'z yer va ko'p yillik o'tlardan bo'shagan yerlar) ni haydashda, ayniqsa, ahamiyatga ega. Qatlarning ag'darilmagan qismi qatlarning gorizontga nisbatan qiyalik burchagini ugglomer (burchak o'lchagich) bilan o'lchab aniqlanadi. Buning uchun har qaysi tomondan 25 joy o'lchanadi.

Qatlarning yuqori qirasidan pastigacha o'tkazilgan diagonalni tik bo'lgan burchak qatlarning maksimal burchagi bo'ladi. Agar o'lchanigan burchak maksimal burchakdan katta yoki unga teng bo'lsa, qatlarni yetarli ag'darilmagan hisoblanadi. Barcha korpuslar bo'yicha yetarli ag'darilmagan bo'laklarning uzunligi va burchagi o'lchanadi. So'ngra dala yerining chala ag'darilganlik protsenti topiladi.

*Tuproqning maydalanishi* yumshoq tuproqni yerga ishlov berish chuqurligida 140x30x30 sm li yashik yordamida kesib namuna olish yo'lli bilan aniqlanadi. Tuproqqa botirish oson bo'lishi uchun metall yashik bo'lgani ma'qul. Olingan tuproq tortiladi va g'alvirda 5 sm dan kichik, 5-10, 10-15, 15-25 va 25 sm dan katta diametrda.

kesakchalary ajaratiladi. Kesakchalaryning har qaysi fraksiyasi tortiladi va namunaning umumiy vazniga nisbatan foiz vazni aniqlanadi. Diametri 5 sm dan kichik kesakchalar fraksiyasining foizi tuproqning maydalinish ko'rsatkichi hisoblanadi.

Haydalgan daladagi tuproqning maydalanganligi maydonning turli qismalaridan olingan o'rtacha 15-25 namunada aniqlanadi.

Olingan ma'lumotlar 24-jadvaldagi kabi yozib olinadi.

*Yuqori qatlarning palaxsaligi* 10 ga va undan ortiq maydonli dalalarning 25 joyida setkasi bo'lgan metrli rama yordamida tekshirib aniqlanadi.

Diametri 5 sm dan ortiq bo'lgan tuproq bo'laklari palaxsa hisoblanadi. Rama maydoniga nisbatan foizlarda ifodalangan palaxsalarning jami maydoni palaxsalilik ko'rsatkichi hisoblanadi.

24-jadval

May- don- ning nomi	Na- muna- ning vaqt	Namuna- ning nomeri	Na- mu- nani vazni, kg	Palaxsalarning virik - maydaligi							
				> 25 sm		15-25 sm		10-15 sm		5-10 sm	
			kg	%	kg	%	kg	%	kg	%	kg
		1									
		2									
		3									
		va h.k.									
		O'r-tacha									


*Haydalgan yerning baland-pastligi* haydash vaqtiga bog'liq holda 2 xil ahamiyatga ega. Yer kuzgi shudgor qilinganda va qora shudgorda baland-pastliklar yonbag'riga nisbatan ko'ndalang joylashgan bo'lsa, u erigan qor suvlarini ushlab qolishga yordam beradi. Yer yuzasi notejis bo'lganligi sababli bahor va yozda suvning bug'lanishi ortadi.

Yerga ishllov berilgan baland-past bo'lib qolishi shu otvalining shaklliga, chumqirqarlar bor-yo'qligiga va tuproq (yer) ning etilganligiga bog'liq. Haydalgan yerning baland-pastligi 1 m uzunlikda bo'lgan, bir-biriga biriktirilgan ikkita planka (taxtacha) dan tayyorlangan profilemer (38-rasin) bilan o'lchanadi. Plankalar o'rjasiga suriluvchi o'qlar o'rnatiladi, unga santimetrlarga bo'lingan

25 sm uzunlikdagi plastinka biriktiriladi. Profilemer haydaladigan yerga ko'ndalang qilib qo'yildi, vertikal o'qlar pastka tushiriladi, undan keyin ulardan har birining yer yuzasidan chuqurligi yozib olinadi. Yer yuzasi profilini olish uchun o'qlar yuqori uchining chiziqlarini birlashtirish mumkin.

10 ga dan ortiq maydondagi baland pastlik ma'lum masofada dala diagonalini bo'ylab 25 joydan o'chanadi.

Buning uchun dalaning haydalgan qismida plug qamrab (eg'allab) olgan kenglikda egatning tubigacha ariqcha qaziladi. Uning tik devorida eng baland do'nglikdan gorizontal holatda 5 sm dan qilib bo'lingan reyka o'matiladi, chiziqdagi har 4-5 sm dan keyin yer yuzasigacha, egat tubigacha ya chim bo'laklarining yuqori va pastki chegarasigacha bo'lgan masofa o'chanadi. Tegishli masshtabda haydalgan yer profili tuziladi, bunda ko'milgan chim va boshqa o'simliklar qoldig'ining joylashishi belgilanadi.



**38-rasm. Haydalgan yerning baland-pastligi aniqlanadigan profilemer.**

### **O'simliklar qoldig'i (chim, ang'iz va begona o'tlar) ko'milishini hisobga olish**

Begona o'tlar va ang'iz qoldiqlarining ko'milishi dalaning diagonalini bo'ylab 20-25 nuqtada metrli ramalar qo'yib aniqlanadi va ko'milgan o'simliklar soni yoki ko'milmagan ang'izli joylar hisoblab chiqiladi. 1 m<sup>2</sup> dagi tekshirilgan nuqtalar sonidan o'rtachasi hisoblab chiqiladi, keyin esa 1 gektarga aylantirib qaytdan hisoblanadi. *Haydalmagan maydonlar* ko'zda chamlab hisoblanadi. Muayyan daladagi haydalmay qolib ketgan hamma maydonlar jamlanadi, keyin ular eg'allagan maydonning umumiy foizi hisoblab chiqariladi.



### Nazorat uchun savollar:

1. Shudgorlashning sifat ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
2. Haydashning sifat ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
3. Haydalgan yerning baland-pastligi qaysi asbobda va qanday aniqlanadi?
4. O'simliklar qoldig'i (chim, ang'iz va begona o'tlar) ko'milishi qanday hisobga olish mumkin?

## 16-MASHG'ULOT YERNI CHIZELLASH VA BORONALASH SIFATINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Yerga ishlov berishning nazariy qismiga asoslanib, yerni chizellash va boronalashning sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. Chizel qilinganda begona o'tlar kesilishi va chuqurligi, boronalashda ko'p yillik begona o'tlar ildizlari yig'ilishi va tishlarining chuqurligi hisobga olinadi.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, yig'ma jadvallar, masalalar to'plami, adabiyotlar.

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:**

Kuzgi shudgorni va shudgorni yoppasiga chizel (kultivatsiya) qilish. Ekin ekish oldidan, shuningdek, lalmikorlikdagi shudgorga ishlov berishda juda zichlanib ketgan yerlami yumshatish va begona o'tlarga qarshi kurashish uchun qatlamni ag'darmasdan chizel (kultivatsiya) qilinadi. Begona o'tlami yo'qotishi va ustki qatlamni talab qilingan chuqurlikda yumshatish uchun chizel panjasini bir tekislikda joylashadigan va bir-birini yopib turadigan qilib o'matiladi.

*Ishlov berish sifatini baholashda ishning o'z vaqtida bajarilganligiga, haydalmagan joylar yo'qligiga, yumshatish chuqurligiga va uning bir tekishgiga, mayda kesak qilib yumshatilganligiga, palaxsalar yo'qligiga va begona o'tlar butunlay kesilib ketishiga ahamiyat berish zarur.*

*Ishlov berilgan muddatlarga mazkur tuman uchun qabul qilingan haqiqiy muddatni taqqoslash yo'li bilan baho beriladi.*

Yerga ishlov berish chuqurligi va bir tekisdaligi ishlov berilgan qatlam chuqurligiga dalaning diagonali bo'ylab ma'lum oraliqda lineyka kiritib 25 nuqtada aniqlanadi. So'ngra barcha o'lchashlar chu-

qurligi yig'indisini kuzatishlar soniga taqsimlab, o'rtacha chuqurlik hisoblab topiladi.

Chizel (kultivatsiya) *chuqurligining bir tekisdaligi* har bir o'lichashni topilgan o'rtacha kattalik bilan taqqoslashdagi farqqa qarab aniqlanadi. Ayni vaqtda o'sha maydonchalarlagi kesilmay qolib ketgan begona o'tlar soni aniqlanadi.

Ishlov berilgan qatlam tuprog'ining g'ovakliligi dalaning diagonali bo'ylab 15-20 nuqtadagi metrli maydonchalarlagi palaxsalar soni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Ayni vaqtda o'sha maydonchalarlagi kesilmay qolib ketgan begona o'tlar soni aniqlanadi.

Yumshatilmay *chala qolgan yerlar* yerni haydashdagi singari usulda hisobga olinadi. Chala qolgan yerlar qayta ishlanadi.

Tekshirish natijalari 26-jadvaldag'i kabi yozib olinadi.

## BORONALASH

Boronalashda yerning ustki qatlami yumshatiladi va tekislanaadi. Boronalash qatqaloq va palaxsalami maydalaydi. Yumshatilgan yerda nam yaxshi saqlanadi. Bundan tashqari, boronalar solingan o'g'itlarni ko'mib ketadi va begona o'tlarning yosh maysalanni qisman yo'qotadi.

Yerlar erta bahorda, kuzgi shudgorlash va lalmikorlikda sof shudgor sharoitida boronaladi. Kech boronalansa, yer yuzasi palaxsa-palaxsa bo'lib qoladi, chunki bu vaqtida tuproqda nam etarli bo'lmaydi. Yer haddan tashqari sernam bo'lganda boronalanganda esa kerakli darjada yumshamaydi. Asosan yerning ustki qatlami tabiiy jihatdan etilganda boronalanadi. Ekin ekishgacha o'tkaziladigan boronalashlar soni haydalgan yerning madaniy holatiga (palaxsalarning kam bo'lishiga, qatlamning ag'darilishi va hokozalarga), begona o'tlar paydo bo'lish darajasiga va mo'l bo'ladigan yog'in-sochin miqdoriga bog'liq. Bahorda yerni haydash bilan bir vaqtida boronalanadi hamda tuproqning xossalari va holatiga qarab talab qilingan darajadagi boronalash soni belgilanadi.

## Yoppasiga chizellash sifatiga baho berish

Almaslab ekish nomi	Dala ragani	Hisobga olungan vaqt	Chizellanadigan maydon	Chizel-lash muddati	A grotexnikaviy qoidaga muvoysi	Aslida	Chala qolgan yerlar, %	Sifat ko'rsatkichlari	Hisobga olish			va hokazo	O'rtacha	Chizellash sifatiga umumiy baho berish
									1	2	3			
								Yumshoq (g'ovak) qatlam chuqurligi, sm						
								Diametri 5 sm dan katta palaxsalar miqdori						
								Kesilmay qolgan begona o'tlar soni						

O'zbekistonning ba'zi tumanlarida, masalan Qo'qon gruppasi tumanlarida, namni saqlash maqsadida yer shudgorlash bilan bir vaqtida boronalanadi ham, chunki bunda kuchli shamol ta'sirida palaxsa kerakli notejis yuza tuproqning vaqtidan ilgari qurishiga sabab bo'ladi. Namni saqlash va begona o'tlarga qarshi kurashish uchun bahorda ham boshoqli g'alla ekinlari maysalashi bilan yer boronalanadi.

Yerni o'z vaqtida boronalash, chala yerlar qolmasligi, tuproq (yer) yuzasining tekis bo'lishi, yerning ustki qatlaminini mayda kesakli qilib yumshatish va palaxsalar bo'lmasligi boronalashning *sifat ko'rsatkichlari* hisoblanadi.

Yer yuzasining tekisligi ko'z bilan chamalab belgilanadi, bunda ag'darilgan marzalar va egatlarning tekislanishiga alohida ahamiyat beriladi. Palaxsalar va chala yerlar borligi haydash sifatiga baho berilgandagi singari aniqlanadi. Qolib ketgan joylar qo'shimcha boronalanadi, chala yerlar ko'p bo'lgan yerdarda takror boronalanadi.

Yerning o'z vaqtida boronalanganligi yuqorida ko'rsatilgan agrotexnikaviy talablarga qarab aniqlanadi. Boronalash sifati dalaning diagonali bo'ylib yurib tekshiriladi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Yerni chizel qilishdan maqsad?
2. Yerni chizel qilish chuqurligi qanday aniqlanadi?
3. Tuproq nima maqsada borona qilinadi?
4. Borona qilish chuqurligi qanday aniqlanadi?
5. Yerni borona qilish sifati qanday aniqlanadi?

### 17-MASHG'ULOT

#### QISHLOQ XO'JALIK EKINLARINI EKISH ME'YORLARI VA SIFAT KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Yerga ishlov berishning nazariy qismiga asoslanib, yerni shudgorlash va haydashning sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. Haydash sifati va o'simliklar qoldig'i (chim, ang'iz va begona o'tlar) ko'milishi hisobga olinadi.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, yig'ma jadvallar, masalalar to'plami, adabiyotlar.

#### 3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:

Qishloq xo'jalik ekinlarini ekish me'yorlari va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash. Urug'ni o'z vaqtida ekish, belgilangan ekish chuqurligiga to'g'ri rioya qilish, barcha soshniklar urug'ni bir tekis tashlashi, qator oralarining belgilangan kengligiga rioya qilish, qatorlarning to'g'ri chiziqligiga va kvadratlarning to'g'riliqiga rioya qitlish, ekilmay qolgan va qayta ko'milgan yerlar bo'lmasligi va urug'ni belgilangan me'yorda ekish ekin ekish sifatining ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Dalaga chiqish oldidan seyalkaning bekam-ko'stligi tekshiriladi va u kerakli ekish chuqurligiga rostlanadi, dalada esa ekish oldidan tartibga solish apparatlarining o'matilishi tekshiriladi.

**Ekishning sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish usullari**  
 O'rta Osiyoda ekinlar 4 muddatda: kuzda, erta va kech bahorda hamda yozda ekiladi.

*O'z vaqtida* ekish mavsumiylikka bog'liq holda mazkur ekin uchun belgilangan optimal (eng qulay) muddatga bog'liq.

*Ekish me'yorini tekshirish uchun* seyalka yashigiga ma'lum miqdorda urug' solinadi va tamom bo'guncha ekiladi. So'ngra urug' ekilgan joy boshdan-oxirigacha o'lchanadi, bu uzunlikni seyalkaning qamrab olish kengligiga ko'paytirib, ekin maydoni hisoblanadi. Har gecktarga to'g'ri keladigan haqiqiy ekish me'yorsini aniqlash uchun urug'lar og'irligi (kg hisobida) ekilgan maydonga taqsimlanadi va 10000 ga ko'paytiriladi.

Olingen ma'lumotlarga qarab, seyalkaning o'matmasi o'zgartiriladi. Ekish protsessida bir necha marta tekshirish maqsadga muvofiq. *Urug'larni ko'mish chuqurligi* seyalka o'tadigan turli joydan kamida 25-30 marta o'lchanadi. O'lhashh soshniklarning botish chuqurligiga qarab o'tkaziladi. Ularga oldindan belgi qo'yiladi, ana shu belgilarga qarab, seyalka to'xtatilganda botish darajasi ham aniqlanadi. Kuzatishlar soniga qarab urug'larning o'rtacha ko'milish chuqurligi aniqlauadi. Me'yordan mumkin bo'lgan darajadagi o'zgarish 20 % dan oshmasligi kerak.

*Qatorlaming to'g'ri chiziqligiga* va *kvadratlarning to'g'riligiga* ko'z bilan chamlab aniqlanadi.

Ekish vaqtida *qatorlar orasining kengligi* seyalka soshniklarning holatiga va markyorlarning joylashishiga qarab tekshiriladi. Ekin ekilganidan keyin esa ekish izi yoki unib chiqqan maysalarga qarab aniqlanadi.

*Chala ekilganlik* va *o'rnini to'ldirish* maysalar chiqquncha seyalkani ekish chizig'iga ko'ndalang yurgizib ular maydonini hisobga olgan holda aniqlanadi. Aniqlangan kamchiliklar chala joylarga urug' ekish bilan darhol bartaraf etiladi.

## 27-jadval

### Urug' ekish sifat ko'rsatkichlari (S.A. Vorobyovdan)

Ish turlari	Sifat ko'rsatkichlari	Babolashda sifatga bo'lgan talab		
		Yaxshi	doniqarli	goniqarsiz
Ekish	Muddatida	Belgilangan muddatning birinchi yarmida	Belgilangan muddatda	Ikkj kundan kechroq kechikib

	Urug'larni ekish me'yorsi	Belgilangan muddatda	5 % gacha o'zgarish bilan	5% dan ko'proq o'zgarish bilan
--	------------------------------	-------------------------	---------------------------------	--------------------------------------

28-jadval

**O'zbekistonda chigit ekish muddatlari**

Viloyatlar	Ekish muddatlari
Surxondaryo: janubiy tumanlarida shimoliy umanlarida	25 martdan 10 aprelgacha 1-10 aprel'
Qashqadaryo: janubiy tumanlarida shimoliy tumanlarida	25 martdan 10 aprelgacha 1-10 aprel'
Buxoro	1-15
Andijon	1-15
Namangan	1-15
Sirdaryo	1-15
Jizax	1-15
Toshkent	1-15
Farg'ona	5-15
Samarqand	5-20
Andijon viloyatining tog'li tumanlari	5-20
Xorazm	5-20
Qoraqalpog'iston Respublikasi janubiy tumanlarida shimoliy tumanlarida	10-20 15 apreldan- 30 aprelgacha 20 apreldan- 5 maygacha

29-jadval

**Har xil ekinlar urug'ining unib chiqishi uchun zarur harorat  
(V.S.Stepanov ma'lumoti)**

Ekinlar turi	Biologik minimal harorat ( $t^0$ C)	
	urug'ning unib chiqishi	maysa chiqishi
Bug'doy, arpa, ko'k no'xot, china	1-2 3-4	4-6 6-6
Nuxat, lavlagi, maxsar	5-6	7-8
Kungaboqar, kartoshka	8-10	10-11
Makkajo'xori, soya, tariq	10-12	12-13
Loviya, kanakunjut, jo'xori	12-14	14-15
Chigit, Sholi, yeryong'oq, kunjut		

**Ekish me'yori:** Bir hektar yerga ekiladigan urug'ning og'irlik miqdori ekish me'yori deyiladi. Ekish me'yori ekinning turiga,

urug'ning absolyut og'irligiga, yirik-maydaligiga, unib chiqish darajasiga, tozaligiga, ekish usuliga va boshqalarga bog'liq buladi. Bir gektar yerga ekiladigan urug' ming yoki million dona hisobida ifodalansa, ekish me'yorini yana ham aniqroq tasavvur etish mumukin. Ekish me'yorini kilogramm hisobida quydagi formula bilan ifodalash mumkin.

$$E = S \times O$$

bunda S - bir gektar yerga ekish uchun sarflanadigan konditsion urug'lar soni; O - 1000 dona urug'ning vazni.

Agar 1000 dona sholi urug'ining o'rtacha vazni 35 g bo'lsa, bir gektar yerdan 5 mln tup ko'chat ofish uchun /5 mln. x 35 g/ = 175 kg urug'lik sholi ekish kerakligi aniqlandi. Urug'ni xo'jalik jihatdan yaroqliligi past bo'lsa, ekish me'yori tuzatish asosida tug'rilanadi. Agar urug'lik sholining xo'jalikka yaroqliligi 95 % ni tashkil etsa,  $\frac{175 \times 100}{95} = 184,2$  kilogrammni tashkil etadi.

30-jadval

**Ekish usuliga ko'ra chigit ekish me'yori, ( ga/kg )**

Ekish osuli (sm)	Tukli chigit	Tuksiz chigitni uyalarga belgilangan miqdorda ekish
60x10	40-45	25-28
60x15	35-40	22-35
60x45	45-55	25-30
60x60	35-40	25-30
60x25	90-100	25-30
90x5	40-50	25-28
90x10	40-45	22-35
90x20	35-45	22-35

31-jadval

**Qishloq xo'jaligi ekinlarni ekish chuhurligi**

Ekinlar turi	Urug' ekish chuhurligi (sm)
Chigit	4-5
Makkajo'xoni	5-6
Jo'xoni	4-5
Beda	0,5-1,5
Lavlagi	3-4
Ko'k no'xat	4-7

Mosh	3-4
Soya	4-5
Bug'doy	3-5
Arpa	3-5
Kunjut va kanop	2-3
Kunjut	3-5

Tukli chigit seruyalab ekilganda, gektariga 60 kg, tuksizlantirilgan chigit aniq miqdorda uyalab ekilganda 25-30 kg urug'lik sarflanadi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini hosili ularning naviqa, ekish muddatiga, usullariga, me'yorlariga, ekish sifatiga bog'liq bo'ladi. Ekishga quyiladigan asosiy agrotexnik talablar: mo'tadil muddatda ekish, ekish me'yoriga, chuqurligiga, qatorlarning tug'riligiga, qator oralarining kengligiga qat'iy rioxaya qilish kerak. Me'yorida ortiqcha urug' ekish va qayta ekish bo'lmasligi lozim. Urug'ning ekish me'yorini nazorat qilish uchun seyalkalarning har bir seksiyasidan 2-3 ta urug' tushadigan turubani ekish apparatidan (soshnikdan) sug'irib olinib, o'miga xalta osib quyladi va seyalkani ekishga tushiriladi. Ma'lum vaqtdan so'ng seyalkani to'xtatib xaltachalar olinadi va tortiladi. Bitta ekish apparati ekkan urug'ning o'rtacha massasi aniqlanadi. Seyalka bosib o'tgan masofa o'lchanadi, uni seyalka g'ildiragini aylanish soniga qarab ham hisoblash mumkin.

Seyalka bosib o'tgan masofani seyalkani qamrash kengligiga ko'paytirib, ekish maydoni hisobdanadi. Urug'ni ekish me'yori ( $N$ ) gektariga kg hisobida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$N = (A \times V \times 10000) / (P \times Sh),$$

bu yerda  $V$  – bitta ekish apparatida ekilgan urug' miqdori, kg;

$A$  – seyalkadagi ekish apparatining soni;

$P$  – ekilgan masofa, m;

$Sh$  – seyaalkaning qamrash kengligi, m;

10000 – gektariga aylantirish uchun kupaytiruvchi.

Ekish chuqurligi lineykada o'lchanadi. Buning uchun yer yuzasi qo'lda yengil tekislanadi, traktor g'ildiragi iziga to'g'ri kelmagan soshniklar hosil qilgan 2-3 ta egatlari ochiladi. O'lchashlar 18-20 ta buladi. Ekinlarni ekishni o'rtacha chuqurligi belglangandan g'alla ekinlari uchun 15% va mayda urug'li ekinlar (beda, raps, zig'ir) uchun 5% dan oshsa soshniklarning ekish chuqurligini to'g'rilash zarur.

### Nazorat uchun savollar:

1. Ekish sifatiga qanday agrotexnik talablar qo‘yiladi?
2. Ekish chuqurligi qanday aniqlanadi?
3. Urug‘ ekish sifati qanday aniqlanadi?
4. Urug‘ ekish moyori qanday aniqlanadi?

### 18-MASHIG‘ULOT

#### QATOR ORALARIGA ISHLov BERISH SIFATINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Yerga ishlov berishning nazariy qis-miga asoslanib, qator oralariga ishlov berishning sifat ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Ekinlar qator oralarini kultivatsiya qilishda o‘simliklar kesilganligi, ko‘milishi, begona o‘tlar yo‘qotilganligi, chuqurligi va himoya zonasi kengligi hisobga olinadi.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** Tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, yig‘ma jadvallar, masalalar to‘plami, adabiyotlar.

**3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:** Qator oralariga ishlov berishda quyidagi agrotexnik talablarga: 1) ishning o‘z vaqtida bajaril-gauligiga; 2) kultivatorlar ish organlari harakatlanadigan maydon-lardagi begona o‘tlarning to‘liq kesilganligiga; 3) o‘simliklarni kesib yubormaslikka va ularni tuproq bilan ko‘mib yubormaslikka harakat qilishga; 4) mo‘ljallangan yumshatish chuqurligiga muvofiq kelishiga; 5) chopiq qilganda tuproqni o‘simliklarga o‘sish zaturligiga ahamiyat berish kerak.

Markaziy Osiyo tuproqlari sug‘orilgandan (yoki yog‘in-sochindan keyin) va qurigandan so‘ng qatqaloq hosil qilish xususiyatiga ega. Tuproqning mexanikaviy tarkibida loyqa ko‘p bo‘lsa, qatqaloq shuncha mustahkam bo‘ladi. Qatqaloq nam bug‘lanishini keskin ravishda oshiradi, yog‘in-sochining yerga shimalishini, suv va havoning qatqaloq orasiga kirishini sekinlashtiradi, maysalar o‘sib chiqishini qiyinlashtiradi. Qatqaloq hosil bo‘lishi oldini olish uchun Yerga ishlov berish zarur. Chopiq qilinadigan ekinlar ekiladigan yerga ishlov berish usullarini tanlashda avval urug‘larning holati aniqlanadi. Agar urug‘ unib chiqib, maysalar bo‘yiga o‘sniay qolsa, ekinlar qatorlar yo‘nalishiga ko‘ndalang qilib “zig-zag” borona bilan boronalanadi. Maysalar (o‘sintalar) yer yuzasiga yaqinlashib qolgan hollarda, qatqaloqning oldini olish uchun rotatsion motiga qo‘l keladi,

u o'simliklarni shikastlamaydi. Agar xo'jalikda rotatsion motiga bo'lmasa, keng qatorli ekinlar ko'pi bilan 5-6 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinadi, qatorlar esa bir oz yumshatiladi.

Vegetatsiya davrida (har galgi sug'orishdan keyingi qatorlar birlashguncha) tuproq tabiiy etilgandan keyin kultivatsiyalanadi. Birinchi kultivatsiya chuqurligi 5-6 sm dan, keyingilari 12-14 sm dan oshmasligi kerak. Kultivatorning chekka ish organlari o'rta sidagilarga qaraganda kichikroq chuqurlikka sozlanadi. Ekinlarning ildiz tizimi kesilib ketmasligi uchun qatorning har qaysi tomonidan 10-12 sm himoya mintaqasi qoldiriladi.

Begona o'tlarni yo'qotish zarur bo'lganda sug'orishga bog'liq bo'lman holda, yer ba'zan kultivatsiyalanadi.

Qator oralariga o'z vaqtida ishlov berish yog'in-sochindan va sug'organdan keyin tuproqning tabiiy etilganligiga, shuningdek, paydo bo'lgan begona o'tlar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Qator oralarini *yumshatish chuqurligini* aniqlash uchun ular orasidagi yumshoq tuproq qavati olib tashlanadi va uning chuqurligi o'chanadi. Agar kultivator ish organlarining ishlashiga qarab chala qolgan yerlar aniqlansa, qaytadan ishlanadi.

*Kesilmay qolgan begona o'tlar soni* metrovka qo'yib aniqlanadi va qator oralariga ishlov berilgan qismalarga nisbatan hisoblanadi.

Takroriy tekshirish kuzgi shudgor va sof shudgorda yoppasiga kultivatsiya o'tkazilgandagidek amalga oshiriladi.

Dalaning ishlangan qismida (bir necha joyda) o'simliklar shikastlangan va ko'milib qolgan hollar ham hisobga olinadi.

Yerga ishlov berish sifatiga baho berish bo'yicha taxminiy ko'rsatkichlar 32-jadvalda keltiriladi, ular tumanning tuproq-iqlim sharoitiga bog'liq holda o'zgartirilishi mumkin.

1. Texnik ekinlardan yuqori hosil olish uchun ularning qator oralariga yoki ularning urug'lari ekilgan dalalarga ekish ishlari tugallangandan so'ng butun o'simliklarning vegetatsiya davrida bir necha marta ishlov beriladi. Bunda bir qator ekinga ishlov berishning quyidagi usullari yoki ishlari bajariladi, jumladan qatqaloqni yengish uchun yengil boronalar yordamida boronalanadi yoki motigalar yordamida qatqaloq ushatiladi, o'simliklar yagona qilinadi, qator orasida unib chiqayotgan begona o'tlar qirqiladi, qator orasi tuprog'ini havo almashinishini yaxshilash hamda tuproqning nam sig'imini oshirish yoki sug'orishdan so'ng namni saqlash maqsadida

yumshatiladi, ekin qatorlari yoniga ma'lum bir chuqurlikda mineral o'g'itlar solinadi, sug'orish egatlari olinadi, o'simlik tubiga tuproq uyiladi.

Yuqoridagi ishlar ekinga ishlov berish yoki ekin qator oralarini ishlash deb yuritiladi. Ekinga ishlov berish usuli o'simlikning holatidan to'proqning sharoitidan keliv chiqib tanlanadi. Asosan ekinlarga ishlov berishning usulini mutaxassis agronom belgilaydi. O'z vaqtida bajarilgan ekinga ishlov berish ekindan kam xarajatlar evaziga yuqori hosil olishga omil bo'lib xizmat qiladi.

2. Ekiniga ishlov berishda quyidagi agroteknika talablariga amal qilish kerak. Ekinlar qator oralariga ishlov berishda qatorlarning ishlangan qismida begona o'tlar to'liq qirqilgan bo'lishi va qatqaloq ushatilgan bo'lishi kerak. Bunda to'proqning pastki nam ishlangan qatlamni to'proq yuzasiga olib chiqilmasligi kerak. Qator orasini ishlash chuqurligi belgilangandan +, - 1 sm farq qilishi mumkin.

Qator oralarini ishlashda o'simliklarga shikast etkazmaslik maqsadida **himoya zonas** qoldiriladi. O'simlik qatoridan ishlov berilgan qismgacha bo'lган masofa himoya zonası deb yuritiladi. G'o'za yetishtiriladigan dalalarda dastlabki ishlov berishlarda himoya zonası 5-7 sm tashkil etishi kerak. Keyingi ishlashlarda esa himoya zonası o'simlik ildizlariga shikast yetkazmaslik maqsadida kengaytiriladi. Dastlabki ishlov berishlarda 3 % gacha o'simliklarga shikast etkazish (to'proq bilan kumish yoki qirqish)ga ruxsat beriladi.

Qator orasini yumshatish to'proqning normal namligida o'tkazilishi kerak bunda diametri 10 sm dan katta kesaklar hosil bo'lmasi kerak. Sug'orish egatlari qatorning o'rtaidan olinishi kerak. Mineral o'g'itlar o'simlik qatoridan 12 sm uzoqligacha va 5-16 sm chuqurlikda berilishi talab etiladi. Kultivatorning o'g'itlash apparatlari bir tekis o'g'it sepishi talab etiladi, apparatlarining notekis o'g'it sepishi 5 % ko'p bo'lmasi kerak. Texnik ekinlarga ishlov berishda ishlov beruvchi agregat seyalkanining qamrash kengiligiga mos bo'lishi kerak hamda ekish aggregatining izidan harakatlanib ish bajarilishi kerak.

Qator orasiga ishlov beruvchi kultivator ishchi organulari texnik ta'lablarga mos bo'lishi kerak. Bunda ularning tig'lari o'tkir, o'matilish burchaklari talab darajasida, gryadlarning yon siljishlari 1 sm ko'p bo'lmasi kerak. Har bir kultivatorning ishchi seksiyasi tayanch g'ildirak bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Agar ishchi organlarga o'simlik qoldiqlari ilashib yoki kesaklar tiqilib qolsa ulardan organlarni tozalamasdan ishlashga yo'l qo'ymaslik kerak.

3. Texnik ekinlar qator oralariga chopyq kultivatorlari yoki kultivator oziqlantirgichlar yordamida ishlov beriladi. KXU-4, KRT-4, KRN-2,8, KRN-4,2, KOR-4,2 va KON - 2,8 rusumli kultivatorlar yoki kultivator oziqlantir-gichlar mos ravishda TTZ-80,11, MTZ-80X, MTZ-80, MTZ-82, T-40AM, TTZ-80,10 kabi bir qator traktorlaga osma ravishda o'matilib ishlatiladi. Bu kultivator argcgatlari yordamida keng qatorlab ekinlgan yoki o'tkazilgan ekinlar qator oralariga ishlov beriladi.

Bu chopyq kultivatorlari umumiy holatda quyidagi qismlardan tashkil topgan:

**osma burs ramaga** – barcha ishchi seksiyalar va o'g'itlash apparatlari hamda seksiyalarni ko'tarish tushirish mexanizmlari mahkamlangan bo'ladi. burs rama orqali kultivator traktorga o'lanadi;


**ishchi seksiyalar** – pasaytirgich, tayanch g'ildirak, parallelogramm mexanizmi torqilari ishchi organlar o'matiladigan gryadillardan tashkil topib burs ramaga xo'mitlar yordamida mahkamlangan bo'ladi;

**ko'tarish tushirish mexanizmlari** KXU- 4 kultivatorida ishchi seksiyalarni ish holatiga yoki transport holatiga o'tkazish uchun hamda belgilangan holatda ushlab turish uchun xizmat qiladi. KRN-2,8, KRN-4,2, KOR-4,2 va KON - 2,8 kultivatorlari traktoring ketingi o'matish qurilmasiga o'matilish sababli ularda ko'tarish tushirish mexanizmlari bo'lmaydi. Ishchi seksiyalarning belgilangan me'yordan pastga tushib ketmasligini har bir seksiyaga o'matilgan zanjirlar bajaradi;

**O'g'itlash apparatlari** burs ramaga mahkamlangan bo'ladi harakatni kultivatorning etakchi tayanch g'ildiraklaridan yoki traktoring yon sinxron quvvat olish validan zanjirli uzatnalar yordamida oladi.

Cpopiq kultivatorlariga dala sharoitidan kelib chiqib, uch turiga mos ravishda bir necha xil turdag'i ishchi organlar o'matilib ishlatilishi mumkin. Kultivatorlarga quyidagi almashuvchan ishchi organlar qo'yiladi.

Bajariladigan ish turiga qarab kultivatorlarga quyidagi ishchi organlari o'matiladi: *o'toqbop panjalar*, *yumshatuvchi panjalar*, *maxsus ishchi organlar*.



40-rasm. Kultivatorning ishchi organlari

a- bir tomonlama yotiq qirquvchi panja; b- yotiq qirquvch o'qyoysimon panja; c- aylana panja; d- ninali disk (yulduzcha); e- oziqlantirish soshnigi; f- okuchnik (egat olguvchiuchi).

*Bir tomonlama yotiq qirquvchi panja* – pichoqlar begona o'tlarning ildizlarini qirqish, tuproqni 6...8 sm chuqurlikda yumshatishda ishlatiladi. Panja gorizontal va vertikal tig'dan iborat. Panja tig'i begona o'tlarning ildizini qirqadi va tuproqni uvalab yumshatadi, vertikal jag' esa nihollarni tuproq ostida qolishdan saqlaydi. Shuning uchun bu panjalami g'o'za nihollariga yaqinroq, ya'ni himoya zonasini kam qoldirib joylashtirish mumkin. Panjalar har qaysi qatorning ikki tomoniga o'matilganidan ular chapaqay va o'naqay qilib yasaladi. Panjalarning tig'i yuqori tomondan 8...10° burchak yasab charxlanadi. Panjaning qamrash kengligi 165 va 182 mm.

*Yotiq qirquvchi o'qyoysimon panja* – begona o't ildizlarini qirqadi, tuproqni 18 sm gacha chuqur yumshatadi, tuproqni joyidan bir oz siljitadi. Panjaning qamrash kengligi 145-..260 mm. Tig'lar yuqori tomondan 8...12° gacha o'tkirlab charxlanadi. Tig'lar qalinligi 0,3 mm.

*Aylanma panjalar* (naralmiklar) qalnligi 7...10 mm, eni 35...55 mm po'latdan tayyorlanib, ularning ikki uchi charxlanadi. Bir uchi yeyilganda panja boshqa uchi bilan aylantirib qo'yiladi. Panja ba'zan tor yumshatuvchi panja deb ham ataladi. Ishlash chuqurligi 12...15 sm. Uzunligi N=260 mm. Panjaning tumshug'i bilan egat tubi orasida hosil bo'ladigan tuproqqa botish burchagi  $\angle = 38\ldots 41^\circ$ ,

*Ninali disk-yulduzchalar* – kultivatorlarda va aylanuvchi motigalarda o'matilib, tuproq qatqalog'ini ushatib, yumshatish uchun ishlatiladi. Chopiq kultivatorlariga o'matilib, g'o'za nihollari atrofidagi begona o'tlarni yo'qotishda ishlatiladi. Harakat vaqtida diskning ninalari g'o'za nihollarining himoya zonalarida tuproqqa 5 sm gacha botib aylanadi va uning ustki qatlamini 1...2 sm siljitaldi. Shunda tuproq qatqalog'i sinadi, begona o'tlar ildizi uzilib, suliyydi. Disklarning diametri uch xil: 350, 450, 540 mm.


*Ozqqlantirish soshnigi* – tuproqni yumshatuvchi iskanasimon panja va o'g'it o'tadigan truba voronkadan iborat.

*Okuchnik egat olgich* – chopiq qilinadigan ekinlar qator oralarida egat hosil qilish, o'simlik atrofiga tuproq uyumlash uchun mo'ljalangan.

4. Ishlov berish chuqurligini o'zgartirish uchun ishchi qism ustunini gryadilga mahkamlaydigan qulflar yechilib, uning g'ildirakchaga nisbatan balandligi o'zgartiriladi.

Ishchi qismlarni joylashtirish tartibi ular bajaradigan texnologik jarayonga qarab aniqlanadi. Kultivator ishchi qismlarini bir yo'la to'g'ri joylashtirish uchun maxsus shablondan foydalaniadi (43 - rasm). Shablon betonlanib tayyorlangan tekis maydonchada chizilgani maqul. Traktor shablon ustiga chiqarilib, gryadil ishchi qismlar rasmida ko'rsatilganidek o'matiladi.

Vertikal tekislikda tishlar har bir gryadilda alohida-alohida o'matiladi. Shu maqsadda, gryadil g'ildirakchasing ostiga qalnligi tishlarni tuproqqa maksimal botirish chuqurligiga teng bo'lgan taglik qo'yiladi. Ishchi qismlarni kerakli chuqurlikka o'matishda gryadil bo'ylama gorizontal holatda bo'lishi lozim. Bunga parellogramli mexanizm ustki tortqisining uzunligini o'zgartirish orqali erishiladi. Tishning uchi g'ildirakcha tegib turgan satnga nisbatan berilgan chuqurlikka tushirilib, uning ustuni quif yordamida mahkamlanadi.



**41-rasm. Kultivator ishchi qismlarini 90 sm qator oralig'iga joylashtirish shabloni**

Ishchi qismlar shablon yordamida joylashtirilgan agregatning ishi dalada tekshirilib ko'rildi va zarur bo'lsa, o'zgartirishlar kiritiladi.

Gryadilga ishchi qismlar muayyan ketma-ketlikda o'rnatiladi.

Birinchi qatorda yulduzcha yoki disklar o'rnatiladi. Rotatsion yulduzchalar g'o'za qatori o'qiga eng yaqin masofada (3...5 sm) qo'yilib, himoya zonasini keskin toraytirish imkoniga ega bo'linadi. Birinchi kultivatsiyada yulduzcha 3...5 sm, keyingilarida 5...8 sm chuqurlikka o'rnatiladi.

Tuprog'i zinch bo'lgan yertlarni kultivatsiya qilishda rotatsion yulduzchalar o'miga sferik disklar ishlatalgani maqul, chunki ular o'tkir tig'i bilan zinch yerni tilib, himoya zonasini chegarasini aniqlab beradi. Natijada, orqada kelayotgan boshqa tish ta'sirida ajratilib olinayotgan katta kesaklar ko'chat ildizlari joylashgan tuproqni ko'chirmaydi, ildizlarni shikastlantimaydi. Bundan tashqari, tuproqqa botgan disklarni yon tomonga surish qiyin bo'lganligi sababli, ular zinch tuproqlarda gryadilning ko'ndalang yo'nalishda surilishiga yo'l qo'ymasdan, to'g'ri yo'nalishdan burilmay yurishini ta'minlaydi. Sferik disklarni ko'chatlar qatorining o'qidan 6...8 sm masofada (bu himoya zonasining yarmidir) va 6...8 sm chuqurlikda o'rnatish kerak.

Gryadildagi ikkinchi qatorga, disk yoki rotasion yulduzchadan so'ng, yassi o'toqlovchi tishlar ko'chat qatori o'qidan 10 sm qoldirib va 6...8 sm chuqurlikda o'matiladi.

Uchinchi qatorda, o'toqlovchi tishlardan so'ng, o'qyoysimon tish jo'yakning o'rtasida 12...14 sm chuqurlikda o'matiladi.

O'g'itlash soshnigi eng oxirida, tuprog'i yumshatilgan joydagi qatorga o'matiladi.

Agar asosiy vazifa tuproqni yumshatish bo'lsa, kichik yumshatuvchi tishlarning har birini 4...6 sm chuqurlikda jo'yak profiliga moslab pog'analab o'rnatib, ishlov berish maqsadga muvofiqdir.

Ishchi qismlarni gryadilda joylashtirishda quyidagi qoidalarga rioya qiliш kerak:

1. Ekin qator oralig'idagi tuproqqa ishlov berib, qo'l mehnati sarfini kamaytirish maqsadida himoya zonasini ko'chatlar ildiziga zarar tegmaydigan qilib, kamaytirishga intilish kerak.


2. Jo'yak chetida, ya'ni ko'chatlarga yaqin joylashgan ishchi qism eng sayoz, jo'yak o'rtasidagi tish esa eng katta chuqurlikka o'matilib, qolganlari esa -jo'yakning profili (ko'ndalang kesimini shakli)ga moslab, pog'analab joylashtiriladi.

3. Gorizontal yo'nalishda esa begona o't ildizlarini to'liq kesib ketishi uchum o'toqlovchi va universal (o'qyoysimon tishlar) qamrov kengliklari o'zaro qoplanadigandek joylashtiriladi.


4. Har qanday tishni yerga ishlov berish chuqurligini tayinlashda mahalliy tuproq xususiyatlarni e'tiborga olish kerak.

Qator oralig'i 60 va 90 sm bo'lgan paxtazordagi begona o'tlarni yo'qtishi va tuproqni qisman yumshatish maqsadida kultivator ishchi qismlarini har bir jo'yakda joylashtirish sxemasi 42; 43; 44; 45; 46 va 47 - rasmlarda keltirilgan.


5. MVX - 5,4 seksiyali aylanadigan motiga qator oralari 60 sm qilib to'rt va sakkiz qatorli seyalkalar bilan ekilgan, shuningdek, qator oralarini 90 sm qilib to'rt va olti qatorli seyalkalar bilan ekilgan paxtazorlarda qatqaloqni yumshatishda qo'llaniladi. Disk ignalarining ishslash (sanchilish) chuqurligi shpilkalarini shtanga teshiklarida joydan-joyga ko'chirish yo'li bilan o'zgartiriladi, chunki bunda prujinaning bosish kuchi o'zgaradi.




42-rasm. 60 sm bo'lgan qator oraliq'i rotatsion (yulduzcha), o'toqlovchi va chuqur yumshatuvchi tishlarni joylash tirish.





43-rasm. 60 sm bo'lgan qator oraliq'iga sferik disk, o'toqlovchi va chuqur yumshatuvchi tishlarni joylashtirish.



44-rasm. 60 sm bo'lgan qator oraliq'ini pog'onalab yumshatish sxemasi



45-rasm. 60 sm bo'lgan qator oraliq'iga rotatsion yulduzcha, o'toqlovchi va chuqur yumshatuvchi tishlarni joylashtirish sxemasi



46-rasm. 90 sm bo'lgan qator  
oralig'iga sferik disk o'toqlovchi  
va chiqur yuvshatuvch'i tishlarni  
joylashtirish sxemasi

47-rasm. 90 sm bo'lgan qator  
oralig'iga pog'onalab yumshatish  
sxemasi

### O'g'it sepish apparatini o'g'it sepish me'yoriga sozlash

Apparatlar shkala bo'yicha bir xil o'g'it sepish me'yoriga o'rnatiladi. Buni tekshirish uchun har bir o'g'it yo'naltirgich soshnikdan olinadi va ularning uchiga qopchalar bog'lab qo'yiladi. Agregat 100 metr masofaga yurgizilib tekshiriladi. So'ngra qopchalardagi o'g'it tarozida tortib ko'rib, gektariga sarflanadigan o'g'it miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q = \frac{10000 \cdot q}{V \cdot L} \text{ kg / ga}$$

bu yerda:  $q$  - apparatlardan tushgan o'g'it irligi, kg;

$V$  - kultivatorning ishlash kengligi, m;

$L$  - o'tilgan masofa, m.

Bunda gektariga sepiladigan o'g'it miqdori belgilangan me'yorigan farqi 8% dan ortiq bo'lmasa apparatlar to'g'ri sozlangan hisoblanadi. Aks holda apparatlar qayta sozlanib tajriba takrorlanadi.

Masalan, qator orasi 60 sm e'kilgan g'o'zaning gullash-meva tugush davrida ammiakli selitrani 50% berish kerak bo'lsa, agregat 100 metr masofaga yurgizilganda qopchalarga apparatlardan tushgan

o'g'it og'irligi 7,2 kg/ga, kulmtivatorning ishlash kengligi 2,4 m bo'lganda gektariga sarflanadigan o'g'it miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$Q = \frac{10000 \cdot q}{V \cdot L} = \frac{10000 \cdot 7,2}{2,4 \cdot 100} = 300 \text{ kg / ga}$$

*Chilpish moslamasi.* o'zaning o'sish nuqtasi va yon shoxlarining uchi chekanka (chilpish) qilinsa o'simlikning o'sish ma'lum vaqtgacha to'xtaydi. Bunda oziq moddalar mavsum oxirigacha pishib ulgurmaydigan yangi o'suv organlari hosil qilishiga enas, balki ko'saklarning oziqlanishi uchun sarflanadi, Chilpish qilish muddati paxta navlariga har bir daladagi g'o'zaning holatiga qarab belgilanadi, CHVX-4 moslamasi g'o'zaning faqat tepe shoxlarini qirqadi. Bu moslamaning asosiy uzel va mexanizmlari: rama, apparatlar osmasi, ish organlariga osilgan brus, pichoqlarni harakatga keltiruvchi yuritma va tup yo'naltirgichlardir. Moslamaning qirquvchi pichoqlari radial yo'nalgan gorizontallik ikkita pichoqdan tashkil topgan bo'lib, bir soniyada 25 m tezlik bilan aylanadi. Moslamaning ish organlari aylanma harakatni traktoring quvvat olish validan kardan vallar, konussimon reduktor, tasmali uzatmalar, tasmali uzatmalar orqali oladi.

### Qator orasiga ishlov berish ishlariga qo'yiladgan agrotexnik talablar

Ishchi qismlarini ishlov berish chuqurligi bo'yicha yurish notejisligi ko'pi bilan 1 sm; himoya yo'lagini kengligi bo'yicha notejisligi, ko'pi bilan 2 sm; g'o'za ko'chatlarining shikastlanishi, ko'pi bilan: bir o'tishda 1%; butun mavsum davomida 5%; begona o'tlarni yo'qotish darajasi, kamida 98%; qator orasiga ishlov berishda tuproqni uvalanish sifati: o'Ichami 25 mm dan kichik fraksiyalar miqdori, kamida 55%; o'Ichami 50 mm dan katta fraksiyalar miqdori, ko'pi bilan 20%; o'g'it solgichlari o'g'itlarni g'o'zaning rivojlanishiga qarab 23-24 sm dan 14-16 sm gacha chuqurlikda va g'o'za qatoridan 15-18 sm dan 28-30 sm gacha uzoqlikda tuproqqa ko'mib ketishi lozim.

**Yerga ishlov berish va ekish sifatining ko'rsatkichlari  
(S.A. Vorobyovdan)**

Ish turлari	Sifat ko'rsatkichlari	Baholashda sifatga bo'lgan talab		
		Yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz
Qator oralariga ishlov berish	Qator oralarining kengligi va bir tekisdaligi Qatorlarning to'g'ri chiziqliligi	Belgilangan muddatda Rioya qilingan	Ko'pi bilan 2 sm o'zgarish bilan	2 sm dan ko'proq o'zgarish bilan
	Muddati	Belgilangan muddatning birinchi yarmida Belgilangan chuqurlikda	Nazorat paykalda ko'pi bilan ikkitabuzilish	Nazorat paykalda ikkitadan ko'proq buzilish
	Yumshatish chuqurligi	To'liq	Belgilangan muddatda	Ikki kundan ko'proq kechikib
	Begona o'tlarning kesilganligi Chala qolgan yerlar	Yo'q	1 sm gacha o'zgarish bilan 10 m <sup>2</sup> da ko'pi bilan bittaqolgan Yo'q	1 sm dan ko'proq o'zgarish bilan 10 m <sup>2</sup> da bittadan ko'p qolgan Bor
	O'simliklarning shikastlanganligi va ko'mib yuborilganligi	Shikaslangan va ko'mib yuborilgan o'simliklar yo'q	Shikaslangan o'simliklar ko'pi bilan 1%	Shikaslangan o'simliklar 1% dan ko'proq

**Nazorat uchun savollar:**

1. Qator oralariga nima maqsadda ishlov beriladi?
2. Qator oralariga ishlov berish sifat ko'rsatkishlari nimalardan iborat?
2. Qator oralariga ishlov berish bilan birga gektariga sarflanadigan o'g'it miqdori qanday hisoblanadi?
3. Qator orasiga ishlov berish ishlariga qanday agrotexnik talablar qo'yiladi?

## 19-MASHG'ULOT ALMASHLAB EKISH

**1. ISHNING MAQSADI:** Almashlab ekishni loyihalashtirish, o'zlashtirish va joriy etish usullari o'rganiladi. Almashlab ekishni tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joriy qilinadiishi. Qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari. O'zbekiston sharoitida tavsiya etilgan almashlab ekish sxemalari bo'yicha rotatsion jadvallar tuziladi.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, yig'ma jadvallar, masalalar to'plami, adabiyotlar.

### **3. ISHNI NAZARIY AHAMIYATI:**

Almashlab ekish dehqonchilik tizimining muhim tarkibiy qismidir. Almashlab ekish tizimida mazkur fermer xo'jaligining dala ishlarini tashkil etilishi aks ettiriladi, almashlab ekish tizimi asosida tuproqni ishlash tartibi, o'g'itlash, begona o'tlarga, kasallik va zararkunandalarga hamda tuproq eroziyasiga qarshi kurash tadbirleri amalga oshiriladi.

Xo'jalik hududida dalalar va ma'lum bir davrlar bo'yicha madaniy ckinlarni ilmiy asosda isbotlangan navbatlab ekish *almashlab ekish* deb ataladi. Turli ekinlar tuproqda turli miqdorda ildiz qoldig'i va azot qoldirib, uning unumdorligiga har xil ta'sir etadi. Ko'p yillik o'tlar o'rib olinganidan keyin tuproqda ko'p miqdorda organik moddalar qoldiradi. Masalan, 3 yillik beda 10-11 t/ga ildiz qoldig'i va 300-500 kg biologik azot to'playdi. Shu tufayli tuproqning strukturasi, suv-fizik xossalari, sig'imi, zichligi, tuproqning oziq, havo, issiqlik, suv rejimlari hamda mikroorganizmlar faoliyati yaxshilanadi. Almashlab ekish ta'sirida tuproqda turli kasalliklar va hashoratlar miqdori keskin kamayadi, gumus (chirindi) miqdori ortadi.

Bir qancha o'simliklar javdar, bug'doy, suli, arpa va sovuqda o'suvchi maysalar kechki va erta bahorda to'liq shakllanadi. Shuning uchun tuproqni yaxshilashga yordam beradi. Ular almashlab ekish va qoplama ekinlar ekish foydali hisoblanadi, lekin agar ishlov berish ko'paysa ijobjiy ta'sirlari yo'qolishi mumkin. Yozda o'simliklar zichligi tuproqni fizik holatini yaxshilash uchun kerak bo'ladi. Bu o'sish davomida va ishlov berish ko'paytirilsa zich ildizli chim o'simliklar plug bilan ishlov berishda yordam beradi. Bir qancha sabablarda almashlab ekish organik moddalar zichligini oshirish

uchun aralash ekishlarni ichiga olish kerak, ya'ni tuproqdag'i organizmlarni qo'llab quvatlash kerak.

Dukkakkililar almashlab ekishda ekin uchun yoki yashil massa (beda) uchun joriy etish mumkin. Dukkakkililar almashlab ekishda mahsus o'rinni egallaydi. Chunki ular tuproqqa azot ishlab chiqadi. Maxsus bakteriyalar o'rtasidagi simbiozlar azot taminlaydi. Almashlab ekishda dukkakkililar qo'llanilsa turli tuman o'simliklarga azot taminlanadi.<sup>10</sup>

Monokulturada, agar ayni bir dalaning o'zida faqat bir yillik ekinlar o'stirilganda ko'p hollarda tuproqning tabiiy – kimyoviy xossalari yomonlashib, u kuchsizlanib qoladi.

Bir maydonning o'zida bir xil ekin uzoq vaqt ekilsa, oziq moddalarga nisbatan tuproqda bir tomonlama oriqlash yuz beradi. Ma'lumki, ekinlar oziq rejimiga turlicha ehtiyoj sezadi. G'alla ekinlari, kartoshka fosforni, ildiz mevalilari kaliyni, dukkakkililar fosfor va kaliyni, g'o'za azot va fosforni ko'p o'zlashtiradi. Bundan tashqari, turli o'simliklarning ildiz tizimi har xil bo'ladi va suv, oziq moddalarni tuproqning turli qatlamlaridan har xil miqdorda oladi.

Ishlab chiqarish maqsadiga va tuproq unumdorligini tiklash usuliga ko'ra bir nechta almashlab ekish sxemasi mavjud. Xo'jalik maqsadiga ko'ra dala, yem-xashak, sabzavot va maxsus almashlab ekish farq qilinadi.

Tuproq unumdorligini tiklashga qaratilgan almashlab ekish:  
-ekin va qator oralarini ishlanadigan ekinlarni almashlab ekish,  
-shudgor almashlab ekish,  
-shudgor va qator oralarini ishlanadigan ekinlarni almashlab ekish,  
-ko'kat o'g'it ekinlarini almashlab ekish,  
-o't hamda qator oralarini ishlanadigan ekinlarni almashlab ekish,  
-o't-dalali va bog' almashlab ekishga bo'linadi.

Bundan tashqari, muayyan maqsadda almashlab ekishga ko'ra, g'alla-g'o'za, g'alla-g'o'za-yem-xashak, g'alla-g'o'za-sabzavot, g'o'za-beda almashlab ekish, g'o'za-makkajo'xori-beda almashlab ekish, kanop-beda almashlab ekish, don ekinlari almashlab ekish, sabzavot-don ekinlari almashlab ekish, sxemasi bo'ladi va hokazo.

Almashlab ekishda ma'lum sondagi dala (1, 2, 3, 4 ta va hokazo) va ekinlarni navbat bilan ekishning belgilangan tartibi bo'ladi. Misol

<sup>10</sup> Crop Rotation on Organic Farms: A Planning Manual, NRAES 177 Charles L. Mohler and Sue Ellen Johnson, editors Published by NRAES, July 2009

uchun, uch dalali almashlab ekish qo'llanilsa, ckin ekiladigan maydon teng uch qismga bo'linadi. Mazkur ekin ajratiladigan maydonga qarab u bitta yoki bir nechta dalani yoki dalaning bir qismini egallashi mumkin.

Bir necha xil ekin o'stiriladigan almashlab ekish dalasi **terma** (*yig'ma*) dala deb ataladi. Terma dala tarkibiga, imkonli boricha, tuproq sharoitiga, yerga ishlov berish tizimiga va ularni parvarish qilishga bo'lgan talablarga, shuningdek, tuproq unumdorligiga ta'siriga ko'ra, o'zaro ko'p jihatdan o'xhash bo'lgan ekinlar tanlah olinishi kerak. Aytib o'tilgan talablarga bog'liq holda quyidagi terma dalalar tashkil etilishi mumkin: 1) keng qatorlab ekiladigan, chopiq qilinadigan ekin dalalari; 2) kuzgi ckinlar (bug'doy, arpa va javdar) ekiladigan dalalar; 3) sabzovot ekinlari (karam, pamidor, bulg'or qalampiri) ekiladigan dalalar; 4) lalmikor sharoitda bir yillik o'tlar va qator oralari ishlanadigan ertagi ckinlarni shudgor bilan band bo'lgan bitta dalaga ekish mumkin.

Almashlab ekishda avvalgi yili muayyan ckindan oldin ekilgan ckinlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu dalaga o'tgan yili ekilgan ckinlar yoki shudgor dala shu yili ekilgan asosy ekinga nisbatan o'tmishdosh hisoblanadi.

Almashlab ekishning har qaysi dalasida ma'lum vaqt davomida ckinlarni izchillik bilan navbatlab ekish *rotatsiya* deb ataladi (rotatsiya lotincha - rotatie so'zidan olingan bo'lib davra aylanishi degan ma'noni bildiradi). Odatda, almashlab ekish dalalri soni rotatsiya yillari soniga mos keladi. Bir rotatsiya davomida yillar va dalalar bo'yicha ckinlarni navbatlab joylanishi belgilanadigan jadval *rotatsiya jadvali* deb ataladi.

Almashlab ekishda rotatsion jadval quyidagicha tuziladi: Dalalar soni rotatsiya yiliga teng qilib olinib, ular tartib raqami gorizontal yo'nalishda beriladi. Yillar bir rotatsiya muddati uchun, ya'ni dalalar soniga teng qilib beriladi. Almashlab ekiladigan dalalar soni rotatsiya yillari soniga to'g'ri keladi.

Masalan, 2:1 paxta-kuzgi bug'doy almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzish kerak bo'lsin. Bu sxema bo'yicha 2 yil paxta ekiladi, 1 yil kuzgi bug'doy ekiladi. Bir rotatsiya 3 yilga teng bo'ladi. Dyemak, buning uchun 3 dalali rotatsion jadval tuziladi. Rotatsion jadvalda ckinlarni uch yil davomida navbatlab ekish aks ettiriladi (33-jadval).

**Almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzishga doir  
ma'lumotlar**

Almashlab ekishning nomi	Almashlab ekish tizimlari	Ekinlarning salmog'i
Paxta-kuzgi bug'doy	2:1	g'o'za salmogi 66,6%, bug'doy 33,3%
Kuzgi bug'doy-paxta	2:1	bug'doy 66,6%, g'o'za 33,3%
G'o'za-kuzgi bug'doy-soya	1:1:1	g'o'za 33,4%, bug'doy 33,3%, soya 33,3%
G'o'za-kuzgi bug'doy	1:1	g'o'za 50,0%, bug'doy 50,0%

Almashlab ekishda ekinlar nomi o'miga, unga kiradigan o'simliklar gruppasi, masalan, kuzgi, bahorgi g'alla ekinlari va boshqa ekinlar ko'rsatilishi mumkin, bu ekinlar gruppasining ro'yxati va ularni navbatlash *almashlab ekish sxemasi deb* ataladi.

Ekinlarni har yillik yoki bir necha yil o'tgach almashtirish mumkin. Masalan, g'o'za almashlab ekishda bitta dalaga 2 yil g'o'za 1yil kuzgi bug'doy ekiladi (34-jadval).

**2:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning rotatsion jadvali**

Rotatsiya yillari	Dalalar nomeri		
	I	II	III
2016	g'o'za + oraliq ckin javdar	g'o'za + oraliq ekin javdar	kuzgi bug'doy + takroriy mosh
2017	g'o'za + oraliq ekin javdar	kuzgi bug'doy + takroriy mosh	g'o'za + oraliq ekin javdar
2018	kuzgi bug'doy + takroriy mosh	g'o'za + oraliq ekin javdar	g'o'za + oraliq ekin javdar

Izoh: Bunda g'uzayning- salmog'i 66,6%, kuzgi bug'doy -33,3%).

**Almashlab ekishni ishlab chiqish va o'zlashtirish.**

Almashlab ekishni joriy etish ikki davrdan - qo'llash va o'zlashtirish davrlaridan iborat.

Almashlab ekishni qo'llash - almashlab ekish loyihasini tuzish va uni dalaga ko'chirish, ya'ni yer tuzish ishlarini bajarishdan iborat.

Almashlab ekishni o'zlashtirish – ekinlarni belgilangan navbatlab ekishga asta-sekin o'tishdan iborat. Almashlab ekishni o'zlashtirish uchun ko'chma reja tuziladi. Buning uchun 2-3 yil, ba'zan esa undan ko'p vaqt talab etiladi.

Almashlab ekishni loyihalash uchun quyidagi ishlarni bajarish zarur:

a) Yer-suv hisobga olinadi, barcha yerlardan eng unumli foydalanish rejasini belgilanadi;

b) qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishning hajmi belgilanadi;

d) almashlab ekish mo'ljallangan ekinlarning hosildorligi hisoblab chiqiladi va shunga ko'ra zarur miqdorda mahsulot olish uchun ekin maydonlari belgilanadi;

e) chorvachilik uchun yem-xashakka bo'lgan talab hisoblab chiqiladi, yyem-xashak ekinlari uchun ekin maydonlarining hosildorligi, katta-kichikligi belgilanadi;

f) xo'jalik yerlarining katta-kichikligiga va bo'linib ketganligiga bog'liq holda undagi almashlab ekishlar soni va tuproq-gidrogeologik sharoitiga bog'liq holda har bir almashlab ekish uchun ekin maydonlarining strukturasi belgilanadi (xo'jalikda bir nechta bir xil yoki turlicha almashlab ekish bo'lishi mumkin);

g) xo'jalikda belgilangan almashlab ekishga qarab, dalalarning katta-kichikligi va soni, shuningdek ularga ekinlarni navbat bilan ekish belgilanadi;

h) almashlab ekishga o'tish rejasini tuziladi. Buning uchun oldindan dalalar tarixi, ekinlarni navbatlashda oldingi ekinlarning ahamiyatini aniqlanadi;

i) yerga ishlov berish, o'simliklarni parvarish qilish, o'g'itlash, har bir ekin va almashlab ekish bo'yicha begona o'tlar, kasallik va zararkunandalar bilan kurashish tizimi ishlab chiqiladi.

Rotatsiya o'simlik kasalligiga samarali ta'sir qilishi mumkin, qachonki nishon patogen tuproqda yoki o'simlik qoldig'ida kam yil yashashga moyil bo'lsa. Ba'zi zamburug'li va bakterial patogenlar faqat tuproqdagagi o'simlik qoldig'ida yashashi mumkin va bu patogenlar almashlab ekish orqali boshqarilishi mumkin. Bu qisqa muddatli tuproqda yashovchilar: tuproq bosqinchilari yoki tuproq o'tkinchilari deyiladi.<sup>11</sup>

<sup>11</sup> Crop Rotation on Organic Farms: A Planning Manual, NRAES 177 Charles L. Mohler and Sue Ellen Johnson, editors Published by NRAES, July 2009. 34 bet.

## TAVSIYA ETILADIGAN ALMASHLAB EKISH TIZIMLARI

Qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohatlar natijasida yangi dehqonchilik tizimi vujudga keldi, ilgaridan mavjud bo'lgan mavjud ko'p dalali, katta massivlarga ega bo'lgan g'o'za-beda almashlab ekish tizimlari esa talabga javob bermay qoldi. G'o'za yakkahokimligiga barham berilib, g'alla-g'o'za, g'alla-g'o'za-yemxashak, g'alla-g'o'za-sabzovot kabi ekinlarni almashlab va navbatlab ekish tartiblari kirib keldi. Tuproq unumdorligini oshirishda aktiv ishtirok etgan beda ko'p jihatdan oradan chiqdi desak yanglishmaymiz. Shu sababli endigi almashlab ekish tizimi oldiga tuproq unumdorligini oshirish masalasi ko'ndalang bo'lmoqda.

Bozor iqtisodiyoti va dehqonchilik yuritishning yangi shakli - fermer xo'jaliklari sharoitiga mos holda jadal dehqonchilik tizimini yuritishda tuproq unumdorligini doimiy saqlash, oshirish va uning barcha qimmatli xossa-xususiyatlarini yaxshilash hamda g'o'za majmuidagi qishloq xo'jalik ekinlарidan barqaror yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlash maqsadida almashlab ekishning quyidagi qisqa rotatsiyali tizimlari tavsiya etiladi:

80 yillik noyob almashlab ekish tajribasi va mamlakatimizning asosiy maydonlarida utkazilgan tajriba ma'lumotlariga asoslangan holda, tuproq unumdorligi va uning hosildorlik qobiliyatini muttasil saqlash maqsadida, doimiy bir-biologik turdag'i ekin ekish, oziqlantirish (doimiy NPK, go'ng) va tuproq unumdorligini inobatga ohnay ekinlarni joylashtirish hamda hosildorligini belgilash tavsiya etilmay, quyida tavsiya etgan qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlarida har bir hududga mos agrotexnologiyaga rivoja qilgan holda ekinlarni parvarishlash maqsadga muvofigdir:

**1. Tipik bo'z tuproqlar sharoitida: Qisqa rotatsiyali almashlab ekishning:**

1. 2:1 sxemasi : (1-yil, g'o'za + oraliq ekin javdar : 2-yil, g'o'za + oraliq ekin javdar : 3-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh, bunda g'o'za salmogi 66,6%, bug'doy 33,3%),

2.Yuqoridagiga mos holda faqat ekinlar turi o'zgargan: 2:1 sxemasi: (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh : 2-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh + oraliq ekin javdar : 3-yil, g'o'za, bunda g'o'za 33,3%, bug'doy 66,6%),

3. 1:1:1 sxemasi: (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh + oraliq ekin tritikale : 2-yil, g'o'za + oraliq ekin tritikale : 3-yil, soya, bunda g'o'za 33,4%, bug'doy 33,3%, soya 33,3%),

4. 1:1 (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh + oraliq ekin javdar : 2-yil, g'o'za, bunda g'o'za 50,0%, bug'doy 50,0%) tizimlari.

35-jadval

1) 2:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning rotatsion jadvali. Yuqoridagiga mos holda faqat ekinlar turi o'zgargan.

Izoh:bunda g'o'za 33,3%, kuzgi·bug'doy 66,6%

Rotatsiya yillari	Dalalar nomeri		
	I	II	III
2019	kuzgi bug'doy+takroriy mosh	Kuzgi bug'doy+ takroriy mosh+oraliq ekin javdar	g'o'za
2020	kuzgi bug'doy+takroriy mosh+oraliq ekin javdar	g'o'za	kuzgi bug'doy+takroriy mosh
2021	g'o'za	kuzgi bug'doy+takroriy mosh	kuzgi bug'doy+ takroriy mosh+ oraliq ekin javdar

36-jadval

2) 2:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning rotatsion jadvali. Izoh:. Bunda g'uzayning- salmogi 66,6%, kuzgi bug'doy- 33,3%),

Rotatsiya yillari	Dalalar nomeri		
	I	II	III
2019	g'o'za+oraliq ekin javdar	g'o'za+oraliq ekin javdar	kuzgi bug'doy +takroriy mosh
2020	g'o'za+oraliq ekin javdar	kuzgi bug'doy+takroriy mosh	g'o'za+oraliq ekin javdar
2021	kuzgi bug'doy+takroriy mosh	g'o'za+oraliq ekin javdar	g'o'za+oraliq ekin javdar

37-jadval

**3) 1:1:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning rotatsion jadvali**

Izoh: bunda g'oz'a 33,4%, kuzgi bug'doy 33,3%, soya 33,3%,

Rotatsiya yillari	Dalalar nomeri		
	I	II	III
2019	kuzgi bug'doy+ takroriy mosh+ oraliq ekin tritikale	g'oz'a+oraliq ekin tritikale	soya
2020	g'oz'a+oraliq ekin tritikale	soya	kuzgi bug'doy+takroriy mosh+oraliq ekin tritikale
2021	soya	kuzgi bug'doy+takroriy mosh+oraliq ekin tritikale	g'oz'a+oraliq ekin tritikale

**II. Taqirsimon tuproqlar uchun:**

1. 1:1:1 (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh + oraliq ekin tritikale : 2-yil, g'oz'a + oraliq ekin tritikale :3-yil soya, bunda g'oz'a 33,4%, bug'doy 33,3%, soya 33,3%),

2. 1:1:1 (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh : 2-yil, g'oz'a + oraliq ekin tritikale: 3-yil, soya, bunda g'oz'a 33,4%, bug'doy 33,3%, soya 33,3%),

3. 1:1 (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh + oraliq ekin javdar: 2-yil, g'oz'a, bunda g'oz'a 50,0%, bug'doy 50,0%) tizimlari tavsiya etiladi.

38-jadval

**1:1:1 sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekishning rotatsion jadvali.**

Izoh: bunda g'oz'a 33,4%, kuzgi bug'doy 33,3%, soya 33,3%

Rotatsiya yillari	Dalalar raqami		
	I	II	III
2019	kuzgi bug'doy+takroriy mosh+oraliq ekin	g'oz'a+oraliq ekin tritikale	soya

	tritikale		
2020	g'o'za+oraliq ekin tritikale	soya	kuzgi bug'doy+ takroriy mosh+oraliq ekin tritikale
2021	soya	kuzgi bug'doy+ takroriy mosh+oraliq ekin tritikale	g'o'za+oraliq ekin tritikale

### III. O'tloqi-allyuvial tuproqdar uchun:

1:1:1 (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh + oraliq ekin tritikale : 2-yil, soya : 3-yil, g'o'za, bunda g'o'za 33,4%, bug'doy 33,3%, soya 33,3%).

39-jadval

1:1:1 sxemali sxemali qisqa rotatsiyali almashlab ekistuning rotatsion jadvali. Izoh :bunda g'o'za 33,4%, kuzgi bug'doy 33,3%, sova 33,3%.

Rotatsiya yillari	Dalalar nomeri		
	I	II	III
2019	kuzgi bug'doy+ takroriy mosh+ oraliq ekin tritikale	soya	g'o'za
2020	soya	g'o'za	kuzgi bug'doy+ takroriy mosh+oraliq ekin tritikale
2021	g'o'za	kuzgi bug'doy+takroriy mosh+oraliq ekin tritikale	soya

Ball bonitetiga qarab tavsiya etiladigan qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimlari:

Ball bonitetiga- 40-50

o Paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jalilarida:

1:1-g'o'za:kuzgi bug'doy

1:1-g'oz: kuzgi bug'doy: takroriy ekin: dukkancli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo'xori

1:1-g'oz: kuzgi bug'doy: takroriy ekin: dukkancli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo'xori, kechki sabzavotlar: oraliq ekin: javdar, raps, perko: g'o'za

#### **Ball boniteti-50-70**

**Paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida:**

2:1-g'o'za: g'o'za: kuzgi bug'doy

2:1-g'o'za: g'o'za: kuzgi bug'doy: takroriy ekin: dukkancli ekimlar (mosh, loviya, soya), va makkajo'xori, kechki sabzavotlar

2:1-g'o'za: g'o'za: kuzgi bug'doy: takroriy ekin: dukkancli ekinlar (mosh, loviya, soya), va makkajo'xori, kechki sabzavotlar: oraliq ekin: javdar, raps, perko: g'o'za

#### **Sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jalilarida:**

1:1-ertagi, o'rtagi sabzavotlar: kuzgi bug'doy

1:1-ertagi, o'rtagi sabzavotlar: kuzgi bug'doy: takroriy dukkancli ekinlar, kechki sabzavotlar va kartoshka

1:1-ertagi, o'rtagi sabzavotlar: kuzgi bug'doy: takroriy dukkancli ekinlar, kechki sabzavotlar va kartoshka: oraliq ekinlari (javdar, raps, perko).

#### **Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarda:**

3:3-beda 3 yil: 3 yil g'alla ekinlari (don uchun): takroriy yemashak ekinlari (makkajo'xori, kungaboqar, soya va h.k.)

**Sholi almashlab ekish.** Sholikor xo'jaliklar uchun Sholi almashlab ekishning quyidagi sxemalari tavsiya etiladi:

6 dalali almashlab ekish: 1,2,3 va 4 – dala Sholi, 5-6 dala esa ikki yillik o'tlar (birinchi yili o'tlar arpa yoki bug'doy bilan aralashtirib ekiladi). Almashlab ekishning bu xildagi sxemasida ekin maydonining 66,6% ni Sholi, 33,4% ni o'tlar eg'allaydi.

**Lalmikor g'allachilik xo'jaliklarida almashlab ekish.** Tekislik va tekislik – tepalik mintaqalarning yuqori qismida ekin ekiladigan maydonlar strukturasi quyidagi ekinlardan iborat bo'lishi tavsiya etiladi (% hisobida):

g'alla ekinlari -55 -60, shudgor -35 -30, boshqa ekinlar- beda -8 -10.

**Lalmikorlikdagi tog oldi va togli mintaqalarda:**

g'alla ekinlari -65-70, shudgor -25-20, beda -10

Lalmikor dehqonchilik ilmiy tekshirish instituti quyidagi tekislik va tekislik – tepalik mintaqasining pastki qismi uchun 5 dalali shudgor almashlab ekish tavsiya etiladi: shudgor, g'alla ekinlari, shudgor, g'alla ekinlari, g'alla ekinlari.

Lalmikorlikdagi tekislik – tepalik mintaqasining yuqori qismida, tog' oldi va tog'li mintaqada shudgor bilan birga qator oralari ishlanadigan ekinlarni almashlab ekish tavsiya etiladi.

5 dalali: shudgor, g'alla ekinlari, g'alla ekinlari, qator oralari ishlanadigan ekinlar, g'alla ekinlari.

6 dalali: shudgor, g'alla ekinlari, qator oralari ishlanadigan ckinlar, g'alla ekinlari, g'alla ekinlari.

Lalmikor mintaqaning tuproq xususiyatlariiga qarab, qator oralari ishlanadigan ekinlardan nut (jaydari no'xat), oq jo'xori, kungaboqar, maxsar, kunjut, poliz ekinlari, ekishni tashkil qilish mumkin.

#### **Mevachilik va uzumchilikda taxminiy almashlab ekish**

##### **1. Urug' ko'chatlar ko'chatzori uchun:**

a) 1-2-dala beda; 3-4 dala urug' ko'chatlar + ildiz oldirilgan birinchi va ikkinchi yilgi meva va tok qalamchalar; 5-dala qator oralari ishlanadigan ertagi ekinlar bilan sentyabrdan ekiladigan o'tlar;

b) 1, 2 – dala o'tlar; 3-dala urug' ko'chatlar; 4-dala qalamchalar; 5-dala qator oralari ishlanadigan ertagi ekinlar, sabzavot, poliz ekinlari va kartoshka;

v) 1,2 – dala o'tlar; 3-4 – dala urug' ko'chatlar; 5-dala qator oralari ishlanadigan, sabzavot, poliz ckinlari va kartoshka;

##### **2. Shakl beriladigan dalalar uchun:**

a) 1,2 – dala beda, 3 – dala urug' ko'chatlar va qalamchalar ko'chatzori; 4,5 – dala ko'chatzoring birinchi va ikkinchi dalasi; 6 – dala 50% maydonda urug'li meva daraxtlar ko'chatzorining uchinchi dalasi va 50% maydonda qator oralari ishlanadigan ekinlar; 7 – dala sabzavot ekinlari, qator oralari ishlanadigan ekinlar va kuzda beda ekish;

b) 1,2 – dala beda; 3,4 – dala ko'chatzor; 5 – dala danakli meva daraxtlar ko'chatzoridan keyin urug'li mevalar, qator oralari ishlanadigan ekinlar ko'chatzori; 6 – dala sideratlar, qator oralari ishlanadigan ekinlar; 7 – dala urug' ko'chatlar, qalamchalar ko'chatzori; 8 – dala qator oralari ishlanadigan ertagi ekinlar;

Urug' ko'chatlar va payvandlangan ko'chatlar, odatda, o'tlardan keyin joylashtiriladi. Agar xo'jalik o't bilan yaxshi ta'minlangan

bo'lsa, urug' ko'chatlar va payvandlangan ko'chatlar ekiladigan dalalar shudgorlab qo'yiladi, begona o'tlar ko'p o'sgan. Gerbitsidlar bo'lmasa ulardan oldin dukkakli don ekinlari, qator oralari ishlanadigan ekinlar, unumsiz yerlarda sideratlar ekinladi.

**3. Shox – shabbasi tutashib ketmagan yosh bog'larda almashlab ekishning quyidagi sxemalari tavsya etiladi.**

Olti dalali almashlab ekish: 1 – dala ko'p yillik o'tlar (beda va siyrik tupli g'alla o'simliklari); 2 – dala ko'p yillik o'tlar; 3 – dala sabzavot ekinlari; 4 – dala qator oralari ishlanadigan ekinlar (kartoshka, ildizmevalar); 5 – dala qator oralari ishlanadigan ekinlar; 6 – dala bir yillik dukkakli don ekinlari.

Shahar atrofidagi mintaqada yetti dalali almashlab ekishning quyidagi sxemasi joriy etiladi: 1 – dala qora shudgor; 2 – dala ko'p yillik o'tlar; 3 – dala ko'p yillik o'tlar; 4 – dala qora shudgor yoki ertagi sabzavotlar, iyuldan boshlab esa qulupnay; 5 – dala qulupnay; 6 – dala qulupnay; 7 – dala qulupnay.

### **TALABALAR BAJARISHI UCHUN TOPSHIRIQLAR**

Dalalarning katta-kichikligini, dalalar sonini va almashlab ekishda ekinlarning navbatlanishini aniqlang (rotatsion jadvallar tuzing) hamda yerga ishlov berish tizimini ishlab chiqing.

Almashlab ekishni loyihalashni mashq qilish uchun talabalarga aniq almashlab ekish uchun gektar hisobida yoki almashlab ekish maydoniga nisbatan foizlarda ekin maydonlari strukturasi beriladi.

**Almashlab ekish sxemasini tuzishga misol**

1. Qisqa rotatsiyali almashlab ekishning:

1. 2:1 sxemasi: (1-yil, g'o'za + oraliq ekin javdar: 2-yil, g'o'za + oraliq ekin javdar: 3-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh),

2. 1:1:1 sxemasi: (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh + oraliq ekin tritikale: 2-yil, g'o'za + oraliq ekin tritikale: 3-yil, soya),

3. 1:1 sxemasi: (1-yil, kuzgi bug'doy + takroriy mosh + oraliq ekin javdar: 2-yil, g'o'za,) sxemalari asosida almashlab ekishning rotatsion jadvalini tuzing va ekinlarning nisbiy salmog'ini hisoblang.

**Nazorat uchun savollar:**

- 1. Almashlab ekish va uning ahamiyati.
- 2. Almashlab ekish klassifikatsiyasi.
- 3. Almashlab ekish sxemasi, rotatsiyasi.

4. 1 don : 2 g'oz'a : 1 don : 2 g'oz'a : 1 don : 2 g'oz'a almashlab ekishning rotastion jadvalini tuzing.

5. Har xil mintaqalar uchun tavsiya etilgan almashlab ekishning sxemasi qanday?

6. Lalmikor yerlar uchun tavsiya etilgan almashlab ekishning sxemasi va rotatsion jadvalida ekinlar joylashishi qanday?


**II-Modul. MELIORATSIYA**  
**20-MASHG'ULOT**  
**SUG'ORISH SHAHOBCHALARINI JOYLASHTIRISH**  
**SXEMASI VA ULARNI SUV O'TKAZISH QOBILYATINI**  
**ANIQLASH**

**1.ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar sug'orish shahobchalarini joylashtirish sxemasini o'rganadi va ularning suv o'tkazish qobilyatini aniqlaydilar.

**2.KERAKLI JIHOZLAR:** Sug'orish tarmoqlarini joylashtirish tizim rasmi, maketlar, vertushka, pupaklar, sekundomer.

**3.ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Qishloq xo'jalik ekinlarni suv bilan ta'minlashda dalalarda olingan sug'orish shahobchalariga alohida e'tibor beriladi. Sug'orish shahobchalarining talabga javob berishi ko'p jihatdan uni joylashtirilish tartibiga ham bog'liq. Sug'orish shahobchasi dalaning kattaligidan kelib chiqib, uni suv bilan ta'minlash imkoniga ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda sug'orish shahobchasida suvning isrofgarchiligini juda kam va uni etkazib berish imkoniyati yuqori bo'lishi kerak. Sug'orish shahobchalari olishda yerdan foydalanish darajasi va texnika vositalarini ishlashi, harakati kabi jarayonlar hisobga olinishi kerak bo'ladi.

Sug'orish shahobchalarini joylashtirish dalalar maydoni, uning re'lefni, tuproq va xo'jalikdagi mavjud sharoitdan kelib chiqib belgilanadi. Sug'orish shahobchalari foydalanishga qarab muvaqqat (o'q ariqlar, beshamaklar, egatlari, pollari, jo'yaklar va cheklari) va doimiy (beton novlar, beton qoplamlari kanallari, yer o'zanli ariqlari) turlarga bo'linadi (48-rasm).




**48-rasm. Lotoklar va ular dagi suv sathi:** *a*-eleps shaklidagi;  
*b*-parabola shaklidagi.

Qishloq xo'jalik texnikasini yaxshi ishlashi uchun sug'oriladigan dalalar uzunligi 500 dan 1200 metrgacha va eni 500-700 metr qilib olinishi kerak.

Muvaqqat sug'orish shahobchalari sug'oriladigan dalaga nisbatan uzunasiga yoki ko'ndalangiga olinishi mumkin. Agar sug'orish shahobchasi dalaning uzunasiga olinsa bunda bo'ylama sxema hosil bo'ladi, ko'ndalangiga olinsa ko'ndalang sxema hosil bo'ladi. Muvaqqat sug'orish shahobchalarni bo'ylama (48-rasm) yoki ko'ndalang (49-rasm) sxemada joylashtirishda joyning nishabligi katta ahamiyatiga ega. Kichik nishablikka ega bo'lgan dalalarda sug'orish shahobchalari bo'ylama sxemada joylashtiriladi.


O'rtacha qiyalikdagi dalalarda ( $i=0,002-0,008$ ) sug'orish shahobchalarini bo'ylama va ko'ndalang sxemalarda joylashtiriladi. Bunday holatda sug'orish shahobchalarini o'mniga yopiq sug'orish tarmoqlaridan ham foydalananish yaxshi natija beradi. Nishabligi katta dalalarda ( $i=0,008$ ) sug'orish shahobchalari ko'ndalang holda joylashtiriladi.

Sug'orish shahobchari bo'ylama joylashtirilganda suv muvaqqat ariqdan o'qariqlarga va undan egatlarga taqsimlanadi, ko'ndalangda esa suv o'qariqdan to'g'ridan-to'g'ri egatlarga taqsimlanadi.



48-rasm. Muvaqqat sug'orish shahobchasini bo'ylama joylashtirish sxemasi.


Sug'orish shahobchasi ko'ndalang ko'rinishda joylashtirilganda o'qariqlar soni egat uzunligiga qarab belgilanadi va ularni uzunhgi sug'oriladigan dalaning eniga teng qilib olinadi.



**49-rasm. Muvaqqat sug'orish shahobchasini ko'ndalang joylashtirish sxemasi.**

Sug'orish shahobchalari bo'ylama sxemada joylashtirilganda muvaqqat ariqlar orasidagi masofa 70-200 metr qilib olinadi va uning suv sarfi 40-60 l/sek, atrofida bo'lish kerak. Sug'orish shahobchasi ko'ndalang joylashtirilganda o'qariqdagi suv sarfi 40 l/sek va ba'zan undan ko'p bo'lishi mumkin.

Doimiy sug'orish tarmog'idan (beton novlar, beton qoplamali kanallar, yer o'zanni ariqlar) o'tayotgan suvning sarfini hisoblashning bir necha usuli mayjud bo'lib, ulardan gidrometrik parrak (vertushka) va pukak ususli keng ko'lalida qo'llaniladi (50 rasm).




**50-rasm. Vertushka GR-21M ning tuzilishi**

- 1) o'zak(korpus); 2) kontakli mexanizmning aylanma qismi; 3) parragi;
- 4) dum tutuchi.

Sug'orish tarmog'idan o'tayotgan suv satini aniqlashda gidrometrik parrak (vertushka) bo'lmaganda pukak usulidan foydalanish mumkin. Bu usulda yo'l qo'yiladigan xato 7-10 foizni tashkil qiladi.

**a) Parabola shaklidagi sug'orish tarmoqlardan suv sarfini aniqlash.** Pukak yordamida suvning tezligini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Dastlab suvni tezligini o'lchash uchun kuzatish joyi tanlab olinadi. Bu yuqori va qo'yli kuzatish nuqtasidan iborat bo'ldi. Kuzatish nuqtasi masofasini tanlash suvning oqish tezligiga bog'liq.

Agar ariqdagi suvning tezligi 0,5 l/sek. dan kam bo'lsa suvni tezligini o'lchash uchun talab qilingan masofa 12 metrdan kam bo'lmasligi kerak, 0,5 l/sek. dan - 3 m/sek. gacha bo'lsa 18 metrdan kam bo'lmasgan masofa talab qilinadi.



51-rasm. Po'kak yordamida suvning tezligini aniqlash

Yuqori kuzatish nuqtasidan 3-4 pukak (diametri 6-8 sm bo'lgan yog'och halqachalar) suvga birin-ketin tushiriladi va

sekundomer yordamida tushirilgan vaqt qayd etiladi hamda 40-jadvalga yoziladi. Ariq yoki lotokning 2-3 joyidan uning chuqurligi o'lchanadi va quyidagi formula yordamida o'rtacha chuqurligi hisoblanadi:

$$h_{o're} = \frac{h_1 + h_2 + h_3}{3}, \text{m}$$

bu yerda  $h_1$  - birinchi o'lchashdagi suvning sathi, m;

$h_2$  - ikkinchi o'lchashdagi suvning sathi, m;

$h_3$  - uchinchi o'lchashdagi suvning sathi, m.

So'ngra pukakning quyi kuzatish nuqtasiga oqib kelgan vaqt qayd qilinadi. Har qaysi pukakning tezligi quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$V_1 = \frac{l}{t_1}, \quad V_2 = \frac{l}{t_2}, \quad V_3 = \frac{l}{t_3},$$

bu yerda  $V_1, V_2, V_3$  - suvning betidagi oqish tezligi, m/sek;

$l$  - bosib o'tilgan masofa, m;

$t_1, t_2, t_3$  - bosib o'tish vaqt, sek.

Ushbu ma'lumotlar asosida suvning betidagi o'rtacha oqish tezligi hisoblab chiqiladi. Buning uchun tezligi yuqori bo'lgan 2 ta po'kakning tezligi o'rtacha tezlik deb olinadi. Demak, o'rtacha tezlik:

$$V_{o're} = \frac{V_2 + V_3}{2}.$$

ga teng bo'ldi. Suv oqimiga qarama-qarshi tomondan shamol bo'lgan holda pukak yordamida suvning tezligi aniqlanmaydi. SANIIRI ishlab chiqqan bu suv o'lhash usulida tarmoqning suv sig'iminini o'lhash talab etilmaydi. Olingan ma'lumotlarni hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$Q = 0,51 \cdot H \cdot \sqrt{H \cdot V_{on}},$$

(LR-40, LR-60, LR-80 turdag'i beton novlar va shu o'lchamdag'i ariqlar uchun);

$$\text{va } Q = 0,71 \cdot H = \sqrt{H \cdot V_{on}},$$

(LR-100 turdag'i beton novlar va shu o'lchamdag'i ariqlar uchun); bu yerda  $Q$  – suv sarfi,  $m^3/\text{sek}$ ;

$0,51$  va  $0,71$  – beton novlarni texnik holatini belgilovchi «notekislik» koefitsienti;

$H$  – suv sathi, m;

$V_{on}$  – suvning o'rtacha tezligi,  $m/\text{sek}$ .

Olingan natijalar 40-jadvaldagi shaklda yozib borildi.

Topshiriq. Nov yoki ariqdagi suvning tezligi va sathini o'l-chash maqsadida kuzatishning yuqori nuqtasidan 4 ta pukak suvgaga tushirildi. Ular kuzatishning oxirgi nuqtasigacha bo'lgan masofani 30, 28, 27 va 29 sekunda bosib o'tdi. Masofaning uzunligi 18,5 m, suv sathi:  $h_1=0,53$ ;  $h_2=0,55$  m.

#### 40-jadval

##### Pukak usulida tarmoqdagi suv sarfini aniqlash ma'lumotlarni qayd etish jadvali

1. O'rta Chirchiq tumani	1. Suv o'lhash muddati 05.09.18
2. A.Navoiy fermer xo'jaligi	2. Vaqt 4,30
3. Tarmoq U-3, LR-80	3. Suvning sathi 0,135 $m^3/\text{sek}$ .
4. Kuchsiz shamol	4. Suvni chuqurligi 0,54 m.
	5. Suvni o'rtacha tezligi 0,67 $m/\text{sek}$ .

Tarmoqning o'rtacha suv sarfi hisoblansin.

Yechish:

$$V_1 = \frac{\frac{l}{t_1}}{4} = \frac{18,5}{30} = 0,61 \text{ m/sec}; \quad V_2 = \frac{\frac{l}{t_2}}{4} = \frac{18,5}{28} = 0,66 \text{ m/sec};$$

$$V_3 = \frac{\frac{l}{t_3}}{4} = \frac{18,5}{27} = 0,68 \text{ m/sec}; \quad V_4 = \frac{\frac{l}{t_4}}{4} = \frac{18,5}{29} = 0,63 \text{ m/sec}.$$

Ariqdag'i suvning chuqurligi			Suv o'l-chash uchast-kasining uzunligi, m	Qal-qon uchning tartib soni	Vaqt sek	Tezlik m/s.	Suvni o'rtacha tezligi, m/sek	Suv sarfi, m/sek.	Eslatma
I	II	o'rtacha							
0,53	18,5	1	30	0,61	0,67	0,135		0,135	
		2	20	0,66					
		3	27	0,68					
		4	29	0,63					

Suvning o'rtacha sathi esa

$$h_{o'n} = h_{o'n} \frac{h_1 + h_2}{2} + \frac{0,53 + 0,55}{2} = 0,54 \text{ m}$$

Suvning yuzasidagi oqish tezligini topshiriqdagi 2 chi va 3 chi namunaning o'rtacha tezligi bo'yicha aniqlanadi:

Suv o'lchashni amalga oshirish:

Tekshirdi:-

$$V_{o'n} = -\frac{V_2 + V_3}{2} = \frac{0,66 + 0,68}{2} = 0,67 \text{ m/sek}$$

$$Q = 0,51 = H \sqrt{H \cdot V_{o'n}} = 0,51 = 0,54 = \sqrt{0,54 \cdot 0,67} = 0,134 \text{ m}^3/\text{sck}$$

Demak, ariqdag'i suvning har sekundagi sarfi 0,134  $\text{m}^3$  yoki 134 l/qa teng ekan.

b) Trapetsiya shaklidagi sug'orish tarmoqlarda suv o'lchash.

Bunday shakldagi sug'orish tarmoqlarda ham suv o'lchash jarayoni yuqoriga tartibda amalga orishiriladi va har qaysi pukakning tezligi quyidagi formula yordamida alohida hisoblab chiqiladi:

$$V_1 = \frac{l}{t_1}, \quad V_2 = \frac{l}{t_2}, \quad V_3 = \frac{l}{t_3},$$

Shundan so'ng suvning yuzasidagi o'rtacha oqish tezligi hisoblanadi:

$$V_{o'n} = \frac{V_2 + V_3}{2},$$

Suvning yuzasidagi o'rtacha oqish tezligi hisoblangandan so'ng ariqdag'i suv oqimining o'rtacha tezligi aniqlab chiqiladi va u quydagi formula yordamida hisoblanadi:

$$V = K = V_{o'n},$$

bu yerda  $V$ -suv oqimining o'rtacha tezligi, m/s:

*K-suv oqimining tezligini tarmoq bo'ylab tarqalish xarakterini tuzatish koefitsiyenti (qiymati 0,55 dan 0,75 gacha):*

*V<sub>o't</sub>-suvning yuzasidagi o'rtacha oqish tezligi, m/s.*

Sug'orish tarmog'ining ko'ndalang kesimi to'nikarilgan trapesiyaga o'xshaganligi uchun, uning suv oqayotgan qismini yuzini trapetsiyani yuzini topish formulasi yordanida hisoblanadi:

$$F = \frac{a+v}{2} \cdot h_{o'n},$$

*Bu yerda: F-tarmoqning ko'ndalang kesimi yuzasi, m<sup>2</sup>;*

*a-tarmoqning ustki qismi kengligi, m;*

*v-tarmoqning tubining kengligi, m;*

*h<sub>o'n</sub>-tarmoqdagi suvning sathi, m.*

Sug'orish tarmog'ining ko'ndalang kesim yuzasini bilgan holda undan o'tayotgan suv sarfini quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q=F \cdot V_{o'n},$$

*bu yerda Q-tarmoqning suv sarfi, m<sup>3</sup>/sek;*

*V<sub>o't</sub>-tarmoqdagi suvni o'rtacha oqish tezligi, m/sek;*

*F-tarmoqning ko'ndalang kesim yuzasi, m<sup>2</sup>.*

**Topshiriq:** Quyidagi 41-jadval ma'lumotlaridan foydalaniib, trapetsiya shaklidagi sug'orish tarmoq'idan o'tuvchi suv sarfini hisoblab chiqing.

41-jadval

**Sug'orish tarmoqlarining suv sarfini hisoblashga doir  
ma'lumotlar**

Ko'rsatkishlar	Masalalar				
	1	2	3	4	5
<b>Parabol shaklidagi sug'orish tarmoqlar bo'yicha:</b>					
Pukakning bosib o'tgan masofasi (l), m vaqt (t), sek.	17,6	19,5	18,5	19,0	21,0
t <sub>1</sub> , sek.	25,6	30,1	29,6	31,7	33,7
t <sub>2</sub> , sek.	27,3	32,6	27,6	33,6	38,8
t <sub>3</sub> , sek.	23,1	27,6	25,6	34,4	37,7
t <sub>4</sub> , sek.	22,6	24,2	20,2	30,2	36,5
<b>Suvning sathi (l), m</b>	0,61	0,42	0,48	0,47	0,54
<b>Trapetsiva shaklidagi sug'orish tarmoqlari bo'yicha:</b>					
Po'kak bosib o'tgan masofa (l), m	20,0	22,5	20,6	18,5	19,0
Bosib o'tgan vaqt (t), sek.	31,0	30,1	33,0	28,6	31,0

$t_2, \text{ sek.}$	36,0	37,1	28,0	27,0	30,0
$t_3, \text{ sek.}$	28,0	37,0	29,0	29,0	33,0
$t_4, \text{ sek.}$	27,0	33,0	31,0	31,0	29,0
<b>Notekislak koeffitsiventi (<math>K</math>)</b>	<b>0,55</b>	<b>0,60</b>	<b>0,65</b>	<b>0,70</b>	<b>0,75</b>
<b>Suvning sati (<math>h</math>), m</b>	<b>0,47</b>	<b>0,53</b>	<b>0,43</b>	<b>0,38</b>	<b>0,42</b>
<b>Tarmoqning uski qismi kengligi (a), m</b>	<b>0,65</b>	<b>0,70</b>	<b>0,60</b>	<b>0,50</b>	<b>0,45</b>
<b>Tarmoq tubining kengligi (b), m</b>	<b>0,30</b>	<b>0,34</b>	<b>0,28</b>	<b>0,25</b>	<b>0,20</b>

d) Yopiq sug'orish tarmog'ida suv sarfini hisoblash.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishga ishlataladigan har bir kubonetr suvdan to'g'ri foydalanish talab etiladi. Suv zahiralari kamayib borayatgan ushbu sharoitda yopiq sug'orish tizimlaridan foydalanish yuqori samaradorlik garovi hisoblanadi. Uning bir qancha afzallikkleri mavjud bo'lib, birinchidan, yopiq sug'orish usuliga o'tishda suvning behuda isrof bo'lishi butunlay barham topib, tarmoqning foydali ish koeffitsiyenti 0,98-0,99 gacha oshadi va suvchining smenalik ish unumdorligini 2,0-2,5 martaga oshishini hamda egatlarga suvni bir tekisda taqsimlanishini tamunlaydi. Shuningdek, yerdan foydalanish koeffitsiyienti 10-15 % ga oshadi. Yopiq sug'orish tarmoqlari ham ochiq sug'orish tarmoqlari kabi dalalarda bo'ylama va ko'ndalang sxemalarda joylashtirishi mumkin. Bo'ylama sxemada orasidagi masofa egatlar uzinligiga teng qilib olinadi. Ko'ndalang sxemada esa suv yetkazib beruvchi tarmoqqa parallel joylashtiriladi Quvurlarni va shlanglarni uzunligi ko'ndalang sxemada

50-100 metr qilib olinadi.

Yopiq sug'orish tarmog'ini joriy etishda quydagilarni hisobga olish kerak:

1. Bitta suv yetkazib beruvchi tarmoq bilan sug'oriladigan maydon 200-400 ga dan ko'p bo'imasligi kerak;
2. Sutkalik sug'orish maydoni 10-15 hektar atrofida bo'lishi kerak;
3. Bitta tarmoqning uzunligi 1500-2500 m bo'lishi va ular orasidagi masofa 300-600 m qilib olinishi kerak;
4. Egiluvchan shlanglardagi suv sarfi 70-80 l/sek dan ortiq bo'imasligi kerak.

Xo'jaliklarga yopiq sug'orish tarmog'ini joriy qilish uchun avvalo, undan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqmoq zarur. Ulardan dalaga kerakli yopiq sug'orish tarmog'i - shlanglar soni, suv sarfi, suvchilar soni va hokazolariga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Yopiq sug'orish tarmog'i joriy etilgan dalalarda bir vaqtida ishlaydigan egiluvchan shlanglar sonini quydag'i formula yordamida aniqlash mumkin:

$$N_{esh} = \frac{L_{dala}}{L_{egat}},$$

bu yerda  $N_{esh}$  - egiluvchan shlanglar soni, dona;

$L_{dala}$  - dalanining uzunligi, m;

$L_{egat}$  - egatning uzunligi, m.

**Topshiriq:** Quydagi malumotlar asosida sug'orish uchun dalaga kerakli egiluvchan shlanglar sonini hisoblab chiqing:

$L_{dala.uzunligi} = 2500$  m

$L_{egat} = 200$  m

**Yechish:**

$N_{esh} = \frac{L_{dala}}{L_{egat}} = \frac{2500}{200} = 12,5 \approx 13$  ta egiluvchan shlang kerak bo'ladi.

$L_{egat} = 200$

Demak, 180-200 gektarlik ekin maydonida 13 ta egiluvchan shlanglardan iborat yopiq sug'orish tarmog'i tashkil etish zarur.

Yopiq sug'orish tarmog'idan o'tayotgan suv sarfimi quydag'i formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = W = v,$$

bu yerda  $W$  - quvur yoki shlangning ko'ndalang kesimi yuzasi,  $m^2$ :

$v$ -suvning oqish tezligi, m/sek.

Bu formula bilan suv sarfimi hisoblash uchun suvning tezligini va quvurning ko'ndalang kesim yuzasini alohida hisoblab chiqish kerak. Hozirgi vaqtida uzunligi 150 dan 400 metrgacha bo'lgan va diametri 200-400 mm. lik qattiq quvurlar ham sug'orish jarayonida qo'llanilmoqda. Quvurlarni loyqa bosmasligi uchun suvning tezligi 0,8-1,2 m/sek bulishi kerak. Quvurlardan oqib o'tuvchi suvning tezligini Dyopen formulasi bilan hisoblanadi:

$$V = 25,5 \cdot \sqrt{d \cdot i}, \text{ m/sek.}$$

bu yerda  $V$ -suvning oqish tezligi, m/sek;

*d - quvurning ichki diametri, m;*

*i - quvurning nishabligi, m.*

Buning uchun dastlab quvurning nishabligi aniqlab chiqiladi:

$$i = \frac{h}{L},$$

bu yerda *h - quvurning (boshi va oxirining) balandlik bo'yicha farqi, m;*

*L - quvurning uzunligi, m.*

So'ngra quvurning ko'ndalang kesmi yuzasi hisoblab chiqiladi:

$$W = \frac{\pi \cdot d^2}{4},$$

bu yerda *d - quvarning ichki diametiri, m.*

*$\pi$  - doimiy son (3,14).*

**Topshiriq:** Qo'ydagи malumotlar asosida quvurning suv sarfini hisoblab chiqing:

$$d=360 \text{ mm}, h=140 \text{ mm}; L=60 \text{ m}.$$

**Yechish:**

$$1. i = \frac{h}{L} = \frac{0,14}{60} = 0,004;$$

$$2. V = 25,5 \cdot \sqrt{0,36 \cdot 0,004} = 25,5 \cdot 0,038 = 0,969 \text{ m/sek};$$

$$3. W = \frac{\pi \cdot d^2}{4} = \frac{3,14 \cdot 0,36^2}{4} = 0,102 \text{ m}^2;$$

$$4. Q = V \cdot W = 0,969 \cdot 0,102 = 0,0988 \text{ m}^3/\text{sek}.$$

Bir sutkalik suv sarfi:

$$Q_{\text{suv}} = Q \cdot t = 0,0988 \cdot 86400 = 8467 \text{ m}^3/\text{sek}.$$

Agar sug'orish me'yori 1000 m<sup>3</sup> va tarmoqning foydali ish koefitsiyenti 0,99 ga teng bo'lsa, shuncha miqdordagi suv bilan necha hektar g'o'zani sug'orish mumkin?

**Yechish:**

$$W = \frac{Q_{\text{suv}} \cdot \eta}{m} = \frac{8467 \cdot 0,99}{1000} = 8,3 \text{ ga}.$$

bu yerda *Q sut - sutkalik suv sarfi, m<sup>3</sup>/sek;*

*m - sug'orish me'yori, m<sup>3</sup>/ga;*

*$\eta$  - tarmoqning foydali ish koefitsiyenti.*

Demak, 8467 m<sup>3</sup> suv bilan 8,3 ga g'o'zani sug'orish mumkin ekan.

Topshiriq: 42-jadvaldagi ma'lumotlar asosida quvurdan o'tuvchi suv sarfini va shuncha suv bilan necha gektar ekin maydonini sug'orish mumkinligini hisoblab chiqing.

42-jadval

**Suv sarfini hisoblashga oid malumotlar**

№	Ko'rsatkishlar	Topshiriqlar				
		1	2	3	4	5
1	Quvurning diametri ( $d$ ), mm	360	240	370	275	380
2	Quvurning balandligi bo'yicha farqi ( $h$ ), mm	80	150	130	120	136
3	Ouvurning uzunligi ( $L$ ), m	40	35	60	65	70
4	Sug'orish davomiyligi ( $t$ ), sulkə	24	36	48	12	56
5	Sug'orish me'yori ( $M$ ), $m^3/ga$	100 0	900	800	1100	1200
6	Tarmoqning foydali ish koeffitsiyenti ( $\eta$ )	0,97	0,96	0,98	0,99	0,95

**Nazorat uchun savollar:**

1. Sug'orish shahobchalari necha turga bo'linadi?
2. Sug'orish shahobchalari qanday tartibda joylashtiriladi?
3. Suv o'tkazish qobiliyati deganda nimani tushunasiz?
4. Suv sarfi nima yordamida aniqlanadi?
5. Yopiq sug'orish tarmog'i deganda nimani tushunasiz?
6. Yopiq sug'orish tarmog'ida suv sarfi qanday aniqlanadi?

**21-MASHG'ULOT**  
**EKLNLARNI SUG'ORISHGA BERILAYOTGAN VA OQOVA**  
**SUVLARNI HISOBGA OLISH**

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar ekinlarni sug'orishga berilayotgan suv miqdorini Chipoletti suv o'lchash asbobi orqali va oqova suvlarni Tomson suv o'lchash asbobi orqali hisobga olishni o'rGANADILAR.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** *Chipoletti suv o'lchash asbobi, Tomson suv o'lchash asbobi.*


**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Sug'orishga berilayotgan va oqova suv miqdorini hisoblash maqsadida sug'orish tizimlarida maxsus xizmat tashkil qilingan. Har bir xo'jalik kerakli miqdordagi

suvni o'z vaqtida olib, uni rejaga asosan taqsimlash zarur. Buning uchun suv o'lhash va taqsimlash inshoatlariga hamda malakali mutaxassislariga ega bo'lmoq kerak.

Muvaqat sug'orish shahobchalariga-o'qariqlarga, almashlab ekish dalalariga, Sholichilik cheklari va pollarga berilayotgan suv miqdorini hisobga olish maqsadida italyan olimi Chipolctti tomondan ishlab chiqilgan trapesiya shaklidagi suv o'lhash asbobidan foydalaniadi.

Chipoletti suv o'lhash asbobining (ChSA) ostonasini eni 0,25 m. va 0,50 m. shakli muvaqat sug'orish tarmog'idan o'tayotgan va sarfi 5-80 l/sek gacha bo'lgan suv miqdorini o'lhash imkoniyatini beradi. ChSA - 0,75 m. va boshqalari esa 15-230 l/sek.gacha bo'lgan suv miqdorini o'lchaydi.

Chipoletti (ChSA-0,25; ChSA-0,50; ChSA-0,75) suv o'lhash asbobi trapetsiya shaklida bo'lib, uning asosini ostonasi va suv o'lhash reyakasi tashkil etadi (52-rasm).




**52-rasm. Chipoletti suv ulchas asbobi (ChSA-0,50).**

1-suv ulchas asbobining ostonasi; 2-asbobning suv o'tkazish qismi;  
3-ulhash reykasi.

Oqavaga chiqib ketayotgan suvning miqdorini o'lhash uchun ingliz olimi Tomson ishlab chiqgan va burchagi 900 bo'lgan (TSA-900) suv o'lhash asbobi ishlataladi. Asbobning suv o'lhash qobiliyati har sekundda 1-45 litir.

Mazkur suv o'lhash asboblari sug'orish tarmoqlarida doimiy yoki ko'chma (bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib ishlataladigan) holda ishlataladi.

Tomsonning uch burchak shakldagi suv o'lhash asbobi hisoblash reyakasi va  $90^{\circ}$  lik bo'rchakdan iborat (53-rasm).



**53-rasm. Tomsonning uch-burchak shaklidagi suv o'lchash asbobi (TSA-90°).**

1-asbobning quyi qismi, 2-sug'orish tarmog'ining kesimi, 3-suv ulchash reykasi.

Suv o'lchash asboblarini o'matish jarayonida uning yonlaridan va ostidan suv sizib o'tmasligi uchun u tuproq bilan yaxshilab shibbalanib o'matiladi. O'matishda undan o'tayotgan suvni erkin eqib o'tishini ta'minlash kerak (54-rasm).

Buning uchun qo'yidagilarga c'tibor berish zarur:


- suv o'lchash asbobini o'matishda uni ostki qismini loyqa bilan ko'milib ketmasligi uchun undan o'tayotgan suv sharshara hosil qilishi kerak;

- shu maqsadda uni ostonasi tarmoq tubidan 4-5 sm baland bo'lishi kerak;

- suv o'lchash asbobidan 1-1,5 m oldinda oqimni tczligini sekinlashtirish uchun maxsus hovuzcha qazilishi kerak. Hovuzchaning kattaligi suv o'lchash asbobidan o'tayotgan suvning miqdoriga, suv o'lchagichga va sug'orish tarmog'ining nishabligiga bog'liq. Agar sug'orish tarmog'ining nishabligi qancha katta bo'lsa, suvning tezligi shuncha katta, shunga muvofiq sekinlat-gichning uzunligi ham katta bo'ladi.

- suv sug'orish tarmog'idan hovuzchaga o'tishi bilan sekinlashib va o'lchagichga yaqin kelishi bilan tezlashishi kerak. Buni to'g'riligini tekshirish uchun sug'orish tarmog'idan hovuzchaga kiradigan suvga yengil jism tushiriladi, agar u hovuzchaga kirishda sekinlashib, suv o'lchagichga etishi bilan tezlashsa, to'g'ri o'matilgan bo'ladi;

- o'lchash asbobi suv yuzasiga nisbatan tik o'matilishi kerak;
- o'lchash asbobining ostonasi gorizontal bo'lishi kerak;
- reykalar suv o'lchash asbobining oldiga o'matiladi. Reykadagi nol soni o'lchash asbobining ostonasi bilan barobar turishi kerak;
- suv o'lchash asbobi yog'och taxtaga yaxshilab o'matiladi.




**54-rasm. Suv ulchas asbobining o'rnatilishi.**

1-sug'orish tarmog'i; 2-suvning tezligini mavafiqlashdirish hovuzchasi; 3-suv o'lchash asbobi; 4-mahkamlagich taglik.


Asbobdan o'tayotgan suvning miqdorini hisoblashda har kuni kuzatish ishlari olib boriladi va maxsus jurnalga qayd etiladi. Unda 2 ta suv o'lchash reyksasi bo'lgan hollarda ularning o'rtacha ko'rsatgichi olinadi. Reyka bo'yicha ma'lumotlarni olish takroriyligi tarmoq orqali o'tayotgan suvning xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Agar ariqdagagi suv sarfi tez-tez o'zgarib tursa, unda har soatda o'lchash kerak, suv sarfi o'zgarmas bo'lganda o'lchashni kuniga 3-4 marta o'tkazish kerak.

Suv ulhash asbobidan o'tadigan suvning sarfini maxsus grafiklar yordamida ham aniqlash mumkin (3 va 4-grafiklar).

Hisoblashlar o'tkazishdan oldin suv o'lchash asbobining reyksasi yaxshilab loyqadan tozalanadi, so'ngra sekillashtiruvchi hovuzchani ustiga yog'och doska qo'yilib asbobga qarama-qarshi turib hisoblash o'tkaziladi.



1-2-grafik. Ostonasining eni 50 sm bo'lgan Chipoletti suv o'lchash asbobidan o'tayotgan suvning sarfini aniqlash grafigi.



3-grafik. Tomson suv ulchash (TSA-90°) asbobidan o'tayotgan suvni hisobga olish grafigi.

Kuzatish ishlari tugatilgandan so'ng hisbolash orqali Chipoletti suv o'lhash asbobdan o'tayotgan suvning sarfi hisoblab chiqi-ladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniлади:

$$Q = 1,86 \cdot B \cdot H \cdot \sqrt{H},$$

bu yerda  $Q$  – o'lhash asbobidan o'tayotgan suv sarfi,  $m^3/\text{sek}$ ;

$B$  – o'lhash asbobining ostonasini kengligi,  $m$ ;

$H$  – asbob orqali o'tayotgan suvning balandligi,  $m$ .

**Topshiriq:** Agar suv o'lhash asbobi ostonasining kengligi 0,50 m bo'lib, undan o'tayotgan suvning balandligi 90 mm bo'lsa, har sekundda o'lhash asbobidan o'tayotgan suvning sarfini hisoblang.

$$\text{Yechish: } Q = 1,86 \cdot B \cdot H \cdot \sqrt{H} = 1,86 \cdot 0,5 \cdot 0,09 \cdot \sqrt{0,09} = 0,025 \text{ m}^3/\text{sek}.$$

Demak, suv o'lhash asbobidan sekundiga 25 l/sek suv oqib o'tayotgan ekan.

**Topshiriq:** Asbobdan 25 l/sek suv o'tayotgan bo'lib, sug'orish me'yori 800  $m^3/\text{ga}$  bo'lsa, bir sutkada necha hektar ekin maydonini sug'orish mumkin?

**Yechish:** Dastavval har minutdagi suv sarfi hisoblab chiqiladi:

$$1 \text{ sek} = 25 \text{ l}$$

$$60 \text{ sek} = x, \text{ l} \quad X = 60 \cdot 25 = 1500 \text{ l/min} = 1,50 \text{ m}^3/\text{min}.$$

1 minutda 1500 l suv o'tayotgan bo'lsa, 1 soatda:

$$60 \text{ minut} = x, \text{ l}$$

$$X = 60 \cdot 1500 = 90000 \text{ l/soat yoki } 90 \text{ m}^3/\text{soat}.$$

1 soatda 90  $m^3$  bo'lsa, 1 sutkada qancha suv o'tadi?

$$X = 24 \cdot 90 \text{ m}^3 = 2160 \text{ m}^3.$$

$$\text{Demak, } F = \frac{Q_{\text{sa}}}{m} = \frac{2160}{800} = 2,7 \text{ ga ekin maydonini sug'orish mumkin.}$$

Demak, asbobdan o'tayotgan sutkalik suv bilan 2,7 hektar ekin maydonini sug'orish mumkin ekan.

**Topshiriq:** Quyidagi 43-jadval ma'lumotlaridan foydalaniб, suv o'lhash asbobidan o'tayotgan suv miqdorini ( $Q$ ) va shu suv bilan necha hektar ekin maydonini sug'orish mumkinligini aniqlang.

Tomson suv o'lhash asbobidan o'tayotgan suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = 1,4 \cdot H^2 \cdot \sqrt{H},$$

bu yerda  $Q$  suv sarfi,  $m^3/\text{sek}$ .

$H$  – asbob orqali o'tayotgan suvning sathi, m.

43-jadval

### Suv sarfini hisoblashga doir ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Topshiriqlar				
	1	2	3	4	5
1. Suv o'khash asbobi ostonasining kengligi (V) m	0,25	0,50	0,75	1,00	1,25
2. Asbob orqali o'tayotgan suv qaliligi (H), mm	80	90	100	110	125
3. Sug'orish me'yori (m), $m^3/\text{ga}$	800	700	900	1000	1100
4. Sug'orish davomiyligi (t), soat	24	36	48	60	72
5. Suv sarfi (Q), $l/\text{sek}$	-	-	-	-	-
6. Sug'orilishi mumkin bo'lgan ekin maydoni (F), ga	-	-	-	-	-

**Topshiriq:** Tomson (burchak  $90^\circ$ ) suv o'khash asbobicidan o'tayotgan suvning chiqurligi 10 sm bo'lsa, 1 sutkada oqovaga chiqgan suv sarfini hisoblang.

**Yechish:** Hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi:

$$Q = 1,4 \cdot H^2 \cdot \sqrt{H} = 1,4 \cdot 0,1^2 \cdot \sqrt{0,1} = 1,4 \cdot 0,01 \cdot 0,31 = \\ = 0,0044 m^3 / \text{sek}, \text{ yoki } 4,4 l/\text{sek}$$

Endi 1 sutkada o'tgan suv sarfi hisoblanadi.

1 sek – 4,4 l.

24 soat yoki 86400 sek, - x

$$x = \frac{86400 \cdot 4,4}{1,0} = 33160 l \text{ yoki } 330 m^3/\text{sutka}.$$

Demak, 1 sutkada  $330 m^3$  suv oqovaga chiqib ketar ckan.

### Nazorat uchun savollar:

- Chinoletti suv o'khash asbobi bilan suv qanday o'khalanadi?
- Laboratoriya sharoitida Chinoletti suv o'khash asbobicidan o'tayotgan suv miqdori qaysi formula yordamida aniqlanadi?
- Tomson suv o'khash asbobi tarmoqning qaeriga o'matiladi?
- Tomson suv o'khash asbobicidan o'tayotgan suv sarfi qaysi formula yordamida aniqlanadi?

## 22-MASHG'ULOT

### QISHLOQ XO'JALIK EKINLARINI SUG'ORISH REJIMINI HISOBBLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar qishloq xo'jalik ekinlarini suvga bo'lgan takabi, mavsumiy va bir gallik sug'orish me'yorlarini hisoblashni o'rganadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Mavzuga ta'lluqli formulalar, jadvallar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Parvarish qilinayotgan ekinlarni suvga bo'lgan talabi, rejalashtirilgan hosildorligi, iqlim, tuproq va gidrogeologik sharoitlarni hisobga olgan holda ularni sug'orish sonini, muddatlarini va me'yorlarini aniqlashga qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish rejimi deyiladi.

O'simliklar talabiga va o'tkazilayotgan agrotexnikaga ko'ra sug'orish rejimini to'g'ri belgilash uchun ularni suvga bo'lgan umumiy chtiyojini bilish zarur. Suvga bo'lgan umumiy ehtiyojni ehtiyoj koeffitsiyenti va rejalashtirilgan hosilga ko'ra aniqlanadi va u 1 s hosilni etishtirish uchun sarflanadigan suv miqdorini bildiradi ( $m^3/s$ ).

Ekinlarni suvga bo'lgan umumiy ehtiyoji quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$E=I \cdot K_t$$

bu yerda  $E$  – suvga bo'lgan umumiy ehtiyoj,  $m^3/ga$ ;

$I$  – rejalashtirilgan hosildorlik,  $s/ga$ ;

$K_t$  – suvga bo'lgan ehtiyoj koeffitsiyenti,  $m^3/s$ .

Masalan, rejalashtirilgan hosildorlik ( $I$ ) 35  $s/ga$ , suvga bo'lgan ehtiyoj koeffitsiyenti ( $K_t$ ) 200  $m^3/s$  bo'lsa, suvga bo'lgan umumiy ehtiyojini hisoblang:

$$E=I \cdot K_t \cdot 35 \cdot 200 = 7000 m^3/ga$$

**Topshiriq-1.** Rejalashtirilgan hosildorlik 30, 34, 45  $s/ga$  va suvga bo'lgan ehtiyoj koeffitsiyenti tegishli ravishda 210, 196 va 172  $m^3/s$  bo'lgan sharoit uchun umumiy suvga bo'lgan ehtiyojni hisoblang.

Ma'lumki, hosildorlik ko'payishi bilan suvga bo'lgan umumiyl ehtiyoj koeffitsiyenti kamayib boradi.

Ekinlarini mavsumiy sug'orish me'yorni hisoblashda iqlim, gidrogeologik sharoitlar va tuproq unumdarligini belgilovchi tuzatish koeffitsiyentlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun V.E. Eremenko tomonidan ishlab chiqilgan formuladan foydalaniladi:

$$M = I \cdot K_t \cdot 3 \cdot K_i$$

bu yerda

*I – mintaqoviy iqlim koeffitsiyenti (shimoliy iqlim mintaqasi uchun 0,80, markaziy iqlim mintaqasi uchun – 1,00 va janubiy iqlim mintaqasi uchun 1,15);*

*i – tuproqning umumdarlik koeffisienti (0,90-0,92);*

*K – gidrogeologik koeffisient (sizot suvlari 3-3,5 m dan pastda joylashgan yerlar uchun 1; 2-3 m chugurlikda bo'lsa -0,85; 1-2 m da 0,60; 1 m gacha chugurlikda bo'lsa -0,40 ga teng);*

*K<sub>t</sub> – ekinlarning transpiratsiya koeffisienti.*

**Topshiriq-2.** Shimoliy, markaziy va janubiy iqlim mintaqalarini yuqori unumdar tuproqlarida parvarish qilinayotgan g'o'zaning rejalashtirilgan hosidorligi 30,0; 32,0 va 42,0 s/ga, suvga bo'lgan ehtiyoj koeffitsiyenti 200, 180 va 162 m<sup>3</sup>/s, sizot suvlari chugurligi 2,7 m bo'lsa, g'o'zani umumiyl suvga bo'lgan ehtiyojini hisoblang.

Qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish rejimlarini aniqlashda mavsumiy va bir galik me'yorni alohida hisoblanadi. Ekinlarni mavsumiy sug'orish me'yori deganda 1 ga maydonga mavsum davomida beriladigan jami suv miqdori tushuniladi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M_n = E \cdot 10 \cdot a \cdot P \cdot (W_b - W_o) \cdot W_{ss},$$

bu yerda

*M<sub>n</sub> – mavsumiy sug'orish me'yori, m<sup>3</sup>/ga;*

*E – suvga bo'lgan umumiyl ehtiyoj, m<sup>3</sup>/ga;*

*P – mavsum davomida tushadigan yog'in miqdori, mm;*

*10-millimetrik hisobidagi yog'inni kubometrga o'tkazish uchun ko'paytuvchi;*

*a – yog'in suvlaridan foydalanish koeffitsiyenti (shimoliy va markaziy iqlim mintaqalarida 0,85, janubda 0,40-0,60 ga teng);*

*W<sub>b</sub> – mavsum boshida hisobiy qatlamdagagi nam miqdori, m<sup>3</sup>/ga;*

*W<sub>o</sub> – mavsum oxirida hisobiy qatlamdagagi nam miqdori, m<sup>3</sup>/ga;*

*W<sub>s s</sub> – mavsum davomida sizot suvlarni ildiz tarqalgan (hisobiy) qatlama ga kelish miqdori (gidrogeologik rayonlarga ko'ra suvga bo'lgan umumiy ehtiyojni 60 foizgacha), m<sup>3</sup>/ga.*

Yog'ingarchilik miqdori ko'p yillik meteorologik ma'lumotlardan olinadi.

**Topshiriq-3.** Agar suvga bo'lgan umumiy ehtiyoj (E) 7829 m<sup>3</sup>/ga, yog'in miqdori (P) 100 mm, u'ardan foydalanish koeffitsiyenti (a) 0,5 mavsum boshida tuproqdag'i nam miqdori (W<sub>b</sub>) 2840 m<sup>3</sup>/ga, mavsum oxirida (W<sub>o</sub>) 2100 m<sup>3</sup>/ga va sizot suvlardan foydalanadigan miqdor (W<sub>s s</sub>) 1160 m<sup>3</sup>/ga bo'lsa janubiy iqlim mintaqasi uchun g'o'zani mavsumiy sug'orish me'yorini hisoblang.

$$M_n = E - 10 \cdot a \cdot P - (W_b - W_o) - W_{s s} = 7829 - 10 \cdot 0,5 \cdot 100 - (2840 - 2100) - 1160 = \\ = 5779 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Mavsumiy sug'orish me'yorini sug'orish tarmog'idagi suv isrofgarchiligini hisobga olgan holda aniqlash talab etilsa unda, tarmoq boshidagi suv sarfini (M brutto) tarmoqning foydali ish koeffitsiyentiga bo'lish kerak.

Masalan:

$$M \text{ netto} - 5779 \text{ m}^3/\text{ga}$$

$$\eta - 0,70$$

$$M \text{ brutto} - ?$$

$$M_{\text{brutto}} = \frac{M_{\text{netto}}}{\eta} = \frac{5779}{0,70} = 8255 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

**Topshiriq-4.** Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra kuzgi bug'doyni mavsumiy sug'orish me'yorini hisoblang: Suvga bo'lgan umumiy ehtiyoj – 5100 m<sup>3</sup>/ga, mavsumdag'i yog'in miqdori – 106 mm, yog'in suvlardan foydalanish koeffitsiyenti – 0,80, mavsum boshida tuproqdag'i nam miqdori – 2780 m<sup>3</sup>/ga, mavsum oxirida esa – 1860 m<sup>3</sup>/ga. Sizot suvlari chuqurligi 1 m (demak, sizot suvlarni ildiz tarqalgan qatlama ga kelib tushadigan miqdori E ni 60%ini tashkil etadi).

Tuproqda optimal me'yorda nam toplash maqsadida bir gektar ekin maydoniga bir marta berilgan suv miqdoriga ekinlarni su-g'orish me'yori deb ataladi. Ekinlarning sug'orish me'yori uni ildiz tizimi tarqalgan aktiv chuqurlikdag'i namlik yetishmovchiligidan kelib chiqib hisoblanadi. O'simlik o'sib rivojlangan sari ildizi tuproqqa chuqurroq

tarqaladi, shu bilan birga tuproqning ildiz foydalana oladigan qatlami chuqurlashadi. Masalan, g'oz za gullashgacha ildizi tuproqqa 50-70 sm, gullash-ko'sak tugish davrida 100 sm dan ortiq chuqurga kirib boradi. Sug'orish me'yорини hisoblaganda ana shu chuqurlikdagi namlik zahirasi etishmovchiligidan kelib chiqib yondoshiladi. Ana shundan kelib chiqib g'oz za uchun hisobiyl qat-lam shonalash fazasida ~ 50 sm, gullash va kusak tugish davrining boshida 70-100 sm hamda ko'saklarni ochilish davrida 100 sm qilib belgilash talab etiladi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish me'yori professor S.N.Rijov tavsija etgan formula yordamida hisoblab chiqiladi.

$$m=100 \cdot h(A-B)+K$$

bu yerda  $m$  – ekinlarni sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ ;

$A$  – tuproqning dala nam sig'imi, hajmga nisbatan % hisobida;

$B$  – sug'orishdan oldin tuproqning haqiqiy namligi, hajmga nisbatan % hisobida.

$h$  – tuproqning hisobga olanadigan chuqurligi, sm

$K$  – sug'orish davomida suvni bug'lanishga sarf bo'lishi, me'yori umumiy suvning 5-10 %ga tengdir.

Sug'orma dehqonchilik rivojlangan mamlakatlarda ckinlarning bir galgi sug'orish me'yorlari quyidagi formula bo'yicha aniqlash yo'lga qo'yilgan.

$$d=(FC \cdot M_{bl}) \cdot Ai \cdot Di \cdot n$$

bu yerda  $d$  – ekinlarni bir galgi sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ ;

$FC$  – tuproqning cheklangan nam sig'imi, %;

$M_{bl}$  – sug'orishlardan oldingi tuproq namligi, %;

$Ai$  – tuproqning zichligi,  $g/sm^3$ ;

$Di$  – namlanish chuqurligi, sm;

$n$  – tuproq qatlamlari soni.<sup>12</sup>

Topshiriq-5. Quyidagi ma'lumotlar asosida g'oz zani sug'orish me'yорини hisoblab chiqing.

$A = 27,9\%$

$B = 20,2\%$

$h = 100$  sm

$K = 10\%$

$$m=100 \cdot h(A-B)+K \cdot 100 \cdot (27,9-20,2)+K=847 m^3/ga.$$

<sup>12</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Somasundaram E. A textbook of Agronomy 2010. p. 358.

Shunday qilib, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish me'yorini aniqlash uchun tuproqning dala nam sig'imi, sug'orishdan oldingi namlikni ruxsat etiladigan qiymatini va hisobiy chuqurlikni bilish talab etiladi (44-jadval).

44-jadval

**Tuproqarning suv-sizik xususiyatlari**

Tuproqlar	Dala nam sig'imi, og'irlilikka nisbatan %	Hajm massasi, t/m <sup>3</sup>	Dala nam sig'imi, hajmga nisbatan %	Sug'orishdan oldingi namlik, hajmga nisbatan %
Og'ir tuproqlar	26	1,5	39,0	27,3
O'rtacha suglinik tuproqlar	23	1,3	29,9	21,2
Qumoq tuproqlar	17	1,1	18,7	13,1

Topshiriq-6. Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha g'o'zani sug'orish me'yorini hisoblang: gullah fazasida hisobiy qatlam qaliligi – 0,7 m, tuproq hajmiy massasi – 1,24 t/m<sup>3</sup>, dala nam sig'imi og'irlilikka nisbatan 25,1% va sug'orishdan oldingi namlik og'irlilikka nisbatan 14,9%. Sug'orishda bo'ladigan suv isrofgarchiligi – 10%.

O'simliklarni sutkalik o'rtacha suv sarfi uning hosildorligiga bog'liq bo'lgan holda rivojlanish fazalari bo'yicha turlichadir. Bu jarayon mavsum boshidan ortib borib, eng yuqori ko'rsatkichiga gullah va meva to'gish davrida erishilib, undan so'ng sekin kamayib boradi.

Topshiriq-7. Bir yil davomida o'tkazilgan sug'orish natijasida dalaga 1000 m<sup>3</sup> suv berilgan (m netto) va kunlik o'rtacha suv sarfi 74,4 m<sup>3</sup>/ga (V) bo'lsa, berilgan suv necha kunga yetishi mumkinligini (T) quyidagicha aniqlanadi:

$$T = \frac{m_{netto}}{V}$$

bu yerda  $m_{netto}$  – sug'orish me'yori, m<sup>3</sup>/ga;  
 $V$  – o'rtacha suv sarfi, m<sup>3</sup>/kunga.

Demak,

$$T = \frac{m_{\text{neto}}}{V} = \frac{1000}{74,4} = 14 \text{ km}$$

1 – yulda berilgan suv 14 kunga yetishini hisobga olsak, keyingi suv 14 – iyulda berilishi kerak. Yuqoridagi formuladan sizot suvlari 3-3,5 metrdan chuqur joylashgan yerlarida foydalanish mumkin. Sizot suvlari yer betiga yaqin joylashgan yerlarida gidrogeologik koeffitsiyenti ( $K$ ) ham hisobga olish kerak bo'ladi. Sizot suvlari 1-2 metr chuqurlikda joylashgan tuproqlarda gidrogeologik koeffitsiyent 0,6 ga teng, bunda sug'orishlar orasidagi davr:

$$T = \frac{m_{\text{neto}}}{V \cdot K} = \frac{1000}{74,4 \cdot 0,6} = 22 \text{ km}.$$

Demak, bunday sharoitda keyingi suv 22 iyulda o'tkazilishi kerak.

**Topshiriq-8.** Sizot suvlari 3,5 m chuqurlikda joylashgan yerlarida g'ozani shonalash fazasida kunlik o'rtacha suv sarfi ( $V$ ) 30-44  $\text{m}^3/\text{ga}$ , gullash-ko'sak to'gish davrida – 68-70  $\text{m}^3/\text{ga}$  va pishish davrida 26 – 40  $\text{m}^3/\text{ga}$ , sug'orishlarning bir galgi me'yordi shu davrlarga tegishli ravishda 960, 1010 va 750  $\text{m}^3/\text{ga}$  bo'lsa, sug'orishlar orasidagi davrlarni hisoblab chiqing.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Ekinlarni sug'orish rejimi qanday omillar ta'sirida o'zgaradi?
2. Ekinlarning mavsumiy sug'oriy me'yori nima?
3. Sug'oriy me'yori qaysi formula yordamida aniqlanadi?
4. Sug'orish me'yoriga ta'sir etuvchi omillar.

### 23-MASHG'ULOT FERMER XO'JALIKLARIDA SUVIDAN FOYDALANISH REJASINI TUZISH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar fermer xo'jaliklarida ekinlarni sug'orish uchun xo'jalik suvidan foydalanish rejasini tuzishni o'rjanadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLARI:** *Ekinlarni sug'orish tartibi jadvali, sug'orish tarmoqlari foydali ish kofisienti.*


**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Suvidan foydalanish rejasini asosiy maqsadi xo'jalik sug'orish tarmoqlardan to'g'ri foydalanish, mavjud suv manbalaridan ekinlarni sug'orishda yuqori samaraga erishish, ularni isrofgarchiligiga yo'l qo'ymaslik va nihoyat

kam mehnat va moddiy xarajatlar evaziga yuqori hamda sifatli hosil yetishtirish asoslarni yaratishdan iboratdir.

Suvdan foydalanish rejasini ishlab chiqarish moliya rejasini bilan bir vaqtida tuzilib, uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning bosh vazifasi - yerga ishlov berish va o'simliklarni parvarishiga doir ishlar bilan muvafiqlashtirilgan holda sug'orishni tashkil etish va amalga oshirishdir.

Suvdan foydalanish rejasini tuzish uchun xo'jalikning yoki mavjud fermer xo'jaliklarining 1:10000 mashtabli plani, tuproq meliorativ va gidromodul jihatdan rayonlashtirishning 1:10000 yoki 1:25000 mashtabli xaritasi, parvarishlanayotgan ekinlar uchun sug'orish rejimi vedomosti va sug'orish gidromoduli grafigi asos bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik planida sug'orish tarmoqlari, suv olish, o'lchash va taqsimlash inshaotlari sug'oriladigan paykallar chegaralari, ekinlarning joylashishi tartibi va ularning maydoni, yo'llar, ixota daraxtlari, taqsimlagichlarning suv o'tkazish qobiliyatini va foydalish koeffisentlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

**Topshiriq:** Quydagi ma'lumotlar asosida xo'jalik suvdan foydalanish rejasini tuzib chiqing. Xo'jalik Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani VI-gidromodul rayonda joylashgan, uning umumiyligi maydoni 50 ga va ekinlarni sug'orish rejimi vedomosti 45-jadvalda keltirilgandek bo'lsin (soviq O'zPITI tavsiyasi).



55-rasm. Manbadan fermer xo'jaliklariga suv taqsimlash.

Bu malumotlar asosida xo'jalikda suvdan foydalanish rejalarhtiriladi, yani talab qilinayotgan dekadalik suv miqdorlari hisoblab chiqiladi (45-jadval). Ekinlarning yuqorida qabul qilingan sug'orish rejimi buyicha har bir dekadada sug'orilishi kerak bo'lган maydoni ( $F_1$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$F_1 = \frac{F_{um}}{t} \cdot t_1$$

Bu yerda:  $F_{um}$  - ekini umumiyl maydoni, ga

$t$  - har bir sug'orishning davomiyligi, sut.

$t_1$  - ekinni dekadada sug'orish davomiyligi, sut.

Topshiriq bo'yicha kuzgi bug'doyning umumiyl maydoni ( $F_{um}$ ) 17 ga, birinchi-sug'orish davomiyligi 4 kun bo'lsa, noyabrning birinchi-dekadasida sug'orilishi kerak bo'lган maydon quyidagiga teng bo'ladi:

$$F_1 = \frac{17}{4} \cdot 4 = 17 \text{ ga}$$

Birinchi sug'orish me'yori ( $M_1$ )  $900 \text{ m}^3/\text{ga}$  bo'lganligidan, 17 ga maydon ( $F_1$ ) uchun talab qilinayotgan suv sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{um} = F_1 \cdot m_1 = 17 \cdot 800 = 13600 \text{ m}^3.$$

#### 45-jadval

#### Qishloq xo'jalik ekinlarni sug'orish rejimi qaydnomasi

Ekin turri	Sug'orish sxemasi va umumiyl me'yori, $\text{m}^3/\text{ga}$	Sug'orish	Sug'orish muddati		Sug'orish davomiyligi, kun
		me'yori, $\text{m}^3/\text{ga}$	-dan	-gacha	
G'o'za 30 ga	1-3-1, 6200	1200	11.VI	16.VI	6
		1300	26.VI	1.VII	7
		1300	11.VII	16.VIII	7
		1200	25.VIII	31.VIII	7
		1200	11.VIII	16.VIII	6
Bug'doy 17 ga	1-2-1, 3600	800	1.XI	4.XI	4
		900	1.IV	5.IV	5
		1000	15.IV	19.IV	4
		900	30.IV	4.V	5
Makka- jo'xori 3 ga	5, 4800	900	11.V	12.V	2
		1000	26.V	27.V	2
		1000	17.VI	18.VI	2
		1000	3.VII	5.VIII	3
		900	21.VII	22.VII	2

Umumiy talab etayotgan suv sarfi ( $Q_{um}$ ) asosida har sekundda talab etilayotgan suv sarfi ( $Q_{um}$ ) qo'yidagicha hisoblanadi.

$$Q_{um} = \frac{Q_{um}}{\eta_{R-7-2}} = \frac{13600}{4,86,4} = \frac{1360}{345,6} = 39,3 \text{ l/sek.}$$

Demak, noyabr oyining birinchi dekadasining dastlabki 4 kunida 17 ga kuzgi bug'doyni har gektariga  $800\text{m}^3$  me'yorida sug'orish uchun xo'jalikka R-7-2 taqsimlagichi orqali har sekundda 39,3 l/sek suv oqib turishi kerak. Bu davrda xo'jalikdagi g'o'za va makkajo'xori sug'orilmaydi. Noyabr oyining birinchi dekadasini dastlabki 4 kunida talab qilinayotgan jami suv miqdori ( $Q_{nt}^{um}$ ) quydagiga teng:

$$Q_{nt}^{um} = Q_{nt} * Q_{nt} * Q_{nt} = 39,3 * 0 * 0 = 39,3 \text{ l/s.}$$

Xo'jalik suv taqsimlagich (R-7-2) ning foydali ish koeffitsiyenti ( $\eta_{R-7-2}$ ) 0,70 ga teng bo'lsa, ko'rsatilgan shu muddatda suv manbaidan taqsimlanishi lozim bo'lgan suv miqdori ( $Q_{br}^{um}$ ) ni hisoblash kerak:

$$Q_{br}^{um} = \frac{Q_{nt}^{um}}{\eta_{R-7-2}} = \frac{39,3}{0,70} = 56,1 \text{ l/sek.}$$

Shunday qilib, noyabr oyining birinchi dekadasini dastlabki 4 kunida 17 ga kuzgi bug'doyni sug'orish uchun R-7-2 taqsimlagichiga 56,1 l/sek suv taqsimlanishi kerak, bu esa xo'jalikda dekada bo'yicha har sekunda 56,1 litrdan suv oqib turishi va har bir ekin turining sug'orish rejimini hisobga olgan holda shu muddatda zaruriy suv bilan taminlash imkoniyatini yaratadi.

Ana shu hisoblash taritibida ushbu fermer xo'jaligidagi g'o'za va makkajo'xori uchun dekadalik sug'orilishkerak bo'lgan ekin maydoni, har bir ekin turi uchun talab qilinayotgan umumiy suv sarfi, har sekunda talab etiladigan suv miqdori va barcha ekinlar uchun jami suv sarfi hisoblab chiqiladi (46-jadval).

Suvdan foydalanish rejasining bajarilishi doim nazorat qilib borilishi kerak. Bunda asosiy ko'rsatichlardan biri, bu suvdan foydalanish koeffitsiyentidir. Suvdan foydalanish koeffitsiyenti (SFK) har 5-10 kun, oy yoki mavsum davri uchun aniqlanadi. Sug'orish texnikasi elementlarining noto'g'ri tanlanishi, suvni chuqur qatlamlariga

## Xo‘jalikda ekinlarni sug‘orish uchun talab qiliňayotgan dekadalik suv miqdortari qaydnomasi

Sug‘orish tarin. va F.J.K.	Ekin turri sug‘orish sxemasi	May-doni ga	Ko‘rsat- kichlar	Noyabr				April				May			
				1	2	3	1	2	3	1	2	1	2	3	
K-7-2, 0,70	g’oz 1-3-1 6200 m <sup>3</sup> /ga	30	t <sub>1</sub> F <sub>1</sub> Q <sub>um</sub> m <sup>3</sup> /ga ming	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
Kuzgi hug‘dog	17	t <sub>1</sub>	F <sub>1</sub> Q <sub>um</sub> m <sup>3</sup> /ga ming	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
1-2-1 3600 m <sup>3</sup> /ga				17	0	0	17	17	0	17	0	0	0	0	0
Mahkoxon	3			13600	0	0	15300	17000	0	15300	0	0	0	0	0
S				39,3	0	0	35,4	49	0	35,4	0	0	0	0	0
4800 m <sup>3</sup> /ga				t <sub>1</sub> F <sub>1</sub> Q <sub>um</sub> m <sup>3</sup> /ga ming	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
Jami	50			Q <sub>ut</sub> /sek Q <sub>um</sub> /sek Q <sub>or</sub> um /sek	0	0	0	0	0	0	0	0	15,6	17,3	
					39,3	0	0	35,4	49	0	35,4	15,6	17,3		
					56,1	0	0	50,5	70	0	50,5	22,3	25,0		

46-jadvalning davomi'

Sug'orish zarm. va F.I.K.	Ekin tur'i, sug'orish sxemasi	May- domi, ga	Ko'rsat- kichlar	Iyun				Iyul				Avgust			
				1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
R-7-2 0,70	g'or'za 1-2-i	30 6200 m <sup>3</sup> /ga	Q <sub>un</sub> m <sup>3</sup> /ga ming	6 30 36000	7 30 39000	7 30 39000	6 30 36000	7 30 36000	7 30 36000	0 0 0	0 30 36000	0 0 0	6 30 36000	0 0 0	0 0 0
Kuzgi bug'doy 1-2-1	17 3660 m <sup>3</sup> /ga	Q <sub>un</sub> m <sup>3</sup> /ga ming	Q <sub>na</sub> l'sek ming	69,5 0 0	64,4 0 0	64,4 0 0	59,5 0 0	59,5 0 0	59,5 0 0	69,5 0 0	69,5 0 0	69,5 0 0	0 0 0	0 0 0	
Makkajo'xor i	3 5 4800 m <sup>3</sup> /ga	Q <sub>na</sub> l'sek ming	F <sub>1</sub> Q <sub>un</sub> m <sup>3</sup> /ga ming	0 0 0	0 2 3	0 0 3	0 0 3	0 2 3	0 0 3	0 0 3	0 0 3	0 0 3	0 0 0	0 0 0	
Jami	50	Q <sub>na</sub> l'sek	Q <sub>or</sub> un l'sek	17,3 86,8 124	0 64,4 92	11,6 11,6 16,5	15,6 80 114,2	0 0 92	0 0 0	0 0 0	0 0 0	0 0 0	0 0 0	0 0 0	

singib isrof bo'lishi va oqovaning ko'payish oqibatida SFK pasayib ketadi, bu tuproqning meliorativ ahvolini yomonlashuviga olib keladi.

Amalda SFK 0,9-1,1 ga teng bo'lsa xo'jalikda suvdan yaxshi foydalanilayotganligini ko'rsatadi. SFK quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$SFK = \frac{W_a}{W_b},$$

bu yerda  $W_a$  – dekada davomida amalda sug'orilgan maydon, ga

$W_b$  – dekada davomida beriladigan suv bilan sug'orish mumkin bo'lgan hisobiy maydon, ga.

Masalan, dekadada berilgan suv bilan sug'orish mumkin bo'lgan maydon 100 ga bo'lib, amalda shu suv bilan 80 ga, yer sug'orilgan bo'lsa, suvdan foydalanish koeffitsiyentini tashkil qiladi, yani taqsimlangan suvning 20%si istof bo'lgan.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Suvdan foydalanish rejasini tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Ekinlarni sug'orish rejimi vedomostida qaysi ko'rsatkichlar o'rinn oladi?
3. Suvdan foydalanish rejası qaysi muddatga tuziladi?
4. Dekadalik suv sarfi nima?

### 24-MASHG'ULOT SUG'ORISH GIDROMODULI GRAFIGINI TUZISH

1. **ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tabaqalashtirilmagan va tabaqalashtirilgan sug'orish gidromoduli grafigini tuzishni o'ganadilar.

2. **KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Ekin turlari bo'yich sug'orish tartiblari jadvali, mavzuga tegishli formulalar.*

3. **ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Ekinlarni mo'tadil sug'orish rejimi va suvgaga bo'lgan umumiy talabiga aniqliklar kiritish va sug'orish tarinoqlarining suv o'tkazish qobiliyatini hisoblash maqsadlarida sug'orish gidromoduli grafigi tuziladi.

Sug'orish gidromoduli (q)-bu bir hektar maydonga 1 sekunda beriladigan litr hisobidagi suv miqdori bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$d = \frac{m}{86,4 \cdot t} l/s.ga,$$

bu yerda  $q$  - *sug'orish gidromoduli; l/s ga;*

$m$  - *sug'orish me'yori, m³/ga;*

$t$  - *sug'orishning davomiyligi, kun.*

Ayrim ekin turi uchun keltirilgan sug'orish gidromoduli quyidagicha aniqlanadi:

$$d = \frac{a \cdot m}{86,4 \cdot t} l/s.ga,$$

bu yerda  $a$  - *ekining turi;*

$m$  - *shu ekinning sug'orish me'yori, m³/ga;*

$t$  - *sug'orishlarning davomiyligi, kun.*

Agar sug'orishlar kecha-kunduz amalga oshirilsa, unda formuladagi 86,4 ning o'runga 3600 n t sonini qo'yish kerak bo'ladi. Bu yerda: n t - bir kundagi sug'orish davomiyligi (soat hisobida).

Sug'orish gidromoduli grafigini tuzish uchun fermer xo'jaligidagi barcha ekinlarning sug'orish rejimi vedomosti tuzilishi kerak. Sug'orish vedomosti iqlim mintaqalari va gidromodul rayonlar bo'yicha tavsiya etilgan soviq O'zPITIning hisobiy sug'orish rejimlari asosida tuziladi (47-jadval).

47-jadval

### Ekinlarini sug'orish rejimi davdomasi va sug'orish gidromodulli

Sug'orishlarning tartib soni	Sug'orish me'yori m³/ga	Sug'orish muddati		Sug'orishlarining o'rta-cha kuni	Sug'orish davomiyligi, kun	Sug'orishlar orasidagi davr, kun	Sug'orish gidromodulli l/s.ga
		-dan	-gacha				
<b>I. G'o'za (almashlab ekishdag'i o'mi 70%, Mn= 7300 m³/ga)</b>							
1	900	16.V	25.V	20.V	10	-	1.02 5
2	1000	11.VI	20.VI	15.VI	10	25	1.15 0
3	1100	26.VI	5.VII	30.VI	10	15	1.27 0.89
4	1200	11.VII	20.VII	15.VII	10	15	1.40 0.97
5	1200	26.VII	4.VIII	30.VII	10	15	1.40 0.97
6	1000	10.VIII	19.VIII	14.VIII	10	15	1.15 0.81
7	900	25.VIII	3.IX	29.VIII	10	15	1.025 0.72

II. Beda (almashlab ekishdag'i o'mi 20%, Mn=11200 m <sup>3</sup> /ga)								
1	1200	13.IV	22.IV	17.IV	10	-	1.40	0.28
2	1400	6.V	15.V	10.V	10	22	1.60	0.32
3	1400	15.V	3.VI	29.V	10	18	1.60	0.32
4	1400	14.VI	23.VI	18.VI	10	17	1.60	0.32
5	1400	29.VI	8.VII	3.VIII	10	17	1.60	0.32
6	1200	16.VII	25.VII	20.VII	10	17	1.40	0.29
7	1200	29.VII	7.VIII	2.VIII	10	13	1.45	0.28
8	1000	20.VIII	29.VIII	24.VIII	10	21	1.5	0.10
9	1000	4.IX	13.IX	8.X	10	14	0.5	0.10
III. Makkajo'xori (almashlab ekishdag'i o'mi 10%, Mn=8200 m <sup>3</sup> /ga)								
1	1000	10.V	15.V	12.V	6	-	1.9	0.19
2	1000	31.V	5.VI	2.VI	6	24	2.3	0.23
3	1400	22.VI	27.VI	24.VI	6	24	2.6	0.26
4	1400	2.VII	8.VII	5.VII	6	14	2.6	0.26
5	1200	12.VII	17.VII	14.VII	6	9	2.3	0.23
6	1000	20.VII	26.VII	23.VII	6	9	1.9	0.19
7	1000	27.VII	3.VIII	29.VII	6	6	1.9	0.19

Jadvalda keltirilgan sug'orish gidromoduli kattaliklarini milimetrli qog'ozga o'tkaziladi. Bunda ordinata o'qiga sug'orish gidromoduli kattaliklari (1 sm - 0,1 l/s.ga) va absissa o'qiga vaqt kattaliklari (1 mm - 1 kun) joylashtiriladi. Agar bir necha ekinlarning sug'orish muddatlari bir-biriga to'g'ri kelib qolsa, shu ekinlarning sug'orish gidromodullari jamlanadi va grafika ko'rsatiladi.

Ekinlarni aynan hisobiy sug'orish rejimlariga ko'ra tuzilgan sug'orish gidromoduli grafigida sug'orishlar orasida bo'sh vaqtlar bo'lib qolgan va ayrim hollarda suvga bo'lgan talab kam, boshqa hollarda haddan tashqari ortib ketgan. Bu esa o'z vaqtida sug'orishlarni o'tkazishni, sug'orish tizimidan foydalanishni murakkablashtiradi, suvdan foydalanish koeffisenti kamayib ketadi. Shu sababdan bunday sug'orish gidromoduli grafigi tabaqlashtirilmagan deyiladi (4-grafik).

Sug'orish tarmoqlaridan to'g'ri foydalanish va sug'orishni to'g'ri tashkil etish maqsadida bunday gidromodul grafiklari tabaqlashdiriladi.

Sug'orish gidromodul grafigini tabaqlashtirish fermer xo'jaligi asosiy ekinlarni sug'orish me'yorilari, sug'orishlar orasidagi davri, muddatlari va davomiyligiga ayrim o'zgartirishlar kiritish yo'lli

bilan amalga oshiriladi. Bunda g'oz za uchun sug'orish muddatlarini 7-15, beda uchun 4-16 kungacha o'zgartirilishiga ruxsat etiladi. Sug'orishlarning o'rtacha kuniga g'oz za uchun 3-4 kun-ga, mak-kajo'xori va beda uchun 4-5 kunga o'zgartirish mumkin. Bunday o'zgartirishlar kiritish tuproqning namligiga sezilarli darajada ta'sir etmasligi lozim. Ekinlarning sug'orishlar orasidagi davrini 5-7 kungacha o'zgartirish yoki qisqartirish mumkin. Xuddi shu yo'l bilan 47-jadvalda keltirilgan ekinlarning sug'orish rejimiga o'zgartirishlar kiritib, tabaqalashtirilgan sug'orish gidromoduli grafigini tuzish uchun sug'orish rejimi vedomostini olamiz (48-jadval) va u asosida sug'orish gidromodulini tabaqalashtirilgan grafigini tuzaladi (5-grafik).

48-jadval

**Tabaqalashtirilgan sug'orish gidromoduli grafigini tuzish uchun sug'orish rejimi qaydnomasi**

Sug'orishlar ning tartib soni	Sug'orish me'yori m <sup>3</sup> /ga	Sug'orish muddati -dan	Sug'orish larning o'rtacha kuni	Sug'orish davomiyligi, kun	Sug'orishlar orasi-dagi davr, kun	Keltirilgan sug'orish gidromoduli, l/s.ga
<b>I. g'oz (almashlab ekishdag'i o'mni 70%. Mn= 7300 m<sup>3</sup>/ga)</b>						
1	900	15.V	30.V	22.V	16	-
2	1000	7.VI	21.VI	14.VI	15	22
3	1100	27.VI	9.VII	3.VI	13	18
4	1200	10.VII	22.VII	16.VII	13	13
5	1200	23.VII	4.VIII	29.VII	13	13
6	1000	5.VIII	17.VIII	11.VIII	13	13
7	900	21.VIII	2.IX	27.VIII	13	13
<b>II. Beda (almashlab ekishdag'i o'mni 20%. Mn= 11200 m<sup>3</sup>/ga)</b>						
1	1200	16.IV	19.IV	17.IV	4	-
2	1400	9.V	14.V	12.V	6	23
3	1400	31.V	6.VI	3.VI	7	23
4	1400	22.VI	26.VI	24.VI	5	20
5	1400	2.VI	11.VII	6.VIII	10	13
6	1200	10.VII	26.VII	21.VII	10	15
7	1200	1.VIII	10.VIII	5.VIII	10	15
8	1000	18.VIII	20.VIII	19.VIII	3	15
9	1000	3.IX	7.IX	5.X	5	17
<b>III. Makkajo'xori (almashlab ekishdag'i o'mni 10%. Mn= 8200 m<sup>3</sup>/ga)</b>						
1	1000	10.V	15.V	12.V	6	-

2	1000	31.V	5.VI	3.VI	7	22	0.19
3	1400	22.VI	26.VI	24.VI	5	25	0.35
4	1400	2.VII	11.VII	6.VII	10	15	0.17
5	1200	12.VII	16.VII	14.VII	5	15	0.28
6	1000	17.VII	26.VII	21.VII	10	15	0.12
7	1000	27.VII	2.VIII	29.VII	5	15	0.23

Tabaqalashtirilgan sug'orish gidromoduli fermer xo'jaligi dalasidagi ekinlarni sug'orishga berilayotgan suvni deyarli bir hil miqdorlarga keltirishga va sug'orish tarmoqlari F.I.K ini oshirishga imkon beradi. Shuningdek, bu yerda suv manbai rejimini ham xisobga olishimiz kerak va lozim bo'sha ayrim tuzatishlar kiriladi.

Misolda sug'orish gidromoduli grafigining eng ko'p qiymati  $q_{\max} = 0,83 \text{ l/s.ga}$  va eng kam qiymati  $q_{\min} = 0,36 \text{ l/s.ga}$  ekan. Bu qiymatlar sug'orish kanallari suv o'tkazish qobiliyatini loyixalashtirish uchun ham lozimdir. Sug'orish gidromoduli asosida fermer xo'jaligi bo'yicha talab qilinayotgan umumiy suv miqdorini aniqlash mumkin (4-grafik):




4-grafik. Tabaqalashtirilmagan sug'orish gidromodulli grafiki.

$$Q_{ar}^{\max} = q_{\max} \cdot F, \text{ l/s.}$$

Bu yerda:  $q_{\max}$ - keltirilgan sug'orish gidromodulining eng ko'p qiymati, l/s.ga.

F- barcha ekin maydoni, ga.

*q vs. ga*



5-grafik. Tabaqalashtirilgan sug'orish gidromoduli grafik

#### Nazorat uchun savollar:


1. Sug'orish gidromoduli grafigi nima?
2. Gidromodul grafigini tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Sug'orish rejimi vedomostida qaysi ekinlar kiritiladi?
4. Tabaqalashtirilmagan va tabaqalashtirilgan gidromodul grafigi deganda nimani tushunasiz?

### 25-MASHG'ULOT EGATLAB SUG'ORISH TEKNIKASI ELEMENTLARINI HISOBBLASH

1. ISHNING MAQSADI: Bu mashg'ulotda talabalar egatlab sug'orish tekniqasi elementlarini hisoblashda egatlari uzunligi, egatlari orasidagi masofalar, har bir egatga berilayotgan suv miqdori, oqariqlar sonlarini aniqlashni o'rGANADILAR.
2. KERAKLI MA'LUMOTLAR: Egatlab sug'orish tekniqasi elementlarini, hisoblashga tegishli malumotlar va formulalar.
3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI: Qishloq xo'jalik ekinlami egatlab sug'orishda sug'orish sifati egatga beriladigan suvning miqdori, egat uzunligi, egat chuqurligi, egatning kengligi, dalaning nishablik darajasi va suvchining mahoratdan kelib chiqib aniqlanadi.

Egatlab sug'orishda tuproqning namlanish dinamikasi muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi va namlikning harakati quyidagi rasmida ko'rsatilganicha kechadi (56-rasm).

Dehqonchilik amaliyotida tuproq sathidan sug'orish usuli (egatlab, pol olib bostirib) juda keng tarqalgan bo'lib, muhim ahamiyatga egadir. Sug'oriladigan dalaning o'lchami sug'orish tizimining joylashishi va dalaning tekisligiga bog'liq bo'ladi. Joyning nishabligiga ko'ra muvaqat sug'orish tarmoqlari ko'ndalang yoki bo'ylama sxemalarda joylashtiriladi. Shunga ko'ra, daladagi o'q ariqlar, muvaqat tarmoqlar, ular orasidagi masofalar va suv sarfi har xil bo'ladi.




56-rasm. Egatlab sug'orishda tuproqda namlikning harakati:  
a-yengil mexanik tarkibili tuproqlarda; b-o'rtacha mexanik tarkibili  
tuproqlarda; d-og'ir mexanik tarkibili tuproqlarda

Egatlab sug'orish texnikasi elementlariga egatning uzunligi, egatdagi suvning miqdori, egatni jihozlash, qator orasining kengligi, egat chiqurligi kabi ko'rsatgichlar kiradi. Sug'orish texnikasi elementlarning noto'g'ri tanlanishi tuproqning ortiqcha nam bilan ta'mialanishini yoki yetarli darajada nam bilan ta'minlanmasligiga, o'g'itlarning yuvilib ketishi va oqova sarfining ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, suvdan foydalanish koeffitsiyenti va suvchining ishl unumudorligi kamayib ketadi. Shu sababdan sug'orish texnikasi elementlarini to'g'ri tanlash masalasiga alohida etibor qaratmog'i zarur.

Egatga oqizilayotgan suv miqdori tuproqning suv o'tkazuvchanligi, nishablik, qator orasi kengligi va egat uzunligiga qarab 0,1 dan to 2,5 l/s ga qadar bo'ladi. Egatlarga suv oqizish uchun

o'q ariq yoki muvaqqat ariqdagi suv sathi sug'oriladigan dala yuzasidan 5-10 sm baland bo'lishi kerak. Egatlarga suv tarash qog'oz, egiluvchan shlanglar, chim, sifon-naylar yordamiga amalga oshiriladi (47-rasm).

Har bir egatga suv taqsimlash miqdori, qator orasining kengligi, egat uzunligi kabi sug'orish texnikasi elementlari dalaning nishabligi va tuproqning suv o'tkazuvchanligidan kelib chiqib (N.T.Laktaev tavsiyalari) tanlanadi (49-jadval.).



**47-rasm.** O'qariqlardan egiluvchan shlanglar yordamida egatga suv tarash.

Egat uzunligi quyidagi formula yordamida aniqladi:

$$L_e = 10000 \cdot \frac{q_e \cdot t_e}{m \cdot a}, \text{ metr}$$

bu yerda  $L_e$  - egat uzunligi, m;

$m$  - sug'orish me'yori,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;

$q_e$  - egatga suv taqsimlash miqdori, l/s;

$t_e$  - egatga suv taqsimlash davomiyligi, min;

10000-o'zgarmas son;

$a$ -qator orasining kengligi, m.

**Topshiriq 1.**  $q=0,1 \text{ l/s}$ ;  $t=24 \text{ soat}$ ,  $m=900 \text{ m}^3/\text{ga}$ ;  $a=0,9 \text{ m}$ ,  $L=?$ . Dastlab egatga taralgan suvning miqdorini l/sek dan  $\text{m}^3/\text{soatga}$  aylantiriladi.

1 sek - 0,1 litr

$$60 \text{ sek} - x \quad x = \frac{60 \cdot 0,1}{1} = \frac{6}{1} = 6 \text{ l/min.}$$

1 min - 6 litr

$$60 \text{ min} - x \quad x = \frac{60 \cdot 6}{1} = 360 \text{ l/soat. yoki } 0,36 \text{ m}^3/\text{soat.}$$

Endi yuqoridagi formula bilan egat uzunligi hisoblab chiqiladi.

$$l_e = 10000 \cdot \frac{q_e \cdot t_e}{m \cdot a} = \frac{0,36 \text{ m}^3/\text{soat} \cdot 24 \text{ soat}}{900 \text{ m}^3 \cdot 0,9 \text{ m}} = 10000 \cdot \frac{8,64}{810} = 106 = 110 \text{ metr.}$$

49-jadval

**Egatlаб sug'ориш texnikasi elementлari (Laktaev N.T tavsiyalarи)**

Joyning nishabligi	Tuproqning suv o'tkazuv-chaaligi	Qator orasi ning kengligi (a), m	Egat uzunligi (L <sub>e</sub> ) m	Egat-dagi suv miqdori (q <sub>e</sub> ) l/s	Qator orasi kengligi (a), m	Egat uzunligi (L <sub>e</sub> ), m	Egat-dagi suv miqdori (q <sub>e</sub> )
	Kuchli	0,6	100	0,5			
	Yuqori		125	0,25			
	O'rtacha		200	0,25			
0,01							
0,025-0,0075	Yomon		200	0,1			
	Kuchsiz		200	0,05			
	Kuchli		175	0,75			
	Yuqori		275	0,85			
0,005							
0,0075-0,0025	O'rtacha	0,6	325	0,5	0,9	450	0,5
	Sust		400	0,25		450	0,25
	Kuchsiz		375	0,1		400	0,1
	Kuchli		225	1,5		-	-
	Yuqori		300	1,0		450	1,2
0,00175							
0,0025-0,0011	O'rtacha	0,6	350	0,5	0,9	600	0,75
	Sust		425	0,25		650	0,35
	Kuchsiz		400	0,1		550	0,15

Egatga suv taqsimlash miqdori sug'orish texnikasi elementlari ichida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q_e = 1,28 \cdot h \cdot \sqrt{i}$$

bu yerda *i*-egat tubining nishabligi:

*h*-egatning suv to'lish chuqurligi (sm) bo'lib, u

$$h=0,6H-2\Delta \text{ ga teng.}$$

bu yerda *0,6-qator orasi kengligi, m*:

*H*-egatning umumiy chuqurligi, sm:

$\Delta$ -dala yuzasining tekislanganlik darajasi (loyihaga nisbatan qancha sm farq qilishi).

Dalaning tekislanganlik darajasi  $\pm 2-3$  sm dan ortiq farq qilmasligi kerak. Dalaning tekislashdagi farq bo'yicha egatning suv to'lish chuqurligi turlicha bo'ladi (50-jadval).

50-jadavl

### Dalaning tekislanganlik darajasiga ko'ra egatning suv to'lish chuqurligi (Rijov S.N. ma'lumoti)

Qator orasining kengligi	Egatning umumiy chuqurligi, sm	Tekislanganlik darajasiga ko'ra egatning suv to'lish chuqurligi		
		$\pm 3$ sm	$\pm 4$ sm	$\pm 5$ sm
60	18	8	7	6
90	27	13	12	11

**Topshiriq 2.** Agar g'o'za qator orasining kengligi 60 sm, sug'oriladigan dalaning bo'ylama nishabligi 0,001 ga teng bo'lsa va tekislanganlik darajasi  $\pm 3$  sm ga farq qilsa, egatga suv taqsimlash miqdorini hisoblang.

Yechish: 50-jadval malumotlariga ko'ra bunday sharoitda egatga 8 sm qalinlikda suv berish mumkin. Shunga ko'ra, egatdagi suvning miqdori quydagiga teng:

$$q_e = 1,28 \cdot h \cdot \sqrt{i} = 1,28 \cdot 8 \cdot \sqrt{0,001} = 1,28 \cdot 8 \cdot 0,0316 = 0,32 \text{ l/s.}$$

Egatga suv berish davomiyligi sug'orish me'yori, egat uzunligi, qator orasining kengligi va egatga suv taqsimlash miqdoriga bog'liq bo'lib, u quydagicha hisoblanadi:

$$t_e = \frac{0,0001 \cdot m \cdot l_e \cdot a}{3600 \cdot q_e}, \text{ soat.}$$

O'qariqning uzunligini topish uchun dalaning enini shu daladagi muvaqat ariqlar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, yani:

$$B_{oq} = \frac{B_{dala}}{n_{ma}}, m.$$

bu yerda  $B_{dala}$  – dalaning eni, m;  
 $n_{ma}$  – muvaqat ariqlar soni.

**Topshiriq 3.** Dalaning eni 288 m, g'ozza qator orasining kengligi 0,9 m muvaqat ariqlar soni 3 ta bo'lsa, o'q ariq uzunligi va har bir o'q ariqdagi egatlar soni hisoblansin.

Yechish: O'qariq uzunligi quydagicha hisoblanadi:

$$B_{oq} = \frac{B_{dala}}{n_{ma}} = \frac{288}{3} = 96 \text{ m.}$$

Demak, dalaning eni bo'yicha uchta, har biri 96 m dan bo'lgan o'q ariq olinadi. Har bir o'qariqqa to'g'ri keladigan egatlar soni quydagicha aniqlanadi:

$$n_e = \frac{B_{oq}}{a} = \frac{96}{0,9} = 106 \text{ ta}$$

Sug'orish tarmoqlarini joylashtirishning ko'ndalang sxemasida ariqnning suv sarfi 40 l/s, dan va bo'ylama sxemasida 60 l/s dan ko'p bo'lmasisligi kerak, aks holda suvchi undan unumli foydalana olmaydi.

**Topshiriq 4.** Sug'oriladigan dalaning uzunligi 480 m, eni 240 m, g'ozani sug'orish me'yori 1000 m<sup>3</sup>/ga va har bir egatga taqsimlanadigan suv miqdori 0,75 l/s, qator orasi 90 sm, sug'orish 2 kundan ortiq davom etmasligi kerak bo'lsa, sug'oriladigan dalaning maydonini va egat sonimi hisoblang.

Yechish: birinchi navbatda sug'oriladigan dalaning maydonini hisoblash kerak:

$$W_{ma} = 480 \cdot 240 = 115200 \text{ m}^2 \approx 11,52 \text{ ga.}$$

Demak, muvaqat ariqqa biriktirilgan maydon 11,52 ga ga teng.

Mazkur dalani sug'orish 2 kundan ortiq davom etmasligini hisobga olgan holda muvaqat ariqdan talab etilayotgan suv miqdori hisoblanadi:

$$Q_{ma} = \frac{W_{ma} \cdot m}{86,4 \cdot t_{ma}} = \frac{11,52 \cdot 1000}{86,4 \cdot 2} = 66,7 \text{ l/s}$$

Har bir egatga taqsimlanadigan suv miqdorini 0,75 l/s, deb olsak bir vaqtida suv taqsimlanadigan egatlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n_e = \frac{Q_{max}}{q_e} = \frac{66,7}{0,75} = 89 \text{ egat.}$$

**Topshiriq 5.** G'eo'za dalasining eni 150 m. uzunligi 400 m. sug'orish me'yori 900 m<sup>3</sup>/ga. har bir egatga 0,60 l/s. suv taqsimlanadigan va qator orasi 90 sm ga teng bo'lsa hamda sug'orish 2 kundan ortiq davom ettirilishi mumkin bo'lmasa, talab etilayotgan suv miqdori va egatlar sonini hisoblang.

### Nazorat uchun savollar:

1. Ekinlarni egatlab sug'orish deganda nimani tushunasiz?
2. Tuproq sharoitiga qarab egat uzunligi qancha bo'ladi?
3. Egat uzunligi qaysi formula yordamida aniqlanadi?
4. Egatdagagi suvning miqdori qaysi formula yordamida aniqlanadi?

## 26-MASHG'ULOT TOMCHILATIB SUG'ORISHII USULI ELEMENTLARINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tomchilatib sug'orish usuli elementlarini: egatlar oralig'i, tomchilatgichlar oralig'i namlagich quvurlar uzunligi, tomchilatgichlar soni, ekinlarni har galgi sug'orish me'yori, har bir tomchilatgichning tuproqni namlantirish maydonchasi, sug'orishlar orasidagi davr, sug'orishlardagi taktlar soni (sug'orish me'yorlarini bo'lib berilishi), har bir gektardagi sug'orish me'yori, sug'orishlar orasidagi davr, tomchilatib sug'orishning davomiyligini aniqlashni o'rGANADILAR.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** Tomchilatib sug'orish texnikasi elementlarini hisoblashga tegishli malumotlar va formulalar.

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Respublikamizda suv tanqisligi yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda. Suv tanqishgini oldini olish va mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish yo'llaridan biri qishloq xo'jalik ekinlarni tomchilatib sug'orishdir.

Ma'lumki, bugungi kunda ekinlarni tomchilatib sug'orish butun dunyo mamlakatlari keng tarqalmoqda. Shu jumladan, bizning mamlakatimizda ham ekinlarni tomchilatib sug'orish usuli bilan sug'orish bo'yicha yetarlichcha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va bu

usulni afzalliklari o‘z isbotini topgan, ammo ishlab chiqarishga hozirgacha juda kam miqdorda joriy qilingan.

Keng miqiyosda tomchilatib sug‘orish o‘tgan asrning 70-yillarda Avstraliya, Isroil, Meksika, Yangi Zelandiya, AQSH va Janubiy Afrikada meva va sabzavot ekinlarini sug‘orishda qo‘llanila boshlagan. Ma‘lumotlar bo‘yicha, bu vaqtida tomchilatib sug‘orish maydoni 56000 ga ni tashqil qilgan. Irrigatsiya va drenaj xalqaro komissiya (ICID) ma‘lumotlari bo‘yicha tilmchilatib sug‘orish maydoni (mikrosprinklerli sug‘orish bilan birqalikda) asta-sekinlik bilan oshib borgan va 1981-yilga kelib 400 ming ga, 1986-yilda 1,1 mln ga, 1991-yilda, 1,8 mln ga, 2000 yilda 3,0 mln ga ni tashkil etgan.

O‘tgan asrning 60-70-yillarida AQSH va Isroil davlatlarida ekinlarni tomchilatib sug‘orishning yangi avlodni yaratilgan va ishlab chiqarishga keng joriy qilingan. Shuningdek, bu mamlakatlar olimlari tomchilatib sug‘orishni to‘liq avtomatik boshqarish tizimiga o‘tkazish rejasи amalga oshirilgan. Keyinchalik bu usul Avstraliya, Janubiy Afrika, Fransiya, Germaniya, Gollandiya mamlakatlarida keng foydalanila boshlagan.

1990-2000-yillarda rivojlangan mamlakatlар bilan bir qatorda rivojlanayotgan mamlakatlarda tomchilatib sug‘orish texnologiyasining qo‘llanilishi keskin ravishda oshgan. Eng ko‘p mikrosug‘orishning qo‘llanilishi Amerika qit’asida (1,9 mln ga), undan keyin Evropa va Osiyoda (1,8 mln ga, har birida), Afrikada (0,4 mln ga) va Okeaniyada (0,2 mln ga) kuzatilgan.

Oxirgi 20 yilda jahon bo‘yicha mikro sug‘orish maydoni 6 martaga oshgan, ya’ni 1986-yilda, 1,1 mln ga, 2012 yilda 15,1 mln ga bo‘lgan.

Tomchilatib sug‘orish orqali bog‘-uzumzorlarni, dala ekinlarini, shamolga qarshi qatorlarni (vetrolommые polosы), sabzavot va issiqxonalarini hamda landshaft tizimlarini sug‘orish mumkin.

O‘zbekistonda 1980-2013-yillar davomida soviq O‘zPITI, O‘zMEI, SANIIRI, ilmiy tadqiqot TIMI va ToshDAU institutlarida tomchilatib sug‘orish usulini mevali bog‘lar, uzumzorlar va g‘o‘zani sug‘orish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

#### ***Tomchilatib sug‘orish usuli quyidagi afzalliklarga ega:***

- tomchilatib sug‘orishda sug‘orish ishlari to‘liq mechanizatsiyalash-tiriladi va avtomatlashtiriladi;

- tomchilatib sug'orishda suv egatlab sug'orishga nisbatan 40-55 % gacha tejaladi;
- mineral ug'itlar tomchilatibsug'orish usuli orqali eritma holda berilganligi uchun ularning samaradorligi oshadi, o'g'itlar sarfi 25-30 % gacha kamayadi;
- tomchilatib sug'orish usuli qullanilganda o'qariqlar olish, egatlar ochish, o'g'itlash tadbirdlari talab qilinmaydi;
- ekinlar qator oralariga ishlov berish jumladan, kultivatsiya soni kamayadi;
- tomchilatib sug'orishda butun dala buylab tuproq bir xil chuqurlikda namlanadi, tuproqning havo rejimi mutadillashadi, natijada ekinlarning o'sishi va rivojlanishi bir xilda bo'ladi;
- sug'orish me'yorlari va mahsulot birligiga sarflanadigan suv miqdorining kamayishi bilan bir qatorda hosildorlik oshadi;
- namlatish zonasini maydonining qisqarishi hisobiga bug'lanishga suv isrofining kamayishi;
- kuchli shamol sharoitida ham sug'orish dalasida namlantirishni bir tekis amalgaga oshirish imkoniyati;
- sug'orish dalasini tekislash zaruratining yo'qligi, ya'ni bosimni rostlovchi tomchilatgichlarga ega bo'lgan sug'orish quvurlari murakkab topografik sharoitlarda sug'orishni amalgaga oshirishga imkoniyat yaratadi;
- sug'orish me'yorlarining kamayishi suvning hisobiy qatlamdan pastga shimalishini chegaralaydi va sizot suvlar sathini ko'tarilishini oldi olinadi, bu ikkilamchi sho'rланish xavfini yuzaga keltirmaydi;
- mineral o'g'itlarning bevosita ildiz qatlamiga berilishi ta'milanadi;
- suv oqovaga chiqarilmaydi;
- suv bilan begona o'tlar urug'larining oqib kelishi kuzatilmaydi, natijada sug'oriladigan dalalarda yildan yilga begona o'tlar kamayib boradi;
- boshqa sug'orish usullaridan tomchilatib sug'orishga o'tishda moslashish jarayoni tez va muammosiz amalgaga oshadi;
- tomchilatib sug'orishda irrigatsiya eroziyasi vujudga kelmaydi;

*\* Tomchilatib sug'orishning asosiy kamchiliklari quyidagilar:*

- birinchi yili ko'p xarajat talab qiladi;

- tomchilatib sug'orish usulini boshqarish uchun malakali kadirlar talab qilinadi;
- tomchilatgichlar loyqa zarrachalari bilan tiqilib qolishi mumkin.

**Qishloq xo'jalik ekinlarini tomchilatib sug'orishda eng muhim ko'rsatgichlar**

- Tomchilatib sug'orishda egatlar oralig'i,
- tomchilatgichlar oralig'i namlagich quvurlar uzunligi,
- tomchilatgichlar soni,
- ekinlarni har galgi sug'orish me'yori,
- har bir tomchilatgitchining tuproqni namlantirish maydonchasi,

m,

- sug'orishlar orasidagi davr,
  - sug'orishlardagi taktlar soni (sug'orish me'yorlarini bo'lib berilishi),
  - har bir taktdagi sug'orish me'yori.
- Ekinlarni tomchilatib sug'orishda namlagich quvurlarining uzunligi va tomchilatgichlar soni, egatlar va tomchilatgichlar orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida dala ekinlari asosan qator orasi 60 sm, 70 sm va 90 sm holda qatorlab ekiladi. Bunda tomchilatgichlar orasidagi masofalar tuproqning mexanik tarkibiga bog'liq holda belgilanadi (51-jadval).

Ekinlarni tomchilatib sug'orishda 1 hektar ekin maydoniga zarur bo'lgan namlagich quvurlar uzunligi quyidagicha aniqlanadi. Ekinlar qator orasi 90 sm, maydon kengligi 90 m bo'lib, uning uzunligi 111 m bo'lganda 1 hektarni tashkil qiladi. Maydonning kengligi 90 m bo'lganda 100 qator ekin joylashadi, 11100 p/m bo'ladi.

$$100 \cdot 111 = 11100 \text{ p/m}$$

yoki tomchilatgich quvurlari har egatga joylashtirilganda 1 hektar maydonga 11100 p/m, egat oralatib joylashtirilganda esa 5550 m quvur kerak bo'ladi.

$$11100 : 2 = 5550 \text{ m}$$

Quvurlarning har 90 sm masofasiga 1 donadan tomchilatgich o'matilganda 1 hektar maydon uchun tomchilatgichlar soni quyidagicha bo'ladi.

$$5550 : 0,9 = 6166 \text{ dona}$$

51-jadval

Egatlар орасидаги масофа, см	Tупроqning механик таркиби	Tomchilatgich лар орасидаги масофа, см	Tomchilatgich кувурлар узунлиги, п.м. га	Tomchilatgich хлар сони, дона / га
90	og'ir	100		
	o'rtा	80		
	yengil	60		
70	og'ir	90		
	o'rtा	70		
	yengil	60		
60	og'ir	80		
	o'rtा	60		
	yengil	50		

**Topshiriq:**

Ekinlarni tomchilatib sug'orishda quyidagi ma'lumotlar asosida tomchilatgich quvurlarining uzunligi va tomchilatgichlar sonini aniqlang:

**Tomchilatib sug'orishda sug'orish me'yorini aniqlash**

Tomchilatib sug'orishda har galgi sug'orish me'yorlari ckinlamli o'suv fazalari bo'yicha ildiz tarqalgan chuqurliklar tuproqning mechanik tarkibiga bog'liq holdagi cheklangan dala nam sig'imiga va sug'orishlardan oldingi namlik darajasi hamda tomchilatgichlardan kelayotgan suv ta'sirida tuproqni to'ynish chegarasi hisobga olib quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$m=0,6 \cdot (W_1-W_2) \cdot d \cdot h$$

bu yerda

$m$  – tomchilatib sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ ;

$d$  – tuproqning hajmiy og'irligi,  $t/m^3$ ;

$h$  – tuproqda ekinlarning ildizi tarqaladigan faol qatlam chuqurligi,  $m$ ;

$W_1$  – tuproqning cheklangan dala nam sig'imi, %;

$W_2$  – sug'orishdan oldingi tuproq namligi, %;

0,6-sug'oriladigan dala satki namanishini kamayishini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyenti.

**Tuproqning mexanik tarkibi, hajmiy massasi va cheklangan dala nam sig'imi ko'rsatgichlari**

Tartib №	Tuproqning mexanik tarkibi	Tuproqning hajmiy og'irligi	Tuproqning cheklangan dala nam sig'imi, %
1	loy	1,60-1,70	26-28
2	og'ir	1,50-1,55	24-25
3	o'rta	1,40-1,50	22-23
4	yengil	1,30-1,40	20-21
5	qumoq	1,50-1,55	16-18

Misol berilgan:

- ekin turi, g'o'za;
- tuproqning mexanik tarkibi, o'rta;
- tuproqning cheklangan dala nam sig'imi,  $W_1$ -22%;
- tuproqning sug'orishdan oldingi namligi,  $W_2$ -16%;
- g'o'zaning gullashgacha o'suv fazasidagi zaruriy namlanish chiqurligi,  $h$ -50 sm.

Yechish:

$$m=0,6 \cdot (22-16) \cdot 1,45 \cdot 50 = 261 \text{ m}^3/\text{ga}$$

**Tomchilatib sug'orishda sug'orishlar orasidagi davrni aniqlash.**

Tomchilatib sug'orish usulida sug'orishlar orasidagi davr quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi;

$$T = \frac{m}{E}$$

bu yerda  $T$  – sug'orishlar orasidagi davr, sut;

$m$  – sug'orish me'yori (1-formula bo'yicha);

$E$  – umumiy bug'lanish,  $\text{m}^3/\text{ga}$ .

Formuladagi  $E$  quyidagicha aniqlanadi;

$$E=E_0 \cdot K_y$$

bu yerda  $E_0$  – tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilgan maydonidagi umumiy bug'lanish, mm;

$K_y$  – tomchilatib sug'orishda tuproqning namlanish koeffitsyenti;  
 $E_0$  – ko'rsatkichi 40-jadvaldan olinish kerak.

**Ekinlarni tomchilatib sug'orishda zarur bo'lgan namlanish chuqurligi**

Ekin turi	O'suv fazasi	Hisobiy qatlani chuqurligi, sm
G'o'za	gullashgacha:	40-50
	gullash va ko'saklash:	60-70
	pishib etilishda:	50-60
Makkajo'xori	spurgi chiqishgacha:	40-50
	spurgisi chiqib bo'lqandan keyin:	60-70
Kuzgi bug'doy	boshqoqlashgacha:	40-50
	boshqoqlash, gullash va sut mun pishishgacha:	60-70
	pishish davrida:	50-60
Kartoshka, piyoz, sabzi, karam	dastlabki o'sish davrlarida:	30
	keyingi o'sish davrlarida:	40-50
Painidor, bodrim	dastlabki o'sish davrida:	40
	keyingi o'sish davrida:	50-60
Bog' va uzumlar	1 yilda:	70-80
	keyingi yillarda:	100-130

Ushbu jadvalda o'rtacha oylik transperatsiya va fizik bug'lanish miqdorlari berilgan. Masalan, g'o'zani gullashgacha bo'lgan sug'orishlari iyun oyining boshlariga to'g'ri keladi, bu davrda sutkalik transperatsiya va fizik bug'lanishni aniqlash uchun iyuni oyidagi ko'rsatgichni shu oydag'i kunlar soniga bo'linadi (boshqa oylardagi ko'rsatgichlar ham shu yo'l bilan aniqlanadi).

$$Eo=170 \cdot 30 = 5,6 \text{ mm yoki } 56 \text{ m}^3/\text{ga}$$

Formuladagi Ky quyidagicha aniqlanadi.

$$Ky = \frac{1}{\sqrt{1+(1-G)}} \cdot 2$$

bu yerda  $G$  – tomchilatib sug'orishda tuproqning nisbiy namligi koeffitsiyenti. Bu o'rtacha 0,52 ga teng deb qabul qilingan.

$$Ky = \frac{1}{\sqrt{1+(1-0,52)}} \cdot 2 = \frac{1}{1+0,48} = \frac{1}{\sqrt{1,48}} = \frac{1}{1,22} \cdot 2 = 1,64$$

Yuqorida keltirilganlar asosida E ning qiymati quyidagicha bo'ladi.

$$E=Eo \cdot Ku = 56 \cdot 1,64 = 91,84 \text{ m}^3/\text{ga}$$

Demak, bizning misolimizda g'o'zani tomchilatib sug'orishda sug'orishlar orasidagi kunlar quyidagicha bo'ladi.

$$T = \frac{261}{91,84} = 2,84 \approx 3 \text{kun}$$

54-jadval

**Sug'oriladigan maydonlardan suvning bug'lanishi  
(transperatsiya va fizik bug'lanish) mm.**

Ko'rsat- kich	oylar												o'rta- cha	
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VII I	IX	X	XI	XII		
Umumiy bug'lanis- h (evopotra- nsperatsii- )	15,0	10-20	33,5	30-35	60,0	55-65	140	130-150	170	160-180	210	200-225	170	160-185
o'rtacha	20,0	15-25											90	80-100
													45	40-50
													20	15-25
													12	10-15
													825	
													160	

**Tomchilatib sug'orishning davomiyligini aniqlash**

Tomchilatib sug'orishda suv samaradorligini oshirish maqsadida ekinlarning har galgi sug'orish me'yorlarini oz-ozdan bo'lib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda sug'orish me'yorini bo'lib berish taktlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$n = \frac{T \cdot 24}{t}$$

bu yerda  $n$  – sug'orish me'yorini bo'lib berish soni;

$T$  – sug'orish orasidagi kunlar, sut;

$t$  – sug'orishning davomiyligi, soat.

$$\text{Misol: } n = \frac{3 \cdot 24}{19} = \frac{72}{19} = 3,8 \approx 4$$

Sug'orishning davomiyligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$t = \frac{m}{n \cdot d}$$


bu yerda  $t$  – sug'orishning davomiyligi, soat;

$m$  – sug'orish me'yori, litr;


$n$  – tomchilatgichlar soni, dona/ga;

$d$  – bitta tomchilatgichning suv sarfi, l/soat.


$$\text{Misol: } t = \frac{261000}{5555 \cdot 2,5} = \frac{261000}{13887} = 19 \text{ soat.}$$




**58-rasm.** Katta maydonlarni tomchilatib sug'orishda qo'llaniladigan filtrlar




**59- rasm.** Kichik maydonlarni tomchilatib sug'orishda qo'llaniladigan filtrlar




**60-rasm.** Suvni avtomatik taqsimlash klapamlari



**61-rasm.** Tomchilatkich quvurlari va olagichtari



**62-rasm. Tomchilatib sug'orish usulini avtomatik boshqarish apparatlari**



**63-rasm. Tomchilatgichlar<sup>13</sup>**

**Nazorat uchun savollar:**

1. Tomchilatib sug'orish deganda nimani tushunasiz?
2. Tomchilatib sug'orishda suv sarfi qanday aniqlanadi?
3. Tomchilatib sug'orish vositalari qaysi fomula yordamida aniqlanadi?

<sup>13</sup> www.netafim.com

## 27-MASHG'ULOT

### SUG'ORILADIGAN DALANING SUV BALANSINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar ekinlarni sug'orishda sug'oriladigan dalaning suv balansini aniqlashda tuproqning hisobiy qatlamiidagi suv zahirasining o'zgarishi, suv balansning kirim qismi, atmosfera yog'inlari hisobiga suvning to'planishini, tuproq yuzasidan bo'ladigan bug'lanishlarni aniqlahni o'rganadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** Sug'oriladigan dalaning suv balansini hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida ekin dalasiga kiradigan va undan chiqib ketayotgan suv miqdorini tartibga solish, hamda doimiy nazorat qilib turish maqsadda sug'oriladigan dalaning suv balansi o'rganiladi.

Sug'orilayotgan dalaning suv balansini, ya'ni yet usti, sizot va tuproq osti suvlaming balansini aniqlash tuproq unumdoorigini oshirishga qaratilgan meliorativ tadbirlarni ishlab chiqishning negizi hisoblanadi. Dalaning suv balansi muhim ahamiyatga ega bo'lib, yerlarning meliorativ holati ko'p tomondan unga bog'liq bo'ladi. Suv balansi muayyan davr uchun tuzilib, dekadalik, oylik, yillik va ko'p yillikka bo'linadi.

Sug'oriladigan dalaning suv balansini umumiy ko'rinishda quyidagicha ifodalanadi:

$$dW = \sum W_{kr} - \sum W_{chq}$$

bu yerda

$dW$  – tuproqning hisobiy qatlamiidagi suv zahirasining o'zgarish,  $m^3/ga$ ;

$\sum W_{kp}$  – tuproqning hisobiy qatlamiga kelib tushadigan suv miqdori,  $m^3/ga$ ;

$\sum W_{chq}$  – tuproqning hisobiy qatlamidan bo'ladigan suv miqdori,  $m^3/ga$ .

Balans davri oxiridagi suv to'planish miqdori quyidagi formulaga ko'ra aniqlanadi:

$$W_c = W_b + dW,$$

bu yerda  $W_b$  – daladagi suvning boshlang'ich miqdori,  $m^3/ga$ .

Suv balansning kirim qismi quyidagi omillar ishtirokida jamlanadi va formula yordamida aniqlanadi:

$$\Sigma W_{kr} = P + M + \Phi(a) + O^*,$$

bu yerda

$P$  – atmosfera yog' inlari hisobiga suvning to'planishi,  $m^3/ga$ ;

$M$  – mavsumiy sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ ;

$\Phi(a)$  – sug'orish tarmog' idan suvning tuproqqa singib yo'qolishi,  $m^3/ga$ ;

$O^*$  – yer osti suvlarning kelib qo'shilish miqdori,  $m^3/ga$ .

Suv tuproqdan har xil sabablar orqali chiqib ketadi va balansning chiqim qismi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Sigma W_{chq} = E_1 + E_2 + \Sigma D + O,$$

bu yerda  $E_1$  – tuproq yuzasidan bo'ladigan bug'lanish,  $m^3/ga$ ;

$E_2$  – o'simliklar transpirasiyasiga sarflangan suv,

$m^3/ga$ ;

$\Sigma D$  – zovurlar orqali bo'ladigan suv sarfi,  $m^3/ga$ ;

$O$  – yer osti suvlaring oqib chiqib ketishi,  $m^3/ga$ .

Sug'orma dehqonchilik sharoitida Hindiston olimlari sug'oriladigan maydonning suv balansini quyidagi formula bilan aniqlashni tavsiya qilgan.

$$(P+I+GW)-(ET+R+D),$$

bu yerda  $P$  – atmosfera yog' inlari;

$I$  – ekinlarni sug'orish;

$GW$  – sizot suvlar ishtiroti;

$ET$  – evapotranspiratsiya

$R$  – yotiq yunalish bo'icha sizot suvlar oqimi;

$D$  – yer osti chiqirligi yo'nalishi bo'yicha suvning sarflanishi.<sup>14</sup>

Topshiriq: Boshlang'ich ma'lumotlar asosida sug'oriladigan yerlarning suv balansini aniqlang.

- 1) tuproqqa tushadigan atmosfera yog' inlari – 190  $m^3/ga$ ;
- 2) tuproqqa tushadigan sug'orish suvlari – 5120  $m^3/ga$ ;
- 3) sug'orish kanallaridan suvning filtrasiyaga yo'qolishi – 980  $m^3/ga$ ;
- 4) yer osti suvlaring kelib qo'shilishi – 290  $m^3/ga$ ;

<sup>14</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Somasundaram R. A textbook of Agronomy 2010. p. 358.

- 5) tuproqdan suvning bug'lanishi – umumiy bug'lanishga nisbatan 30%;  
 6) o'simlik tomonidan suvning bug'lanishi: tanspirasiya koefitsiyenti – 540 birlik;  
 7) paxta hosildorligi – 31,6 s/ga; hosilning quruq massasini aniqlash uchun o'tkazish koefitsiyenti – 2,5 – 3,0;  
 8) Suvning zovur orqali chiqib ketadigan miqdori – umumiy kirimga nisbatan 19%;  
 9) suvning yer ostidan oqib ketadigan miqdori – 92 m<sup>3</sup>/ga.

Yechish: Avval tuproqning hisobiy qatlamiga keladigan suvning umumiy miqdori (m<sup>3</sup>/ga) aniqlanadi. U atmosfera yog'inlari (190 m<sup>3</sup>/ga), sug'orish jarayonida sarf bo'lgan suv miqdori (5120 m<sup>3</sup>/ga), sug'orish tarmoqlaridan suvning tuproqqa singib yo'qolishi (980 m<sup>3</sup>/ga) va yer osti suvlarning kelib qo'shilishi hisobiga shakllanadi.

$$SW_{kr} = 190 + 5120 + 980 + 290 = 6580 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Shundan so'ng, tuproqning hisobiy qatlamidan bo'ladigan umumiy suv sarfi hisoblab chiqiladi (m<sup>3</sup>/ga). Topshiriqda tuproq sirtidan bug'lanishga, transpiratsiyaga va zovur orqali chiqib ketadigan suv miqdori haqidagi ma'lumotlar berilmagan. Shuning uchun ularning qiymatlari hisoblanadi.

Umumiy suv sarfi transpiratsiya va bevosita tuproq yuzasidan bo'ladigan bug'lanishlar yig'indisi bo'lib u 100% ni tashkil qiladi. Jumladan, tuproq sathidagi bug'lanishga suvning sarfi 30% ga teng bo'lsa, u holda transpiratsiyaga sarfi – 70% tashkil qiladi.

Transpiratsiyaga sarflangan suv miqdori transpiratsiya koeffisienti qiymati va paxta hosiliga ko'ra hisoblanadi. Transpiratsiya koefitsiyenti 540 ga teng bo'lganda 1 t hosilning qumq massasini shakllanishiga 540 t suv sarflanadi. Hosilning quruq massasini to-pish uchun – paxta hosilni (31,6 s/ga) o'tkazish koefitsiyentiga (2,5 ga) ko'paytiriladi:

$$31,6 \cdot 2,5 = 79 \text{ s yoki } 7,9 \text{ t}$$

va bu qiymatni transpiratsiya koefitsiyentiga ko'paytirib, shu miqdorda hosil etishtirish uchun sarf bo'lgan suv miqdori hisoblab chiqiladi:

$$7,9 \cdot 540 = 4266 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Bu umumiy suv sarfining 70% ini tashkil etadi. Umumiy sarf bo'lgan suv qo'yidagicha hisoblab chiqiladi  $4266 : 0,70 = 6094 \text{ m}^3/\text{ga}$

bo'ldi. Tuproq sathidan bug'langan suv sarfi umumiy sarfga nisbatan 30% ni tashkil etsa, bu sarf  $6094 \cdot 0,30 = 1828 \text{ m}^3/\text{ga teng}$ .

Suvning zovur orgali chiqib ketadigan miqdori uning tuproqqa umumiy kirishi ( $6580 \text{ m}^3/\text{ga}$ ) ga nisbatan 19% yoki  $\frac{6580 \cdot 19}{100} = 1250 \text{ m}^3/\text{ga}$  ni tashkil etadi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib suvning umumiy sarfi ( $\Sigma W_{chq}$ ) tuproqdan bug'lanishga ( $1828 \text{ m}^3/\text{ga}$ ), taraspirasiyaga ( $4266 \text{ m}^3/\text{ga}$ ), zovur oqimiga ( $1158 \text{ m}^3/\text{ga}$ ) va yer ostidan oqib ketishga ( $92 \text{ m}^3/\text{ga}$ ) sarflari yig'indisiga teng bo'lib, quyidagi tartibda hisoblanadi. Bu  $1828 + 4266 + 1250 + 92 = 7436 \text{ m}^3/\text{ga teng}$ .

Hisoblash o'tkazilgan davrda suv sathining o'zgarishi ( $dW$ ) suvning kiri mi ( $\Sigma W_k$ ) va sarfi ( $\Sigma W_{chq}$ ) o'rta sidagi farqqa ko'ra aniqlanadi. Demak,  $dW - \Sigma W_k - \Sigma W_{chq} = 6580 - 7436 = -856 \text{ m}^3/\text{ga}$ , ya'mi balans manfiydir. Bu suv zaxirasini yil oxiriga borib tuproqda gektariga  $356 \text{ m}^3$  kamaiishni bildiradi.

**Topshiriq.** 55-jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha sug'oriladigan dalaning yillik suv balansini aniqlang, tuproqqa meliorativ baho bering va uni yaxshilash tadbirlarini belgilang.

### 55-jadval

#### Sug'oriladigan dalaning suv balansini aniqlashga doir ma'lumotlar

Masala raqami	R	M	F(a)	O'	E <sub>t</sub> , %	K <sub>t</sub>	U <sub>t</sub>	O'tkaz. Koef	ΣD, %	Ot
1	230	485 0	920	280	34	620	34, 2	2,7	27	73
2	208	571 0	133 0	460	25	650	40, 0	3,3	34	110
3	200	624 0	112 0	240	33	680	38, 0	3,2	25	88
4	210	674 0	105 0	205	30	580	43, 5	2,9	30	110
5	95	867 0	135 0	220	33	630	39, 8	3,1	33	86

#### Nazorat uchun savollar:

1. Suv balansi deganda nimani tushunasiz?

2. Suv balansining kirim qismi nima?
3. Suv balansining chiqim qismi nima?
4. Suv balansini aniqlashning qanday ahamiyati bor?

## 28-MASHG'ULOT

### MINERALLASHGAN SUVNING EKINLARNI SUG'ORISH UCHUN YAROQLILIGINI (XLOR IONI VA TUZLARNING QURUQ QOLDIQ MIQDORI BO'YICHA) ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar mineral-lashgan suvning ekinlarni sug'orish uchun yaroqliligini xlор ionи va tuzlarning umumiy sathi bo'yicha aniqlashni o'rganadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Minerallashgan suvning ekinlarni sug'orish uchun yaroqliligini xlор ionи va tuzlarning umumiy sathi bo'yicha hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Qishloq xo'jalik melioratsiyasining muhim vazifalaridan biri bu ekinlarni sug'orishda qo'shimcha sug'orish manbalardan foydalanish bo'lib, ular hissasiga zovur-kollektor, artizan, chiqindi va hokazo suvlar kiradi. Mavjud suv resursalrni etishmasligi hisobiga xo'jalikkarda zovur-kollektor suvlardan foydalanish hollari ko'zatilmoqda. Ana shu jarayonda bu suvlarning minerallashganlik darajasi va uning tarkibini hisobga olish muhim ahmiyatga ega.

Sug'orish maqsadida ishlatalidigan suvning sifati uning tarkibida erigan tuzlarning miqdoriga bog'liq bo'lib, g'о'za va boshqa ekinlarni sug'orishda, uning miqdori odatda 3-4 g/l dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Tarkibidagi tuz miqdoriga qarab mineral suvlar quyidagi 4 guruha bo'linadi (N.G. Minashina bo'yicha).

1. Minerallashmagan -(chuchuk) tarkibida tuz miqdori 2 g/l dan kam.
2. Kuchsiz mincrallashgan - tarkibida tuz miqdori 2-4 g/l.
3. O'rtacha minerallashgan tarkibida tuz miqdori 4-8 g/l.
4. Kuchli minerallashgan tarkibida tuz miqdori 8-16 g/l va undan ko'p.

**AQSH, Hindiston va shimoliy Afrika mamlakatlarida ekinlarni sug'orish uchun foydalaniladigan suvning sifati quyidagicha baholanadi:<sup>15</sup>**

Nº	Suv turlari	Es (DS/m)	SAR (m.mol)	RSC (v/l)
1	Yaqshi suv	<2	<10	<2,5
2	Sho'ri suv	>2-4	<10	<2,5
3	O'ta sho'ri suv	>4	<10	<2,5

Tuproqning mexanik tarkibiga va suv-fizik xossalariiga ko'ra foydalaniladigan suvning ruxsat etiladigan mineralashganligi turlichadir. Zaruratdan kelib chiqib, yengil mexanik tarkibili tuproqlarni yuqori mineralashgan, o'rtacha va og'ir mexanik tarkibili tuproqlarni esa kam mineralashgan suv bilan sug'orish ma'quldir. Suvning yaroqliligi faqat tuzlarning umumiy miqdoriga bog'liq bo'lmay, balki ularning tarkibiga ham bog'liq. Shu sababdan sug'orishga berilgan suvning yaroqliligini aniqlashda suvda oson eriydigan (zararli) tuzlarning salmog'ini hisobga olish kerak. Xlorli tuzlar g'o'za uchun ancha zararli bo'lib, uning miqdori 1 l suvda 1,0 g dan oshmasligi kerak. O'simlik uchun xlorli tuzlar sulfatli tuzlarga qaraganda zararlidir.

Sug'orish uchun foydalaniladigan suvning tarkibida xlorli ( $\text{NaCl}$ ) karbonatli ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) va bikarbonatli ( $\text{NaHCO}_3$ ) tuzlar ko'p uchraydi va ularga alohida e'tibor bermoq kerak.

Suvning tarkibida  $\text{NaCO}_3$  ning miqdori 0,5 g/ l gacha bo'lsa, ulardan sug'orishda bemalol foydalanish mumkin, agar 0,5 g/l dan ko'p bo'lsa, bunday suvlarni tarkibi foydalanishdan oldin yaxshilanitirildi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda foydalaniladigan suvning yaroqliligi uning tarkibidagi natriyli tuzlar ( $\text{NaCl}$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ) va gips ( $\text{CaSO}_4$ )ning miqdori bilan ham belgilanadi. Sug'orish uchun foydalaniladigan suvning yaroqliligini aniqlash uchun undagi xlor ionini va tuzlarning umumiy miqdorlarini bilish kerak. Suvning mineralashganligi bo'yicha yaroqliligi N.G.Minashina taklif etgan quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\lambda_d = \frac{V \cdot (C_1 - C_2) - g \cdot x}{M},$$

<sup>15</sup> Chandrasekaran B., Annadurai K., Somasundaram E. A textbook of Agronomy 2010. p. 405

bu yerda

$\lambda_d$  – suvning ruxsat etiladigan minerallashganligi, g/l;

$V$  – tuproq namligi (hisobiy qatlam uchun), mm;

$C_1$  – tuproq eritmasining daslabki konsentrasiyasi, g/l;

$C_2$  – tuproq eritmasining hisobiy davr oxiridagi konsentrasiyasi, g/l;

$g$  – hisobiy davrda sizot suvlarning bug'lanishga sarf bo'lish miqdori, mm;

$x$  – sizot suvlarning minerallashganlik darajasi, g/l;

$M$  – mavsumiy sug'orish me'yori, mm.

**Topshiriq 1.** Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha suvning sug'orish uchun yaroqliligini aniqlang:

- hisobiy qatlam qalanligi ( $h$ ) – 0,6 m;
- tuproqning hajm massasi ( $d$ ) – 1,1 t/m<sup>3</sup>;
- tuproqning chegaraviy dala nam sig'imi-og'irlikka nisbatan 22,0 %;
- tuproqning mavsum davomidagi namligi-dala nam sig'iming 78 %;
- tuproqdagi xlorning daslabki miqdori ( $C_1$ ) – 0,030 %;
- tuproqdagi xlorning mavsum oxiridagi miqdori ( $C_2$ ) – 0,10 %;
- mavsum davomida sizot suvlarning bug'lanishi – 3450 m<sup>3</sup>/ga;
- sizot suvning xlor ioni bo'yicha minerallashganligi ( $X$ ) – 0,30 g/l;
- mavsumiy sug'orish me'yori ( $M$ ) – 4900 m<sup>3</sup>/ga.

Yechish: Dastlab tuproqning hisobiy qatlamdagi o'rtacha namlik sathi (%) aniqlanadi va u quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

22,0-100%

$x - 78\%$

tenglashtirishdagi  $x$  ni B ga almashtiramiz:

$$B = \frac{22,0 \cdot 78}{100} = 17\%$$

Shu namlikka (B) teng bo'lgan suvning miqdori (V) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V = 100 \cdot h \cdot d \cdot B,$$

bu yerda  $V$  – suvning miqdori;

$h$  – hisobiy qatlam, m;

$d$  – tuproqning hajmiy massasi, t/m<sup>3</sup>.

$$V = 100 \cdot 0,6 \cdot 1,30 \cdot 17,0 = 1326 \text{ m}^3/\text{ga}$$
 yoki 132,6 mm.

Demak,  $10\text{m}^3$  suv 1 gektarda 1 mm ni tashkil etishidan kelib chiqib, uni nun ga aylantiranz va  $1326 \text{ m}^3$  suv 1 gektarda 132,6 mm ni tashkil qiladi.

Tuproqning o'rtacha namligi va xlor middoriga asolanib o'rgani layotgan muddat boshidagi tuproq eritmasining konsentratsiyasi ( $C_1$ ) aniqlanadi.

$$C_1 = \frac{\lambda_1 \cdot 1000}{B} = \frac{0,030 \cdot 1000}{17,0} = 1,76 \text{ g/l}$$

O'rganilayotgan muddatning oxirida tuproq eritmasining konsentratsiyasi ( $C_2$ ) quydagicha bo'ladi:

$$C_2 = \frac{\lambda_2 \cdot 1000}{B} = \frac{0,01 \cdot 1000}{17,0} = 0,58 \text{ g/l}$$

Xloming dastlabki va vegetatsiya oxiridagi ( $C_1$  va  $C_2$ ) qiymatlarini bilgan holda, tuproqning o'rtacha namligida xloming yo'l qo'yiladigan o'sishi aniqlanadi:

$$V = (C_1 - C_2) = 132,6 - (1,76 - 0,58) = 132,6 - 1,18 = 131,4 \text{ g/mm}$$

Sizot suvlarning xlor ioni bo'yicha minerallashganlik darajasi ( $X$ ) 0,30 g/l bo'lganda mavsum davomida bug'lanishi  $3450 \text{ m}^3$  ga yoki 345 mm ga teng. Shu hisobda tuproqqa to'plangan xlor miqdori qo'yidagicha hisoblanadi:

$$Cl = d \cdot x = 345 \times 0,30 = 103 \text{ g/mm}$$

Ana shu ma'lumotlar asosida sug'orishga beriladigan suvning mineralashganligi bo'yicha yaroqliligi hisoblab chiqiladi:

$$\lambda = \frac{V \cdot (C_1 - C_2) g \cdot x}{M} = \frac{132,6 \cdot (1,76 - 0,58) - 103}{490} = 0,19 \text{ g/l}$$

Sug'orishda foydalaniladigin suvning umumiy mineralashganlik darajasining yo'l qo'yiladigin qiymatini (g/l) xlor ionining aniqlangan konsentratsiyasi bo'yicha quydagi shkala yordamida topish mumkin (57-jadval). Suvning xlor bo'yicha yo'l qo'yiladigan konsentratsiyasi 0,19 g/l bo'lib, umumiy mineralashganlikning chegaraviy miqdori 2,2 g/l teng bo'ladi (shkalaga qarang).

57-jadval

Ekinlarni sug'orish uchun ishlataladigan suv tarkibidagi xlorni yo'l qo'yiladigan miqdorini aniqlash shkalasi

Ko'rsatgichlar	Xlor va quruq coldiq konsentratsi, g/l								
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Xlor bo'yicha konsentratsiya	0,06	0,08	0,10	0,12	0,14	0,16	0,18	0,20	0,22

Ouruq qoldiq	0,50	0,75	1,0	1,2	1,4	1,6	1,8	2,2	2,6
Xlor bo'yicha kontsentratsiya	0,26	0,28	0,30	0,32	0,34	0,36	0,38	0,40	0,42
Ouruq qoldiq	3,8	4,4	5,0	5,6	6,2	6,8	7,4	8,0	8,7

**Topshiriq:** 58-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, sug'orishga berilayotgan suvning minerallashganlik darajasini aniqlang.

58-jadval

**Sug'orishga beriladigan suvning minerallashganlik darajasini aniqlash uchun ma'lumotlar**

Ko'rsatgichlar	Masala raqami					
	1	2	3	4	5	6
Tuproqning hisobiy qatlam galinligi (h), m	0,7	0,8	1,0	0,8	1,1	0,9
Tuproqning xajmiy masofasi (d), $t/m^3$	1,38	1,37	1,36	1,40	1,42	1,48
Tuproqning chegaraviy dala nam sig'imi (HB), og'ir. nis.%	24,2	23,6	22,8	24,9	21,0	23,2
Tuproqning o'rtacha namligi (B), HR nis.%	71,0	73,3	77,5	65,6	75,4	72,0
Xloming dastlabki miqdori ( $C_1$ ), %	0,008	0,010	0,011	0,013	0,014	0,009
Mavsum oxirida tuproqdag'i xlor miqdori ( $C_2$ ), %	0,028	0,033	0,034	0,043	0,052	0,036
Sizot suvning bug'lanishi (g) $m^3/ga$	3600	3260	2400	2620	2230	3330
Sizot suvning miretallashganligi ( $X$ ), g/a	0,36	0,22	0,30	0,37	0,34	0,39
M-mavsumiy sug'orish me'yori	7000	4500	6400	7260	7500	7300

**Nazorat uchun savollar:**

- Qanday suvni minerallashgan suv deb aytildi?
- Minerallashgan suvning yaroqliligi qaysi usul bilan aniqlanadi?
- Suvning tarkibida qancha g/l tuz eritma bo'lsa, g' o'za va boshqa ekinlarni sug'orish mumkin?

6

## 29-MASHG'ULOT

### TUPROQ TARKIBIDAGI YO'L QO'YILISHI MUMKIN BO'LGAN TUZ MIQDORINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproq tarkibida qishloq xo'jalik ekinlarining o'sish va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tuzlarning darajalari va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tuz miqdorini aniqlaydilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Tuproq tarkibidagi tuzlarni hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Sho'rlangan tuproqlar sharoitda qishloq xo'jalik ekinlarini ekish boshlanishdan oldin (erta bahorda) tuproq tarkibida o'simliklarni o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir etadigan tuzlar tulig'icha yuvib yuborilish kerak. Aks holda bunday tuproqlarda ekilgan urug'lar, ko'chat va maysalar nobud bo'ladi. Sho'r yuvish ishlarini yuqori darajada o'tkazilishi tuproq tarkibidagi tuzlarni tuliq yuvilishi bilan xarakterlanadi. Shu maqsadda har yili erta bahorda tuproq tarkibidagi tuzlarni yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan miqdori o'r ganiladi. O'rganish natijalari bo'yicha ekin ekishga qadar tuzning me'yori yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan me'yordan ortiq bo'lsa tuproq qayta yuviladi.

Tarkibida qishloq xo'jalik ekinlarining o'sish va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada suvdan eridigan tuzlar bo'lgan tuproqlar sho'rlangan tuproqlar deb aytildi. Tuproqning tarkibida uning og'rligiga nisbatan 0,3% tuz bo'lsa, sho'rланмаган, 0,3-0,8% gacha kuchsiz sho'rlangan, 0,8-1,2% bo'lsa, o'rtacha sho'rlangan va 2% hamda undan ortiq tuz bo'lsa kuchli sho'rlangan tuproqlar deb aytildi.

Har bir meliorativ rayon uchun sho'rланish darajasining alohida shkalasi mavjud. Mirzachul sharoitida tuproqlar xlor tuzlar bilan sho'rlanganligi uchun ekin ekishdan oldin yo'l quylishi mumkin bo'lgan tuz miqdori quruq qoldiq bo'yicha 0,3-0,4% ga, xlor bo'yicha 0,01-0,02% ga teng.

Farg'onan vodiysi tuproqlarida sulfat tuzlar ko'proq uchraydi. Shuning uchun yo'l quylishi mumkin bo'lgan tuz miqdori quruq qoldiq bo'yicha 0,6-0,8% ga va sulfat bo'yicha, 0,3-0,4% ga teng bo'ladi.

Qoraqolpog'iston avtonom respublikasida va Xorazm viloyatida ekin ekishdan oldin yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tuz miqdori yanada yuqoriroq bo'ladi, chunki bu yerlarning tuproqlarida Ca kationlari ko'p uchraydi va tuzlar o'simliklar uchun uncha ko'p xavf to'g'dirmaydi. Har qanday holatda ham tuproqda tuz miqdorini yuqoridagi ko'rsatkichdan ko'p bo'lishi ularning meliorativ jihatdan tayyor emashigini ko'rsatadi. Ushbu holatda tuproqning sho'ri to'liq yuvilmagan deyiladi.

Tuproqda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tuz miqdorini aniqlash, sho'rt yuvish me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyatiga ega.

Tuproqdagagi tuzlarning miqdori va tarkibini o'rganish uchun uning qatlamlaridan namuna olinadi. Namunalar ayrim olingan dalalarda sho'rланish darajasi o'rganilayotgan 1,0-1,5 m chuqurlikda har 5-10 sm dan konvert usulida kamida 5 ta nuqtadan olinadi. Olingan namunalar suvli surim tayyorlanadi. Daladan olingan tuproq namunalari laboratoriyada (uy havosida) quritiladi va xovonchada maydalanim teshikchali 1 mm diametrda bo'lgan elakdan o'tkaziladi. So'ngra ulardan o'rtacha 30 g analitik namuria olinadi. Namuna VLTK-500 elektr tarozisi yordamida olingani ma'qul. Suvli surim tayyorlashi uchun daladan olib kelingan tuproq namunasi (har bir qatlamdan 30-40 gramm tuproq olinadi) shisha idishga solinadi va ustiga tuproqqa nisbatan 5 marta ko'p suv qo'yiladi. Idishning og'zi tiqinch bilan berktilib yaxshilab chayqaladi, so'ngra qalim filtr orqali ikkinchi idishga o'tkaziladi. Suzib olingan eritma suvli surim deyiladi. Olingan namunalardan har bir qatlam bo'yicha quriq qoldiq va tuzning miqdori aniqlanadi hamda ushbu ma'lumotlardan foydalanim tuproqdagagi tuzning o'rtacha miqdori tegishli formula bilan hisoblanadi

Namuna olingan chuqurliklardagi tuz miqdori qo'shilib qatlam soniga bo'lsina bu ko'rsatkich tuproqdagagi tuzning o'rtacha arifmetik miqdorini bildiradi. Masalan, 7 ta qatlamdan (0-5, 5-10, 10-20, 20-30, 30-50, 50-70, 70-100) olingan tuzning miqdori  $5,219 \cdot 7 = 0,746\%$ . Bu chiqqan miqdor tuzning tuproqdagagi o'rtacha miqdorini to'g'ri aks ettirmaydi, balki o'rtacha arifmetik miqdordir (59-jadval).

Tuproq tarkibidagi tuzlarning haqiqiy foyiz miqdorini hisoblab chiqish uchun namuna olingan tuproq chuqurligini shu chuqurlikdagagi tuz miqdoriga ko'paytiriladi va umumiy chiqqan sonini jamlab, namuna olingan tuproq chuqurliklarining yig'indisiga bo'linadi, ya'ni:

$$\lambda_{\text{ortacha}} = \frac{\lambda_1 \cdot h_1 + \lambda_2 \cdot h_2 + \lambda_n \cdot h_n}{h_1 + h_2 + h_n}$$

bu yerda  $\lambda$  - qatlardagi tuz miqdori, %;  
 $h$  - qatlardagi qalinishi, sm.

59-jadval

Tuzlarning o'rtacha arifmetik miqdorini hisoblash

Namuna olingan chuqurliklar, sm	Tuzlarning tuproq og'irligiga nisbatan% miqdorlari	
	Quruq qoldiq	Xlor
0-5	1,246	0,090
5-10	0,950	0,078
10-20	0,740	0,065
20-30	0,685	0,060
30-50	0,612	0,045
50-70	0,440	0,027
70-100	0,546	0,030
Jami:	5,219	0,395
O'rtacha arifmetik miqdori:	0,746	0,056

Yuqoridaagi jadval ma'lumotlari asosida tuproq tarkibidagi tuzlarni o'rtacha haqiqiy miqdorini aniqlashni ko'rib chiqamiz.

$$\lambda_{\text{ortacha}} = \frac{\lambda_1 \cdot h_1 + \lambda_2 \cdot h_2 + \lambda_3 \cdot h_3 + \lambda_4 \cdot h_4 + \lambda_5 \cdot h_5 + \lambda_6 \cdot h_6 + \lambda_7 \cdot h_7}{h_1 + h_2 + h_3 + h_4 + h_5 + h_6 + h_7} =$$

$$\frac{(1,246 \times 5) + (0,950 \times 5) + (0,740 \times 10) + (0,685 \times 10) + (0,612 \times 20) + (0,440 \times 20) + (0,546 \times 30)}{5+5+10+10+20+20+30} =$$

$$\frac{6,230 + 4,750 + 7,400 + 6,850 + 12,240 + 8,800 + 16,380}{70} = \frac{60,7}{100} = 0,607$$

Demak, aniqlash jarayonida tuproqdagi tuzlarning o'rtacha haqiqiy miqdori quruq qoldiq bo'yicha  $= 0,607$  ga xlor ioni bo'yicha  $= 0,044\%$  teng bo'lgan. O'rtacha arifmetik miqdori esa  $0,746\%$  va  $0,056\%$  edi (60 jadval).

Agar tuproq namunasi olingan chuqurlik bir-birini takrorlasa (masalan, 0-5, 5-15, 15-30, 35-65, 65-90, 90-100) sonlar ham bir-biriga yaqin bo'lsa, o'rtacha miqdorni soddararoq yo'1 bilan hisoblash mumkin (60 jadval).

Bunda olingan chuqurlikdagi tuz miqdori shu chuqurlikning takrorlanishiga ko'paytiladi, so'ngra chiqqan sonni jamlab namuna

olingan umumiy chuqurlikka bo'linadi. Masalan, 61-jadval bo'icha: 0-5 sm dagi tuz miqdori 0,660%, qatlam qalinligining takrorlanishi 1 bo'lsa, 5-15 sm dagi tuz miqdori 0,454%, qatlam qalinligining takrorlanishi huddi shu tartibda boshqa qatlardagi tuzlar ham hisoblanadi.

60-jadval  
**Tuzlarning o'rtacha haqiqiy miqdorlarini hisoblash**

Namuna olingan chuqurliklar, sm	Gorizont qalinligi, sm	Gorizont qalinliklari va tuzlar ko'paytmasi	
		quruq goldiq	xlor ionni
0-5	5	1,246x5=6.230	0,090x5=0,450
5-10	5	0,950x5=9.750	0,078x5=0,390
10-20	10	0,740x10=7.400	0,065x10=0,650
20-30	10	0,685x10=6.850	0,060x10=0,600
30-50	20	0,612x20=12.240	0,045x20=0,900
50-70	20	0,440x20=8.800	0,027x20=0,540
70-100	30	0,546x30=16.380	0,030x30=0,900
Ko'paytmalar yig'indisi			
		62,650	4,430
O'rtacha haqiqiy miqdor		62,650:100=0,607%	4,430:100=0,044%

61-jadval  
**Tuzlarning o'rtacha haqiqiy miqdorlarini soddarooq aniqlash**

Namuna olingan chuqurliklar, sm	Gorizont qalinligi, sm	Gorizont qalinligi takrorlanishi	Tuz miqdori (%) va qatlam qalinligining ko'paytmasi
0-5	5	1	0,660x1=0,660
5-15	10	2	0,545x2=1,090
15-30	15	3	0,456x3=1,368
30-65	35	7	0,352x7=2,464
65-90	25	5	0,540x5=2,700
90-100	10	2	0,394x2=0,788
Takroriyliklar:		20	Ko'paytmalar yig'indisi:
			9,070
O'rtacha haqiqiy miqdor:			9,070:20=0,454%

Topshiriq: 62; 63; 64; 65 – jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalananib, tuproqdag'i tuzlarning o'rtacha haqiqiy miqdorini hisoblang.

62-jadval

**Topshiriq 1 uchun ma'lumotlar**

Tuproq gorizontlari, sm	quruq qoldiq, %
0-15	0,940
15-30	0,850
30-50	0,720
50-70	0,510
70-100	0,570
100-120	0,640

63-jadval

**Topshiriq 2 uchun ma'lumotlar**

Tuproq gorizontlari	Sulfat-ion, %
0-5	0,510
5-25	0,420
25-50	0,450
50-75	0,430
75-100	0,470

Kerakli narsalar: sho'rlaungan tuproq namunasi, burg'u, kolbalar, silindrlar, shtativ, distilyator, elektr tarozisi, filtr qog'ozni va boshqalar.

64-jadval

**Topshiriq 1 uchun ma'lumotlar**

Tuproq gorizonta, sm	quruq qoldiq, %
0-15	0,860
15-30	0,820
30-50	0,700
50-70	0,630
70-100	0,520
100-120	0,530

**Topshiriq 2 uchun ma'lumetlar**

Tuproq	Sulfat-ion, %
0-5	0,610
5-25	0,450
25-50	0,420
50-75	0,400
75-100	0,420

**Nazorat uchun savollar**

1. Laboratoriya sharoitida tuproq tarkibida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tuz miqdori qanday usul bilan aniqlanadi?
2. Tuproq namunalari qaysi tartibda olinadi?
3. Suvli so'rim tayyorlashdan qanday maqsad ko'zlanadi?
4. Tuproq tarkibida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tuz miqdorini aniqlash uchun nimalar kerak bo'ladi?

**30-MASHG'ULOT****TUPROQNING SHO'RLANISH DARAJASINI TEZKOR ELEKTROKONDUKTOROMETR USULI BILAN ANIQLASH**

**1.ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproqning sho'rланish darajasini tezkor elektrokonduktometr usuli bilan aniqlashni o'rganadilar.

**2.KERAKLI JIHOZLAR:** Sho'rlangan tuproq namunalari. 1 mm teshikli etak. Xovoncha ezcich. VLTK - 500 elektr tarozisi. 100 ml li stakanlar. Distillangan suv. Elektrokonduktometr asobi. Shishq tayoqchalar.

**3.ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproqning sho'rланish darajasini aniqlash uchun hozirgacha suvli so'rim analizi usulidan foydalaniildi. Suvli so'rim analizida to'liq va qisqartirilgan analizlar qilinadi.

To'liq analizda quruq qoldiq (suvda eriydigan moddalarning unumiy miqdori)  $\text{NSO}_3$ ,  $\text{NSO}$ ,  $\text{CL}$ ,  $\text{SO}_4$ ,  $\text{Ca}$ ,  $\text{Mg}$ ,  $\text{Na}$ ,  $\text{K}$  ning suvda eriydigan mikdorlarini aniqlash qabul qilingan.

Qisqartirilgan analizda esa quruq qoldiq va xlor ioni aniqlanadi. Ikkala holatda ham juda katta hajmda analitik ishlar bajariladi va uzoq

vaqt talab qilinadi hamda analizlar maxsus jihozlangan laboratoriya sharoitida o'tkaziladi.

Tezkor usulda esa elektrokonduktorometr asbobi yordamida tuproq suspenziyasining elektr tokini o'tkazish qobiliyati asosida aniqlanadi.

Bu usul xorijiy mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Bizning sharoitimizda ham hozirgi kunda keng joriy qilimmoqda. O'rta Osiyo irrigasiya ilmiy - tadqiqot instituti (SANIIRI) olimlari Yu.I.Shirovova va A.K.Chernikovlar tezkor usulni Markaziy Osiyo respublikalarining turli darajada sho'rlangan tuproqlarida o'rganib chiqdilar va bu usulni ishlab chiqarishga joriy qildilar.

### Tuproq namunalarini olish tartibi

Tuproqning sho'rlanish darajalarini elektrokonduk-torometr usulida aniqlash uchun har bir dalaning 3-5 ta joyidan burg'u yordamida tuproq namunalarini olinadi. Namunalar har 10 sm yoki 20 sm qatlamdan 1 - 2 m yoki sizot suvlarining joylashishi chuqurligiga bo'lgan masofadan olingani ma'qul. Har bir qatlamdan olingan tuproq namunasi alohida-alohida qilinib jurnalda namuna olingan xo'jalikning nomi, dala va namuna olingan nuqtaning tartib raqami, qatlam qalinligi, namuna olingan sana ko'rsatiladi. U quyidagi shaklda ifodalanadi:

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani «Nurofsbon» fermeri xo'jaligi 4-dala 1-nuqta 0-20 sm 5.04.2007 yil
--

Olingan tuproq namunasi 100 ml xajmdagi stakanga solinib, uning ustiga 30 ml distillagan suv quyiladi va shisha tayoqcha bilan aralashdiriladi. Aralashmadagi loyqa to'liq cho'kib bo'lgandan keyin eritmaga elektrokonduktorometrining elektrodi 1 sm chuqurligi botiriladi va asbobning ish tugmachasi bosiladi shunda asbob tablosida mazkur eritmaning elektr tokini o'tkazish miqdori desisiment/metr (s/t) da ko'rinadi.

Olingan natija tuproq qatlamlari bo'yicha maxsus daftarga yozib boriladi.

**Dala ishlari borishini qayd etish jadvali**

Namuna olingan joy va sana	Namuna olingan qatlami chuqurligi, sm	ES/ ds/t	Sho'rlanish darajasi
1	2	3	4
Jizzax viloyati	0-10		
Paxtakor tumani	10-20		
Navbaxor f/u	20-30		
05.04.2007	30-40		
	40-50 va h.k.		

Elektrokonduktorometr elektrodi temperatura kompensatori yordamida suspenziyaning elektr toki o'tkazishni 3 ta shkala bo'yicha ES 0,1 dan 40 s/t (detsisimen/metr xalqaro SI birligi bo'yicha) gacha aniqlaydi.

Olingen natijalar tuproqning xalqaro sho'rlanish darajalari (FAO) klassifikatsiya asosida va O'rta Osiyo tuproqlari uchun qabul qilingan shkala bo'yicha baholanadi.

**FAO bo'yicha tuproqning sho'rlanish klassifikasiyasi va tuzatish shkalasi**

ES, ds /t FAO bo'yicha	Sho'rlanish darajasi	ES <sub>1,1</sub> ds /t (K <sub>3,5</sub> ) (O'rta Osiyo tuproqlari uchun)
0-2	Sho'rlanmagan	0-0,6
2-4	Kuchsiz sho'rlangan	0,61-1,15
4-8	O'rtacha sho'rlangan	1,16-2,30
8-16	Kuchli sho'rlangan	2,31-4,7
>1b	Juda kuchli sho'rlangan	>4,7

1. Talabalar laboratoriyada 2 – 3 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linadi va har bir guruh talabalariga bitta nuqta bo'yicha turli qatlam chuqurliklardan olingen tuproq namunalari (10 tagacha) beriladi.

2. Tuproq namunalari qatlam chuqurligi bo'yicha (0-10, 10-20, 20-30 sm va h.k) joylashtiriladi.

3. Har bir tuproq namunasi hovonchada maydalananadi va 1 mm teshikli elakdan o'tkaziladi.

4. VLTK - 500 elektr tarozisi yordamida tuproq namunalaridan 30 g dan o'chab olinadi va 100 ml li stakanlarga solinadi.

5. Stakanlardagi tuproq namunasiga 30 ml dan distillangan suv quyiladi va shisha tayoqchalar bilan aralashtiriladi (3-5 min davomida).

6. Stakanlari loyqa to'liq cho'kib bo'lgandan keyin (stakanlarning usti yopilgan holda keyingi dars soatigacha qoldirish mumkin. Eritmaning tok o'tkazuvchanligi qatlamlar bo'yicha elektrokonduktorometr yordamida aniqlanadi va olingan natijalar jadval (68-jadval) ga yozib boriladi.

7. Olingan natijalarning 0-30 sm, 0-100 sm, 100-200 sm, 0-200 sm qatlamlar uchun o'rtacha miqdori hisoblanadi va har bir qatlarning sho'rланish darajasi 68-jadval bo'yicha aniqlanadi.

#### 68-жадвал

#### Amerika Qo'shma Shtatlarida foydalilaniladigan sho'r tuproqlar klassifikatsiyasi, (ES bo'yicha dsm/m)<sup>16</sup>

№	Tuproqning sho'rланish darajasi	Tuproq eritmasi konsentratsiyasi bo'yicha	Quruq tuproqning distillangan suv bilan 1:1 nisbatdagi aralashmasi bo'yicha	Quruq tuproqning distillangan suv bilan		Tuzlarning o'simlik-larga ta'siri
				Yengil tarkibli tuproq	Og'ir tarkibli tuproq	
1	Sho'rланмаган	<2	<0,6	<0,2	<0,2	Ta'siri sezilmaydi
2	Kam sho'rланган	2-4	0,61-1,15	0,2-0,3	0,2-0,4	Ta'siri sezilarli hosildorlik kamayadi
3	O'rtacha sho'rланган	4-8	1,16-2,30	0,4-0,7	0,5-0,9	Ko'pchilik o'simlik-larga salbiy ta'sir ko'rsatadi va hosil kamayadi
4	Kuchli sho'rланган	8-16	2,31-4,70	0,8-1,5	1,0-1,8	Sho'rga chidamli ekinlardan

<sup>16</sup> www.jineas.

						qoniqarli hosil olish mumkin
5	Juda kuchli sho'rlangan	>16	>4,70	>1,5	>1,8	Aytimi sho'rga chi- damli ekin- lardan qoni- qarli hosil olish mumkin

### Nazorat uchun savollar:

1. Ushbu usulda to'liq analizda qaysi tuzlar aniqlanadi?
2. Nima uchun xlor ioni to'liq va qisqartirilgan analizlarda aniqlanadi?
3. Tuproq namunalari qanday tartibda olinadi?
4. Laboratoriya mashg'ulotini o'tish uchun qanday jihozlar kerak bo'ladi?

## 31-MASHG'ULOT TUPROQLARNING SHO'RLANGANLIK XARAKTERLAR (TIPI)NI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproqlarning sho'rlanganlik xarakterlarini, ya'ni tuzlarning tarkibini anion va kationlarga bo'lib o'rghanadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Tuproqlarning sho'rlanganlik xarakterlarini hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Sho'rlangan tuproqlarni o'rghanishda saqat ularning sho'rlanganlik darajalarni aniqlab qolmay, balki sho'rlanish xarakterini ham o'rghaniladi. Tuproqlarning sho'rlanganlik xarakterini – tuzlarning tarkibini anion va kationlarga bo'lib o'rghanish, ularni yaxshilashda ya'ni meliorativ tadbirlar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Chunki sho'rlanish xarakteri tuproqning qator fizik-kimyoviy, meliorativ xususiyatlariiga tasir etadi. Shu bilan bir qatorda malum turdag'i tuproqlarni tarkibidagi tuzni siqib chiqishga doir tadbirmi qo'llash uchun ham zarur hisoblanadi.

Tuz anionlariga ko'ra sho'rlanganlik xarakteri bo'yicha tuproqlar xlorli, sulfat-xlorli, xlor-sulfatli va sulfatli, kationlarga ko'ra, natriyli, magniy-natriyli, kalsiy-natriyli, magniyli va kalsiyli turlarga bo'linadi.

Quydag'i 69-jadvalda tuproqlarning sho'rlanganlik xarakterini aniqlash shkalasi keltirilgan.

69-jadval

**Tuproqlarning sho'rlanganlik xarakterini aniqlash shkalasi**

Ionlar nisbati va qiymatlari (mg-ekv.)		Tuproqlarning sho'rlanish xarakteri
$\frac{Cl}{SO_4}$	$\frac{SO_4}{Cl}$	Xlorli
> 2	< 0,5	Sulfat-xlorli
1-2	0,5-1	Xlor-sulfatli
0,2-1	1-5	Sulfatli
< 0,2	> 5	
$\frac{Na}{Ca+Mg}$	$\frac{Mg}{Ca}$	
4 va >	-	Natriyli
1-4	>1	Magniy-natriyli
1-4	<1	Kalsiy-natriyli
< 1	>1	Magniyli
< 1	<1	Kalsiyli

Tuproqlarning sho'rlanganlik xarakterini aniqlash uchun tekshiradigan daladan olib kelingan tuproq namunalari suvli surim qilinadi va uni kimyoviy tahlil qilish yo'li bilan anion va kationlarning og'irlilik nisbatlari foiz hisobida hisoblanadi hamda ularni milligramm ekvivalentlariiga o'tkazish koeffitsiyentlari ko'paytirish yo'li bilan ionlarning milligram ekvivalent og'irliklari topiladi (70-jadval).

70-jadval

**Ionlarni milligramm ekvivalentlariiga o'tkazish bo'icha  
ma'lumotlar**

HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Cl <sup>-</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	Ca <sup>2+</sup>	Mg <sup>2+</sup>	Na <sup>+</sup>
Og'irlilik foizlari					
0,024	0,084	0,304	0,091	0,026	---
O'tkazish koeffisientlari					
16,39	28,17	20,83	49,90	83,33	43,47
100 g. tuproqning miligramm-ekvivalentlari					
0,34	2,36	6,33	4,54	2,17	2,32

**Izoh:** Na ning miqdori milligramm ekvivalentlari farqi bo'yicha hisoblab chiqiladi, ya'ni jami anionlar yig'indisidan kationlar yig'indisi ajratib tashlanadi.

$$\Sigma \text{Anion} - \Sigma \text{kation} = \text{Na}$$

Ionlar miqdori milligramm ekvivalentlarda aniqlangandan so'ng, ularning nisbatlari hisoblanadi va olingan natijalar bo'yicha 70-jadvaldag'i shkala yordamida tuproqning sho'ranganlik xarakterlari aniqlanadi.

Topshiriq: Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha tuproqning sho'ranganlik xarakterini anionlarga va kationlarga ko'ra aniqlang:

Berilganlar: Cl- 2,36 mg/ek;

SO<sub>4</sub> - 6,33 mg/ek;

Ca - 4,54 mg/ek;

Mg - 2,17 mg/ek;

Na ni hisoblab chiqing.

Cl:SO<sub>4</sub>=2,36:6,33=0,37; SO<sub>4</sub>:Cl=6,33:2,36=2,68; Anionlar bo'yicha o'rganilgan tuproqlar xlor-sulfatli sho'rangan.

Na:(Ca+Mg)=2,32:(4,54+2,17)=0,34 va Mg:Ca=2,17:4,54=0,48. Kationlar bo'yicha o'rganilgan tuproqlar kalsiyli sho'rangan.

Demak, suvli surim natijalaridan kelib chiqib o'rganilgan tuproqlar anionlarga ko'ra xlor-sulfatli va kationlarga ko'ra kalsiyli ekan.

Xo'jalik miqyosidagi (fermer xo'jaligi va h.k.) tuproqlar sho'ranganlik xarakteri bo'yicha aniqlab chiqilgandan so'ng uni yaxshilash tadbirlari ishlab chiqiladi.

Topshiriq. 71-jadvalda keltirilgan malumotlarga ko'ra tuproqlarning sho'ranganlik xarakterini aniqlang.

71-jadval

**Ionlarning og'irlik foizlari.**

Masala № 24	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Cl <sup>-</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	Ca <sup>2+</sup>	Mg <sup>2+</sup>	Na <sup>+</sup>
1	0,026	0,034	1,006	0,160	0,042	-
2	0,040	0,210	0,350	0,180	0,110	-
3	0,033	0,077	0,210	0,140	0,035	-
4	0,050	0,160	0,062	0,170	0,082	-
5	0,036	0,044	0,190	0,070	0,096	-

### Nazorat uchun savollar:

1. Tuproqning sho'rlanganlik xarakteri nima?
2. Anionlar bo'yicha necha turga bo'linadi?
3. Natriyning miqdori qanday topiladi?
4. Kationlar bo'yicha tuproqlarni sho'rlanganlik xarakteri qanday aniqlanadi?

### 32-MASHG'ULOT

### TUPROQDAGI SUV VA TUZ ZAXIRASINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproqdagagi suv va tuz miqdorlarini aniqlashni o'rganadilar.

**2. KERAKLI JIHOZLAR:** *Tuproqni hajm massasini aniqlash silindri, burg'u, alyumin stakanchalar, termostat, elektr tarozi, suvli so'rim analizi natijalari va boshqular.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproq tarkibidagi suv va tuz miqdorlarini aniqlash tuproqga meliorativ baho berish va sho'r yuvish meyorini belgilashda muhim abhamiyatga ega. Sho'r yuvish jarayoni muhim agrotexnik tadbir bo'lib uning sifatlari o'tkazish ko'p holatda tuproq tarkibidagi suv zahirasi va tuz miqdoriga bog'liq bo'ladi. Tuproqdagagi suv va tuz miqdorlarni bilgan holda sho'r yuvishning muddati va me'yorlari belgilanadi. Tuproqdagagi suv miqdori uning mexanik tarkibiga, nam sig'imiga va adsorbsiyalash xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Tuproq tarkibidagi suv va tuz miqdorlarini aniqlashda uning hajm massasini, namligini, hisobiy qatlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Dastlab ma'lum maydondagi, aniq hisobiy qatlarni va hajm massasidagi tuproq og'irligi ( $t/ga$ ) hisoblab chiqiladi.

U quydagi formula bilan aniqlanadi:

$$B = s \cdot h \cdot d, t/ga$$

bu yerda  $B$  – tuproq og'irligi,  $t/ga$ ;

$s$  –  $1\text{ ga}$  maydon yuzasi ( $10000$ )  $m^2$ ;

$h$  – hisobiy qatlarni,  $m$ ;

$d$  – tuproqning hajm og'irligi,  $t/m^3$ .

**Topshiriq:** Hisobiy qatlarni  $10\text{ sm}$ , tuproqning hajm og'irligi  $1,40\text{ t/m}^3$  bo'lsa,  $1\text{ ga}$  maydondagi tuproq og'irligi quyidagicha topiladi:

$$B = s \cdot h \cdot d = 10000 \cdot 0,1 \cdot 1,40 = 1400\text{ t/ga}.$$

Shunday qilib, 10 sm chuqurlikdagi hajm massasi 1,40 t/m<sup>3</sup> bo'lgan tuproq og'irligi 1400 t/ga teng. Agar uning 18,0% ni namlik tashkil etsa I gektardagi suv miqdori ( $W_c$ ) quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

B ning o'rniغا yuqoridagi formuladagi qiymatini qo'ysak, u holda formula qo'yidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$W_c = \frac{B \cdot \lambda}{100} = \frac{s \cdot h \cdot d \cdot \lambda}{100} = \frac{10000 \cdot 0,1 \cdot 1,40 \cdot 18,0}{100} = 252, \text{ t/ga}$$

yoki 252,0 m<sup>3</sup>/ga, chunki 1 m<sup>3</sup> suv 1 tonna og'irlilikka teng.

bu yerda  $W_c$  – tuproq tarkibidagi suvning miqdori m<sup>3</sup>/ga;  
 $\lambda$  – tuproqning namligi, %.

Tuproq tarkibidagi tuz miqdori ( $W_t$ ) quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi.

$$W_t = 100 \cdot h \cdot d \cdot c$$

bu yerda  $W_t$  – tuproq tarkibidagi tuzning yalpi miqdori, t/ga;  
 $c$  – tuproq tarkibidagi tuzning foiz miqdori.

**Topshiriq:** Hisobiy qatlam ( $h=10$  sm), hajm massa ( $d=1,35$  t/m<sup>3</sup>) va ma'lum yuzadagi tuzning foiz miqdori 0,65 % bo'lsa, uning yalpi miqdorini quydagicha hisoblab chiqiladi:

$$W_t = 100 \cdot 0,1 \cdot 1,35 \cdot 0,65 = 8,77 \text{ t/ga.}$$

**Topshiriq.** 72-jadvaldagи ma'lumotlar bo'yicha tuproqdagi tuz va suv miqdorlarini hisoblang hamda tuproqga meliorativ baho bering.

### 72-jadval

#### Tuproqdagi suv va tuz miqdorlarini aniqlashga doir ma'lumotlar

Tuproq chuqurligi, sm	Tuproqning hajm og'irligi, t/m <sup>3</sup>	Suv va tuz miqdori, og'irlilikka nisbatan, %	
		suv	tuz
0-10	1,30	14,5	0,80
10-20	1,38	20,1	0,70
20-30	1,36	19,9	0,55
50-100	1,35	20,3	0,56
100-200	1,40	22,4	0,46
0-100	1,39	21,1	0,70
0-200	1,38	21,6	0,71

### Nazorat uchun savollar:

1. Tuproq tarkibidagi tuz va suv miqdorini aniqlashning qanday ahamiyati bor?
2. Laboratoriya sharoitida tuz va suv miqdorini aniqlash uchun nima qilinadi?
3. Tuproq og'irligi nima maqsadda aniqlanadi?

### 33-MASHG'ULOT

#### TUPROQ ERITMASI KONSENTRASIYASINI XLOR-IONI BO'YICHA ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproq eritmasi konsentratsiyasini xlor-ioni bo'yicha aniqlashni o'rghanadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Tuproq eritmasi konsentratsiyasini hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** O'simliklarning tuproqdan oziqlanishi avvalo undan mavjud bo'lgan mineral va organik moddalarning eruvchanligiga bog'liq. Erish jarayoni tuproqda mavjud bo'lgan suv miqdori bilan xarakterlanadi. Tuproqda yetarli nam bo'lganda organik va mineral moddalar yaxshi erib, tuproq eritmasini bosil qiladi, aksincha, bu moddalar o'simliklar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan formaga o'tib ketadi.

Tuproq eritmasi tarkibida o'simliklami o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan juda ko'p kimyoiy elementlar mavjud bo'lib, ularning miqdorlari doimiy mas vaqt mobaynida o'zgarib turadi. O'simliklar hayotida tuproq eritmasi muhim rol o'yaydi. Sho'rlangan yerlarda tuproq eritmasining tarkibidagi ko'plab Cl<sup>-</sup> va SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ionlari uchitaydi. Tuproq eritmasining konsentratsiyasi uning osmatik bosimini belgilaydi. Tuproq osmatik bosimi 2-5 atm.dan oshmagagan sharoitda o'simlik yaxshi o'sib rivojlanadi. Agar tuproq eritmasining osmatik bosimi, o'simlik hujayrsi surishi kuchidan yuqori bo'lsa, o'simlik tuproqdan kerakli elementlami o'zlashtira olmaydi va buning natijasida u o'sishdan to'xtaydi, ayrim holatda nobud ham bo'ladi.

Tuproq eritmasi konsentratsiyasi qanchalik ko'p bo'lsa, uning osmatik bosimi shuncha yuqori bo'ladi va o'simlikda so'lish holati vujudga kelib, u nobud bo'ladi.

Tuproq eritmasining konsentratsiyasi undagi moddalarning miqdori va tarkibi bilan bir qatorda uning namligiga ham bog'liqdir.

Tuproq namligi qanchalik kam bo'lsa, tuproq eritmasi osmatik bosini shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Shu sababli sho'rangan yerlarda o'simliklarni sug'orish rejimi sho'rلانмаган yerlaridagi qaraganda birmuncha "yumshoq" qilib belgilanadi.

Tuproq eritmasining konsentrasiyasini quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_x = \frac{S \cdot 1000}{M}, \text{ g/l}$$

bu yerda  $K_x$  – tuproq eritmasining konsentratsiyasi, g/l;

$S$  – 100 gr quruq tuproqdagi xlor miqdori, g;

1000 – 1 l suvning grammalarda berilgan qiymati;

$M$  – tuproq namligi, og'irlikka nisbatan, %.

**Topshiriq:** Ma'lum tuproq qatlamda (0-10 sm) 17,6% namlik va 0,026% xlor ioni bo'lsa, tuproq eritmasining konsentratsiyasini hisoblang. Eslatma: 0-10 sm qatlamda 15,6% namlik va 0,026% xlor ioni bo'lsa, bu 100 gr tuproqda 17,6 gr suv va 0,026 gr xlor bortigini bildiradi.

Demak, topshiriq bo'yicha tuproqdagi xlor ioni konsentratsiyasi yo'yidagiga teng

$$K_x = \frac{S \cdot 1000}{M} = \frac{0,026 \cdot 1000}{15,6} = \frac{26,0}{15,6} = 1,66 \text{ g/l}$$

Shu formula yordamida boshqa qatlamlar bo'yicha ham tuproq eritmasi konsentratsiyasi aniqlanadi. Quyidagi 73-jadvalda tuproq eritmasining konsentratsiyasini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

73-jadval

### Tuproq eritmasi konsentratsiyasini xlor ioni bo'yicha aniqlash uchun ma'lumotlar

Tuproq gorizonti, sm	Miqdorlar		Eritma konsentratsiyasi g/l
	namlik	Xlor ioni	
0-10	17,6	0,026	1,66
10-30	17,8	0,033	
30-50	18,5	0,029	
50-80	20,6	0,054	
80-100	21,0	0,057	

Topshiriq. 73-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha tuproq eritmasi konsentratsiyasini xlor ioni bo'yicha hisoblang va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun qanday meliorativ tadbirdar qo'llash kerakligini ko'rsating.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Tuproq eritmasining konsentratsiyasi nima?
2. Tuproq eritmasining konsentratsiyasini o'simlik uchun qanday ahamiyati bor?
3. Tuproq eritmasining konsentratsiyasi qaysi formula yordamida aniqlanadi?

### 34-MASHG'ULOT

#### TUPROQLARNING SHO'RLANGANLIK DARJASI, SIZOT SUVLARNING JOYLASHGAN CHUQURLIGI VA ULARNING MINERALLASHGANLIK DARJASINI O'SIMLIK QOPLAMIGA KO'RA ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproqlarning sho'ranganlik darjasи, sizot suvlarning joylashgan chuqurligi va ularning minerallashganlik darjasini o'simlik qoplamiga ko'ra aniqlashni o'rganadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Tuproqlarning sho'ranganlik darjasи, sizot suvlarning joylashgan chuqurligi va ularning minerallashganlik darjasini o'simlik qoplamiga ko'ra aniqlashga tegishli ma'lumotlar va formulalar, gerbariylar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproqlar va sizot suvlarning sho'ranganlik darjalari odatda tegishli dalalarda olingan tuproq namunalarni kimiya viy tahlil qilish yo'li bilan aniqlanadi.

Bu usul juda aniq bo'lib hisoblanadi. Lekin, ko'p mashaqqatlι ish, (ko'p vaqt va moddiy xarajatlar talab qiladi). Madaniy va yovvoyi o'simliklarning tuzga chidamligi har xil va ular tuproqdagι tuzga turlicha munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ham tuproq va sizot suvlari uchun sho'ranganlik darjalalarini o'simlik qoplamiga ko'ra tezkor aniqlash usuli B.F.Fedorov (1964) tomonidan O'zbekiston sharoitida (Mirzacho'l va Faig'on'a vodiysi) ishlab chiqilgan. Ushbu tezkor aniqlash usuli ayrim kamchiliklardan holi emas, ammo zarurat va vaziyatlardan kelib chiqib mazkur usul bilan dalalaming holatiga meliorativ baho berish mumkin (54-55-rasm).

Uzoq evolyutsiya jarayonida har xil sho'rlangan tuproqlar va sizot suvlari sharoitlariga turlicha moslashgan o'simlik turlari kelib chiqqan. Ayrim o'simliklar kuchsiz sho'rlangan va botqoqlangan, boshqalari - o'rtacha, uchinchilari esa kuchli sho'rlangan va botqoqlangan tuproqlarda o'sib-rivojlanishi mumkin. Birinchi gruppaga o'simliklari sho'rlangan va botqoqlanish jarayonlari me'yori bo'lgan tuproqlarda yaxshi moslashgan bo'lsa, ikkinchilari esa bir oz qiynalib usib-rivojlanadi, uchinchilari umuman o'smasligi va rivojlanmasligi mumkin.

Tuproqlarni sho'rلانish va botqoqlanish sharoitlariga bunday moslashishi ma'lum bir o'simlik gruppalarini shakillanishiga olib keladi. Bu jihatdan o'simlik gruppalarini o'rGANISH ularga ko'ra tuproqlarni sho'rланishi va botqoqlanish darajalarini aniqlash imkoniyatini beradi.



64-rasm. Kurmak. Sizot suvlari 0-1 m da joylashgan o'tloqi-botqoq tuproqlarda o'sib rivojlanadi.



65-rasm. Olabo'ta. Sizot suvlari 3-4 m da joylashgan tuproqlarda o'sib rivojlanadi.



66-rasm. Zubturum. Sizot suvlari 0-1 m da joylashgan o'tloqi-bot-qoq tuproqlarda o'sib rivojlanadi.



67-rasm. Kakra. Kuchsiz sho'rlangan yerlarda (xlor 0,01-0,04) o'sadi.

Bu usuhi aniqligi va ishonchligi amaliy tomonidan tasdiqlangan bo'lib, yangitdan o'zlashtiriladigan quruq va bo'z yarlarni meliorativ jixatdan baholashda keng qo'llanilmoqda.

Tuproqlarning sho'ranganlik darajalari besh balli shakala yordamida quruq qoldiq, xlor, sulfat ionlariga ko'ra aniqlanadi (74 jadval). Mazkur besh balli shkala Mirzacho'l va Farg'ona vodiysi tuproqlarning sho'ranganlik xarakterlari va madaniy o'simliklarning tuzga chidamliligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.



68-rasm. Turli darajada sho'rangan tuproqlarda o'simliklarning holati.<sup>17</sup>

74-jadval

**Tuproqiar sho'ranganlik darajalarini besh balli shkalasi**

Shurlanganlik balli	Tuproqning sho'rلانish darajalari	Tuzlarning hisobiy qatlamdag'i og'irligi %		
		Qattiq qoldiq	Xlor (Cl)	Sulfat (SO <sub>4</sub> )
Mirzacho'l				
I	Juda kuchsiz	0,4-0,8	0,01-0,04	0,18-0,36
II	Kuchsiz	0,8-1,2	0,04-0,10	0,36-0,54
III	O'rtacha	1,2-1,6	0,10-0,20	0,54-0,72
IV	Kuchli	1,6-2,0	0,20-0,30	0,72-0,96
V	Sho'rxok	2,0-2,5	0,30-0,40	0,96-1,20
Farg'ona vodiysi				
I	Juda kuchsiz	1,0-1,8	0,01-0,04	0,10-1,20
II	Kuchsiz	1,8-3,0	0,04-0,10	1,20-1,80
III	O'rtacha	2,6-3,6	0,10-0,20	1,80-2,16
IV	Kuchli	3,6-4,9	0,20-0,30	2,16-2,88
V	Sho'rxok	-	0,30-0,40	-

<sup>17</sup> Horneck D.A., J.W. Ellsworth, B.G. Hopkins, D.M. Sullivan, and R.G. Stevens Managing Salt-affected Soils for Crop Production. USA. 2007. p. 11.

Ma'lumki, ayrim o'simliklarni har xil sho'rangan tuproqlarga moslashganlik darajalari turiicha bo'ldi. Shu sababli bu o'simliklaga ko'ra tuproqni sho'ranganlik darajasi va sizot suvlarini joyla-shish chuqurliklarni aniqlash mumkin emas. Ana shuni hisobga olib ma'lum sharoitga moslashgan o'simlik gruppasi aniqlanib, ulardan eng yaxshi moslashgan (o'sib rivojanishiga ko'ra) o'simlik turlarini ajratib olinadi va ularga ko'ra tuproqga meliorativ jihatdan baho beriladi.

Quyidagi jadvalda tuproqni va sizot suvlarni sho'ranganlik darajalari hamda sizot suvlar chuqurligini aniqlashga imkon beruvchi asosiy o'simliklar gruppalari keltirilgan. Bu yerda: o'simliklar tuproq tiplariga (o'tloqi-botqoq, o'tloqi, o'tloqi bo'z va bo'z) ko'ra gruppalarga bo'lingan (75-jadval).

Shuni aytib o'tish kerakki, ayrim o'simliklar o'zining tuzga chidamliligi bilan har xil darajada sho'rangan tuproqlarda uchrashi mumkin. Masalan: qamish va yantoq sho'rланмаган va sho'rangan yerlarda o'zini juda yaxshi his etadi.



69-rasm. Qamish.  
Sizot suvlari 0-1 m da  
joylashgan o'tloqi-  
botqoq tuproqlarda  
o'sib rivojanadi.



70-rasm. Qoraajriq.  
Tarkibida 0,03-0,04  
% xlor bo'lgan  
tuproqlarda o'sib  
rivojanadi.



71-rasm. G'umay.  
Sho'rланмаган  
tuproqlarda (qurniq  
goldiq 0,3% xlor 0,01 %  
gacha) o'sadi.

Tuproqlarning sho'ranganlik darajasi va sizot suvlarning minerallashganligi bilan bir qatorda sizot suv sathini ham o'simlik qoplamiga ko'ra aniqlash mumkin. Chunki, sizot suvlarning uzoq vaqt ta'siri natijasida shu teritoriyada ayrim o'simlik gruppalarini

shakllanishi vujudga kldi. Mazkur daladagi o'simlik qoplamiga qarab faqat sizot suv sathini aniqlabgina qolmay, balki uning minerallashganlik darajasiga ham baho berish mumkin(69-70-71 rasmlar).

Malumki, sizot suvlari yer betiga qanchalik yaqin joylashgan va minerallashgan bo'lsa, tuproqda sho'rланish jarayoni shunchalik tez boradi. Sizot suvlarning minerallashganlik darajasi va tuproqning sho'rланish darajasi orasidagi bu bog'liqlik sizot suvlari yer betiga 3-4 metr dan yaqin joylashgan bir xil gruntli tuproqlarda yaqqol kuzatiladi.

### 75-jadval

#### **Tuproqlarning sho'rлананлик ва sizot suvlaring chuqurligini xarakterlovchi o'simliklar guruhlari (B.V.Fedorovning umumlashtirilgan shkalasi)**

Tuproq tiplari bo'yicha o'simliklarning biologik guruhlari			
Sizot suvlari 0-1m da joylashgan o'tloq-botqoq tuproqlar	Sizot suvlari 1-2m da joylashgan o'tloq tuproqlar	Sizot suvlari 2-3m da joylashgan o'tloq-bo'z tuproqlar	Sizot suvlari 3-4m da chuqunda joylashgan bo'z tuproqlar
<b>Sho'rланнagan tuproqlar (quruq qoldiq 0,3, xlor - 0,01% gacha)</b>			
<u>Bargizub</u> (Podoroznik)	<u>3.G'umay</u> (djonsouova trava)	<u>6.Bo'ztikan</u> (Bodyak jeltovato-cheshuychato'y)	<u>7.Rang</u> (Osoka pusto'rnaya)
<u>1. Sebarga</u> (klever zemlyanichnoy)	<u>4.Yalpiz</u> (myata)		<u>8.Sachratqi</u> (sikoriy)
	<u>5.Qizil qiyoq</u> (Imperata)		<u>9.Salomalaykum</u> (So't kruglaya)
A) 1 ball sho'rланish (juda kuchsiz sho'rланан tuproqlar: qatiq qoldiq 0,4-0,8)			
<u>1.Iraq'noq</u> (Shetinnik sizov)	Xlor-0,01-0,04%	<u>SO<sub>4</sub></u> - 0,18-0,36%	
	<u>2.Otquloq</u> (shavel krasivoy)	<u>4.Tarokbosh</u> (koster krovelnogo'y)	<u>6.Qizil burgan</u> (Polo'u velichno'ya)
	<u>3.Qo'ytikan</u> (durmishnik)	<u>5.Etti bo'g'in</u> (Egilons silindrisheskiy)	<u>7.Olabuta</u> (Mar belaya)
B) tarkibida 0,02-0,03% xlor bo'lган tuproqlar			
<u>1.Kurmak</u> (kurincoe proso)	<u>2.Semiz o't</u> (Portulak)	4.(melkolepestnik)	<u>5.Oo'vepchak</u> (vvunok olevoy)
V) tarkibida 0,03-0,4 xlor bo'lган tuproqlar.			

Qamish (trosmik)	<u>Oora airiq</u> (polchataya trava)	4. Eshak sho'ra (hrisa)	
	3. Yantooq (verblyujya kolyuchka)		
Kuzgi-qishki sho'r yuvish me'vorilari, gektariga ming m <sup>3</sup>			
2-3	2-3	1-2	1-2
II ball sho'rланыш (kuchsiz sho'rланган tuproqlar: xlor- 0,04-0,10, qattiq goldiq 0,8-1,2; SO <sub>4</sub> -0,36-0,54%).			
	1. Kopevidnaya (лебеди)	<u>4. Oiyotik</u> (ячмен заячий)	7. Olabuta shura (лебедка татарская)
	2. Oqbosh (Карелийная каспийская)	5. Qamchingul (горлес серебряный)	
	3. Surtup (латук татарский)	6. Boltırıq (сердечница пушистая)	
Kuzgi-qishki sho'r yuvish me'vorilari, gektariga mine m <sup>3</sup>			
5-6	4-5	3-4	2-3
III ball sho'rланыш (O'racha sho'rланган tuproqlar: qattiq goldiq 1,2-1,6, xlor 0,10-0,20, SO <sub>4</sub> -0,54-0,72%)			
1.Oddiy tripolkum (tripolium obo'knoven- no'y)	<u>2. Ko'kchako'k</u> (бесскилията)	<u>5. Arapgon</u> (мортук восточный)	8. Okjusan, shuvak (полон приморская)
	2.Kermak sovun (кермек ушколистый)	6. Yulg'un (гребенщик)	
	Katta bargut (асада странная)	7. yalpoq sho'ra эхинопизон иссиплистый)	
Kuzgi qishki sho'r yuvish me'vorilari, gektariga ming m <sup>3</sup>			
10-11	8-10	6-8	4-6
IV ball sho'rланыш (kuchli sho'rланган tuproqlar: qattiq goldiq- 1,6-2,0, xlor 0,2-0,3, SO <sub>4</sub> -0,72-0,96%)			
♂	1. Qora sho'ra (сведа разнолистная)	2. Oq sho'ra (сведа дуголистная)	4.Qiltanoq (костер северсоваз)

		3. Turgay o't (Петросимония сибирская)	
<b>Kuzgi-qishgi sho'r yuvish me'yorilar, gektariga ming m<sup>3</sup></b>			
12-16	10-12	8-10	6-8
V ball sho'rланыш (shurxoklar: qattiq qoldiq 2,0-2,5, xlor 0,3-0,4 SO <sub>4</sub> 0,96-1,2 %).			
1. Qizil sho'r'a (солерос травянистый)	2. Kreskiy melovniik (млновник креский)	4. Baliq ko'z (солянка мясистая)	
	3. Sho'r ajiq (прибрежника солончаковая)	5. Baliq ko'z (солянка щерстистая)	
<b>Kuzgi-qishki sho'r yuvish me'yorilar, gektariga ming m<sup>3</sup></b>			
18-20	16-18	14-16	10-12

Izoh: 1. Tuzlarning miqdorlari hisobiy qatlani uchun og'irlik foizlarda berilgan:

2. Nomlari tagiga chizilgan o'simliklar tuproq ustki qatlamida tarqalgan ildiz sistemasiga ega bo'lib (tuzlar tuproqning ustki yarim metrida), chizilmaganlari esa ildiz sistemasi chuqurga ketgan o'simliklardir (tuzlar 1 metrli qatlamda).

Mirzacho'lning Sho'ruzak pastliklari va Farg'onadagi Fedchenko tajriba dasasida olingen ma'lumotlar 76-jadvalda berilgan

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tuproqni, sizot suvlarni sho'rlanganlik darajalarini hamda ularni joylashish chuqurliliklarini o'simlik qoplamiga ko'ra aniqlash har bir alohida olingen tabiiy zona uchun o'ziga xos shkalalarni ishlab chiqarishni talab qiladi. Ayrim joy uchun ishlab chiqilgan bu usulni to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi joy uchun qo'llash mumkin emas.

**Topshiriq 1.** Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida tuproqni, sizot suvlarini sho'rlanganlik darajasini va ularning chuqurligini o'simlik qoplamiga qarab aniqlash usulini o'zlashtirish.

**Topshiriq 2.** Gerbariyalar bilan tanishib, har xil darajada sho'rlangan tuproqlar, sizot suvlarni minerallashganlik darajalari va joylashgan chuqurliklarni aniqlashga imkon beradigan o'simlik gruppalarini aniqlang.

**O'simlik qoplamiga qarab aniqlanadigan sizot suvlarning  
minerallashganlik darajalari**

Sho'rlanganlik balli	Mirzacho'lda		Farg'ona vodiysida	
	qattiq qoldiq	xlor	qattiq qoldiq	xlor
I	0,3-0,5	0,05-0,12	0,5-1,0	0,05-0,10
II	0,5-0,8	0,12-2,0	1,0-15,0	0,10-2,0
III	8,0-15,0	2,0-4,0	15,0-50,0	2,0-4,0
IV	15,0-20,0	4,0-5,0	50,0-70,0	4,0-5,0
V	20,0-60,0	5,0-20,0	70,0-150,0	5,0-15,0

**Nazorat uchun savollar:**

1. Tuproqning sho'rlanganlik darajasi deganda nimani tushunamiz?
2. Sho'rlanishni o'simlik qoplamasiga ko'ra aniqlash kim tomonidan ishlab chiqilgan?
3. Bu usulni hamma sharoitda ham qo'llash mumkinmi?
4. Sizot suvlaringin sho'rlanishini o'simliklarga qarab aniqlasa bo'ladimi?

**35-MASHG'ULOT**

**ZOVURLASHTIRILGAN VA ZOVURLASHTIRILMAGAN  
SHAROIT UCHUN SHO'R YUVISHNING UMUMIY  
ME'YORINI HISOBBLASH**

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar zovurlash-tirilgan va zovurlashtirilmagan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiyligi me'yorini hisoblashni o'rjanadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** Zovurlashtirilgan va zovurlashtirilmagan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiyligi me'yorini hisoblashniga tegishli ma'lumotlar va formulalar.


**3. ISHNING NAZARIYAHAMIYATI:** Sho'rlangan tuproqlar sharoitda tuproq tarkibidagi tuzni yuvib chiqarib yuborish asosiy agroteknik tadbirlardan bo'lib, uni sifatlari o'tishi yermi sho'r yuvishga tayyorlash, sho'r yuvish usullari, muddati bilan bir qatorda sho'r yuvish me'yorini to'g'ri belgilanganligiga bog'liqdir.

Tuproqlarning sho'mi yuvish maqsadda ortiqcha me'yorda suv berish yerning meliorativ holatini yomonlashuviga olib kelib, tuproqqa bahorgi ishlov berish muddatlarini va okishni kechiktirib

yuboradi. Bu holat ayniqsa, sho'r yuvish bahorda (fevral, mart oylarida) o'tkazilganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sho'r yuvishni kichik, kam me'yordarda o'tkazish esa tuproqni yetarli darajada sho'rsizlanmaslikka olib keladi.

Sho'r yuvish me'yori tuproqning mexanik tarkibiga, dalalarda yetarli zovurlar mavjudligiga, tuproqdag'i tuzlarning tarkibi va uning miqdoriga, sizot suvlarinining chuqurligiga hamda boshqa omillarga bog'liq bo'ladi (72-rasm).



72-rasm. Sho'rlangan yerlarda cheklarga bo'lib bestirib sho'r yuvish usuli.



73-rasm. Sho'r yuvish tasirida tuzlarning harakati. (oq dog'lar tuzlar).<sup>18</sup>

Zovurlashtirilgan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy me'yorini hisoblash.

Sizot suvlar oqib ketishi yaxshi bo'lgan zovurlashtirilgan sho'rlangan yerlar uchun sho'r yuvishning umumiy me'yorini A.E.Nerozin tomonidan tavsiya etilgan formula yordamida aniqlanadi:

$$M = (H - m) + \frac{S}{K} + (n - A),$$

<sup>18</sup> Horneck D.A., Ellsworth J.W., Hopkins B.G., Sullivan D.M., and Stevens R.G. Managing Salt-affectedSoilS for Crop Production. USA. 2007. p. 11.

bu yerda

$M = sho'r yuvishning umumiy me'yori, m^3/ga;$

$\Pi = tupoqning hisobiy qatlaming nam sig'imi yoki shu namlikka to'g'ri keladigan suv miqdori, m^3/ga;$

$M = sho'r yuvish arafasida tupoqning nam zahirasi yoki shu namlikka teng keladigan suv miqdori, m^3/ga,$

$S = tupoqning hisobiy qatlamidan yuvilishi kerak bo'lgan xlor miqdori, kg/ga;$

$K = suvning sho'r yuvish imkoniyatini ko'rsatuvchi koefitsiyent (xlor bo'yicha), kg/m^3;$

$n = sho'r yuvishdan ekin ekkunga qadar suvning bug'lanishga sarfi, m^3/ga;$

$A = shu davrda tushadigan yog'in miqdori, m^3/ga.$

Tupoqning hisobiy qatlam nam sig'imi ( $\Pi$ ), sho'r yuvish oldida tupoqning nam zahirasi (m) va hisobiy qatlamdag'i yuvilishi kerak bo'lgan tuzning miqdori (S) ni hisoblashda hisobiy qatlam qaliligi har xil tupoq sharoitlari uchun turlicha belgilanadi. Jumladan, suv ko'taruvchanlik xususiyati kam bo'lgan Farg'ona vodiysining shaxiqiy rayoniardagi mexanik tarkibiga ko'ra og'ir tupoqlar uchun 0,7-0,8 m, o'rtacha bo'lgan suglinik tupoqlar uchun - 0,8-1,0 m va Mirzachuldagi suv kutaruvchanlik xususiyati katta bo'lgan mikrostrukturali tupoqlar uchun 1,0-1,3 m qilib belgilanadi. Sho'r yuvishning umumiy me'yorini hisoblash uchun dastlab tupoqning hisobiy qatlam nam sig'imi, shu qatlamdag'i namlik va tuzning miqdori alohida hisoblab chiqiladi. So'ngra A.E.Nerozin formulasidan foydalaniib sho'r yuvishning umumiy ri me'yori hisoblab chiqiladi.

Tupoqning hisobiy qatlamida mavjud nam sig'imiaga teng keladigan suv miqdori ( $m^3/ga$ ) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Pi = 100 \cdot h \cdot d \cdot \lambda_{max}, \quad (1)$$

bu yerda  $h$  - hisobiy qatlam, m;

$d$  - tupoqning hajm jg'rligi, t/m<sup>3</sup>;

$\lambda_{max}$  - tupoqning dala nam sig'imi, og'irlilikka nisbatan %.

Sho'r yuvish oldidagi tupoqning nam zahirasi yoki shu namlikka to'g'ri keladigan suv miqdori qo'yidagicha aniqlanadi:

$$M = 100 \cdot h \cdot d \cdot \lambda, \quad (2)$$

bu yerda  $\lambda$  - sho'r yuvish oldidagi tupoq namligi, og'irlilikka nisbatan, %.

77-jadvalda d,  $\lambda_{\max}$  va  $\lambda$  larning qiyatlari ko'rsatilgan.

77-jadval

**Mirzachulning ayrim tuproqlari uchun d,  $\lambda_{\max}$  va  $\lambda$  larning qiyatlari**

Sizot suvlarning joylanish chiqurligi (h), m	Tuproqning hajm jg'irligi, t/m <sup>3</sup>	Tuproqning dala nam sig'imi ( $\lambda_{\max}$ ) og'irlilikka nisbatan, %		Sho'r yuvish oldidagi tuproqning namligi, og'irlilikka nisbatan, %	
		Hisobiy qatlamlar, m			
0,7-1	1-1,3	0,7-1	1-1,3	0,7-1	1-1,3
<b>Og'ir tuproqlar</b>					
1,5	1,40	-	26,0	-	22,0
2,5	1,40	-	25,5	-	21,5
3,5	1,40	-	25,5	-	21,5
<b>Donador lyossimon suglinik tuproqlar</b>					
1,5	-	1,35	-	25,0	-
2,5	-	1,35	-	24,0	-
3,5	-	1,35	-	23,0	-
<b>Qurmoq va yengil suglinik tuproqlar</b>					
1,5	1,30	-	22,0	-	18,0
2,5	1,30	-	21,0	-	17,0
3,5	1,30	-	20,0	-	16,0

Tuproqda yuvilishi kerak bo'lgan xlor miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S=100 \cdot h \cdot d \cdot (z-z_1) \cdot 1000, \quad (3)$$

bu yerda  $z$  – sho'r yuvish oldidan tuproqdagagi tuz yoki xlorning miqdori, og'irlilikka nisbatan %;

$z_1$  – sho'r yuvishdan keyin tuproqda qoldirilishi mumkin bo'lgan xlor miqdori, og'irlilikka nisbatan %;

1000 – kilogramm hisobidagi xlor miqdorini tonnaga aylantirish uchun ko'paytuvchi.

Hisobiy qatlama xlor miqdori 0,40% gacha bo'lishi mumkin. Sho'r yuvilgandan so'ng uning tuproqda eng ko'p qoldirilishi mumkin bo'lgan miqdori 0,02% ga teng bo'ladi.

Suvning sho'r yuvish imkoniyatini ko'rsatuvchi koefitsiyenti (K) sizot suvlari chiqurligiga, tuproqning mexanik tarkibiga,

sho'rlanganlik darajasiga bog'liq bo'lib, uning qiymatlari 78-jadvalda keltirilgan.

78-jadval

**Suvning sho'r yuvish imkoniyatini ko'rsatuvchi koefitsiyent (K) qiymatlari**

Sizot suvlar chiqurligi, m	Sho'r yuvish oldidan tuproqdag'i xlor miqdori, %				
	0,05	0,10	0,20	0,30	0,40
Og'ir tuproqlar					
1,5	1,2	1,8	2,3	2,7	3,0
2,5	1,6	2,6	3,3	3,8	4,1
3,5	2,0	3,3	4,2	4,9	5,2
Donador lyossiimon suglinik tuproqlar					
1,5	1,9	3,2	4,0	4,4	4,5
2,5	2,2	3,9	4,9	5,6	5,7
3,5	2,5	4,5	5,8	6,7	6,9
Qumog' va yengil suglinik tuproqlar					
1,5	2,4	3,7	4,7	5,2	6,2
2,5	2,9	4,8	5,8	6,4	6,5
3,5	3,4	5,8	6,9	7,5	7,8

Sho'r yuvishdan ekin ekkunga qadar tuproqdag'i suvni bo'g'lanishga isrof bo'lishi (n) ko'p yillik o'rtacha meteorologik ma'lumotlardan olinadi va ko'p hollarda  $150\text{-}350 \text{ m}^3/\text{ga}$  ni tashkil qiladi.

Shu davrda atmosferadan tushgan yog'in miqdori (A) ham ko'p yillik o'rtacha ma'lumotlardan olinib, uning yarmi sho'r yuvish me'yorini aniqlash uchun hisobga olinadi.

**Sho'r yuvish me'yorini hisoblashga oid topshiriqlar.**

Zovurlashtirilgan sharoit uchun quyidagi ma'lumotlar asosida sho'r yuvishning umumiyy me'yorini hisoblang:

- hisobiy qatlam ( $h$ ) – 0,9 m,
- tuproqning hajm og'irligi ( $d$ ) –  $1,35 \text{ t/m}^3$ ,
- dala nam sig'imi ( $\lambda_{max}$ ) – 26,5%,
- sho'r yuvishdan oldindi tuproq namligi ( $\lambda$ ) – 22,4%,
- sho'r yuvishdan oldindi tuproqdag'i xlor miqdori ( $z$ ) – 0,30%,
- sho'r yuvishdan keyin tuproqda qolishi mumkin bo'lgan xlor miqdori ( $z_1$ ) – 0,02%,
- suvning sho'r yuvish imkoniyatini ko'rsatuvchi koeffisient (K) –  $4,2 \text{ kg/m}^3$ ,

-sho'r yuvishdan ekin ekkunga qadar tushadigan yog'in miqdori,  $(\Lambda) = 100 \text{ mm}$ ,

-usha davrda suvning bo'g'lanishga isrof bo'lishi, ( $m$ ) -  $230 \text{ m}^3/\text{ga}$ .

Yechish: Topshiriq bo'yicha tuproqning dala nam sig'imi uning 26,5% - ni tashkil etganligini hisobga olib, quyidagi formula yordamida hisobiy qatlardagi namlikka to'g'ri keladigan suv miqdori hisoblanadi

$$H = \frac{10000 \cdot h \cdot d \cdot \lambda_{\max}}{100} = 100 \cdot 0,9 \cdot 1,35 \cdot 26,5 = 3219 \text{ m}^3/\text{ga}$$

So'ngra sho'r yuvishdan oldingi tuproqdag'i suv zahirasi hisoblab chiqilidi:

$$m = 100 \cdot h \cdot d \cdot \lambda = 100 \cdot 0,9 \cdot 1,35 \cdot 22,4 = 2016 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Keyingi navbatda tuproqdan yuvilishi lozim bo'lgan xlor miqdori hisoblanadi.

$$S = 100 \cdot h \cdot d \cdot (z-z_1) = 1000 \cdot 100 \cdot 0,9 \cdot 1,35 \cdot (0,30-0,02) \cdot 1000 = 34020 \text{ kg/ga}.$$

Topshiriq bo'yicha sho'r yuvishdan ekin ekkunga qadar tushadigan atmosfera yog'lnlari ( $\Lambda$ ) 100 mm ga teng. 1 mm qalinlikdagi suv 1 ga maydonda  $10 \text{ m}^3$ ni tashkil qilganligi sababli ( $100 \cdot 10 = 1000 \text{ m}^3/\text{ga}$ ) uning miqdorini  $1000 \text{ m}^3/\text{ga}$  deb olimadi. Lekin sho'r yuvish jarayoniga bu miqdordagi suvni 50% ishtiroq etadi qolgani har xil sabablar bilan sarf bo'jadi.

$$1000 \text{ m}^3/\text{ga} - 100\%$$

$$A - 50\%$$

$$\text{Bundan } A = \frac{1000 \cdot 50}{100} = 500 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Shunday qilib,  $H$ ,  $m$ ,  $S$  larning qiymatlari hisoblab topilgandan so'ng sho'r yuvishning umumiy me'yori quyidagicha hisoblanadi:

$$M = (H + m) + (n - A) = (3219 - 2016) + \frac{34020}{4,2} + (230 - 500) = 9033 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

**Topshiriq.** 79-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, har xil sharoitlar uchun sho'r yuvishning umumiy me'yori hisoblang.

Topshiriqlarning natijalari bo'yicha suvning sho'r yuvish imkoniyatini va shursizlanish sifatini oshirish uchun agrotexnik tadbirlarni belgilang.

**Zovurlashtirilmagan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy me'yorni hisoblash.** Dalalarda yetarli zovurlar mavjud bo'lmasligi

sharoit uchun sho'r yuvish me'yorি sizot suvlar satxini kritik chuqurlikdan balandga ko'tarilishiga imkon bermaydigan miqdorda belgilanadi. Kritik chuqurlik sizot suv sathining kapillyarlar orqali ko'tarilib o'simlikning ildizi tarqalgan qismiga etadigan va tuproqni sho'rlata boshlaydigan chuqurlikdir. Tuproqqa bahorgi ishlov berish o'z vaqtida sifatlì qilib o'tkazish uchun bu chuqurlik og'ir tuproqlar uchun 1-1,1 m, donador lyosimon sugliniklar uchun 1-4,-1,5 m va qumoq, yengil suglinik tuproqlar uchun 1,2-1,3 m ga teng.

79-jadval

**Zovurlashtirilgan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy  
me'yorini hisoblash uchun ma'lumotlar**

Top-shiriq №	Hiso-biy qat-lam (h) m	Tup-roq-ning xajm mas-sasi (d), t/m	Tup-roq-ning nam sig'i-mi (λ <sub>var</sub> )	Sho'r yuvish oldi-dagi tuproq namligi (λ), %	Sho'r yuvish oldidagi xlor miqdori (z), %	Sho'r yuvish dan ke-qo'yil-gan xlor miq. % z	Suvning sho'r yuvish qobili-yati (K), kg/m	Yog'in miqdori (A) mm	Suvning bo'g'-lanish isrof bo'lish (n) m <sup>3</sup> /ga
1	1,1	1,45	27,6	23,0	0,35	0,02	2,8	120	270
2	1,4	1,40	23,6	22,5	0,36	0,03	4,5	180	320
3	1,6	1,32	20,0	19,5	0,32	0,04	3,9	170	240
4	1,8	1,42	23,0	20,5	0,27	0,02	3,7	130	260
5	1,9	1,31	24,4	20,0	0,23	0,03	2,9	165	370

Zovurlashtirilmagan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiy me'yorini I.F.Muzichik taklif etgan quyidagi formula bilan hisoblab chiqiladi:

$$M = H - m + \frac{H - H_1}{V} \cdot 10000,$$

bu yerda

$M$  – *sho'r yuvishning umumiy me'yorি, m<sup>3</sup>/ga;*

$H$  – *tuproqning dala nam sig'i-mi, tuzlarni eritish me'yorи, m<sup>3</sup>/ga;*

$m$  – *sho'r yuvishdan oldingi tuproqdagи suv zahirasi, m<sup>3</sup>/ga;*

$H_1$  – *sho'r yuvishdan oldingi sizot suvlar chuqurligi, m;*

$V$  – *sho'r yuvishdan keyin sizot suvlarning ko'tarilishi ruxsat etildigidan chuqurligi, m;*

*V - sizot suvlar ko'tarilgan balandlikni shu ko'tarilishga olib keluvchi suv qalintigiga nisbatan;*

$\frac{H-H_1}{V}$  - sizot suvlarni yo'l qo'yidagigan darajasigacha ko'tarilishi ta'minlovchi suv qalintigi, m;

10000 – tuzlarni yuvib chiqarish me'yori, m<sup>3</sup>/ga.

**Sho'r yuvish me'yorini hisoblashga oid topshiriq.**

**Topshiriq.** Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra zovurlashtirilmagan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiyligi me'yorini hisoblang.

- hisobiy qatlam (h) – 1,1 m;
- tuproqning hajmiy og'irligi (d) – 1,30 t/m<sup>3</sup>;
- tuproqning nam sig'imi ( $\lambda_{max}$ ) – 25,6%;
- sho'r yuvishdan oldingi tuproqning namligi, ( $\lambda$ ) – 18,4%;
- sho'r yuvishdan oldingi sizot suvlar chuqurligi (H) – 2,01 m;
- sho'r yuvish natijasida sizot suvlarning ko'tarilishi ruxsat etiladigan chuqurlik (H<sub>1</sub>) – 1,1 m.

-sizot suvlarini ko'tarilgan balandlikni shu ko'tarilishga olib keluvchi suv qatlarniga nisbati (V) – 6,9.

Topshiriqni ishlash tartibi zovurlashtirilgan sharoitdagi kabi olib boriladi. Dastlab, tuproqning nam sig'imi va sho'r yuvishdan oldingi namligi hisoblab chiqiladi. So'ngra I.F.Muzichik taklif etgan formula bilan sho'r yuvishning umumiyligi me'yori hisoblab chiqiladi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Zovurning vazifasi nimadan iborat?
2. Zovurlashtirilgan sharoitda sho'r yuvishning umumiyligi me'yori qaysi formula yordamida aniqlanadi?
3. Zavurlashtirilmagan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiyligi me'yori qanday hisoblab chiqiladi?

### 36-MASHG'ULOT SHO'R YUVISH REJASINI TUZISH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar fermer xo'jaliklarida sho'r yuvish rejasini tuzishni o'rganadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** Sho'r yuvish rejasini tuzishni hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar, jadvallar.

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Sho'rlangan maydonlarda sho'r yuvish rejasini tuzish fermer xo'jaligiga olingan mavjud suv miqdorida to'g'ri foydalanib, tuproq tarkibidagi sho'mi yoki tuzni sifatlari yuvish va bu jarayonga tegishli meliorativ tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish kabi muhim vazifalarni qamrab oladi.

Sho'r yuvish samaradorligi kuni miqdordagi suv sarflash yo'li bilan tuproq tarkibidan o'simliklarni o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir etadigan ko'p miqdordagi tuzni chiqarib yuborishga asoslangan. Tuproqlar sifatsiz yuvilgan yerlarida ekinlar hosildorligini 20% va hatto 50% gacha kamayishi kuzatilgan. Shu sababdan sho'rlangan yerlarni yuvishni o'z vaqtida sifatlari qilib o'tkazish tuproq unumdorligi va parvarish qilinayotgan ekinlar hosildorligini oshirishda juda katta ahamiyatga egadir.

Suv resurslaridan unumli foydalanish, sho'r yuvishni o'z vaqtida sifatlari qilib o'tkazish va mavjud mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish maqsadlarida sho'r yuvish ishlari rejalashtiriladi.

Sho'r yuvish ishlarini rejalashtirish uchun, bиринчи navbatda, har yili kuzda xo'jalik hududida maxsus tekshirish ishlari o'tkazilib, bunda sho'rlangan maydonlarning hajmi sho'rlanganlik darajasiga ko'ra aniqlanadi. Sho'r yuvish samaradorligiga sizot suvlarning joylashish chuqurligi va minerallashganlik darajasi katta ta'sir etishi sababli ularni tavsifi berilishi kerak. Tuproqdagagi tuzlarning miqdori va tarkiblarini hisobga olgan holda sho'r yuvish soni va me'yorilarini belgilanadi (80-jadval).

80-jadval

#### Sho'rlangan maydonlarning hajmi, sho'r yuvish soni va me'yorilarini

Tuproqlar	Maydoni, ga	Sho'r yuvishning unumiy me'yori, m <sup>3</sup> /ga	Sho'r yuvish soni	Sho'r yuvishning o'rtacha me'yori m <sup>3</sup> /ga
Kuchsiz sho'rlangan	15	2000	1	2000
O'rtacha sho'rlangan	7	4000	2	2000
Kuchli sho'rlangan	3	6000	3	2000
Jami:	25			

Keyingi navbatda konturlar (dalalar) bo'yicha sho'rlangan tuproqlar maydoni aniqlanib, ularning hajmi sug'oriladigan – gektar hisobida aniqlanadi. Tabiiy sho'ri yuviladigan maydon hajmini sug'oriladigan–gektar hisobida aniqlash uchun uni sho'r yuvish soniga ko'paytirish zarur. Masalan, 1 konturda hammasi bo'lib 11 ga sho'rlangan yer bo'lib, uning 7 gektari kuchsiz, 4 gektari o'rtacha sho'rlangan bo'lsin. Ularni tegishli ravishda sho'r yuvish sonlariga ko'paytirish bilan sho'ri yuviladigan maydonlar hajmini sug'oriladigan gektar hisobida aniqlanadi:  $(7 \times 1) + 4 \times 2 = 15$  sug'/ga. Shu usulda boshqa konturlar bo'yicha ham hisoblashlar o'tkazilib, jamlash yo'li bilan sho'ri yuviladigan maydonlar hajmi sug'oriladigan gektar hisobida aniqlanadi.

So'ngra sho'ri yuviladigan maydonlar dekadalar ( $o'n$  kunliklar) bo'yicha taqsimlanib chiqiladi. Sho'r yuvishni eng qulay o'tkazish muddati – bu kuz va erta qish oyalaridir (oktyabr, noyabr, dekabr). Chunki bu davrda sizot suvlar sathi eng chuqurdaga joylashgan bo'ladi. Har bir kontur bo'yicha sho'r yuvish muddatlari va dekadadagi ish hajmi umumiy yuviladigan maydonga, mehnat vositalariga va ish kuchini band emasligiga ko'ra belgilanadi.

#### 81-jadval

#### Konturlar bo'yicha sho'ri yuviladigan maydonlar hajmi (sug'oriladigan gektar hisobida)

Kon-tur №	Sho'ri yuviladi-gan may-don, ga	Shu jumladan						Sug'oriladi-gan gektar hiso-bidagi yuvila-digan maydon
		1 marta yuvila-digan (kuchsiz sho'r)	2 marta yuvila-digan (o'rtach a sho'r)	3 marta yuvila-digan (kuchli sho'r)	4 marta yuvila-digan (kuchli sho'r)	7 marta yuvila-digan (sho'r-bok)		
1	11	7x1	4x2		-	-		15
2	8	5x1	2x2	1x3	-	-		12
3	6	3x1	1x2	2x3	-	-		11
jami	25	15	7	3	-	-		38

Sho'ri yuviladigan maydonlar sharoitiga ko'ra bar kuni har bir sug'oriladigan gektarga 1-2 tadan suvchi ajratiladi. Sho'r yuvish rejasida yuviladigan maydonga qaysi sug'orish tarmog'idan suv

olmishi ham ko'satiladi. Kanallardan suvni deyarli bir xil miqdorda etkazib turish uchun sho'ri yuviladigan maydonlar hajmi dekadalar bo'yicha iloji boricha teng taqsimlanishi kerak (82-jadval).

Sho'r yuvishni sho'rhok, kuchli sho'rlangan yerlardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

82-jadval

### Konturlar bo'yicha sho'r yuvish ishlari rejasি

Sug'o-rish tarmog'i	Kontur- lar soni	Sho'ri yuviladigan maydon, sug'/ga	Sug'oriladigan/ga hisobida yuvish kerak			
			1-10.X	11-20.XI	21-30.XI	I-10.XII
R-1	1	15	-	8	7	-
R-1	2	12	-	7	5	-
R-2	3	11	-	-	6	5
Jami:		38	-	15	18	5

Sho'r yuvish ishlari rejalashtirilgandan so'ng konturlar bo'yicha sho'ri yuviladigan maydonlarga sug'orish tarmoqlardan suv taqsimlash rejasি tuziladi (83-jadval).

83-jadval

### Konturlar, sug'orish tarmoqlari va fermier xo'jaligi bo'yicha sho'ri yuviladigan maydonlarga suv taqsimlash rejasি

Sug'o-rish tarmog'i	Tarmoq-ning f.i.k.	Kontur soni	Suv taqsimlash miqdori, l/s (fermierlar uchun Q <sub>neto</sub> , kanallar uchun Q <sub>brutto</sub> )			
			1-10.XI	11-20.XI	21-30.XI	I-10.XII
R-1	0,81	1	-	18,5/22,8	16,7/20,0	-
R-1	0,81	2	-	16,7/20,0	11,6/14,2	-
R-1	0,81	3	-	-	13,9/17,1	11,6/14,2
$Q_{neto}$			-	35,2	42,2	11,6
$Q_{brutto}$			-	42,8	51,3	14,2

Buning uchun sug'orish gidromoduli ( $q_{neto}$ ) aniqlanadi. Sug'orish gidromoduli 1 ga maydonga 1 sekundda beriladigan litr hisobidagi suv sarfidir. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:  $q_{neto} = \frac{m}{t \cdot 86,4}$ ,

Agar sho'r yuvish me'yori (m) 2000 m<sup>3</sup>/ga va davomiyligi (t) 10 kun bo'lsa, sug'orish gidromoduli quyidagiga teng:

$$q_{w,t} = \frac{m}{t \cdot 86,4} = \frac{2000}{10 \cdot 86,4} = 2,31 \text{ l/s/ga.}$$

bu yerda 1000 m<sup>3</sup>/ga hisobidagi sho'r yuvish me'yorini l/ga aylantirish uchun ko'paytuvchi;

86400 - 1 sekundagi sekundlar soni.

Shunday qilib, har gektar maydonga 10 kun davomida 2000 m<sup>3</sup> suv berish uchun ko'rsatilgan davr mobaynida har gektar maydonga sekundiga 2,31 litrdan suv oqib turish kerak. Bu yerda sug'orish kanallidan suvni filtratsiyaga ko'plab isrof bo'lishni ham inobatga olish kerak. Agar, suv isrofgarchiligi 19% bo'lsa, kanalning foydali ish koefitsiyenti ( $\Phi$ .И.К.)  $\eta=0,81$  ga teng. Suvning isrofgarchiligini ham hisobga olgan holdagi sug'orish gidromoduli ( $q_{br}$ ) qo'yidagicha aniqlanadi:

$$q_{br} = \frac{q_w}{\eta} = \frac{2,31}{0,81} = 2,85 \text{ l/c.ga}$$

Tarmoqni boshidagi suv miqdorini hisoblab ( $Q_{brutto}$ ) chiqish uchun uning f.i.k. ham hisobga olish kerak:

$$Q_{brutto} = 2,85 \times 8 = 22,8 \text{ l/ga}$$

Masalan, 1-konturda noyabning 2 dekadasida 8 sug'/ga maydon yuvilishi kerak bo'lsa, R-1 kanal orqali shu dalaga mazkur dekada davomida har sekuudda 18,5 litrdan (2,31 x 8) suv berasib turish kerak.

Xo'jalik bo'yicha sho'r yuvishga talab qilinayotgan umumiy suv miqdori m<sup>3</sup> hisobda quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{neto} = S_{sug'/ga} \cdot n = 38 \cdot 2000 = 76000 \text{ m}^3;$$

$$Q_{br} = \frac{S_1 \cdot m}{\eta_{p-1}} + \frac{S_2 \cdot m}{\eta_{p-2}} + \frac{S_3 \cdot m}{\eta_{p-3}} = \frac{38 \cdot 2000}{0,81} + 00000 \quad 00000 = 93827,1 \text{ m}^3$$

bu yerda  $S_1$ ,  $S_2$  va  $S_3$  - 1,2 va 3 kanallarning foydali ish koefitsiyentlari.

**Topsbiriq:** 84-jadval ma'lumotlarga ko'ra sho'r yuvish ishlarini rejalashtiring.

84-jadval

## Sho'r yuvish ishlarini rejalashtirishga oid ma'lumotlar

Sug'o-orish tarmo-g'i	Kanal-nning f.i.k.	Dala-soni	Sho'rlangan maydonlar bajmi, ga	Kuchsiz sho'rlangan (1 marta yuviladi)	O'rtacha sho'rlangan (2 marta yuviladi)	Kuchli sho'rlangan (3 marta yuviladi)	Sho'r-hok (6 marta yuviladi)	Sho'r yuvish-ning o'rtacha me'yori
1-masala								
R-1	0,79	1,3	56	27	18	-	1800	
R-2	0,82	4	19	21	9	-	1800	
R-3	0,75		34	26	13	-	1800	
2-masala								
R-2	0,83	2	36	24	15	-	2000	
R-3	0,76	3	41	27	13	-	2000	
3-masala								
R-1	0,82	1	32	16	5	-	2000	
R-2	0,89	2	28	18	8	-	2000	
R-3	0,85	3	-	-	2	16	2000	

## Nazorat uchun savollar:

1. Nima uchun sho'r yuvish ishlarining rejasি tuziladi?
2. Reja tuzishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Reja tuzishdan oldin dalada qanday ishlar amalga oshiriladi?
4. Sug'orish gidromoduli nima?
5. Sug'oriladigan gektar deganda nima tushuniladi?

## 37-MASHG'ULOT

SIZOT SUVLARNI BUG'LANISHIGA SARFLANISHINI  
ANIQLASH

1. ISHNING MAQSADI: Bu mashg'ulotda talabalar sizot suvlarni bug'lanishiga sarflanishini aniqlashni o'rGANADILAR.
2. KERAKLI MA'LUMOTLAR: *Sizot suvlarni bug'lanishiga sarflanishini aniqlashni hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar, jadvallar.*
3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI: Tuproqning ustki qismining qo'yosh nurlari ta'sirida qizib ketishi unda suv bug'lanishi jarayonni tezlashtiradi. Tuproq qancha isib ketsa suvning bug'lanishi

shunchali jadallahadi. Suv bug'lanish jarayonida tuproqning ustki qatlamida tuzlar to'planishi ko'chayib, tuproqlarning shorlanish jarayonni tezlashtiradi. Melioratsiya jihatidan tuproq sirtidan suv bug'lanishini kamaytirish muhim hisoblanadi. Ana shu o'rinda dalalarni ekinlar bilan doimo band bo'lishiga alohida etibor berish kerak bo'ladi. Amaliy jihatdan sizot suvlarning bug'lanishga sarfi muntazam kuzatib borilishi va uni kamaytirish tadbiclarini ishlab chiqish kerak.

Sug'orishda berilgan va sizot suvlarning sarflanish miqdorlari tuproqning suv-fizik xususiyatlariغا va sizot suvlar joylashgan chuqurligiga ko'ra turlicha bo'ladi.

Farg'ona vodiysining og'ir mexanik tarkibli tuproqlari kuchsiz, Mirzacho'lning donador mikrostrukturali tuproqlari kuchli suv ko'taruvchanlik xususiyatiga ega, o'rtacha sug'liliklar esa oraliq holatni egallaydi. Sizot suvlarning bug'lanishga sarfi ularning joylashgan chuqurligiga bog'liq. Masalan, sizot suvlarini 1 m chuqurlikda joylashgan yerlarda tuproqdagi umumiy suvning 64-86,5% i 2 m chuqurlikda joylashgan bo'lsa - 27,7-45,7 va 3 m chuqurlikda joylashgan bo'lsa 4,9-7,3% i bug'lanishga sarf bo'ladi. Minerallashgan suvlarning kapillyarlar orqali hisobiy qatlamga ko'tarilishi shu qatlamida tuzlarning mavsumda to'planishiga katta ta'sir etadi. Tuzlarning mavsumda to'planishi qishloq xo'jalik ckinlari hosildorligiga salbiy ta'sir etadi va shu sababdan sizot suvlami bug'lnishga isrof bo'lish sathini bilish sug'oriladigan yerlarda bu salbiy hodisani oldini olishda muhim ahamiyatga egadir. Sizot suvlarning bug'lanishi bilan bog'liq bo'lgan ana shunday salbiy jarayonlarni hisobga olib uni bug'lanishga sarfini o'rganib borish maqsadga muvosfiqdir.

Sizot suvlarning bug'lanishga sarflanishi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$E = E_0 \cdot \left(1 - \frac{h}{h_1}\right)$$

bu yerda  $E$  - sizot suvlarning bug'lanish miqdori, mm/yil;

$E_0$  - suv sathidan bo'ladigan bug'lanish, mm/yil;

$h$  - sizot suvlarni joylashish chuqurligi, m;

$h_1$  - sizot suvlarning tuproq betiga ko'tarilish va bug'lanishga sarfi to'xtaydigan chuqurlik, m.

**Topshiriq.** Quyidagi ma'lumotlarga ko'ra sizot suvlarning tuproqdan bug'lanish qiymatini aniqlang:

- suv sathidan yil davomida bo'ladigan bug'lanish – 1120 mm;
- sizot suvlarning bug'lanishga sarfi to'xtaydigan chuqurlik – 2,6 m;
- sizot suvlarning joylashgan chuqurligi – 1,8 m.

**Yechish.** Sizot suvlarni bug'lanishga sarfi ularning joylashish chuqurligiga va tuproqning kapillyarlik xususiyatiga bog'liq bo'lib, ma'lum bir chuqurlikda ularning tuproq betigacha ko'tarilishi va bug'lanishga sarfi mutlaqo to'xtaydi. Bundan ko'rinish turbdiki, sizot suvlari sati yer betiga qanchalik yaqin joylashgan bo'lsa, shunchalik ko'p suv bug'lanishga sarflanadi.

Agar sizot suvlar sati tuproq betigacha ko'tarilgan bo'lsa ularning bug'lanishga sarfini odatdag'i suv yuzasidan bug'lanish sathiga teng deb qabul qilish mumkin. Sizot suvlarning joylashish chuqurligini ortishi bilan bug'lanish sati kamayib boradi.

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra sizot suvlarni bug'lanishga sarfi quyidagiga tengdir:

$$E = 1120 \cdot \left(1 - \frac{1,8}{2,6}\right) = 347,0 \text{ mm/yil}$$

1 mm qalinlikdagi suv 1 gektarda 10 m<sup>3</sup> ni tashkil qilganligi sababli, sizot suvlarni bug'lanishga sarfi quyidagiteng bo'ldi ( $10 \times 347 = 3470 \text{ m}^3/\text{ga}$ ).

**Topshiriq.** 85-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha sizot suvlarni bo'g'lanishga sarfini aniqlang.

85-jadval

**Sizot suvlarni bug'lanishga sarfini aniqlashga doir ma'lumotlar**

Masala №	Suv sathidan bo'ladigan bug'lanish ( $E_s$ ), mm/yil	Sizot suvlar chuqurligi ( $h$ ), m	Suvni bug'lanishga sarfi to'xtaydigan chuqurlik ( $h_1$ ) m
1	1250	1,70	2,6
2	1370	1,50	2,8
3	1100	1,40	3,0

**Nazorat uchun savollar:**

1. Sizot suvlarini bug'lanishi deganda nimani tushunasiz?
2. Sizot suvlarning bug'lanishini qanday zarari bor?

3. Sizot suvlarining bug'lanishi sarfini qaysi formula yordamida aniqlanadi?

### 38-MASHG'ULOT DOIMIY CHUQUR ZOVURLAR ORASIDAGI MASOFANI HISOBLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar doimiy chuqur zovurlar orasidagi masofani tuproqning mexanik tarkibiga ko'ra aniqlaydilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Doimiy chuqur zovurlar orasidagi masofani hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Zovurlarning asosiy vazifasi sizot suvlarini rejimini yaxshilash maqsadida tuproqning ostki qatlamlaridagi ortiqcha suvlarini territoriyadan tashqariga chiqarib tashlashdan iborat bo'lib, bu jarayon ko'p holatda ular orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi. Zovurlar orasidagi masofa tuproq - gruntning suv-fizik xossasiga, uning chuqurligiga, zovur oqimining berilgan o'lchamiga (modulga), tuzlarning tarkibi va sathiga hamda yuvilish jadallagiga qarab belgilanadi. Tuproqlarning ushbu xususiyatdan kelib chiqib zovurlar orasidagi masofa aniqlanadi. Demak, sho'rlangan tuproqlar sharoitda zovurlar orasidagi masofani hisoblash va shu asosda ekin dalalarida zovurlar tizimini yaratish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Yuqoridaqlardan kelib chiqib zovurlar orasidagi masofani belgilashda zovur oqimi moduli qiymatini – (vaqt birligida bir hektar maydonдан bo'ladigan suv oqimi  $l/s$ ) – hisobga olish kerak bo'ladi. Zovur oqimi modulining yillik o'rtacha sathi og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda 0,15, o'rtacha mexanik tarkibli tuproqlarda – 0,20 va yengil mexanik tarkibli tuproqlarda 0,25  $l/s$ . ga ni tashkil etadi. Sho'r yuvish davrida bu ko'rsatkich esa 0,50-0,85  $l/s$  gektargacha ortadi. Sho'rlangan yerlarida zovurlar chuqurligi 2-3 m bo'lganda ular orasidagi masofa juda og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda 100-150 m, og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda 150-200, o'rtacha mexanik tarkibli tuproqlarda – 200-250, yengil mexanik tarkibli tuproqlarda – 300-400 m qilib belgilanadi.

Doimiy chuqur zovurlar orasidagi masofani hisoblab chiqish uchun dastlab zovur oqimining moduli quyidagi formula yordamida

hisoblab chiqiladi. Chunki, zovur oqimining moduli qiymatiga qarab ular orasidagi masofa aniqlanadi.

$$q = \frac{1000 \cdot \Sigma W}{86400 \cdot T \cdot F} = \frac{\Sigma W}{86,4 \cdot T \cdot F},$$

bu yerda  $q$  – zovur oqimi moduli, l/s. ga;

$1000 - m^3$  ni l ga aylantirish uchun ko'paytuvchi;

$F$  – zovurlashtirilayotgan dala maydoni. ga;

$T$  – zovur oqimining davom etish muddati, sutka.

Zovur oqimi moduli aniqlangandan keyin sho'rlangan tuproqlar sharoitida zovurlar orasidagi masofani T.N.Priobrajenskiy formulasi yordamida hisoblanadi:

$$L = A \cdot \sqrt{K},$$

bu yerda  $L$  – zovurlar orasidagi masofa, m;

$A$  – zovur oqimining berilgan o'lchami (moduli), filtrasiya koeffitsiyenti va suv to'sar qatlamning chuqurligiga bog'liq bo'lgan ko'paytuvchi;

$K$  – tuproqning filtrasiya koeffitsiyenti, m/sut.

86-jadval

### Suv to'sar qatlamning turlicha chuqurlikda joylashuviga ko'ra zovur oqimining berilgan o'lchamining qiymatlari

Suv to'sar qatlam	Zovur oqimining moduli, l/s ga		
	0,20-0,25	0,10-0,20	0,075-0,10
Chinqr	180	240	300
Yaqin	90	120	150

**Topshiriq:** Zovurning chuqurligi 2,5-3,0 m., zovurlashtirilayotgan dalaning umumiy maydoni – 14 ga; bir yil davomida (365 kun) zovurdan chiqib ketishi kerak bo'lgan suv sathi (zovur oqimi) 70664 m<sup>3</sup>; tuproqning filtrasiya koeffitsiyenti – 0,9 m/sut; zovur oqimining moduli va ular orasidagi masofani hisoblab chiqing (86-jadval).

Yechish. Daladan chiqib ketishi kerak bo'lgan umumiy suv sathi  $\Sigma W$  (70664 m<sup>3</sup>) va zovurlashtiriladigan dalaning maydoniga (14 ga) asoslanib, zovur oqimi modulini kerak bo'lgan qiymati aniqladi. Zovur oqimining davom etish muddati 1 yil (365 kun) va 1 kundagi sekundalar soni 86400 ekanligi sababli uning sathi qo'yidagicha hisoblanadi:

$$q = \frac{70664}{86,4 \cdot 365 \cdot 14} = 0,167 \text{ l/s}$$

86-jadvalga muvofiq, zovur oqimi moduli 0,16 l/s ga va suv to'sar qatlam chuqur bo'lganda A ming qiymatini 240 deb olinadi. Tuproqning filtratsiya koeffitsiyenti 0,9 m/sut bo'lsa chuqur zovurlar orasidagi masofa quyidagicha hisoblanadi:

$$L = A \cdot \sqrt{K} = 240 \cdot \sqrt{0,9 \cdot 240 \cdot 0,95} = 228 \approx 230 \text{ m}$$

**Topishirq:** 87-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, chuqur zovurlar (2,5-3,0 m) o'rtasidagi masofani hisoblang.

87-jadval

**Chuqur zovurlar orasidagi masofalarni aniqlashga oid  
ma'lumotlar.**

Masala nomeri	Zovurlashtiriladi an maydon, ga	Zovur oqimining umumiy miqdori, m <sup>3</sup>	Tuproqning filtrasiya koeffitsienti, m/sut	Suv to'sar qatlamining joytanishi	Zovur oqiminining moduli, l/s, ga	Zovurlar orasidagi masofa, m
1	10	85500	2,4	chuqur		
2	22	96750	0,6	yaqin		
3	16	80250	1,2	chuqur		
4	20	96300	1,5	chuqur		
5	25	110200	1,6	yaqin		

**Nazorat uchun savollar:**

1. Zovur oqimi moduli nima?
2. Zovur oqimi miqdori qaysi vaqtida ko'p bo'ladidi?
3. Zovurlar orasidagi masofa qaysi formula yordamida aniqlanadi?
4. Zovur oqimining moduli qaysi formula yordamida aniqlanadi?

### 39-MASHG'ULOT ZOVURLARNING O'RТАЧА CHUQURLIGINI ANIQLASH

**1.ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar zovurlarning boshidagi va oxiridagi chuqurligidan kelib chiqib o'rтacha chuqurligini aniqlashni o'rganadilar.

**2.KERAKLI MA'LUMOTLAR:** Zovurlarning o'rtacha chuqurligini hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.

**3.ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Zovur sizot suvlari rejimini yaxshilash va tuproq-grundagi ortiqcha suvlarni olib chiqib ketish uchun qurilgan gidrotexnik inshoat. Zovurning yaxshi ishlashi, ya'ni zovur oqimi modulining talabga javob berishi uning chuqurligiga va nishabligiga bog'liq bo'ladi. Zovurning loyqa bosib to'lib qolmasligi uchun unda suvning oqish tezligi sekundiga 0,25-0,40 metrdan, zovurning nishabligi esa 0,001-0,002 dan kam bo'lmasligi kerak. Aksincha, zovurning chuqurligi va nishabligi loyiha talabiga javob bermasa uni tczda loyqa bosadi va suvning oqib chiqib ketishi sckinlashadi. Bu hol zovur yonlarini upirilib ketishiga, gruntlarda suffoziya boshlanishiga ya'ni zovur qiyaliklarining buzilishiga sabab bo'ladi.

Sho'rangan va sho'rلانishga moyil yetlarida zovurlarning chuqurligiga qo'yilgan talab minerallashgan ortiqcha sizot suvlarni oqib chiqib ketishini va sizot suvlari sathini kritik chuqurlikda ushlab turishni ta'minlashi kerak. Zovurlarning chuqurligi sizot suvlarning kritik chuqurligi, tuproqning mexanik tarkibi, sho'rланish darajasi va uning minerallashganligiga ko'ra belgilanib, esidan sug'oriladigan sho'rangan yerlarda aksariyat hollarda 2,0-2,5 metrn, ba'zan esa 3,0 metrn tashqil qiladi.

Ochiq gorizontal zovurlarning chuqurligi, orasidagi masofa va nishabligi joyning shart-sharoitini hisobga olgan holda loyihalashdirildi. Barcha hollarda gorizontal zovurning loyihadagi chuqurligi uning uzunligi bo'yicha o'itasidagi chuqurlikdir. Shunga asoslanib gorizontal zovurning boshidagi chuqurligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$H_b = H_i - \frac{L \cdot i}{2};$$

zovurning oxiridagi chuqurligi:

$$H_o = H_i + \frac{L \cdot i}{2};$$

bu yerda  $H_b$  – zovurning boshidagi chuqurlik, m;

$H_o$  – zovurning oxiridagi chuqurligi, m;

$H_i$  – zovurning loyihadagi chuqurligi, m;

$L$  – zovurning uzunligi, m;

◦  $i$  – zovurning nishabligi.

**Topshiriq:** Zovurning o'rtacha chuqurligi 2,8 m, uzunligi 540 m va nishabi 0,0030 ga teng bo'lsa, uning boshidagi va oxiridagi chuqurliklarini aniqlang.

Yechish. Zovurning boshidagi chuqurligi:

$$H_b = H_1 - \frac{L \cdot i}{2} = 2,4 - \frac{540 \cdot 0,0030}{2} = 1,59m;$$

oxiridagi chuqurligi:

$$H_o = H_1 + \frac{L \cdot i}{2} = 2,4 + \frac{540 \cdot 0,0030}{2} = 3,21m;$$

**Topshiriq:** 88-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, zovurning boshi va oxiridagi chuqurliklarini hisoblang.

### 88-jadval

Zovurning boshi va oxiridagi chuqurligini aniqlash uchun uning o'rtacha chuqurligi, uzunligi va nishabligi

Masa-la №	Zovurning o'rtacha chuqurligi m	Zovur uzunligi, m	Zovur nishabligi	Zovurning boshidagi chuqurligi, m	Zovurning oxiridagi chuqurligi, m	Izoh
1	2,7	520	0,0025	1,7	3,1	
2	3,2	440	0,0015			
3	3,4	470	0,0026			
4	4,2	450	0,0036			
5	3,0	570	0,0022			
6	3,7	500	0,0038			

### Nazorat uchun savollar:

1. Zovurlarni loyqa bosmasligi uchun chuqurligi qancha bo'ladidi?
2. Zovurlarning boshlang'ich chuqurligi va oxirgi chuqurligi qanday formula yordamida aniqlanadi?
3. Zovurlarning o'rtacha chuqurligi nima?

## 40-MASHG'ULOT ZOVUR OQIMI MODULINI ANIQLASH

**1.ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar 1 ga dan chiqib ketgan oqim miqdori va zovur oqimi modulini aniqlashni o'rnatadilar.

**2.KERAKLI MA'LUMOTLAR:** Zovur oqimi modulini hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.

**3.ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Hozirgi davrda Respublikamizda sho'rlangan yerlar sug'oriladigan maydonlarning 60-65% tashkil etib, ular yetarli darajada zovurlashtirilgan. Zovurlarning umumiy uzunligi 120 ming km dan ortiq va har bir hektar sho'rlangan yerga uning solishtirma uzunligi 45-50 m tashkil qiladi.

Zovurlar sho'rlangan sug'oriladigan yerlarida sizot suvlari rejimini va tuproqning suv-tuz rejimini tartibga solishning aktiv vositasi hisoblanadi. Zovurlarning samaradorligi ular orqali chiqib ketayotgan suv va undagi tuzlar miqdoriga ko'ra baholanadi.

Zovur oqimi moduli deganda sho'ri yuvilayotgan maydonning har gektaridan sekundiga chiqib ketayotgan suv miqdori ( $l/s$  ga) tushuniladi. Sug'orilayotgan sho'rlangan va sho'rlanishga moyil bo'lgan yerlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha zovur oqimi modulining o'rtacha yillik qiymatlari quyidagichadir: og'ir mexanik tuproqlar uchun - 0,15; o'rtacha mexanik tuproqlar uchun - 0,20 va yengil mexanik tuproqlar uchun - 0,25  $l/s$  ga. Sho'ri yuvish davrida zovur oqimi moduli ancha oshadi va 0,50-0,85  $l/s$  ga bo'lishi mumkin. Zahi qochirilayotgan botqoqlashgan yerlarida zovur oqimi moduli 1,5-2,5  $l/s$  ga gacha ortadi.

Sho'rlangan tuproqlar sharoitida zovurlar faoliyati samaradorligini aniqlash va baholash uchun zovur oqimi modulini bilish zarur bo'ladi. Zovur oqimi modulini topishi uchun bir gektardan oqib chiqib ketgan suvning miqdori hisoblanadi. Dastlab umumiyligi oqim miqdori hisoblab chiqiladi va u quyidagi formula yordamida topiladi.

$$W = \Sigma W \cdot F$$

bu yerda  $W$  - 1 ga dan chiqib ketgan oqim miqdori,  $m^3/ga$ ;

$\Sigma W$  - zovur oqimi,  $m^3$ .

$F$  - sho'ri yuviladigan dala,  $ga$ .

Daladan chiqib ketayotgan umumiyligi oqim miqdori hisoblab chiqilgandan keyin zovur oqimi moduli quyidagiformula yordamida aniqlanadi.

$$q = \frac{W}{36,4 \cdot T}$$

bu yerda  $W$  - bir gektardan chiqib ketayotgan oqim miqdori,  $m^3/ga$ ;

$T$  - kuzatish davomiyligi, kun.

\*Topshiriq. Quyidagi ma'lumotlar bo'yicha zovur oqimi moduli aniqlansin: Sho'ri yuviladigan dala maydoni - 20 ga; kuzatishlarning davom etish muddati - 205 kun; shu davridagi zovur oqimi - 44600  $m^3$ .

**Yechish:** Zovur oqimi  $44600 \text{ m}^3$  ni, sho'ri yuviladigan dala maydon esa 20 gektarni tashkil etishi sababli 205 kun davomida har gektardagi umumiy oqim quyidagichani tashkil etadi:

$$W = \Sigma W \cdot F = 44600 : 20 = 2230 \text{ m}^3/\text{ga}$$

**Topshiriq bo'yicha zovur oqimini kuzatish muddati 205 kunligini hisobga olib zovur oqimi modulni quyidagiga teng bo'ladi.**

$$q = \frac{2230}{86,4 \cdot 205} = 0,13 \text{ l/s ga}$$

**Topshiriq:** 89-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha zovur oqimi modulini aniqlang va zovur faoliyatini yaxshilash choralarini belgilang.

89-jadval

**Zovur oqimi modulini ( $q$ ) aniqlash uchun ma'lumotlar**

Masala №	Uchastka maydoni, ga	Kuzatish muddati (t), sutka	Jami oqim ( $\Sigma W$ ), $\text{m}^3$	Zovur oqini moduli qiymati ( $q$ ), l/s ga	Izoh
1	16	185	48600	0,19	
2	12	180	25600		
3	16	340	58800		
4	18	170	39640		
5	20	360	49600		
6	24	250	66800		

**Nazorat uchun savollar:**

1. Zovur oqimi modulini aniqlashning nima ahamiyati bor?
2. Sho'r yuvish davrida zovur oqimi modulining qiymati qancha bo'ladi?
3. Botqoq erlarda zovur oqimi moduli qancha bo'ladi?

## 41-MASHG'ULOT SIZOT SUVLARNING YILLIK OQIMINI ANIQLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar sizot suvlarning yillik oqimini aniqlashni o'rjanadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** Sizot suvlarning yillik oqimini aniqlashni hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Sug'oriladigan sho'r-langan yerlarida sizot suvlari sathini kritik chuqurlikdan (kritik

chuqurlik – tuproqlarni sho'rlanish va botqoqlanishiga olib keladigan chuqurlik) yuqoriga ko'tarilib ketishi ularning meliorativ holatini yomonlashtiradi. Agar sizot suvlari sho'rlangan bo'lsa tuproqlar sho'rlanadi, aksincha, sizot suvlari yer sathiga yaqin bo'lib chuchuk bo'lsa tuproqlar botqoqlanadi. Shu o'rinda sizot suvlarning sathini ko'tarilib ketishini oldini olish tadbirlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bunga ularni dalalardan doimiy holda chiqarib yuborish orqali erishiladi. Tuproqdan tuzlarni ortiqcha miqdorini chiqarib yuborishda zovurlarning yillik oqimini tartibga solish orqali erishiladi.

Minerallashgan sizot suvlari yetarli darajada oqib ketmaydigan sharoitlarda, odatda, tuproqning meliorativ holati yomonlashadi va ikkilamchi sho'rlanish aloinatlari paydo bo'ladi. Demak, sug'oriladigan sho'rlangan yerlarida tuproqdan tuzlarning ortiqcha miqdorini chiqarib ta'shilashni tuproq unumdarligini va qishloq xo'jalik chkinlarini hosildorligini oshirishni ta'minlaydigan zovur oqimini yillik qiymatini aniqlash muhimdir.

O'zlashtiriladigan sho'rlangan yerlarida sizot suvlarning yillik oqimini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Buning uchun tuproqqa tushadigan atmosfera yog'inlarini, sug'orish tarmoqlaridan tuproqqa shimalib ketgan suvning miqdorini, transpirasiya sarfi va boshqalarni hisobga olib boriladi hamda zovur oqimining qiymatlarini berilganlar asosida quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\Delta p = (Os + Op + \Phi_k + \Pi + P) - (B + Tp + O)$$

bu yerda

$\Delta p$  – zovur oqimi,  $m^3/ga$ ;

$Os$  – tuproqqa tushadigan atmosfera yog'inlarini,  $m^3/ga$ ;

$Op$  – sho'r yuvish va mavsumiy sug'orishlar hisobiga 1 ga ekin maydonga beriladigan suvning miqdori (netto),  $m^3/ga$ ;

$\Phi_k$  – sug'orish tarmoqlardan suvning filtrasiyaga isrof bo'lishi,  $m^3/ga$ ;

$\Pi$  – yer osti suvlarning kelib turish miqdori,  $m^3/ga$ ;

$P$  – sizot suvlarning oqib kelishi,  $m^3/ga$ ;

$B$  – tuproqdan bug'lanishga suv sarfi,  $m^3/ga$ ;

$Tp$  – o'simliklar transpirasiyasi uchun suv sarfi,  $m^3/ga$ ;

$O$  – sizot suvlarning tuproq ostidan oqib ketishi,  $m^3/ga$ .

Sizot suvlarning yillik oqimini aniqlash jarayonida sho'r yuvish va mavsumiy sug'orishlar hisobiga ekin maydoniga beriladigan suvning miqdori, yer osti suvlarning kelib turish miqdori, tuproq

sirtidan bug'lanishga suv sarfi va sizot suvlarning tuproq ostidan oqib ketish miqdorlari berilgan bo'lib, ammo tuproqqa yil davomida tushadigan yog'ingarchilik miqdori, sug'orish tarmoqlaridan suvning isrof bo'lishi va o'simliklar tomonidan transpirasiyaga sarf bo'lgan suvning miqdorini hisoblab chiqish kerak bo'ladi.

Bir yildagi atmosfera yog'inlari qiymatini ( $Os$ ) yog'ingarchiliklar yig'indisi uchun yog'in suvlarini tuproqqa sing'ish qismini hisobga oluvchi koefitsiyentga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi va u quyidagicha analga oshiriladi:

$$Os = \frac{\Sigma Os \cdot K_f}{100}$$

bu yerda  $\Sigma Os$  – yog'ingarchiliklar yig'indisi, mm;

$K_f$  – yog'in suvlaridan foydalanish koefitsiyenti.

Bir mm suv qatlami 1 gektarda  $10 \text{ m}^3$  ni tashkil etishini hisobga olsak, tuproqqa singuvchi suv miqdori shunga asosan hisobga olinadi.

Sug'orish tarmoqlaridan suvning filtratsiyaga sarflanish qiymatini quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqarish mumkin:

$$\Phi_K = \frac{1-\eta}{\eta} \cdot Op,$$

bu yerda  $Op$  – sug'orish me'yori (netto),  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;

$\eta$  – sug'orish kanallarining foydali ish koefitsiyenti.

So'ngra o'simliklar orqali transpiratsiyaga sarf bo'lgan suvning miqdori hisoblab chiqiladi. Odatda sug'orish jarayonida suvning transpiratsiyaga sarfi 70-75% tashkil qilib, 25-30% suv bevosita tuproq ustidan bug'lanish yo'li bilan yo'qoladi. Shundan kelib chiqib, transpiratsiyaga sarf bo'lgan suvning qiymatini qo'yidagicha hisbolab topiladi.

Tuproq sathidan bug'langan suv – 25%

$x$  – 75%

Topshiriq. Zovur oqimini yillik qiymatini aniqlang: bir yilda yog'adigan atmosfera yog'indisi ( $Os$ ) – 200 mm; tuproqni namiqtirishda ulardan foydalanish koefisienti ( $K_f$ ) – 70; sho'r yuvishda va mavsumiy sug'orishlarda 1 ga maydonga beriladigan suv ( $Op$  netto) –  $8100 \text{ m}^3/\text{ga}$ ; xo'jalik sug'orish sistemasining foydali ish koefitsiyenti – 0,76; sizot suvlarning oqib kelishi ( $P$ ) –  $2005 \text{ m}^3/\text{ga}$ ; yer osti suvlarning kelib turishi ( $II$ ) –  $2200 \text{ m}^3/\text{ga}$ ; tuproqdan bug'lanishga suv sarfi ( $E$ ) –  $1950 \text{ m}^3/\text{ga}$ ; jami suv sarfidan o'simliklar

transpiratsiyasi satii ( $T_p$ ) – 78 %; suvning tuproq ostidan boshqa dalalarga oqib ketishi ( $O$ ) –  $1520 \text{ m}^3/\text{ga}$ .

Yechish: Topshiriq bo'yicha dastlab tuproqqa tushadigan atmosfera yog'inlar miqdori hisoblab chiqiladi. Hisoblash quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Os = \frac{\sum Os \cdot Kf}{100} = \frac{200 \cdot 70}{100} = 140,0 \text{ mm}$$

Bir mm suv qatlami 1 hektarida  $10 \text{ m}^3$  ni tashkil etishini hisobga olsak, tuproqqa singuvchi suv miqdori shunga asosan hisobga olinadi  $140,0 \times 10 = 1400 \text{ m}^3/\text{ga}$ .

Endi sug'orish tarmog'idan suvning filtrasiyaga sarfini hisoblab chiqiladi va u qo'yidagicha aniqlanadi.

$$\Phi k = \frac{1-\eta}{\eta} \cdot Or = \frac{1-0,76 \cdot 8100}{0,76} = 2558 \text{ m}^3/\text{ga}$$

Topshiriq bo'yicha transpirasiyaga sarf bo'lgan suvning qiymati qo'yidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{\text{Tuproq satididan bug'langan suv } \times 75}{25} = \frac{1820 \times 75}{25} = 5460 \text{ m}^3/\text{ga}$$

Olingan qiymatlarni formulaga qo'yib, zovurlarning yillik oqimi aniqlanadi:

$$\Delta p = (1152 + 7800 + 2463 + 2100 + 1800) -$$

$$-(1820 + 5460 + 1410) = 15315 - 8690 = 6625 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

**Topshiriq.** 90-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha o'zlashtirilayotgan sho'rlangan uchastkaning yillik zovur oqimini aniqlang va ular natijasida tuproqlar meliorativ abvoliga baho berling hamda uni yaxshilash choralarini belgilang.

90-jadval

### Zovur oqimi modulini aniqlashga doir ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Masala №						
	1	2	3	4	5	6	7
Atmosfera yog'indari (Os), mm	86	120	140	220	290	160	180
Yog'in suvlaridan foydalanish koeffitsiyenti (Ko)	0,52	0,62	0,56	0,70	0,65	0,72	0,6
Mavsumiy sug'orish me'yori (Or), $\text{m}^3/\text{ga}$	11600	10200	9860	9800	9900	8100	7800

Xo'jalik sistemasining Φ.H.K. (pq)	sug'orish	0,92	0,88	0,92	0,76	0,72	0,87	
Yer osti suvlarning kelib turishi (F), m <sup>3</sup> /ga	1800	2200	2200	1900	2400	1700		
Sizot suvlarning oqib kelishi (R), m <sup>3</sup> /ga	960	1800	1200	1500	1600	800	1800	
Suvni tuproqdan bug'la- nishga isrof bo'lishi (I), m <sup>3</sup> /ga	2560	2000	2640	2300	1780	2100	1820	
Umumiy suv sarfidan transpiratsiya sathi (Tr), %	75	74	76	68	70	75	74	
Sizot suvlarni boshqa uchastkalarga oqib ketishi (O) m <sup>3</sup> /ga	1760	1480	1480	1100	1460	1200	1410	
Zovurlarning yillik oqimi (Dr0, m <sup>3</sup> /ga)								6905

#### Nazorat uchun savollar:

1. Sizot suvlarning yillik oqimi nima?
2. Sizot suvlar daladan yetarli oqib chiqib ketmagan holda qanday jarayon kuzatiladi?
3. Amaliy mashg'ulot darsida sizot suvlarning yillik oqimi qanday tartibda aniqlanadi?

### 42-MASHG'ULOT TUPROQ TARKIBIDAGI TUZ BALANSINI ANIQLASH

1. **ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproq tarkibidagi tuz balansini aniqlashni o'r ganadilar.
2. **KERAKLI MA'LUMOTLARI:** Tuproq tarkibidagi tuz balansini aniqlashni hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.
3. **ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Ma'lumki, tuproq tarkibidagi zararli tuzlar o'simliklarning o'sish va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tuproqda zararli tuzlarning miqdori uni quriq vazinga nisbatan 0,3% dan ortib ketishi hisobiga sho'rланish jarayoni kelib chiqadi. Agar shu vaqtida tuproq yuvilib tuzlar chiqarib yuborilmasa uning miqdori ortib boradi. Tuproqda tuz to'planishda bu bitta omil hisoblanadi. Ana shu o'rinda tuproq tarkibidagi tuzlarni to'planish sabablarni o'r ganish kerak bo'ladi. Tuzlar tuproqda turli xil yo'llar bilan to'planadi. Tuzlarni tuproqqa kelib tushishi va chiqishi

orasida ma'lum bir bog'liklik, yani balans (-) bo'lsa, tuproqlarda tuz ko'p to'planib qolmaydi, aksincha, balans (+) bo'lsa tuz yig'ilishi jadallahadi. Shuni hisobga olib, tuproqning aktiv qatlAMDagi tuz miqdorini balans davr davomida aniqlab borish talab qilinadi.

Sug'oriladigan yerlarida tuproq aktiv qatlAMining tuz balansiga asosan sizot suvlarning chuqurligi va minerallashganlik darajasi ta'sir etadi. Tuz balansini aniqlash uchun tuproqdag'i tuzlarning boshlang'ich miqdorini, shu vaqt ichida tuzlarning qo'shilishi va kamayishini bilish kerak. Agar tuzlarning kirimi (qo'shilishi) ularning chiqimi (sarfi)dan ortiq bo'lsa, bu yerlarning meliorativ holatini yomonlashuviga olib keladi. Qayd etib o'tilganidek, tuzlarning tuproqning aktiv qatlAMida to'planishi sizot suvlarning joylashish chuqurligiga, minerallashganligiga va ularning bug'lanishga sarflanishiga qarab belgilanadi.

Tuproq aktiv qatlAMining tuz balansini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta S = \Sigma S_1 - \Sigma S_2 = (S_s + S_{ss} + S_{ug}) - (S_{yu} + S_{zr} + S_{hs}),$$

bu yerda

$\Delta S$  – N qatlAMda tuz miqdorini o'zgarishi (ortish yoki kamayishi), t/ga;

$\Sigma S_1$  – o'rGANILAYOTGAN davrida shu qatlAMga tuzlarning kelishi (kirimi), t/ga;

$\Sigma S_2$  – shu davrda tuzlarning kamayishi, t/ga;

$S_s$  – sug'orish suvi bilan tuzlarning kelib tushishi, t/ga;

$S_{ss}$  – sizot suvlar bilan tuzlarning kelib to'planishi, t/ga;

$S_{ug}$  – o'g'itlar bilan tuzlarning kelib tushishi, t/ga;

$S_{yu}$  – tuproqning chuqur qatlamlariغا tuzlarning yuvilib ketishi, t/ga;

$S_{zr}$  – zovur suvi bilan tuzlarning olib chiqib ketishi, t/ga;

$S_{hs}$  – hosil bilan tuzlarning olib chiqib ketishi, t/ga.

Tuproqning aktiv qatlAMdagi yillik tuz balansini aniqlash uchun dastlab balans davr davomida tuproqga tuzlarning kelib tushish sabablari o'rGANILADI.

Dastlab sug'orishlar natijasida tuproqda tuzlarning to'planishi miqdorini, mavsumiy sug'orish me'yorini va suvdagi tuzlar miqdori aniqlanadi hamda u quyidagi formula yordamida amalgalashiriladi.

$$S_s = M_n \cdot T_{ss}$$

bu yerda  $M_n$  – sug'orish me'yori, m<sup>3</sup>/ga;

$T_{ss}$  – sug’orish suvdagi tuz miqdori, g/l;

So’ngra sizot suvlari bilan tuzlarning kelib to’planish miqdorini ( $S_{ss}$ ) sizot suvlarning bug’lanishga sarflanishi va uning minerallashganlik darajasiga ko’ra hisoblab chiqariladi.

$$S_{ss} = B_s \cdot T_{ss}$$

bu yerda  $B_s$  – sizot suvning bug’lanish sarfi,  $m^3/ga$ .

$T_{ss}$  – sizot va zovur suvdagi tuz miqdori, g.

Zovur oqimining miqdori va sizot suvning mineralashish darajasi berilgan bo’lganda zovur suvlari bilan tuzlarning chiqib ketishi ( $S_{zr}$ ) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S_{zr} = 3_0 \cdot T_{zr}$$

bu yerda  $3_0$  – zovur oqimi  $m^3/ga$

$T_{zr}$  – sizot va zovur suvdagi tuz miqdori

Tuproqning chuqur qatlamlariga tuzlarning yuvilib ketish miqdori ( $Syu$ ) zovur suvlari bilan tuzlarning chiqib ketishi miqdorini 30%ni tashkil etishini inobatga olsak u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S_{yu} = \frac{S_{ss} \cdot 30}{100} t/ga \text{ bo’ladi.}$$

Demak, tuzlarning umumiy kirimi ( $\Sigma S_1$ ) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Sigma S_1 = S_{ss} + S_{ss} + S_{yu}$$

va chiqim qismi esa:

$$\Sigma S_2 = S_{yu} + S_{zr} + S_{hs}$$

Kirim va chiqim (sarfi) qismalari o’tasidagi farq bo’yicha tuproqning yillik tuz balansi ( $\Delta S$ ) qo’yidagicha hisoblanadi:

$$\Delta S = \Sigma S_1 - \Sigma S_2 t/ga.$$

Tuzlar miqdori (t/ga) o’zgarishi (qo’shilishi yoki kamayishi)ni quruq tuproq og’irligiga nisbatan protsentlarga o’tkazish quyidagi formula bo’yicha amalga oshiriladi:

$$\Delta S \% = \frac{\Delta S}{100 \cdot h \cdot d}$$

bu yerda  $h$  – tuproqning hisobiy qatlam qalinligi, m;

$d$  – tuproqning hajmiy og’irligi,  $t/m^3$ .

Topshiriq. Quyidagi ma’lumotlarga asoslanib, tuproqning tuz balansini aniqlang:

-hisobiy qatlami – 1,7 m,

-tuproqning hajmi og’irligii, – 1,5  $t/m^3$ ,

-sug’orish me’yori – 5100  $m^3/ga$ ,

- sug'orish suvidagi tuzlar sathi – 1,3 g/l,
- sizot suvlarning bug'lanishi – 3900 m<sup>3</sup>/ga,
- zovur oqimi – 3100 m<sup>3</sup>/ga,
- sizot va zovur suvidagi tuzlar sathi – 3,6 g/l,
- o'simlik qoldiqlari va o'g'itlar bilan tuzlarning kelib tushishi – 1,9 t/ga,
- tuproqning chuqur qatlamlariga tuzlarning yuvilib ketishi – zovurlar orqali chiqarib yuboriladigan tuzlarning 30% sathida;
- hosil bilan tuzlarning olib chiqib ketilishi – 2,5 t/ga.

Yechish. Sug'orish suvi bilan tuproqqa tuzlarning kelib tushishi miqdorini ( $S_s$ ) mavsumiy sug'orish me'yori va sug'orish suvidagi tuzlarning miqdori bo'yicha aniqlanadi. Agar sug'orish me'yori 5100 m<sup>3</sup>/ga, 1 l suvdagi tuzlarning miqdori – 1,3 g bo'lsa, unda:

$$S_s = 5100 \cdot 0,0013 = 6,6 \text{ t/ga.}$$

Agar sizot suvlarning bug'lanishga sarflanishi 3900 m<sup>3</sup>/ga ni tashkil etsa, 1 l sizot suvda tuzlar sathi 3,6 g bo'lsa, unda tuzlarning to'planishi ( $S_{ss}$ ) quyidagini tashkil etadi:

$$S_{ss} = 3900 \cdot 0,0036 = 14,0 \text{ t/ga.}$$

Zovur suvlari bilan tuzlarni chiqib ketishi miqdori qo'yidagiga teng

$$S_z = 3100 \cdot 0,0036 = 11,6 \text{ t/ga}$$

Tuproqning chuqur qatlamlariga tuzlarning yuvilib ketishi quyidagi tenglik bo'yicha hisoblanadi

$$S_{yz} = \frac{11,6 \cdot 30}{100} = 3,48 \text{ t/ga bo'ladi.}$$

Ana shu hisoblashlardan keyin tuzlarning umumiy kirim qismini hisoblanadi.

$$\Sigma S_1 = 6,6 + 14,0 + 1,9 = 22,5 \text{ t/ga}$$

Va nihoyat chiqim qismi qo'yidagiga teng bo'ladi.

$$\Sigma S_2 = 3,48 + 11,6 + 285 = 17,58 \text{ t/ga}$$

O'rtadagi farq bo'yicha tuproqning yillik tuz balansi o'zgarishi hisoblanadi.

$$\Delta S = \Sigma S_1 - \Sigma S_2 = 22,5 - 17,58 = 4,92 \text{ t/ga.}$$

Tuzlar miqdorini o'zgarishi - kamayishi va ko'payishi quriq tuproq og'irligi nisbatan prosentlarga o'tkazish qo'yidagicha amalga oshiriladi

$$\Delta S\% = \frac{\Delta S}{100 \cdot h \cdot d} = \frac{4,92}{100 \cdot 1,7 \cdot 1,5} = 0,020\%,$$

Tegishli hisoblashlar natijasida tuproqda tuzning to'planishi kuzatilmogda. Bu kelgusida yerlarning meliorativ holatini yomonlasbuvga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tegishli meliorativ tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarur.

**Topshiriq.** 91-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, tuproqning yillik tuz balansini ( $t/ga$  va % hisobida) aniqlang va uning natijalari bo'yicha tuproqqa meliorativ jihatdan baho bering hamda uni yaxshilash choralarini belgilang.

91-jadval

**Tuproqning yillik tuz balansini aniqlash uchun ma'lumotlar**

Masala №	Hisobiy qatlami m	Tuproqning haj-miy massasi $m^3/m^3$	Tuzlarning hoshlang'ich miqdori	Mavs. sug'orish me'yoris, $m^3/ga$	Suvdag'i tuz miqdori g/l	Bug'lanişiga sizot suv sarfi $m^3/ga$	Sizot suv dag'i tuz miqdori g/l	O'qit va o'simlik qoldig'idan tushadiqant tuz $t/ga$	Zovur oqimi $m^3/ga$	Zovur suv dag'i tuz miqdori $t/ga$	Chuquq qatlamlarga tuzning yuvilib ketishi %	Tuz balansi		
												g	t	%
1	1,4	1,5	-	4500	1,2	3700	3,5	1,8	3000	3,5	30	2,0	3,95	0,019
2	1,6	1,36	1,5	4600	1,3	3500	3,4	3,4	3200	3,8	21	2,4		
3	1,2	1,32	1,2	5200	0,8	3100	4,4	4,2	2800	4,2	16	3,7		
4	2,0	1,5	0,8	4800	1,6	3500	2,8	2,6	4200	3,1	28	4,5		
5	1,8	1,46	1,3	660	1,8	3600	2,8	4,8	3600	5,3	32	4,2		
6	2,6	1,38	1,22	5200	2,8	3900	6,4	3,2	4400	7,8	31	3,1		
7	1,5	1,42	1,8	5600	0,6	3600	3,9	4,2	4200	5,3	26	2,5		

**Nazorat uchun savollar:**

1. Tuz balansi deganda nimani tushunasiz?
2. Uni hisoblashning qanday ahamiyati bor?
3. Balans davri nima?

4. Balans musbat yoki manfiy bo'lsa tuproqda qanday jarayon kechadi?

#### 43-MASHG'ULOT

### ZOVURLI VA ZOVURSIZ SHAROITLARDA SIZOT SUVLAR SATHINING KO'TARILISHINI HISOBBLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar zovurli va zovursiz sharoitlarda sizot suvlari sathining ko'tarilishini hisoblashni o'rganadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTLAR:** *Zovurli va zovursiz sharoitlarda sizot suvlari sathining ko'tarilishini hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Sizot suvlarning joylashtishi chuqurligi va ularning tarkibi tuproqlarning meliorativ holatiga (sho'rланish va botqoqlanish) ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Har bir meliorativ rayonda uning sathini o'zgarishi nazorat qilib turlishi kerak. Albatta nazorat qilib tegishli xulosa chiqarish uchun ma'lum bir hisoblashlar olib borish kerak bo'ladi. Ana shu o'rinda sizot suvlarni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarga e'tibor qaratish zarur. Jumladan, sug'oriladigan yerlarda sug'orish tarmoqlarining yetarli darajada talabga javob bermasligi tutayli ko'p miqdorda suvlari tuproqlarning ostki qatla-miga shimalib sarf bo'lmoqda. Qaysiki bu jarayon sizot suvlariiga qo'shilib, ularning sathini ko'tarilishiga va tuproqlarning meliorativ holatini yomonlashuviga olib kelmoqda. Sho'rlangan sizot suvlarning yer sathiga yaqin joylashnvi natijasida ular kapillyarlar orqali yuqoriga ko'tariladi, bug'lanib hisobiyl qatlama ko'p miqdorda tuz to'planishiga sabab bo'ladi. Chuchuk va kam sho'rlangan sizot suvlarni tuproq yuzasiga yaqin joylashganligi o'simliklarning suvgaga bo'lgan ehtiyojini qondirishda ma'lum darajada abaniyatga ega. Masalan, bunday sizot suvlari 1 m gacha chuqurlikda joylashgan bo'lsa, o'simliklarning suvgaga bo'lgan ehtiyojini 60-65% gacha, 1-2 metrgacha joylashgan bo'lsa - 35-40% gacha, 2-3 metrgacha bo'lsa - 10-15% gacha ta'minlaydi va 3-3,5 m dan chuqurda joylashgan bo'lsa, o'simliklar amalda undan foydalana olmaydi.

Sho'rlangan sizot suvlari konsentratsiyasining 4-5 g/l va undan oshib ketishi ularning sathining kritik chuqurlikdan yuqoriga ko'tarib tuproqlarning sho'rланish jarayonini tezlatadi, unumdorligini

pasaytiradi va yerlarni yaroqsiz holatga olib keladi. Shu sababdan sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida sizot suvlari sathining ko'tarilishiga alohida e'tibor berish kerak.

1.-Topshiriq. Quyidagi ma'lumotlar asosida sizot suvlari sathini ko'tarilishini hisoblang:

- sizot suvlari chuqurligi – 2,1 m;
- tuproqning to'liq dala nam sig'imi – 22,4%;
- sug'orish oldidan tuproq namligi – 18,2%;
- tuproqning hajm massasi – 1,36 t/m<sup>3</sup>;
- tuproqning umumiyy g'ovakliligi – 46,7%;
- novegetasiya davrdagi yog'ingarchilik miqdori – 168 mm;
- yog'in suvlarining tuproqqa singish koeffitsiyenti – 0,60;
- sho'r yuvish va ekishdan oldindi sug'orish me'yorlari – 2400 m<sup>3</sup>/ga,
- sug'orish tarmoqlarida suvning filtratsiyaga sarf bo'lishi – 920 m<sup>3</sup>/ga;
- novegetasiya davrida suvning bug'lanishiga sarf bo'lishi – 1100 m<sup>3</sup>/ga.

*Yechish:* Sizot suvlari sathi odatda tuproqning to'liq dala nam sig' imigacha namlangandan so'ng yuqoriga ko'tarila boshlaydi, ya'ni tuproqqa ortiqcha tushgan suv sizot suvlarga qo'shiladi. Shuni hisobga olgan holda tuproqqa tushgan umumiyy suv miqdorini (yog'in miqdori, sho'r yuvishda, ekishdan oldindi sug'orishda, sug'orish tarmoqlarda filtrasiya bo'lishda) aniqlash kerak. Tuproqqa tushgan suvning umumiyy yoki kirim qismi quyidagi tartibda hisoblanadi.

Topshiriqning shartiga ko'ra, novegetasiya davrida 168 mm yoki 1680 m<sup>3</sup>/ga (1 mm qalnlikdagi suv bir gektar maydonda 10 m<sup>3</sup>/ga teng) yog'in tushgan va uning tuproq tomonidan o'zlashtirilish koeffitsiyenti 0,60 teng. Yog'in hisobiga tuproqda to'plangan suv miqdori quyidagi tenglik orqali hisoblanadi.

$$\begin{aligned}100\% - 1680 \text{ m}^3/\text{ga} \\60\% - x \\x = \frac{1680 \times 60}{100} = 1008 \text{ m}^3/\text{ga}\end{aligned}$$

Demak, yog'ingarchilik hisobiga tuproqqa 1008 m<sup>3</sup>/ga suv tushgan.

Sho'r yuvish va ekishdan oldindi sug'orish evaziga gektariga 2400 m<sup>3</sup> hamda sug'orish tarmoqlardan tuproqning ostki qatlamlariga

shimilishi tufayli  $920 \text{ m}^3$  suv tushgan. Bunda umumiy suvning kirim qismi  $1008+2400+920=4328 \text{ m}^3/\text{ga}$  bo'ladi.

Endi tuproqning to'liq dala nam sig'imigacha namiqtirish uchun sarflanadigan hamda sizot suvlar sathini ko'tarilashiga olib keluvchi suv sarfi aniqlanadi.

Dastlab tuproqning to'liq dala nam sig'imi va amaldagi namligi orasidagi farq hisoblab chiqiladi. Bu ko'rsatkich qo'yidagiga  $22,4-18,2=4,2\%$  teng. Demak, shu namlik farqiga ( $4,2\%$ ) teng keladigan suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$W=100 \cdot h \cdot d \cdot (V_{d.n.s.}-V_{a.n.}), \text{m}^3/\text{ga}$$

bu yerda  $h$  – hisobiy chuqurlik, m;

$d$  – tuproqning hajmiy og'irligi, t/m<sup>3</sup>;

$V_{d.n.s.}$  – tuproqning dala nam sig'imi, %;

$V_{a.n.}$  – amaldagi namligi, %.

$$W=100 \cdot h \cdot d \cdot (V_{d.n.s.}-V_{a.n.})=100 \cdot 2,1 \cdot 1,36 \cdot (22,4-18,2)=1199 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Suvning tuproq sathidan bug'langan miqdori  $1100 \text{ m}^3/\text{ga}$  ekanligini inobatiga olsak, sizot suvlar ko'tarilishida ishtirok etmaydigan miqdori ikkalasining yig'indisiga teng bo'ladi:  $1199+1100=2299 \text{ m}^3/\text{ga}$ .

Sizot suvlar sathini ko'tarilishga olib keluvchi suv miqdori kirim va chiqim qismi farqiga teng bo'ladi:

$$\Delta W=4328-2299=2029 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Sizot suvlar sathining ko'tarilish balandligi  $\Delta h=W/6$  formula bo'yicha hisoblanadi, m;

Bu yerda:  $\Delta h$  – sizot suv sathining ko'tarilish balandligi, m;

$W$  – sizot suv ko'tarilishga olib keluvchi suv miqdori, m<sup>3</sup>/ga;

$6$  – tuproq hajmiga nisbatan erkin g'ovakligi, %.

Tuproqning erkin g'ovakligi uning umumiy g'ovakligi va chegaraviy dala nam sig'imi (hajmga nisbatan hisoblangan:  $22,4+1,36=30,4$ ) orasidagi farqqa tengdir:  $46,7-30,4=16,7\%$ .

Demak, sizot suvlar hisobiy davr oxirida:

$$\Delta h = \frac{2029}{16,7} = 121,4 \text{ sm ga ko'tarilar ekan.}$$

Shu ma'lumotlar asosida ekin ekish arafasida sizot suvlar sathining joylashish chuqurligi hisoblab chiqiladi va u quyidagi formlula yordamida amalga oshiriladi:

$$H_i=H_0-\Delta h$$

bu yerda  $H_i$  - ekish arafasida sizot suvlari sathining joylashish chuqurligi, sm;

$H_o$  - sizot suvlarning daslabki hisobiy davr boshidagi chuqurligi, sm;

$\Delta h$ -sizot suvlarning hisobiy davr oxiridagi chuqurligi, sm.

$$H_i = H_o - \Delta h = 210 - 121,4 = 88,6 \text{ sm} = 87 \text{ m.}$$

92-jadval

Sizot suv sathini ko'tarilishini hisoblashga doir ma'umotlar

Ko'rsatkichlar	masala					
	Zovursiz			Zovurli		
	1	2	3	4	5	6
Sizot suvlarni boshlang'ich chuqurligi, m	2,2	2,3	2,6	3,4	3,0	2,5
Tuproqning chegaraviy dala nami siq'imi, og'irlikka nisbatan %	23,2	18,5	19,0	21,0	21,5	18,0
Novegetatsion davrdagi namligi, og'irlikka nisbatan %	20,6	14,4	18,5	21,6	20,3	19,3
Tuproqning hajmiy massasi, t/m <sup>3</sup>	1,32	1,30	1,40	1,45	1,30	1,34
Tuproqning umumiylig'i ovakligi, hajmiga nisbatan %	45	50	49	44	47	46
Novegetatsion davrdagi yog'in, mm	190	152	161	174	132	114
Yog'in suvlaringin singish koeffitsienti	0,60	0,67	0,63	0,66	0,62	0,70
Sho'r yuvish va ekish oldidan sug'orish me'vori, m <sup>3</sup> /ga	2730	215 0	2420	2740	3300	2960
Kanallardan suvning filtratsiya bo'lishi, m <sup>3</sup> /ga	800	850	750	840	910	1050
Novegetatsion davrda suvning bug'lanishdan isrof bo'lishi, m <sup>3</sup> /ga	1000	122 0	1150	1060	1350	1200
Novegetatsion davr, snt.	-	-	-	152	144	136
Zovui oqimi modulli, l/s. ga	-	-	-	0,09	0,12	0,10

Nazorat uchun savollar:

1. Sizot suvlaringin sathi deganda nimani tushunasiz?
2. Sizot suvlaringin ko'tarilishini qanday abamiyati bor?
3. Qanday sharoitlarda sizot suvlaming sathi ko'tariladi va aksincha?

4. Sizot suvlarining sathini ko'tarilishini hisoblashda nimalarga e'tibor berish kerak?

## 44-MASHG'ULOT

### TUPROQ VA SIZOT SUVLAR ORASIDA BO'LADIGAN YILLIK SUV ALMASHINISHNI HISOBLASH

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar tuproq va sizot suvlar orasida bo'ladijan yillik suv almashinishni hisoblashni o'rghanadilar.

**2. KERAKLI MA'LUMOTJIAP:** *Tuproq va sizot suvlar orasida bo'ladijan yillik suv almashinishni hisoblashga tegishli ma'lumotlar va formulalar.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Tuproq g'ovakkliklari orqali sizot suvlarni pastdan yuqoriga harakati natijasida tuproq ma'lum darajada namlik bilan ta'minlanadi. Sizot suvlari yaqin va sho'rланмаган bo'lgan sharoitda bu jarayon orqali tuproq namiga to'yinsa aksincha, sizot suvlari sho'rланган bo'lsa tuproqlarning sho'rланish alomatlari ko'zatilib, uning meliorativ holati yomonlashadi. Shu jihatdan ushbu jarayonni o'rganib hisobga olib borish muhim hisoblanadi.

O'simliklarni suv bilan ta'minlashda asosiy manba tuproq namligi hisoblanadi. Tuproq namligi yog'in suvlari, havo nainligini yutilishi (kondensatsiya bo'lishi), sug'orishlarda beriladigan va sizot suvlarni tuproq kapillyarları orqali kelib turishi natijasida shakllanadi. Tuproqdagi namlik o'simlik qabul qila oladigan va qabul qila olmaydigan shakllarda mavjud bo'ladi.

O'simlik qabul qila oladigan suv miqdori tuproqning mexanik tarkibiga uning nam sig'imiga, o'simlik ildizimining so'rish kuchiga bog'liq bo'ladi. Suv tuproqda kechadigan barcha jarayon (biokimyoviy, kimyo, mikrobiologik va boshqa)larga kuchli ta'sir etadi. Shu sababdan, tuproq va sizot suvlar orasidagi suv almashinishni, uni o'simlikni suv bilan ta'minlashga va sug'orish rejimiga ta'sirini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ega.

Tuproq va sizot suvlar orasidagi suv almashinishi tuproqqa kelib tushuvchi (atmosfera yog'lnari, sug'orishda beriladigan suv) va sarflanuvchi (bug'lanish, transpiratsiya) miqdorlarga bog'liq bo'lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Delta W = (E_e + M) - (E + T_s),$$

bu yerda  $\Delta W$  – tuproqdag'i suv miqdorini yil davomida o'zgarishi,  $m^3/ga$ ;

$E_e$  – tuproqqa tushadigan atmosfera yog'inlari,  $m^3/ga$ ;

$E$  – suvni tuproq sathidan bug'lanish sarfi,  $m^3/ga$ ;

$T_s$  – suvni transpiratsiyaga sarfi,  $m^3/ga$ ;

$M$  – mavsumiy sug'orish me'yori,  $m^3/ga$ .

Ma'lunki, yog'in suvlarini hammasi tuproqda nam shakllanishida ishtirok etmaydi (qayta bug'lanish, boshqa dalalarga oqib chiqib ketadi) balki uni bir qismigina ishtirok etadi, shu sababdan bu yerda: yog'in suvlarini tuproqqa sing'ish koefisientini hisobga olish kerak:

$$E_e = a \cdot E,$$

*Bu yerda: a – yog'in suvlarini tuproqqa sing'ish koefisienti:*

$E$  – tushgan umumiy yog'in miqdori,  $mm/yil$ .

1 mm qalinlikdagi suv 1 ga maydonda  $10 m^3$  ga teng bo'lishini hisobga olib, formulaga quyidagi tuzatish kiritiladi

$$E_e = 10 \cdot a \cdot E, m^3/ga.$$

**Topshiriq.** Quyidagi ma'lumotlarga asoslanib, tuproq va sizot suvlar orasida bo'ladigan suv almashinishini hisoblang:

- atmosfera yog'inlari ( $E$ ) – 342 mm/yil;

- yog'in suvlarini sing'ish koefisienti ( $a$ ) – 0,72;

- yil boshida tuproqdag'i suvning miqdori ( $W_n$ ) –  $5100 m^3/ga$ ;

- mavsumiy sug'orish me'yori ( $M$ ) –  $6240 m^3/ga$ ;

- tuproqning dala nam sig'imi yoki shunga tug'ri keladigan suv miqdori

- ( $W_{d-n-s}$ ) –  $6400 m^3/ga$ ;

- mavsum davomida suvni transpiratsiyaga sarfi ( $T_s$ ) –  $4420 m^3/ga$ ;

- tuproqda suv bug'lanishi ( $E$ ) – jami sarfning 26%;

- tuproqni suv berish koefitsiyenti – hajmga nisbatan 14%.

**Yechish:** Birinchi navbatda atmosferadan tuproqqa tushadigan yog'in miqdori hisoblab chiqiladi.

$$E_e = 10 \cdot a \cdot E = 10 \cdot 0,72 \cdot 342 = 2460 m^3/ga.$$

Umumiy suv sarfi transpiratsiyaga va bug'lanishiga bo'ladigan sarflardan ( $T_s+E$ ) iborat bo'lib, uni 100% deb olib, tuproqdan bug'langan suvning sarfi (26%) hisoblanadi. Demak, transpiratsiyaga sarflangan suv umumiy suv sarfni 74% ni tashkil qilsa, bug'lanishga sarf bo'lgan suvning miqdori qo'yidagicha topiladi.

4420-77%

$$x = \frac{4420 \cdot 26}{74} = 1552 \text{ m}^3 / \text{ga}$$

Endi tuproq va sizot suvlar orasida bo'ladigan yillik suv almashinishi hisoblab chiqildi.

$$\Delta W = (E_e + M) \cdot (B + T_1) = (2460 - 6240) \cdot (1552 + 4420) = 2728 \text{ m}^3 / \text{ga}.$$

Demak, tuproqda 2728 m<sup>3</sup>/ga suv to'planishi kuzatilgan. Agar, bu to'planish va yil davomidagi tuproqdagagi suv miqdori yig'indisi tuproq nam sig'imidan ko'p bo'lsa  $W_o = (W_b + W) > W_{dns}$  unda sizot suvlar sathi yil oxiriga borib ko'tariladi. Bu ko'tarilish ( $>h$ ) quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\Delta h = \frac{W_o - W_{dns}}{100 \cdot t_{14}}$$

*bu yerda  $W_b$  vegetatsiya boshida tuproqdagagi suv miqdori, m<sup>3</sup>/ga;*

*$W_o$  – vegetatsiya oxirida tuproqdagagi suv miqdori, m<sup>3</sup>/ga;*  
 *$\Delta W$  – tuproqdagagi suvning yil davomida o'zgarishi, m<sup>3</sup>/ga;*

*$W_{dns}$  – tuproqning dala nam sig'imini, m<sup>3</sup>/ga;*

*$t_{14}$  – tuproqning suv berish koefitsiyenti, %.*

Topshiriq bo'yicha yil davomida tuproqdagagi suv sarfi yig'indisi qo'yidagicha hisoblab chiqiladi

$$W_o = W_b + \Delta W = 5100 + 2728 = 7828 \text{ m}^3 / \text{ga}.$$

Tuproqning dala nam sig'imini ( $W_{dns}$ ) – 6400 m<sup>3</sup>/ga bo'lib, yil davomida tuproqdagagi suv miqdori yig'indisi dala nam sig'imidan katta bo'lsa ( $7828 = W_o > W_{dns} = 6400$ ), sizot suvlarining sathini ko'tarilishi:

$$\Delta h = \frac{7828 - 6400}{100 \cdot 14} = 1,0 \text{ m ga teng bo'ladidi.}$$

Demak, sizot suvlar sathi 1 m ga ko'tariladi. Bu esa o'z navbatida tuproqlarning meliorativ holatini yomonlashuviga olib keldi.

**Topshiriq.** 93-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha tuproqda kechadigan suv almashinishini aniqlang va uning natijalari bo'yicha tuproqning meliorativ holatiga baho'bering, yaxshilash tadbirlarini belgilang.

**Suv almashinish miqdorini hisoblash uchun ma'lumotlar**

Ko'rsatkichlar	Masalalar				
	1	2	3	4	5
Yillik yog'in miqdori, mm	186	220	240	115	206
Yog'in suvlarning singish koefitsiyenti	0,70	0,65	0,75	0,50	0,65
Tuproqning yil boshidagi suv miqdori, m <sup>3</sup> /ga	5000	5200	4960	6200	5300
Mavsumiy sug'orish me'yori, m <sup>3</sup> /ga	5600	4400	5640	6640	6480
Tuproqning dala nam sig'imi, m <sup>3</sup> /ga	6000	6430	6550	6810	6480
Suvning transpiratsiyaga sarfi, m <sup>3</sup> /ga	4200	3820	4210	3400	4320
Umumiy suv sarfidan bug'lanishga ketadigan suv miqdori, %	28	26	25	28	30
Tuproqni suv berish koefitsiyenti	14	16	15	13	17

**Nazorat uchun savollar:**

1. Sizot suvlarni qanday ahamiyati bor?
2. Tuproq va sizot suvlar orasida qanday bog'lanish bo'ladi?
3. Tuproqdagi suv miqdori qaysi omillarga bog'liq holda o'zgaradi?
4. Tuproq va sizot suvlar orasida suv almashishini kuzatib borish kerakmi?

**45-MASHG'ULOT****BARG HUJAYRA SHIRASI KONSENTRATSIYASINI ANIQLASH**

**1. ISHNING MAQSADI:** Bu mashg'ulotda talabalar barg hujayra shirasi va tuproq eritmasining konsentratsiyasini aniqlashni o'rGANADILAR.


**2. KERAKLI JIHOZLAR:** *Qo'l refrektoometri, shira sizziqch (press) 100-150 sm<sup>3</sup> li stakanchalar, barg namunalari.*

**3. ISHNING NAZARIY AHAMIYATI:** Sug'oriladigan dehqonchilik sharotida qishloq ho'jalik ekinlari hosildorligi ma'lum darajada sug'orish muddatlarini to'g'ri belgilanganligiga bog'liq bo'ladi.

Tuproqda namlik yetarli bolsa o'simlik ildizi uni oson o'zlashtiriladi, natijada barg hujayra shirasining konsentratsiyasi pasayib, unda fiziologik jarayonlar me'yordi kechadi, aksincha tuproqdagi

namlikni kamayib ketishi hisobiga uning konsentrasiyasi ortib, fiziologik jarayonlar buziladi, o'simlikda chanqash alomatlari sezildi.

Shu sababdan sug'orish muddatlarini o'simlikning fiziologik ko'rsatkichlaridan biri-barg hujayra shirasining konsentratsiyasiga ko'ra belgilash muhim hisoblanadi. Barg hujayra shirasini konsentratsiyasini aniqlash uchun tekshirish o'tkazilayotgan daladagi o'simliklardan kunning eng issiq vaqtida (soat 15<sup>00</sup>) namunalar olinadi. Namunalar o'suv nuqtasidan hisoblaganda 5-6 tartibda joylashgan barglardan kichik halqa shaklda olinib stakanchalarga joylashtiriladi va unga 2-3 tomchi toluol eritmasi tomizilib 20 minutdan keyin shira siqib olinadi. Undan bir necha tomchi qo'l refraktometrini o'chash prizmasiga tomiziladi va okulyar orqali konsentratsiya miqdori foiz hisobida aniqlanadi (74-rasm).



74-rasm. Qo'l refraktometri

Hujayra shirasini konsentratsiyasi tuproq sharoitlari, o'simlik rivojlanish fazalariga ko'ra turlicha bo'ladi. Masalan, bo'z tuproqlarda g'o'za bargi hujayra shirasini konsentratsiyasini gullash fazasigacha 8% ga etishi o'simlikni suvga kelganligidan dalolat beradi, demak, g'o'zani ushbu muddatdan kechiktirmasdan sug'orish kerak. Gullash – meva toplash fazasida bu ko'rsatkich 10% gacha, pishish fazasida esa 12-14% gacha ortishi o'simlikni sug'orish zaruratini bildiradi. Hujayra shirasini bu qiymatlari sug'orishdan oldindi tuproq namligi dala nam sig'imiga nisbatan 65-70% bo'lganda kuzatiladi.

O'tloqi tuproqlarda hujayra shirasini konsentratsiyasi sug'orishdan oldin bo'z tuproqlardan nisbatan 2-5% ko'p bo'lib, bu tuproqning dala nam sig'imiga nisbatan 70-75% namligiga to'g'ri keladi. Hujayra

shirasini konsentratsiyasini ko'rsatilgan miqdorlardan ko'tarilishiga yo'l qo'ymaslik yuqori hosil olish garovi hisoblanadi.

Demak, sug'orish muddatlarini to'g'ri belgilash uchun dala sharoitida hujayra shirasi konsentratsiyasini va tuproq eritmasi konsentratsiyasini aniqlash kerak bo'ladidi.

Tuproq eritmasi konsentratsiyasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalilanildi:

$$\lambda = \frac{S \cdot 1000}{\beta},$$

bu yerda  $\lambda$  - tuproq eritmasining konsentratsiyasi, g/l;

$S$  - tuproqdagagi tuz miqdori, g;

$\beta$  - tuproq namligi, og'irlilikka nisbatan %

**Topshiriq.** Tuproqning 0-10 sm qatlamida namlik 17,6% va xlor miqdori 0,036% bo'lsa, tuproq eritmasi konsentratsiyasini xlor-ioni bo'yicha hisoblang.

$$\lambda = \frac{0,036 \cdot 1000}{17,6} = 2,05 \text{ ga/l}$$

Demak, tuproq eritmasi konsentratsiyasi xlor ioni bo'yicha 2,05 g/l ga teng ekan.

Zarur narsalar qo'l refrekktometri, shira siqqich (press) 100-150 sm<sup>3</sup> li stakanchalar, barg namunalari.

**Topshiriq.** 94-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida har bir qatlam va umumiy hisobiy qatlam uchun tuproq eritmasi konsentratsiyalarini hisoblang.

#### 94-jadval

#### Tuproq eritmasi konsentrasiyasini aniqlash uchun ma'lumotlar

№	Tuproq qatlami, sm	Tuproq namligi va xlor miqdori, %	
		namlik	xlor
1.	0-30	19,2	0,037
	30-50	21,4	0,043
	50-80	22,6	0,049
	80-100	22,0	0,052
	100-200	22,8	0,047
	0-200	22,0	0,045

2.	0-10	16,2	0,050
	10-30	16,7	0,052
	30-50	18,4	0,061
	50-80	20,5	0,065
	80-100	21,3	0,072
	0-100	20,0	0,070
3.	0-10	16,6	0,034
	10-30	17,8	0,030
	30-50	18,5	0,027
	0-50	18,9	0,029

### Nazorat uchun savollar:

1. Barg hujayra shirasini aniqlashning qanday amaliy ahamiyati bor?
2. Qo‘l refraktometrining ishlash printsipini tushuntirib bering.
3. Barg hujayra shirasi kontsektatsiyasi qaysi omillarga bog‘liq holda o‘zgaradi?
4. Barg hujayra shirasini laboratoriya sharoitida aniqlash uchun qaysi zaruriy jihozlar kerak?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard ya oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 103 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sod Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-sod, 70-inmodda.
6. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar. Qismlar va yillar bo'yicha. – T.: 1998.
7. Azimboyev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot-moliya" 2006. – 180 b.
8. Azimboyev S.A., Axmurzayev Sh. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar. T., 2008.- 95 b.

9. Azimboyev S., Bo'riyev S., Begimkulov Ch., Allanov X. Dehqonchilik va ilmiy izlanish aseslari fanidan laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma T., 2010.-171 b.
10. Ermatov A.K. Sug'oriladigan dehqonchilik. – T.: Darslik, «O'qituvchi» 1983.
11. Zaurov E.I. Dehqonchilikdan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar. «O'qituvchi» -T., 1979.-175 b.
12. Norkulov U., Sheralev X. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi. Darslik, T., 2003. 240 bet.
13. Hamidov M., Raximboev F. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi. Darslik, T., 1996. 320 bet.
14. Holiqov B. Yangi almashlab ekish tizimlari va tuproq unumadorligi. – T.: "Noshirlik yog'dusi" nashriyoti, 2010. 120 b.
15. To'xtashev B., Azimboev S., Qarabaeva T., Berdiboev E., Nurmatov B. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi va yer tuzish fanidan amaliy va tajribaviy mashg'ulotlar. Toshkent-2012. 187 b.
16. Xoliqov B.Bo'riyev Ya.Bo'riyev T. Almashlab ekish dalalarida tuproqning agrofizik xossalari. Paxtachilikdagi dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan. Toshkent-2009.
17. Chandrasekaran B., Annadurai K., Somasundaram E., A textbook of Agronomy. New Delhi. 2010. New age International (p) Limited, Publishe.

18. Crop Rotation on Organic Farms: A Planning Manual, NRAES 177 Charles L. Mohler and Sue Ellen Johnson, editors Published by NRAES, July 2009.
19. Job and water. USA. FAO. 2011.
20. The state of the world's land and water resources for food and agriculture, Managing systems at risk. USA. FAO. 2011. p. 232.

## MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	3
-----------------	---

### I-Modul. DEHQONCHILIK

1. Tuproq agregatlarining suvga chidamliligin N.I.Savvinov usulida aniqlash.....	4
2. Ebat olib (infiltratsiya usuli) va bostirib sug'orishda struktura elementlarining chidamliligiga tuproq havo- sining ta'sirini aniqlash. (Zaurov usuli).....	12
3. Haydalma qatlam tuzilishini aniqlash.....	16
4. Tuproqning maksimal dala nam sig'imini aniqlash.....	25
5. Har xil tuproqlarning suv o'tkazuvchanligini aniqlash (Zaurov usuli).....	30
6. Tuproqning suv ko'tarish xususiyatini aniqlash (Zaurov usuli).....	33
7. Tuproqning texnologik xossalalarini aniqlash.....	36
8. Tuproqning namligini aniqlash.....	41
9. Tuproqning namligini Kabayev usulida aniqlash.....	45
10. Tekinxo'r va kam yillik begona o'tlaming ta'rifi.....	46
11. Ko'p yillik begona o'tlaming ta'rifi.....	62
12. Tuproqning begona o'tlar urug'lari bilan ifloslan- ganligini hisobga olish.....	72
13. Dalalarni begona o'tlar bilan ifloslanganligini hisobga olish va xaritalash.....	77
14. <sup>2</sup> Gerbitsidlarning solish me'yorini aniqlash.....	82

15. Yerni shudgorlash sifatini aniqlash.....	103
16. Yerni chizellash va boronalash sifatini aniqlash.....	108
17. Qishloq xo'jalik ekinlarini ekish me'yorlari va sifat ko'rsatkishlarini aniqlash.....	111
18. Qator oralariga ishlov berish sifatini aniqlash.....	116
19. Almashlab ekish.....	128

## II-Modul. MELJORATSIYA

20. Sug'orish shahobchalarini joylashtirish sxemasi va ularni suv o'tkazish qobiliyatini aniqlash.....	141
21. Ekinlarni sug'orishga berilayotgan va oqova suvlarni hisobga olish.....	151
22. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish rejimini hisoblash..	158
23. Fermer xo'jaliklarida suvdan foydalanish rejasini tuzish..	163
24. Sug'orish gidromoduh grafigini tuzish.....	169
25. Egatlاب sug'orish texnikasi elementlarini hisoblash.....	174
26. Tomchilatib sug'orish usuli elementlarini aniqlash.....	180
27. Sug'oriladigan dalaning suv balansini aniqlash.....	190
28. Minerallashgan suvning ekinlarni sug'orish uchun yaroq- liligini (xlor ioni va tuzlarning quruq qoldiq miqdori bo'yicha) aniqlash.....	194
29. Tuproq tarkibidagi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tuz miqdorini aniqlash.....	199
30. Tuproqning sho'rланish darajasini tezkor elektrokon- duktorometr usuli bilan aniqlash.....	204

31. Tuproqlarning sho'rlanganlik xarakterlar (tipi)ni aniqlash.....	208
32. Tuproqdagi suv va tuz zaxirasini aniqlash.....	211
33. Tuproq critmasi konsentrasiyasini xlor-ioni bo'yicha aniqlash.....	213
34. Tuproqlarning sho'rlanganlik darajasi, sizot suvlarning joylashgan chuqurligi va ularning minerallashganlik darajasini o'simlik qoplamiga ko'ra aniqlash.....	215
35. Zovurlashtirilgan va zovurlashtirilmagan sharoit uchun sho'r yuvishning umumiyligini hisoblash.....	222
36. Sho'r yuvish rejasini tuzish.....	229
37. Sizot suvlarni bug'lanishiga sarflanishini aniqlash.....	234
38. Doimiy chuqur zovurlar orasidagi masofani hisoblash....	237
39. Zovurlarning o'itacha chuqurligini aniqlash.....	239
40. Zovur oqimi modulini aniqlash.....	241
41. Sizot suvlarning yillik oqimini aniqlash.....	243
42. Tuproq tarkibidagi tuz balansini aniqlash.....	247
43. Zovurli va zovursiz sharoitlarda sizot suvlar sathining ko'tarilishini hisoblash.....	252
44. Tuproq va sizot suvlar orasida bo'ladijan yillik suv almashinishni hisoblash.....	256
45. Barg hujayra shirasi konsentratsiyasini aniqlash.....	259

## **QAYDLAR UCHUN**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## **QAYDLAR UCHUN**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**U.NORKULOV, SH.AXMURZAYEV, A.SAYIMBETOV**

**DEHQONCHILIK VA MELIORASIYA  
FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI  
VA AMALIY MASHG'ULOTLAR**

*O'quv qo'llanma*

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2019

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	A.Moydino
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

E-mail: [tipografiyaent@mail.ru](mailto:tipografiyaent@mail.ru) Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.

Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 20.12.2019.  
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 16,75. Nashriyot bosma tabog'i 17,0.  
Tiraji 300. Buyurtma № 275.

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.**  
**100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**